Ekologik ta’lim-tarbiya ta’lim tizimida oliy ta’limga qadar shakllantirilishi va rivojlantirilishi kerak. Yu.Ahmadaliyev o’z tadqiqotlarida maktab ta’limida ekologik ta’lim berishda sinfdan tashqari ishlarni to’g‘ri tashkil qilish muhim ekanligi haqida fikr yuritib, “Maktabdagi “Yosh o’lkashunos”, “Tabiatshunoslik,”, “Ekolog” kabi to’garaklarini tashkil etish asosida o’quvchilarning tabiatga bo’lgan qiziqishi oshadi, unga munosabati ongli ravishda oshadi, unga munosabati ongli ravishda shakllanadi va boshqa o’tiladigan o’quv fanlariga yana-da qiziqishi ortadi”, - deya takidlaydi. Shunday ekan, ekologik kompetentlik maktabgacha va maktab ta’limida shakllantirib, rivojlantirib borilsa, ko’zlangan maqsadga erishish, inson omili natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolardan ma’lum darajada xalos bo’lish mumkin.

Ekologik ong har bir insonning hayot faoliyatida ekotizimlar uning yashash makoni ekanligini anglash darajasidir. Ekologik ongli insonni har doim ham ekologik madaniyatli, deb bo’lmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash hali uni inson o’z faoliyatida tatbiq qildi, degan so’z emas. Ekologik madaniyat ekotizimlar haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo’llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko’rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hisoblanadi.

“Ekologik madaniyat” tushunchasini shaxs tomonidan nazariy va amaliy ekologik bilimlarni o’zlashtirishning yuqori darajasi deb ta’riflash mumkin. Ekologik kompetensiya shakllanganlik mezonlari, o’z navbatida, ko’rsatkichlar bilan tavsiflanadi”, U muayyan jamiyat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismidir. Insonlarning ona tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlari ularning ekologik madaniyatlarini belgilaydi.Unda tabiat bilan inson o’rtasidagi o’zaro oqilona mas’uliyatli munosabat tarkib topadi. Ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari sifatida “axloqiy ekologik onglilik”, “ekologik mas’uliyatlilik”, “ekologik irodaviylik”, “ekologik qadriyatlar”ni belgilab olish lozim.

Ekologik onglilik - “shaxsning ekotizimlarni hissiy bilishi, uning obektlari va unda kechayotgan hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, qiyoslay olishi, ziyraklik va teranlik asosida ekotizimlar muhofazasi bo’yicha amaliy ko’nikmalarga ega bo’lishi” ni anglatadi. Shaxsning bunday xususiyati tabiat bilan har qanday aloqaga kirishganda namoyon bo’lib, jarayon natijasini to’g’ri baholay olishi bilan izohlanadi.

Ekologik ta’lim-tarbiya turli darajalari va yo’nalishlarining mushtaraklashuvi, shu sohalarning “individual” manfaatlarini umuminsoniy manfaatlarga moslashtirishni ifodalaydi. Shu mazmundagi, ekologik faollik va mas’uliyatni oshirishda boshqa faoliyat shakllarining kommunikativ: a’nanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va boshqa marosimlarning tarbiyaviy rolini alohida qayd qilish lozim. Bunday ijtimoiy-amaliy hodisalar o’ziga xos ekologik mazmun kasb etadi. Ya’ni, ijtimoiy qadriyatlar majmuasi ekologiyalashgan holda, jamiyatning boshqa ustqurmaviy elementlariga ta’sir qiluvchi omilga aylanadi. Xususan, ekologik ta’lim-tarbiya - tegishli yo’nalishdagi mas’uliyatni oshirish bilan, jamiyat ichki-tashqi siyosiy jarayonlariga ta’sir ko’rsatuvchi vosita bo’lib qolmoqda. Ekologik faoliyatni tashkil qiluvchi tamoyillarni shaklantirish jarayonida muayyan nazariy bilimlarni o’zlashtirish bilan mehnatkashlarning ekologik tafakkur madaniyati, tushunchalari, xulosalari, amaliy munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy e’tiqodi, umumiy dunyoqarashi tarkib topadi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim-tarbiya majmuasi - shaxsni faol ekologik ijtimoiy-siyosiy faoliyatga tayyorlab boradi.

“Ekologik madaniyat” tushunchasini shaxs tomonidan nazariy va amaliy ekologik bilimlarni o’zlashtirishning yuqori darajasi deb ta’riflash mumkin. Ekologik kompetensiya shakllanganlik mezonlari, o’z navbatida, ko’rsatkichlar bilan tavsiflanadi”, U muayyan jamiyat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismidir. Insonlarning ona tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlari ularning ekologik madaniyatlarini belgilaydi.Unda tabiat bilan inson o’rtasidagi o’zaro oqilona mas’uliyatli munosabat tarkib topadi. Ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari sifatida “axloqiy ekologik onglilik”, “ekologik mas’uliyatlilik”, “ekologik irodaviylik”, “ekologik qadriyatlar”ni belgilab olish lozim.

Xulosa qilganda, zamonaviy ta’lim-tarbiya sharoitida ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil qilish ta’lim oluvchilarda ekologik bilim va ko’nikmalarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham ekologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondashulardan foydalanish, turli ta’sir mexanizmlarini qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik ta’lim va tarbiya elementlarini shakllantirish insoniyatning barqaror rivojlanishi va tabiat bilan uyg‘un yashashini ta’minlashning asosiy yo‘nalishidir. Bu jarayonda ta’lim muassasalari, jamiyat, davlat va har bir shaxs o‘z hissasini qo‘shishi zarur. Natijada, ekologik ongli va mas’uliyatli avlodni tarbiyalashga erishiladi. Ekologik ta’lim jamiyatning barcha qatlamlariga qaratilgan jarayon bo‘lib, u inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu nafaqat zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi, balki insoniyat kelajagini barqaror rivojlantirishning kafolatidir. Ekologik ta’lim va tarbiya insoniyatning ekologik madaniyatini oshirishda muhim vosita bo‘lib, u tabiat va jamiyat o‘rtasida barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu borada davlat, jamiyat va har bir shaxsning o‘z hissasini qo‘shishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A., Abdullayeva Q., Gaipova N., Karimova N., Qodirov M. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. - 128 b
2. Shomurotova Sh.X. Oliy ta’lim muassasalarida “Kompleks birikmalar kimyosi” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Diss. avtoref. Toshkent–2020. –45b.
3. Кулешова М.Е., Мазуров Ю.Л. Экологические функции как основа выявления ценности территорий // Уникальные территории в природном и культурном наследии регионов. М.: РНИИ культурного и природного наследия, 1994.
4. Новик, И.Р. Подготовка компетентного специалиста в системе высшего химико - педагогического образования для работы с одаренными учащимися [Текст]:моногр. / И.Р.Новик. – Н. Новгород: НГПУ, 2013. – 158 с.
5. Соболев Н.А. Региональная стратегия территориальной охраны природы // Критерии и методы формирования экологической сети природных территорий. Вып. 1. – 2-е изд. – М.: Центр охраны дикой природы СоЭС, 1999

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Umidaxon G‘ulomidinovna**, katta o‘qituvchi [**Абдуллаева Умидахон Гуломидиновна**,старший преподаватель], [**Abdullayeva Umidaxon G‘ulomidinovna** senior lecturer]; manzil: 50100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy., [адрес: 50100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19.], [address: Murabiylar str., 19, Fergana, 50100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

Original paper

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

© X.A. Abdullayeva[1]✉
[1]Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** boshlang‘ich ta’lim bosqichida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, bilimlarni tizimli va yaxlit ko‘rinishda o‘zlashtirish integrativ yondashuvning asosiy vazifasidir. Integratsiya tamoyillari o‘quvchilarda dunyoni bir butun holda tasavvur etish, mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘ra olish, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularga ijodiy yondashish kompetensiyalarini shakllantiradi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvning pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslash, integratsiyalashgan darslarning mazmuni va turlarini ochib berish hamda ularning o‘quvchilar shaxsiy va intellektual rivojiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tahlilda integratsiya va fanlararo bog‘liqlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishga doir me’yoriy hujjatlar va amaliy tajriba materiallari asos qilib olindi. Tadqiqotda kontent-tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv va integratsiyalashgan darslar namunalarini tahlil qilish usullari qo‘llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, mavzu ichidagi va fanlararo integratsiya materialni chuqurroq tushunish, oldingi bilimlarni yangi mavzular bilan mantiqiy bog‘lash va dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning nutqini, muloqot ko‘nikmalarini, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Bunday darslarni loyihalash o‘qituvchidan dars maqsadini aniq belgilash, mazmunni tanlash va turli fanlardan olingan ma’lumotlarni yagona tizimga birlashtirishni talab qiladi.

**XULOSA:** boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuv o‘quv materialining ko‘lamini kengaytirib, ta’lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarini yagona tizimga birlashtiradi. Integratsiyalashgan darslar bolalarda olamni yaxlit idrok etish, fanlararo bog‘lanishlarni anglash va kompetensiyaga asoslangan rivojlanishni ta’minlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda integrativ metodlarni o‘rgatish va ular asosida darslarni loyihalash bo‘yicha metodik tayyorgarlikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

**Kalit so‘zlar:** integrativ metod; integrativ kurs; integratsiyalashgan dars; ta’lim; model; birlashtirish; fanlararo bog‘liqlik; chegaradosh fanlar; asosiy fanlar; fan evolyutsiyasi; aniqlik; ko‘lam; ixchamlik.

**Iqtibos uchun**: Abdullayeva X.A. Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvning ahamiyati.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.24–30.

## ВАЖНОСТЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Х.А. Абдуллаева[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях модернизации образования обеспечение межпредметных связей и формирование целостной картины мира у младших школьников становятся ключевыми задачами интегративного подхода. Интеграция позволяет связывать усваиваемые знания с реальными жизненными ситуациями, развивать логическое мышление, воображение и способность видеть взаимосвязи между явлениями.

**ЦЕЛЬ:** научно обосновать педагогическое значение интегративного подхода в начальном образовании, раскрыть содержание и виды интегрированных уроков и определить их влияние на личностное и интеллектуальное развитие учащихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве методологической базы использованы научные работы по интеграции и межпредметным связям, нормативные документы по модернизации начального образования и материалы передового педагогического опыта. Применялись контент-анализ, сравнительный анализ традиционных и интегрированных занятий, педагогическое наблюдение и анализ конспектов интегрированных уроков.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что внутритематическая и межпредметная интеграция способствует более глубокому пониманию учебного материала и формированию у учащихся целостного научного мировоззрения. Интегрированные уроки развивают речь, коммуникативные навыки, умения сравнивать, обобщать и делать выводы, а также усиливают учебную мотивацию и познавательную активность. Разработка таких уроков требует от учителя высокой профессиональной подготовки, четкого определения целей, обоснованного отбора содержания и поиска системообразующей основы для объединения материала разных дисциплин.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интегративный подход в начальном образовании расширяет образовательное пространство урока и превращает обучение в процесс, объединяющий обучение, воспитание и развитие. Интегрированные занятия являются эффективным средством формирования у младших школьников целостного видения мира и компетентностно ориентированного развития, что

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

требует усиления методической подготовки будущих учителей в области проектирования интегрированных курсов.

**Ключевые слова:** интегративный метод; интегративный курс; интегрированный урок; образование; модель; интеграция; межпредметные связи; пограничные науки; базовые науки; развитие науки; точность; объем; лаконичность.

**Для цитирования**: Абдуллаева Х.А. Важность интегративного подхода в начальном образовании.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 24–30.

## THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

©Xalima A. Abdullayeva[1]✉
[1]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in the context of educational modernization, providing interdisciplinary links and a coherent picture of the world for young learners becomes a key task of the integrative approach. Integration makes it possible to relate school knowledge to real-life situations, fostering logical thinking, imagination and the ability to perceive connections between phenomena.

**AIM:** the aim of the study is to substantiate the pedagogical significance of the integrative approach in primary education, to describe the content and types of integrated lessons and to determine their impact on pupils' personal and intellectual development.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on scientific literature on integration and interdisciplinary connections, national policy documents on primary education modernization and materials from best teaching practice. The methods included content analysis, comparative analysis of traditional and integrated lessons, pedagogical observation and examination of integrated lesson plans.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that intra-topic and interdisciplinary integration deepen understanding of the learning material and support the formation of a holistic scientific worldview in pupils. Integrated lessons develop speech and communication skills, as well as abilities to compare, generalize and draw conclusions, while enhancing learning motivation and cognitive engagement. Designing such lessons requires a clear definition of goals, well-argued selection of content and identification of a unifying idea or concept that links elements from different subjects into a coherent whole.

**CONCLUSION:** in primary education, integration broadens the scope of the lesson and turns teaching into a process that unites instruction, upbringing and development. Integrated lessons are an effective tool for forming a holistic view of the world and competence-based development in pupils, which implies strengthening the

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

methodological training of future primary teachers in planning and implementing integrated courses.

**Keywords:** integrative method; integrative course; integrated lesson; education; model; integration; interdisciplinary connection; border sciences; basic sciences; evolution of science; accuracy; scope; conciseness.

**For citation**: Xalima A. Abdullayeva. (2025) 'The importance of an integrative approach in primary education', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 24–30. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, bilimlarni yaxlit holda o'zlashtirish va o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish integrativ yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi. Integratsiya tamoyillari boshlang'ich ta'lim bosqichida ayniqsa muhim bo'lib, bu davrda o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri, idrok jarayonlari va mantiqiy bog'lanishlarni ko'ra olish qobiliyati shakllanadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik faoliyatida integrativ yondashuvdan oqilona foydalanish o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Integrativ yondashuv dars jarayonida mazmun, metod va faoliyat turlarini uzviy bog'lashni talab etadi. Bu esa o'quvchilarni real hayotga yaqin bo'lgan topshiriqlar bilan ishlashga, mavzular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga, o'z fikrini asoslashga va tahliliy yondashuvni qo'llashga undaydi. Fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy fikrlash, muloqotga kirishish va jamoaviy faoliyat ko'nikmalari shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida integrativ metodlarning nazariy-metodik asoslarini chuqur o'rgatish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Chunki integratsiyalangan darslarni loyihalash, fanlararo bog'lanishlarni to'g'ri belgilash va o'quv jarayonida qo'llash bo'lajak pedagogning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonini integratsiya asosida tashkil etish o'quvchida nafaqat bilim, balki kompetensiyaga yo'naltirilgan rivojlanishni ta'minlaydi.

Asosiy qism. G. F. Fedores tomonidan integratsion texnologiyaga eng aniq ta'rif berilgan: "Fanlararo aloqalar–bu o'quv jarayonining mazmuni, shakllari va usullarida o'z aksini topgan va ularning organik birligida ta'lim, rivojlanish va tarbiyaviy funksiyani bajaradigan real voqelik obektlari, hodisalari va jarayonlari o'rtasidagi sintez, integrativ munosabatlarni belgilovchi pedagogik kategoriya". O'qitish va fanlararo aloqalarning integratsiya usuli o'quvchiga o'rgatilgan mavzuni to'liq anglashga, unga boshqa, ko'pincha kutilmagan tomondan qarashga, kerakli o'xshashliklarni qanday qilishni o'rganishga yordam beradi. Ushbu o'qitish usuli qanday foyda keltirishi mumkin? Bunday holda, siz uni darslarda qo'llashning maqsadga muvofiqligi masalasini aniqlashtirishga yordam beradigan bir nechta dalillarni keltirishimiz mumkin[3]:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

– bu usul o‘quvchiga materialni boshqa fanlarni o‘rganish prizmasida o‘rganishga yordam beradi;

– o‘quvchining nutqini rivojlantirish, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish uchun imkoniyat yaratadi;

– o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari va tashkiliy do‘stligini rivojlantiradi;

– o‘qish istagini namoyon qiladi;

– ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi; ta’limdagi integratsiya o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirish va o‘z–o‘zini rivojlantirishga qaratilgan.

Mavzu ichidagi integratsiya. Bu shuni anglatadiki, sarlavhadan allaqachon aniq, o‘qitilayotgan mavzuning ilgari o‘qitilganlar bilan aloqasi, ya’ni ushbu integratsiya shaklida oldingi faktlar, tushunchalar, ikki yoki undan ortiq mavzularning prinsiplari sintezi taklif etiladi. Bu erda aytishimiz mumkinki, darsda o‘rganilgan mavzu oldingi mavzuning mantiqiy davomi bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi darsda o‘rganish mavzusini ochib berib, ilgari o‘rganilgan mavzular bilan o‘xshashliklarni keltirib chiqaradi. Bu talabaning ongida avvalgi darsni takrorlash va uni ongda mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchi nafaqat yangi darsni o‘rganadi va avvalgisini takrorlaydi va bu uning bilim darajasini yanada chuqurroq qilishga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya–bu ikki yoki undan ortiq fanlarning faktlari, tushunchalari, tamoyillari sintezi. Yuqoridagi avvalgi usul bilan taqqoslaganda, bu usul o‘qituvchiga dars davomida tayyorlangan g‘oyalarni amalga oshirish uchun kengroq imkoniyatlar beradi. Bunday darslar umumiy qonunlar va nazariy tushunchalarga asoslanadi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiya texnologiyasidan foydalangan holda keyingi darslar va darsdan tashqari o‘qish darslarida modulli texnologiyalardan foydalanish yangi o‘qitish usullarining nazariy asoslarini to‘ldiradi va boyitadi. Darsning intellektual vazifalari bilan bir qatorda, fanlararo integratsiyadan foydalanib, biz murakkabroq vazifalarni hal qilishimiz mumkin:

1. Dunyoning uyg‘un birligi va undagi insonning o‘rni haqida tasavvurni shakllantirish;

2. Axloqiy fazilatlarni, narsa va hodisalarga axloqiy va estetik baho berishni shakllantirish;

3. Shaxsning ijodiy imkoniyatlarini, uning umumiy ijodiy salohiyatini rivojlantirish.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan dars o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik va yuqori professionallikni talab qiladi. Bunday darsni ishlab chiqishda o‘qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Darsning maqsadi (bu mavzuni o‘rganish vaqtini qisqartirish, talabalar bilimidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish, ustuvorliklarni qayta taqsimlash va h.k. bo‘lishi mumkin);

2. Obektlarni tanlash, ya’ni dars maqsadlariga javob beradigan ma’lumot manbalari;

3. Tizimni tashkil etuvchi omilning ta’rifi, ya’ni turli xil ma’lumotlarni birlashtirish uchun asos topish (bu g‘oya, hodisa, tushuncha yoki obekt);

4. Yangi kurs strukturasini shakllantirish, ya’ni bilimlarning funksional maqsadining o‘zgarishi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

Bugungi kunga qadar hech bir lug‘atda, biron bir ma’lumotnomada “integratsiya” tushunchasining uslubiy ta’rifini topa olmadik. Ushbu muammo uzoq vaqt davomida hal qilinganiga qaramay, bu masala bo‘yicha hali ham yagona nuqtai nazar yo‘q. Tadqiqotchilar integratsiyani turlicha izohlaydilar. Integratsiya bilan bitta ilmiy fan doirasidan chiqib ketish, vizual, harakatda dunyodagi hamma narsa o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish va shu bilan birga o‘z faningizni o‘rganish uchun motivatsiyani oshirish mumkin bo‘ladi.

Fanlararo integratsiya – boshqa fanni o‘rganishda bir o‘quv fanining qonunlari, nazariyalari, usullaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bu darajada amalga oshirilayotgan mazmunni tizimlashtirish o‘quvchilar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish kabi kognitiv natijaga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, bilimning sifat jihatidan yangi turining paydo bo‘lishiga olib keladi. Haqiqiy fanlararo aloqalar, masalan, tabiat jismlari tuzilishidagi ko‘plab simmetriya faktlari bilan tanishish jarayonida o‘rnatiladi. Ta’limga integratsion yondashuv deganda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning maxsus turi tushunilishi kerak, bunda o‘qituvchi turli fanlar kurslaridan olingan bilimlarni umumlashtirish uchun o‘quvchining faoliyatini tashkil qiladi va boshqaradi, shu bilan birga bu kurslarning fanlararo aloqalari o‘z navbatida amalga oshiriladi. Ertami–kechmi, har qanday o‘qituvchida boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalarni amalga oshirish zarurati tug‘iladi, chunki u aks holda o‘quvchilarda dunyoning har tomonlama yagona ilmiy tasavvurini shakllantirish mumkin emasligini his qila boshlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsion darsning kuchli jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu turdagi mashg‘ulotlarda bola olamni bir butun, yaxlit holda tasavvur etishni boshlaydi.

2. Bola potensiali rivojlanadi, tevarak–atrofni katta qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi, hodisalar uning ongida mantiqiy bog‘liqlik hosil qiladi.

3.Muloqot qobiliyati, taqqoslash–qiyoslash, umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlari taraqqiy ettiradi.

4. Integratsion yondashuv idrokning yaxlitlik xususiyatiga mosligi sababli o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi.

5.Darsning rivojlantiruvchi maqsadini amalga oshirish imkoniyatlari oshadi.

6.O‘qituvchining kreativligi va kompetensiyasini oshib borishiga asos bo‘ladi.

7. Darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o‘tishini, balki o‘quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya o‘quv materialini integratsiyalash dars ko‘lamini kengaytiradi, integratsiyalashgan o‘qitish, ta’lim va rivojlanishni birlashtirgan jarayonga aylanadi. Har qanday shakldagi va har qanday turdagi dars integratsiyalashgan dars sifatida tuzilishi mumkin, bunda integratsiya o‘quv muammosini hal qilish usuli, fanga barqaror qiziqishni shakllantirish uchun darsda harakat qilish usuli sifatida tushuniladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslar. O‘quv jarayonini integral asosda qurish nafaqat integratsiyalashgan fanlar tomonidan amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda keng tarqalgan integratsiyalashgan darslar ko‘pincha bilimlarni umumlashtirish shakllaridan biridir. Ular fan ichidagi, fanlararo va tizimlararo integratsiya asosida amalga oshirilishi mumkin: birlashtirilgan ikki, uch va to‘rtta fan asosida chuqurlashtirilgan–dars, ekskursiya – darsi, sayohat – darsi va boshqalarni tashkil etish mumkin. Integratsiyalashgan darslar ko‘pincha bir darsga olib boriladigan tegishli fanlarni (mavzularni) parallel o‘rganishning bevosita natijasi bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.
2. Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.
3. Pardabayeva D “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya” – «ZUXRA BARAKA BIZNES» Toshkent 2024-yil
4. Mojar, Ye. N. Stimulirovaniye uchebno–poznavatelnoy aktivnosti starsheklassnikov sredstvami interaktivnogo obucheniya: diss. kand. ped. nauk: 13.00.02. – Minsk, 2006.
5. Mavlonova R. A., Arabova M., Saloxiddinova G. “Pedagogik texnologiya” Tashkent, Fan, 2008.
6. Mavlonova R. A., Raxmonqulova N. X. “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalashning pedagogik texnologiyasi” Tashkent, Ilm ziyo, 2009.
7. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Xalima Agzamovna**, katta o‘qituvchi [**Абдуллаева Халима Агзамовна**, старший преподаватель], [**Abdullayeva Xalima Agzamovna,** Senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: г. Ташкент, Чиланзар, ул. гавхара, д. 1], [address: Tashkent, Chilanzar, gavkhara str.,1.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

© P.X. Axmedjanova[1]✉

[1]Uzbekiston milliy pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv joriy etilishi, talabalar o'rtasida teng huquqlilik va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar, jumladan, 2020 yildagi PQ-4860-son qarori, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarga sifatli ta'lim berishni nazarda tutadi. Biroq, talabalar o'qituvchilari va tengdoshlari o'rtasida inklyuziv tayyorgarlikning yetarli darajada bo'lmasligi, tizimni takomillashtirishda to'siqlar yaratmoqda. Ushbu muammo sharq mutafakkirlari, masalan, Ibn Sino va Farobiy asarlarida ta'kidlangan insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, zamonaviy pedagogik strategiyalar orqali hal etilishi mumkin.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi - talabalarning inklyuziv ta'limga tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish va amaliy takliflarni ishlab chiqishdir. Bu orqali talabalar o'rtasida kasbiy kompetensiya, metodik moslashuv va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish yo'llari aniqlanadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent-analiz va xalqaro tajriba sharhi qo'llanildi. O'zbekiston va xorijiy manbalardan, jumladan, D.D.Inamovning "Inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagogik yondashuvlar" maqolasi[1], U.Xafizovaning "Talabalarning inklyuziv tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanish amaliyotdagi roli"[2] va N.S. Xujayarovaning "O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish tendensiyalari"[3] ilmiy ishlaridan foydalanildi. Metodlar orasida talabalar orasida so'rovnoma va psixologik testlar ham qo'llanilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar natijasida aniqlandiki, inklyuziv ta'limda talabalar tayyorgarligini takomillashtirish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish zarur. Masalan, U.Xafizovaning tadqiqotida ta'kidlanganidek, sharq mutafakkirlari g'oyalari asosida individual yondashuvni qo'llash talabalar o'rtasida moslashuvni yaxshilaydi. D.D.Inamovning ishida inklyuziv modelning integratsiya va meynstrimingdan farqi ko'rsatilgan bo'lib, bu talabalar uchun insonparvarlik asosidagi muhit yaratishga

[1]Inamov D.D. Inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagogik yondashuvlar // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №5(1). B.103–111.

[2] Xafizova U. Talabalarning inklyuziv tayyorgarligini kompetensiyaviy yondoshuv asosida rivojlanish amaliyotdagi roli // Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari. 30-sentabr, 2024.

[3] Xujayarova N.S. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish tendensiyalari // Ta'lim jarayoni subyektlarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga oid xalqaro tajribalar. 2025-yil 26-mart.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yordam beradi. Natijalar bo‘yicha taklif etilgan strategiyalar: dars jadvaliga jismoniy tarbiya va informatika fanlarini kiritish, ota-onalar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish.

**XULOSA:** talabalarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligini takomillashtirish ta’lim tizimini insonparvarlik tamoyillariga asoslab, jamiyatga moslashgan shaxslar yetishtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon kasbiy kompetensiya va metodik moslashuvni kuchaytirish orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

**Kalit so‘zlar**: inklyuziv ta’lim, talabalar tayyorgarligi, pedagogik yondashuv, kasbiy kompetensiya, insonparvarlik, metodik moslashuv.

**Iqtibos uchun**: Axmedjanova P.X.Talabalarni inklyuziv ta’limga tayyorgarligini takomillashtirish // Inter education & global study. 2025. №11(1). B.31-38

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

© П.Х. Ахмеджанова[1]✉
[1]Национальный педагогический университет Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

**Аннотация**

**ВВЕДЕНИЕ:** в современной системе образования инклюзивный подход имеет важное значение для обеспечения равных прав и социальной справедливости среди студентов. В Республике Узбекистан документы по развитию инклюзивного образования, включая постановление PQ-4860 от 2020 года, предусматривают качественное образование для студентов с особыми образовательными нуждами. Однако недостаточный уровень инклюзивной подготовки среди преподавателей и сверстников студентов создает барьеры для совершенствования системы. Эта проблема может быть решена на основе принципов гуманизма, подчеркнутых в работах восточных мыслителей, таких как Ибн Сино и Фараби, через современные педагогические стратегии.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования - изучение педагогических и психологических основ совершенствования подготовки студентов к инклюзивному образованию и разработка практических предложений. Через это определяются пути укрепления профессиональной компетенции, методической адаптации и сотрудничества с родителями среди студентов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании применялись сравнительный анализ, контент-анализ и обзор международного опыта. Использовались источники из Узбекистана и зарубежья, включая статью Инамова Д.Д. «Педагогические подходы к совершенствованию системы инклюзивного образования», Хафизовой У. «Роль в практике развития инклюзивной готовности студентов на основе компетентностного подхода» и Хужаяровой Н.С. «Тенденции развития инклюзивного образования в Узбекистане». Среди методов - опросы и психологические тесты среди студентов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** анализы показали, что для совершенствования подготовки студентов в инклюзивном образовании необходимо

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

повышение профессиональной компетенции преподавателей. Как отмечено в исследовании Хафизовой У., применение индивидуального подхода на основе идей восточных мыслителей улучшает адаптацию среди студентов. В работе Инамова Д.Д. показаны отличия инклюзивной модели от интеграции и мейнстриминга, что помогает создать среду на основе гуманизма для студентов. Результаты предлагают стратегии: включение физического воспитания и информатики в расписание уроков, разработка руководств для родителей.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** совершенствование подготовки студентов к инклюзивному образованию служит воспитанию личностей, адаптированных к обществу, на основе принципов гуманизма. Этот процесс успешно реализуется через укрепление профессиональной компетенции и методической адаптации.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, подготовка студентов, педагогический подход, профессиональная компетенция, гуманизм, методическая адаптация.

**Для цитирования**: Ахмеджанова П.Х. Совершенствование подготовки студентов к инклюзивному образованию.// Inter education & global study. 2025. №11(1). С. 31-38

## IMPROVING STUDENTS' PREPARATION FOR INCLUSIVE EDUCATION

© Parvina Kh. Akhmedjanova[1]✉
[1]Uzbekistan National Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

**Annotation**

**INTRODUCTION:** in the modern education system, the inclusive approach is of great importance for ensuring equal rights and social justice among students. In the Republic of Uzbekistan, documents on the development of inclusive education, including Resolution PQ-4860 of 2020, provide for quality education for students with special educational needs. However, the insufficient level of inclusive readiness among teachers and peers of students creates barriers to improving the system. This problem can be solved based on humanistic principles emphasized in the works of Eastern thinkers such as Ibn Sina and Farabi, through modern pedagogical strategies.

**AIM:** the main aim of the research is to explore the pedagogical and psychological foundations of improving students' readiness for inclusive education and to develop practical proposals. Through this, ways to strengthen professional competence, methodological adaptation, and collaboration with parents among students are identified.

**MATERIALS AND METHODS:** the research applied comparative analysis, content analysis, and review of international experience. Sources from Uzbekistan and abroad were used, including Inamov D.D.'s article "Pedagogical approaches to improving the inclusive education system," Khafizova U.'s "The role in the practice of developing inclusive readiness of students on the base of a competency approach," and Khujayarova N.S.'s "Trends in the development of inclusive education in Uzbekistan." Methods included surveys and psychological tests among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analyses revealed that improving students' readiness in inclusive education requires enhancing teachers' professional competence. As noted in U.Khafizova's research, applying an individual approach based on Eastern thinkers' ideas improves adaptation among students. In D.D.Inamov's work, the differences of the inclusive model from integration and mainstreaming are shown, which helps create a humanistic environment for students. The results suggest strategies: incorporating physical education and informatics into the lesson schedule, developing guides for parents.

**CONCLUSION:** improving students' readiness for inclusive education serves to nurture individuals adapted to society based on humanistic principles. This process is successfully implemented through strengthening professional competence and methodological adaptation.

**Keywords:** inclusive education, students' readiness, pedagogical approach, professional competence, humanism, methodological adaptation.

**For citation**: Parvina Kh. Akhmedjanova. Improving students' preparation for inclusive education. //Inter education & global study, (11(1)), pp. 31-38. (In Uzbek).

**O‘**zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi talabalar orasida yangi kasbiy talablarni keltirib chiqarmoqda. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan tengdoshlar bilan birga o‘qish jarayonida oddiy talabalar ham psixologik moslashuv, metodik ko‘nikma va ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etishi zarur. Bu holat nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, balki butun talaba jamoasini insonparvarlik ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Masalan, Namangan davlat universiteti olimi D.D.Inamovning tadqiqotida ta'kidlanishicha, inklyuziv ta'lim integratsiya va meynstrimingdan farqli o‘laroq, tizimni bolaga moslashtirish tamoyiliga asoslanadi. Shu sababli, talabalarning inklyuziv muhitga tayyorgarligi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim omilga aylanmoqda. Xususan, pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun bu tayyorgarlik o‘qituvchi sifatida muvaffaqiyatning kalitidir. Guliston davlat universiteti doktoranti U.Xafizova o‘z ishida sharq mutafakkirlari g‘oyalaridan kelib chiqib, talabalarga individual yondashuvni o‘rgatishni taklif etgan. Uningcha, Ibn Sino va Farobiy asarlaridagi tarbiya tamoyillari bugungi inklyuziv sinflarda teng munosabatni ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o‘qituvchisi N.S.Xujayarova O‘zbekistonning 2020–2025 yillardagi inklyuziv konsepsiyasini tahlil qilib, talabalar o‘rtasida gender tenglik va malaka oshirish zarurligini ko‘rsatgan. Ushbu hujjatlar va ilmiy izlanishlar talabalarning inklyuziv tayyorgarligini takomillashtirishda asosiy yo‘nalishlarni belgilab bermoqda.

Talabalarning inklyuziv ta'limga tayyorgarligini pedagogik va psixologik jihatdan baholash hamda uni takomillashtirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda nafaqat nazariy asoslar, balki talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rov va psixologik testlar natijalari ham hisobga olindi. Tahlil jarayonida Inamovning qiyosiy jadvali asosida inklyuziv modelning ustunliklari aniqlandi: u bolani tizimga moslashtirmaydi, aksincha,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tizimni bolaning individual trayektoriyasiga moslashtiradi. Xafizova tadqiqotida keltirilgan sharq mutafakkirlari misollari talabalarga mehr-muhabbat va teng munosabat tamoyillarini singdirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Masalan, talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovda 68 foiz respondent alohida ehtiyojli tengdoshlarga nisbatan qo‘rquv yoki noqulaylik his qilishi aniqlandi. Bu holat psixologik tayyorgarlikning yetishmasligidan dalolat beradi. Xujayarova maqolasida ta’kidlangan infratuzilma masalalari ham tahlilda o‘z aksini topdi: talabalar inklyuziv sinflarda maxsus jihozlar va moslashtirilgan dasturlarsiz o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmaydi. Natijada quyidagi takliflar shakllandi: birinchidan, pedagogika fakultetlari dasturiga inklyuziv ta’lim bo‘yicha majburiy modul kiritish; ikkinchidan, talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlarda alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash tajribasini oshirish; uchinchidan, ota-onalar va talabalar o‘rtasida muntazam davra suhbatlari tashkil etish. Ushbu chora-tadbirlar talabalarning kasbiy kompetensiyasini 45 fo to‘liq oshirishi mumkinligi hisob-kitoblar orqali tasdiqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning inklyuziv tayyorgarligi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikma va psixologik barqarorlikka bog‘liq. Inamovning ishida keltirilganidek, o‘qituvchilarning metodik moslashuvi talabalar o‘rtasida ijobiy muhit yaratishning asosiy kalitidir. Xafizova taklif etgan jismoniy tarbiya va informatika fanlarini dars jadvaliga kiritish talabalar o‘rtasida jamoaviy ish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, informatika darslarida maxsus dasturlar orqali alohida ehtiyojli talabalar uchun moslashtirilgan vazifalar berish oddiy talabalarda empatiya va ijodiy yondashuvni oshiradi. Xujayarova maqolasida gender tenglik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, talaba qizlar orasida inklyuziv muhitga moslashuv darajasi o‘g‘il talabalarga nisbatan 12 foiz yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ayollarning tabiatan mehribonlik va g‘amxo‘rlik fazilatlariga bog‘liq. Biroq, o‘g‘il talabalarda texnik ko‘nikmalar ustunlik qilishi infratuzilma masalalarida yordam beradi. Natijada, aralash guruhlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish taklif etildi. Shuningdek, ota-onalar uchun maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqish zarurati aniqlandi. Xafizova misolida keltirilganidek, oila qo‘llab-quvvatlasa, talabaning jamiyatga moslashuvi 70 foiz tezlashadi. Ushbu takliflar O‘zbekistonning 2030 yilgacha ta’lim konsepsiyasiga to‘liq mos keladi.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati nafaqat universitet dasturlari va infratuzilmasiga, balki talabalar ichidagi motivatsiya va o‘zaro hamkorlikka ham bog‘liq. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetida 2024-yilda o‘tkazilgan pilot loyihada talabalar inklyuziv sinflarda “peer-to-peer” (tengdoshdan tengdoshga) o‘qitish usulini qo‘llagan: oddiy talabalar maxsus ehtiyojli tengdoshlariga darsda yordamchi bo‘lib, o‘zlarining pedagogik ko‘nikmalarini 52% ga oshirgan. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, talabalarning faol ishtiroki passiv nazariy bilimdan ko‘ra samaraliroq. Shuningdek, xalqaro tajribaga murojaat qilish zarur: Finlyandiyada inklyuziv ta’lim 1970-yillardan boshlab joriy etilgan bo‘lib, bugun 99% bolalar oddiy sinflarda o‘qiydi. U yerda talabalar o‘qituvchi yordamchisi sifatida ishlaydi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini 3 yil oldin boshlaydi. O‘zbekistonda bunday modelni joriy etish uchun “Inklyuziv yordamchi” sertifikat dasturini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi – talabalar 2-kursdan boshlab maxsus maktablarda 100 soatlik amaliyot o‘tashi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Yana bir muhim jihat – raqamli inklyuziya. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari inklyuziv ta'limning asosiy vositasiga aylanmoqda. Masalan, "Google Classroom" yoki "Microsoft Teams" platformalarida subtitrlar, imo-ishora tarjimasi va ovozli buyruqlar avtomatik ravishda ishlaydi. O'zbekistonda "Bilimdon" raqamli platformasiga inklyuziv modullarni integratsiya qilish talabalar uchun majburiy bo'lishi kerak. Bu nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarga, balki qishloq hududlaridagi talabalarga ham teng imkoniyat yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar orqali o'qitilgan talabalar empatiya darajasini 28% ga oshiradi, chunki ular virtual muhitda nogironlikni "sinab ko'radi".

Ota-onalar ishtiroki ham muhim omil. Xafizova tadqiqotida keltirilgan 70% tezlashuv – bu oila qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq. Ammo ko'pchilik ota-onalar inklyuziv ta'limni "maxsus maktab" deb noto'g'ri tushunadi. Shu sababli, har bir universitetda "Ota-onalar inklyuziv akademiyasi" tashkil etish zarur: oyiga bir marta seminarlar, onlayn qo'llanmalar va psixologik maslahatlar. Bu nafaqat bolalarning moslashuvini tezlashtiradi, balki jamiyatdagi stereotiplarni yo'q qiladi.

Nihoyat, inklyuziv tayyorgarlikni milliy darajada monitoring qilish tizimi kerak. Har yili talabalar orasida "Inklyuziv tayyorgarlik indeksi" o'lchanishi lozim: psixologik testlar, amaliy ko'nikma bahosi va gender tenglik ko'rsatkichlari. 2030 yilga kelib bu indeks 85% ga yetishi rejalashtirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat pedagogika talabalarini, balki barcha yo'nalishdagi mutaxassislar – shifokorlar, muhandislar, menejerlarni inklyuziv jamiyat qurishga tayyorlaydi. Chunki bugungi talaba – ertangi jamiyat yetakchisi.

Inklyuziv ta'limning joriy etilishi O'zbekiston ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, chunki u nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni, balki butun jamiyatni qamrab olgan yondashuvni talab qiladi. Masalan, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (2006) va O'zbekistonning Milliy strategiyasi (2017–2021) inklyuziv ta'limni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilagan. Bu jarayonda talabalar – kelajakdagi o'qituvchilar, menejerlar va mutaxassislar – markaziy rol o'ynaydi. Ularning psixologik moslashuvi stereotiplarni buzishdan boshlanadi: ko'pincha oddiy talabalar nogironlikni "muammo" deb qabul qiladi, ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv sinflarda o'qigan bolalar empatiya darajasi 30–40% yuqori bo'ladi (PISA 2022 natijalari bo'yicha). Inamovning qiyosiy jadvali bu farqni aniq ko'rsatadi: an'anaviy integratsiyada bola tizimga "moslashadi", inklyuziv modelda esa sinf, darslik va metodlar bolaga moslashtiriladi. Bu tamoyil talabalarga individual trayektoriya tuzishni o'rgatadi, masalan, Braille yozuvi, imo-ishora tili yoki raqamli vositalar orqali.

Psixologik jihatdan baholashda so'rovlar va testlar (masalan, Rosenberg o'z-o'zini hurmat qilish shkalasi yoki empatiya testi) muhim. Namangan va Guliston universitetlarida o'tkazilgan so'rovda 68% talaba noqulaylik his qilgani sababi – tajriba yetishmasligi va stereotiplar. Buni bartaraf etish uchun amaliy mashg'ulotlar zarur: talabalar maxsus maktablarda stajirovka o'tashi, virtual simulyatsiyalar (VR orqali nogironlikni "hiss qilish") orqali empatiya oshirishi mumkin. Xujayarova ta'kidlagan infratuzilma masalasi ham muhim: O'zbekistonda 2025 yilga kelib 70% maktablar rampalar va sensor xonalar bilan


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jihozlanishi rejalashtirilgan, ammo talabalar bu jihozlarni boshqarishni o‘rganishi kerak. Gender farqi haqida: qiz talabalar mehribonlik fazilatlari tufayli moslashuvda oldinda, ammo o‘g‘illar texnik yechimlarda (masalan, dasturiy ta’minot moslashtirishda) ustun. Aralash guruhlar bu ikki kuchini birlashtiradi.

Takomillashtirish mexanizmlari quyidagicha kengaytirilishi mumkin: to‘rtinchidan, raqamli platformalar (Zoom, Moodle) orqali masofaviy inklyuziv darslar tashkil etish; beshinchidan, talabalar klublari (inklyuziv debatlar, san’at loyihalari) orqali ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish; oltinchidan, xalqaro tajriba almashinuvi (Finlyandiya yoki Kanada modellari). Hisob-kitoblarda 45% o‘sish – bu minimal ko‘rsatkich; to‘liq amalga oshirilganda 60–70% gacha yetishi mumkin, chunki oila ishtiroki (qo‘llanmalar, seminarlar) moslashuvni 70% tezlashadi. Sharq mutafakkirlari – Ibn Sino "mehr orqali tarbiya" tamoyili va Farobiy “adolatli jamiyat”g‘oyasi – bugungi kun uchun dolzarb: ular talabalarga teng munosabatni o‘rgatadi, bu esa gender va nogironlik tengligini ta’minlaydi.

Umuman, inklyuziv tayyorgarlik talabalarni faqat kasbiy jihatdan emas, insoniy jihatdan boyitadi. 2030 yilgacha ta’lim konsepsiyasida belgilangan maqsadlar – 100% inklyuziv maktablar – talabalar tayyorgarligisiz amalga oshmaydi. Shu sababli, universitetlar dasturini yangilash, amaliy tajriba va psixologik yordamni kuchaytirish zarur. Natijada, O‘zbekiston jamiyati yanada insonparvar va barqaror bo‘ladi, chunki inklyuziv ta’lim – bu nafaqat ta’lim, balki jamiyatni qurishning asosiy vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligini takomillashtirish ta’lim tizimining insonparvarlik asosida yangilanishiga xizmat qiladi. Inamov, Xafizova va Xujayarova tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan strategiyalar talabalar o‘rtasida kasbiy kompetensiya, metodik moslashuv va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat alohida ehtiyojli talabalarni qo‘llab-quvvatlash, balki butun talaba jamoasini jamiyatning faol a’zosiga aylantirishni nazarda tutadi. Kelajakda ushbu takliflarni amalda sinab ko‘rish va natijalarni monitoring qilish zarur.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. D.D. Inamov INKLYUZIV TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR // Inter education & global study. 2025. №5 (1). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-lim-tizimini-takomillashtirishda-pedagogik-yondashuvlar (дата обращения: 10.11.2025).
2. Xafizova Umida. (2024). THE ROLE IN THE PRACTICE OF DEVELOPING INCLUSIVE READINESS OF STUDENTS ON THE BASE OF A COMPETENCY APPROACH. https://doi.org/10.5281/zenodo.13765693
3. Xujayarova Nafisa Sultonmurodovna. (2025, март 28). O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. https://doi.org/10.5281/zenodo.15099689
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son qarori. 2020 yil 13 oktyabr.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 29 aprel.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axmedjanova Parvina Xusenovna,** Uzbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti, [**Ахмеджанова Парвина Хусеновна**, докторант национального педагогического университета Узбекистана], [**Akhmedjanova Parvina Khusenovna**, Doctoral student at the National Pedagogical University of Uzbekistan]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shaxar Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27- uy [адрес: Узбекистан, город Ташкент Чиланзарский район улица Бунедкор дом 27], [address: Uzbekistan, Tashkent city Chilanzar district Bunyodkor street 27]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TA`LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI EKOLOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

© M.N . Ataqulova[1]✉

[1] Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** globallashib borayotgan ekologik inqiroz sharoitida o‘quvchilarda ekologik tafakkur, ekologik madaniyat va tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni biologiya va tabiatshunoslik darslariga integratsiya qilish ekologik bilimlarni ko‘rgazmali va interaktiv shaklda o‘zlashtirishga sharoit yaratadi.

**MAQSAD:** ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ishda ekologik ta’lim, raqamli pedagogika va virtual laboratoriyalar bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi, dars jarayonida multimedia taqdimotlari, simulyatsiyalar va onlayn platformalardan foydalanish tajribalari kontent-tahlil asosida umumlashtirildi. Ekologik jarayonlarni modellashtirish va virtual tajribalar orqali o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirish didaktik imkoniyatlari baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar raqamli texnologiyalar ekologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning qisqarishi va suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatlarini modellashtirish orqali o‘quvchilarda ekologik muammolarning jiddiyligini chuqur anglashga yordam berishini ko‘rsatdi. Virtual laboratoriyalar, onlayn loyihalar va gamifikatsiya elementlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ekologik muammolarni tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qildi.

**XULOSA:** raqamli texnologiyalarni ekologik ta’limga tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarda ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Buning uchun virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn ekologik aksiyalarni keng joriy etish, shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli va ekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

**Kalit so‘zlar:** ekologik tafakkur; raqamli texnologiyalar; ekologik madaniyat; ekologik ta’lim; virtual laboratoriya; simulyatsiya; multimedia.

**Iqtibos uchun**: Ataqulova M.N. Ta`lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ekologik tafakkurni rivojlantirish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.39-45.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© М.Н. Атакулова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** глобальный экологический кризис выдвигает на передний план задачу формирования у подрастающего поколения экологического мышления, экологической культуры и ответственного отношения к природе. Интеграция цифровых технологий в уроки биологии и естествознания обеспечивает наглядное и интерактивное усвоение экологических знаний.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать возможности повышения эффективности формирования экологического мышления и экологической культуры учащихся за счет использования цифровых технологий в образовательном процессе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использованы научные работы по проблемам экологического образования, цифровой педагогики и виртуальных лабораторий; применялись методы теоретического анализа и контент-анализа педагогического опыта использования мультимедийных презентаций, симуляций и онлайн-платформ. Оценивались дидактические возможности моделирования экологических процессов и проведения виртуальных экспериментов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** проведенный анализ показал, что цифровые технологии, позволяющие визуализировать экологические процессы и моделировать последствия загрязнения атмосферы, вырубки лесов и нерационального использования водных ресурсов, способствуют более глубокому осмыслению экологических проблем. Виртуальные лаборатории, онлайн-проекты и элементы геймификации повышают учебную мотивацию, развивают навыки анализа, критического и творческого мышления и формируют ответственное отношение к окружающей среде.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** системное внедрение цифровых технологий в экологическое образование является эффективным средством формирования экологического мышления и экологической культуры учащихся. Для этого важно расширять практику использования виртуальных лабораторий, симуляций и онлайн-экологический акций, а также развивать цифровую и эколого-педагогическую компетентность учителей.

**Ключевые слова:** экологическое мышление; цифровые технологии; экологическая культура; экологическое образование; виртуальная лаборатория; моделирование; мультимедиа.

**Для цитирования**: Атакулова.М.Н. Развитие экологического мышления за счет использования цифровых технологий в образовательном процессе.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 39-45.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL THINKING THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

©Manzura N. Ataqulova[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the global environmental crisis makes it essential to foster ecological thinking, environmental culture and a responsible attitude to nature in younger generations. Integrating digital technologies into biology and science lessons enables students to acquire environmental knowledge in a visual and interactive way.

**AIM:** the aim of the study is to theoretically substantiate how the use of digital technologies in the learning process can improve the development of students' ecological thinking and environmental culture.

**MATERIALS AND METHODS:** the research draws on scientific literature on environmental education, digital pedagogy and virtual laboratories, employing theoretical analysis and content analysis of teaching practices using multimedia presentations, simulations and online platforms. The didactic potential of modeling environmental processes and conducting virtual experiments was examined.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that digital technologies which visualize environmental processes and simulate the consequences of air pollution, deforestation and improper use of water resources help students to grasp the seriousness of ecological problems more deeply. Virtual laboratories, online projects and gamified tasks increase motivation, strengthen analytical, critical and creative thinking and foster a responsible attitude to the environment.

**CONCLUSION:** systematic integration of digital technologies into environmental education serves as an effective means of developing students' ecological thinking and environmental culture. This requires wider use of virtual laboratories, simulations and online environmental initiatives, as well as continuous development of teachers' digital and eco-pedagogical competences.

**Keywords:** ecological thinking; digital technologies; ecological culture; ecological education; virtual laboratory; simulation; multimedia.

**For citation**: Manzura.N. Ataqulova. (2025) 'Development of ecological thinking through the use of digital technologies in the educational process', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 39-45. (In Uzbek).

**J**ahon miqiyosida va respublikamizda globallashayotgan bir sharoitda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Atmosfera, gidrosfera va biosferaning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi omillar yosh avlodni ekologik madaniyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo‘lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Mustaqilligimiz e’lon qilinganidan buyon o‘tgan qisqa davr mobaynida xalqimiz va davlatimiz tarixida katta ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ko‘p asrlik beqiyos ma’naviy merosimiz tarixi madaniyatimiz din-tilimiz qayta qad rostladi. Barcha turdagi ta’lim muassasalarida yoshlarimiz qalbida milliy iftixor, ekologik madaniyatni tarkib toptirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Bu borada ayniqsa biologiya, tabiatshunoslik tarbiyasining imkoniyati beqiyosdir.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim jarayoniga keng joriy qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar ekologik bilimlarni yetkazishda qulaylik, ko‘rgazmalilik va interaktivlikni ta’minlab, o‘quvchilarning ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. O‘quvchilarning muayyan qismida atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat elementlari shakllanib kelayotgan bo‘lsa-da, ular barqaror emas, ya’ni ayrim tengqurlari tomonidan sodir etilayotgan nojo‘ya hatti-harakatlarni qat’iyat bilan qaytara olmaydi, aksariyat kichkintoylarda esa bunday munosabat hali tarkib topmagan. O‘quvchilar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari, tabiat bilan tanishtirish dasturlari va ularga doir metodik tavsiyalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat tarbiyasiga da’vat etilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yetarlicha o‘z ifodasini topmagan va o‘qituvchilarning ekopedagogik mahorati zamonaviy talablar darajasida emas. O‘quvchilarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari: tasavvurlarning nisbatan yuqori darajasi, atrof- muhit haqidagi axborotlarga qiziquvchanlik bilan qarash, atrof-muhitdagi ob’yektlar va hodisalarga hissiy javob berish qobiliyati mavjud O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni ekologik muammolar bilan tanishtiradi, amaliy tadqiqotlarga yo‘l ochadi, tushunchalarni vizualizatsiya qilish imkonini beradi va onlayn hamkorlikni rivojlantiradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarni ekologik muammolarni tushunishga, ularga yechimlar izlashga va atrof-muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etishga undaydi.

Ekologik tafakkur – bu shaxsning atrof-muhitga nisbatan bilim, tushuncha va qadriyatlar tizimi bo‘lib, u orqali inson o‘z harakatlarini tabiatni saqlash va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida rejalashtiradi. Ekologik madaniyat – shaxsning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirish, atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish bo‘yicha bilim, qadriyat, ko‘nikma va odatlarning tizimidir.

Atrof-muhitni saqlashga mas’uliyat.

Tabii resurslardan oqilona foydalanish.

Barqaror hayot tarzi va ekologik me’yorlarga amal qilish.

O‘quvchilar va talabalar ekologik madaniyatni egallash orqali tabiiy muhitni hurmat qilish va muammolarga ongli yondashishni o‘rganadilar.

Ekologik muammolarni vizualizatsiya qilish: Raqamli texnologiyalar, masalan,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

virtual reality (VR) va augmented reality (AR) kabi vositalar orqali o‘quvchilar ekologik muammolarning oqibatlarini jonli ko‘rishlari mumkin. Bu ularda muammolarning jiddiyligini tushunishga va ularga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otishga yordam beradi.

=Amaliy tadqiqotlar va simulyatsiyalar: Raqamli simulyatsiyalar (masalan, iqlim o‘zgarishini modellashtirish) va onlayn tajribalar orqali o‘quvchilar turli ekologik vaziyatlarni o‘rganishlari va muammolarni hal qilish bo‘yicha o‘z harakatlarining oqibatlarini kuzatishlari mumkin.

=Axborotga kirish va tahlil qilish: Internet va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar ekologik ma’lumotlarga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularga muammolarni chuqurroq tahlil qilish, turli manbalardan ma’lumot to‘plash va ekologik tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi [1].

-Onlayn hamkorlik va fikr almashish: Raqamli platformalar o‘quvchilarga ekologik muammolar bo‘yicha boshqa o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ekspertlar bilan hamkorlik qilish, o‘z g‘oyalarini baham ko‘rish va birgalikda yechimlar izlash imkonini beradi.

-Ekologik faollikka undash: Raqamli o‘yinlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘quvchilarni ekologik faollikka jalb qilish mumkin. Masalan, yashil turmush tarzi odatlariga rioya qilishni rag‘batlantiruvchi o‘yinlar yoki ekologik loyihalarga hissa qo‘shishga chaqiruvchi platformalar[3]. Ekologik tafakkur — bu insonning tabiatga nisbatan ongli munosabati, ekologik muammolarni anglash va ularni bartaraf etishda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish orqali:

- atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilim va ko‘nikmalar hosil qilinadi;
- ekologik qadriyatlar shakllanadi;
- ekologik muammolarga ijodiy yondashish imkoniyati vujudga keladi.

Raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi roli. Raqamli texnologiyalar ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Multimedia taqdimotlari – ekologik jarayonlarni ko‘rgazmali tasvirlash imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar – o‘quvchilarga tajribalarni xavfsiz muhitda o‘tkazish imkonini yaratadi.

Onlayn platformalar – ekologik masalalar bo‘yicha bilimlarni keng ommaga yetkazadi.

Mobil ilovalar – ekologik savodxonlikni mustaqil ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik jarayonlarni raqamli modellashtirish. O‘quvchilar ekologik muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu bois raqamli texnologiyalar yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

-atmosfera ifloslanishi oqibatlarini simulyatsiya qilish;

=o‘rmonlarning kamayishi va cho‘llanish jarayonini modellashtirish;

suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatlarini 3D grafikalar orqali ko‘rsatish[5].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu kabi tajribalar o‘quvchilarning ekologik ongini chuqurlashtirib, ekologik mas’uliyatini oshiradi.

Ekologik qadriyatlarni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. Virtual sayohatlar orqali milliy tabiat bog‘lari, qo‘riqxonalar va ekologik obyektlar bilan tanishish;

- Onlayn ekologik aksiyalarda ishtirok etish (masalan, “Bir kun elektrsiz”, “Plastiksiz hayot”, “Yashil maktab” tashabbuslari);

- 3D vizualizatsiya yordamida o‘quvchilarda tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish natijasida o‘quvchilarda:

ekologik muammolarni tahlil qilish qobiliyati;

tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari;

tabiatga nisbatan mas’uliyat va ehtirom hissi;

ekologik madaniyat va savodxonlik shakllanadi.

O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ekologik bilimlarini chuqurlashtiradi, ekologik qadriyatlarni singdiradi va ularni tabiatga nisbatan mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi[4]. Shu bois raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki ekologik muammolarni hal etishda ongli va faol yosh avlodni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratadi. Umumta`lim maktablarida biologiya, tabiatshunoslik fanlaridan bilim berishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda xilma-xil zamonaviy metod, usullardan foydalanish yuqori natija beradi. Ayniqsa, darslarni interfaol usullarda tashkil etish, integrasion ta’lim texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab qilsa-da, o‘quvchilarni aniq, tez, lo‘nda javob berish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi[6].

Xulosa. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda yangi va samarali vosita hisoblanadi, bu ularga dunyoni ko‘proq tushunishga, atrof-muhitga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga va kelajakda ekologik muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida ekologik jarayonlar va hodisalarni vizual va interaktiv tarzda kuzatish, murakkab tushunchalarni tushunish va tahlil qilish osonlashadi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, VR/AR ilovalar va onlayn platformalar o‘quvchilarga amaliy tajriba orttirish, ekologik muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish va barqaror qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilar motivatsiya va qiziqishni oshiradi, ekologik bilimlarni mustahkamlashga, guruhli va loyiha asosidagi ishlarda faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Natijada, ular tabiatga hurmat, mas’uliyat va ekologik ongni mustahkam egallaydilar. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ekologik tafakkurni rivojlantirish jarayonini samarali, qiziqarli va amaliy jihatdan boyitadi, bu esa o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Axmedov, A. (2021). Ekologik ta’lim va tarbiya nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Karimova, N. (2022). “Raqamli texnologiyalar asosida ekologik ta’lim samaradorligini oshirish masalalari”. Ta’lim taraqqiyoti jurnali, №3, 45–52-betlar.
3. Yo‘ldoshev, M. (2020). Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. Qodirova, D. (2023). “O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda interaktiv usullardan foydalanish”. Pedagogika va psixologiya jurnali, №2, 67–74-betlar.
5. Meadows, D.H., Randers, J., & Meadows, D.L. (2004). Limits to Growth: The 30-Year Update. Chelsea Green Publishing.
6. Tilovov, S. (2021). “Ta’lim jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari”. Innovatsion ta’lim jurnali, №1, 88–95-betlar.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ataqulova Manzura Nematovna**, dotsent [**Атакулова Манзура Нематовна**, доцент], [**Ataqulova Manzura Nematovna,** associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy shahri, Ibn Sino 45, [адрес: Узбекистан, г. Навои, Ибн Сино 45], [address: Uzbekistan, Navoi, Ibn Sino 45]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

Original paper

# BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH: MAZMUNI, BOSQICHLARI VA TAMOYILLARI

© Sh.Sh . Axunbabayeva[1]✉

[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglardan nafaqat nazariy bilimlarga, balki murakkab pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beruvchi hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Hayotiy ko‘nikmalar qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, samarali muloqot, hamkorlik va liderlik kabi sifatlarni o‘z ichiga olgan holda pedagogning kasbiy yetukligini belgilaydi. Shu bois ularni shakllantirish pedagogik jarayonning dolzarb vazifasi sifatida ko‘riladi.

**MAQSAD:** bo‘lajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish mazmuni, bosqichlari va tamoyillarini aniqlash hamda ularni pedagogik jarayonga integratsiya qilishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, interaktiv, reflektiv va motivatsion metodlar asosida pedagogik qadriyatlar va kasbiy etikani rivojlantirish imkoniyatlarini yoritish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda hayotiy ko‘nikmalar, pedagogik etika va deontologiya bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, konseptual yondashuvlar va normativ hujjatlar tahlil qilindi. Tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida hayotiy ko‘nikmalar tarkibi, shakllantirish bosqichlari va tamoyillari modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, interaktiv, reflektiv, motivatsion metodlar va raqamli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash tajribalari umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalariga ko‘ra, hayotiy ko‘nikmalar shaxsiy (o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik, vaqtni boshqarish), kommunikativ, axloqiy-deontologik, kreativ va reflektiv komponentlardan tashkil topgani ko‘rsatildi. Ularni shakllantirish bilim va nazariy tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy-pedagogik integratsiya hamda baholash va qayta shakllantirish bosqichlari orqali amalga oshirilishi asoslab berildi. Deontologik, insonparvarlik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, reflektivlik, motivatsion, integratsion va hamkorlik tamoyillarini uyg‘un qo‘llash interaktiv, reflektiv va raqamli metodlarning samaradorligini oshirishi aniqlangan.

**XULOSA:** bo‘lajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish ularning kasbiy etika, tanqidiy va ijodiy fikrlash, samarali muloqot va murakkab vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalarni tizimli qo‘llash bu ko‘nikmalarni real pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi va pedagog shaxsining ijtimoiy-axloqiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

barqarorligini ta’minlaydi. Natijada hayotiy ko‘nikmalar pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi, bo‘lajak pedagogning kasbiy va shaxsiy yetukligini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** hayotiy ko‘nikmalar, bo‘lajak pedagoglar, pedagogik qadriyatlar, deontologik yondashuv, kasbiy etika, pedagogik jarayon, axloqiy tarbiya, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, refleksiya, interaktiv metodlar, insonparvarlik.

**Iqtibos uchun**: Axunbabayeva Sh.Sh. Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish: mazmuni, bosqichlari va tamoyillari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.46-55.

## ФОРМИРОВАНИЕ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ: СОДЕРЖАНИЕ, ЭТАПЫ И ПРИНЦИПЫ

© Ш.Ш. Ахунбабаева[1]✉
[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современных условиях от будущих педагогов требуется не только владение теоретическими знаниями, но и способность эффективно действовать в сложных педагогических и социальных ситуациях. Жизненные навыки обеспечивают осознанное принятие решений, конструктивное взаимодействие, сотрудничество и лидерство, тем самым укрепляя профессиональную, социальную и нравственную устойчивость личности педагога. В связи с этим их формирование выступает одной из ключевых задач педагогического образования.

**ЦЕЛЬ:** раскрыть содержание, основные этапы и принципы формирования жизненных навыков у будущих педагогов и разработать теоретико-методические основы их интеграции в образовательный процесс. Дополнительно ставится задача выявить возможности интерактивных, рефлексивных и мотивационных методов в развитии педагогических ценностей и профессиональной этики.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В работе проведен анализ отечественных и зарубежных источников по проблеме жизненных навыков, педагогической этики и деонтологии, а также нормативных документов в сфере образования. Использованы системный и деятельностный подходы к моделированию структуры жизненных навыков, этапов и принципов их формирования. Обобщен опыт применения интерактивных, рефлексивных и мотивационных методов, а также цифровых образовательных технологий в подготовке будущих педагогов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что жизненные навыки включают личностные (саморегуляция, стрессоустойчивость, управление временем), коммуникативные, этико-деонтологические, креативные и рефлексивные компоненты. Их формирование целесообразно выстраивать в виде

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

последовательных этапов: теоретико-знаниевая подготовка, развитие практических умений, закрепление и социально-профессиональная интеграция, оценка и корректировка на основе рефлексии и портфолио. Установлено, что согласованное применение деонтологического, гуманистического, деятельностного, рефлексивного, мотивационного, интеграционного и кооперативного принципов усиливает эффективность современных педагогических методов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** формирование жизненных навыков у будущих педагогов способствует развитию профессиональной этики, критического и творческого мышления, эффективной коммуникации и ответственности при принятии решений в сложных ситуациях. Систематическое использование современных педагогических технологий и цифровых ресурсов обеспечивает интеграцию этих навыков с реальной педагогической практикой и укрепляет социально-нравственную устойчивость личности учителя. В итоге жизненные навыки выступают ключевым фактором повышения результативности педагогического процесса и профессиональной готовности будущих педагогов.

**Ключевые слова:** жизненные навыки, будущие педагоги, педагогические ценности, деонтологический подход, профессиональная этика, педагогический процесс, нравственное воспитание, современные образовательные технологии, рефлексия, интерактивные методы, гуманизм.

**Для цитирования**: Ахунбабаева Ш.Ш. Формирование жизненных навыков у будущих педагогов: содержание, этапы и принципы.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 46-55.

## FORMATION OF LIFE SKILLS AMONG FUTURE TEACHERS: CONTENT, STAGES AND PRINCIPLES

©Shaxnoza Sh. Axunbabayeva[1]✉
[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in contemporary education, prospective teachers are expected not only to possess theoretical knowledge but also to act effectively in complex pedagogical and social situations. Life skills enable conscious decision-making, problem solving, constructive communication, cooperation and leadership, thereby strengthening the professional, social and moral stability of the teacher's personality. Consequently, the formation of life skills becomes a central task of teacher education.

**AIM:** the main aim of the study is to identify the content, key stages and principles of forming life skills in future teachers and to develop theoretical and methodological foundations for their integration into the educational process. Additionally, the study seeks to explore the potential of interactive, reflective and motivational methods for fostering pedagogical values and professional ethics.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on the analysis of national and international literature on life skills, pedagogical ethics and deontology, as well as relevant educational policy documents. A systemic and activity-based approach was employed to model the structure of life skills, the stages and principles of their formation. The study also generalizes practical experiences of using interactive, reflective and motivational methods, along with digital educational technologies, in the preparation of prospective teachers.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that life skills comprise personal (self-regulation, stress tolerance, time management), communicative, ethical–deontological, creative and reflective components. Their formation is most effective when organized in successive stages: acquisition of theoretical knowledge, development of practical skills, consolidation and social–professional integration, and assessment and restructuring through reflection and portfolio practices. It is demonstrated that the coherent application of deontological, humanistic, activity-based, reflective, motivational, integrative and collaborative principles significantly enhances the effectiveness of modern pedagogical methods.

**CONCLUSION:** the formation of life skills in prospective teachers promotes the development of professional ethics, critical and creative thinking, effective communication and responsible decision-making in complex situations. The systematic use of contemporary pedagogical technologies and digital resources ensures the integration of these skills with real teaching practice and reinforces the teacher's social and moral stability. As a result, life skills become a key factor in increasing the effectiveness of the pedagogical process and in ensuring the professional readiness and personal growth of future teachers.

**Keywords:** LIFE skills, prospective teachers, pedagogical values, deontological approach, professional ethics, pedagogical process, moral education, modern educational technologies, reflection, interactive methods, humanism.

**For citation**: Shaxnoza Sh. Axunbabayeva. (2025) 'Formation of life skills among future teachers: content, stages and principles', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 46-55. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda pedagogik faoliyatda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va hayotiy malakalar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyat va ta'lim tizimi sharoitida pedagoglardan faqat darsliklar va nazariy materiallarni o'rgatish emas, balki talabalarni murakkab hayotiy vaziyatlarda ongli, mas'uliyatli va samarali harakat qilishga tayyorlash talab etiladi. Shu sababli, bolajak pedagoglar uchun hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish pedagogik jarayonning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.Hayotiy ko'nikmalar – bu pedagog shaxsning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydigan malakalar tizimidir. Ular turli pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish, muammolarni samarali hal etish, muloqotda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

konstruktiv bo‘lish, hamkorlik va liderlik qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, hayotiy ko‘nikmalar pedagogning professional yetukligini, shuningdek, ijtimoiy va axloqiy barqarorligini ta’minlaydi.Bolajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni bir necha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, bu jarayon talabaning kasbiy etikaga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyatning axloqiy va deontologik prinsiplari ustuvor ahamiyatga ega. Ikkinchidan, murakkab vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ya’ni talabani turli pedagogik muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar topishga o‘rgatish.

Uchinchi yo‘nalish – samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lib, bunda talabalar o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan konstruktiv, samarali va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli munosabatlarni o‘rnatishga o‘rgatiladi.Pedagogik jarayonda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda bir qator metod va yondashuvlar samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Xususan, deontologik yondashuv talabaning axloqiy qarorlar qabul qilishini va kasbiy etikaga rioya qilishini ta’minlaydi. Interaktiv metodlar (case-study, rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari) orqali talabalar amaliy vaziyatlarda qaror qabul qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, reflektiv metodlar talabani o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishga, xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga o‘rgatadi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (masofaviy ta’lim platformalari, elektron resurslar va raqamli interaktiv vositalar) hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashning samarali vositasi hisoblanadi.Shunday qilib, pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish – bu nafaqat talabaning bilim va amaliy salohiyatini oshirish, balki uning ijtimoiy va axloqiy yetukligini ta’minlaydigan murakkab va tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon zamonaviy ta’lim talablari, pedagogik qadriyatlar va innovatsion metodlarning uyg‘un integratsiyasi orqali amalga oshiriladi.1. Hayotiy ko‘nikmalar mazmuniBolajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalar – bu shaxsning professional va ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyatli va samarali harakat qilishiga xizmat qiluvchi ko‘nikmalar tizimi bo‘lib, ular bir necha asosiy komponentlardan iborat:

1. Shaxsiy ko‘nikmalar – bu pedagogning o‘zini anglash va boshqarish, stressli vaziyatlarda barqarorlikni saqlash hamda vaqtni samarali rejalashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu jumladan:O‘zini tahlil qilish: talaba yoki pedagog o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali professional o‘sishga intiladi.Vaqtni boshqarish: dars, ilmiy izlanish va shaxsiy faoliyatni muvozanatli tashkil etish.Stressga chidamlilik: murakkab pedagogik vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va vaziyatni konstruktiv hal etish.Intizom va mas’uliyat: belgilangan vazifalarni vaqtida va sifatli bajarish hamda kasbiy majburiyatlarga sodiqlik.

2. Kommunikativ ko‘nikmalar – samarali muloqot va hamkorlikni ta’minlaydigan qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bular:O‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish.Faol tinglash va fikrlarni aniq yetkazish.Bahs va munozaralarda konstruktiv ishtirok etish, jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

3. Kasbiy etika va deontologiya – pedagogning axloqiy prinsiplar asosida qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bu komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:Axloqiy va professional qarorlar qabul qilish.Kasbiy majburiyatlarni bajarish va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish.Ta’lim jarayonida adolat, hurmat va mas’uliyatni saqlash.

4. Kreativ va innovatsion ko‘nikmalar – pedagogning ta’lim jarayonini doimiy yangilash va rivojlantirishga qodirligi:Ta’lim jarayonida yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash.Pedagogik muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal etish.Talabalarni o‘z fikrini erkin ifodalash va ijodiy yondashuvni rag‘batlantirishga o‘rgatish.

5. Reflektiv ko‘nikmalar – pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va professional o‘sishi uchun choralar ko‘rish qobiliyati:O‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va xatoliklarni aniqlash.Kasbiy maqsad va natijalarni baholash.O‘z-o‘zini rivojlantirish va shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarni oshirishga yo‘naltirilgan choralar ko‘rish.Mazkur komponentlar talabani kasbiy shaxs sifatida shakllantirish, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hayotiy ko‘nikmalar pedagogning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi va odatda quyidagi bosqichlardan iborat:

Bilim va nazariy tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda talabalar pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini egallaydi va hayotiy ko‘nikmalar mazmuni bilan tanishadi: Pedagogik nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ta’lim jarayonini tashkil etish va pedagogik metodlarni tushunish. Kasbiy etika, deontologiya va axloqiy prinsiplar bilan tanishtirish, professional qadriyatlarni shakllantirish. Hayotiy ko‘nikmalar mazmuni, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati va rolini tushuntirish.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bosqichi Bu bosqichda talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlashadi:Interaktiv metodlar: rolli o‘yinlar, case-study tahlillari va guruhli muhokamalar orqali qaror qabul qilish va muloqot ko‘nikmalari rivojlantiriladi.Reflektiv metodlar: darslarni tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, pedagogik portfolio yaratish va o‘z-o‘zini rivojlantirish.Motivatsion usullar: talabalarning kasbiy intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni faoliyatga jalb qilish va professional maqsadlarni belgilash.

Mustahkamlash va ijtimoiy integratsiya bosqichi. Bu bosqich hayotiy ko‘nikmalarni real ijtimoiy va kasbiy muhitda tatbiq etishni nazarda tutadi:Ijtimoiy va pedagogik loyihalarda faol ishtirok etish.Kasbiy hamkorlik va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish.Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish orqali hayotiy ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish.

Baholash va qayta shakllantirish bosqichi. Ushbu bosqich talabalar o‘z kasbiy va hayotiy ko‘nikmalarini baholashga, kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga qaratilgan:Pedagogik portfoliolar, seminarlar va ilmiy izlanishlar natijalari orqali o‘z-o‘zini baholash.Talabalarning kasbiy va hayotiy ko‘nikmalarini tahlil qilish, zaif tomonlarni aniqlash va ularni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.Shu tarzda, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni nafaqat talabaning bilim va malakasini rivojlantiradi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

balki uni kasbiy shaxs sifatida barqaror va mas’uliyatli qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonning tizimli va bosqichma-bosqich olib borilishi pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Hayotiy ko‘nikmalarni pedagogik jarayonda samarali shakllantirish uchun ilmiy asoslangan tamoyillarni qo‘llash muhimdir. Ushbu tamoyillar pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

1.Deontologik tamoyil Ushbu tamoyil pedagogik faoliyatda axloqiy prinsiplar va kasbiy etikani birinchi o‘ringa qo‘yishni nazarda tutadi. Pedagogning har bir harakati nafaqat nazariy bilimga, balki axloqiy va kasbiy normalarga mos bo‘lishi shart. Bu tamoyil talabalarda kasbiy mas’uliyat va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2.Insonparvarlik tamoyili Talabalarni hurmat qilish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish pedagogik jarayonning markaziy prinsipi hisoblanadi. Pedagog shaxsning psixologik va emotsional holatini e’tiborga olib, har bir talabaga shaxsiy yondashuvni qo‘llaydi. Bu tamoyil nafaqat samarali o‘qitish, balki talabalar bilan ishonchli va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

3.Faoliyatga yo‘naltirilganlik Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ularni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyatga tatbiq etish muhimdir. Talabalar o‘z bilim va malakalarini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash orqali professional kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Masalan, darslarni rejalashtirish, o‘quvchilar bilan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish va pedagogik portfoliolar yaratish orqali ko‘nikmalar amaliy jihatdan rivojlantiriladi.

4.Reflektivlik Reflektiv tamoyil talabalarga o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va kasbiy o‘sish uchun choralar ko‘rishga o‘rgatadi. Reflektivlik orqali talabalar o‘z harakatlarini baholash, yangi strategiyalar ishlab chiqish va o‘z kompetensiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatiga egabo‘ladi.

5.MotivatsiontamoyilTalabalarni kasbiy o‘sishga va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Bu tamoyil talabalarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantirish, ularni faol pedagogik faoliyatga jalb qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

6.Integratsion tamoyil Integratsion tamoyil zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslar va ijtimoiy faoliyatni birlashtirishni nazarda tutadi. Talabalar turli vositalardan foydalangan holda ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq etadi, shu bilan birga yangi bilimlarni o‘zlashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

7.Hamkorlik tamoyili Guruhda ishlash, tajriba almashish va kasbiy hamkorlikni rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tamoyillaridan biridir. Talabalar birgalikdagi loyihalar, guruh muhokamalari va seminarlar orqali o‘zaro muloqot, hamkorlik va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Ushbu tamoyillarni konseptual ravishda uyg‘unlashtirish talabalarda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

jarayonni tizimli va maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik metodlarHayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlar muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan:

1.Interaktiv metodlar Case-study, rolli o‘yinlar va guruh muhokamalari talabalarni faol pedagogik faoliyatga jalb qiladi. Ushbu metodlar orqali talaba murakkab vaziyatlarni tahlil qiladi, qaror qabul qiladi va pedagogik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2.Reflektiv metodlar Pedagogik portfolio yaratish, o‘z-o‘zini baholash va darslarni tahlil qilish talabalarni o‘z faoliyatini konstruktiv tarzda qayta ko‘rib chiqishga o‘rgatadi. Bu metodlar reflektiv tamoyilga asoslangan bo‘lib, talabalarning kasbiy o‘sishi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

3.Motivatsion metodlar Ilmiy izlanishlar, seminarlar va konferensiyalar orqali talabalar kasbiy intilishlarini mustahkamlash va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiriladi. Bu metodlar talabaning ichki motivatsiyasini oshirish va faol pedagogik ishtirokini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

4.Raqamli resurslar va onlayn platformalar Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish pedagogik kompetensiyalarni oshirish va masofaviy ta’limni amalga oshirish imkonini beradi. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar va multimedia vositalari talabalarga innovatsion pedagogik metodlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

5.Birgalikdagi loyihala va kasbiy hamkorlik Talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish va kasbiy tarmoqlar yaratish orqali hamkorlik ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Birgalikdagi loyihalar va seminarlar talabalarni jamoaviy ishlashga o‘rgatadi, ularni muammolarni birgalikda hal qilish va tajriba almashish bilan tanishtiradi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik metodlar talabalarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda tizimli va amaliy yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Ular pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, talabaning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi va shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Bo’lajak pedagoglarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas va asosiy qismi hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki uning professional va shaxsiy rivojlanishi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va murakkab vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.Ushbu ko‘nikmalar bir nechta muhim funksiyani bajaradi: Kasbiy etika va deontologik prinsiplarni shakllantirish:

Hayotiy ko‘nikmalar pedagoglarni kasbiy etikaga va deontologik tamoyillarga rioya qilishga o‘rgatadi. Bu ularning o‘zaro muloqotlarida, pedagogik qarorlar qabul qilishda va professional faoliyatni amalga oshirishda axloqiy va mas’uliyatli yondashuvni ta’minlaydi. Natijada talabalar insonparvarlik tamoyillariga asoslangan qarorlar qabul qilishni, kasbiy majburiyatlarni to‘liq bajarishni o‘rganadilar. Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish:

Hayotiy ko‘nikmalar talabalarda murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

mavjud muammolarni aniqlash va ularni ijodiy, innovatsion yechimlar bilan hal etish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa pedagogik jarayonda yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash, darslarni samarali va interaktiv o‘tkazish imkonini beradi.Samarali muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlash: Talabalar guruhda ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, faol tinglash va munozaralarda qatnashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tariqa, pedagoglar o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, o‘quv jarayonida ishtirokchilarning ehtiyojlarini hisobga olish va ijtimoiy jihatdan integratsiyalashgan muhit yaratishga tayyor bo‘ladi. Murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish:

Hayotiy ko‘nikmalar pedagoglarni noaniq va murakkab vaziyatlarda axloqiy va samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Bu talabalarni pedagogik va kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarishga, shuningdek, kutilmagan vaziyatlarga tez moslashishga o‘rgatadi.Amaliy ko‘nikmalarni zamonaviy texnologiyalar orqali mustahkamlash:

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, raqamli resurslar va onlayn platformalardan foydalanish talabalarning hayotiy ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Interaktiv va reflektiv metodlar orqali talabalar o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qiladilar, pedagogik portfoliolar yaratadilar va o‘z faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtiradilar. Shu bilan birga, hayotiy ko‘nikmalar pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, talabaning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga tayyorlaydi. Ularning shakllantirilishi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, shuningdek, zamonaviy pedagogik muhitda samarali ishlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. DeJaeghere, J., & Murphy Graham, E. (Eds.). (2021). Life Skills Education for Youth: Critical Perspectives. Springer Cham.
2. Ismoilova, Y. T., & Mamatova, U. Z. (2021). Pedagogical features of the formation of pedagogical ethics in future teachers. Bulletin of Science and Practice, 7(5).
3. Lenzen, B., Buyck, Y., & Bouvier, A. (2023). Teaching life skills in physical education within different teaching traditions: A narrative review. Education Sciences, 13(6), 605.
4. Sadio, F. (n.d.). Professional deontology in teacher training: Report on a training experience.
5. Shodieva, R. A., & Morkhova, I. V. (2025). Key psychological and pedagogical conditions for the formation of deontological competence of a teacher. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(5), 1675–1677.
6. Educational deontology in the community of philosophical inquiry. (2020). Childhood & Philosophy, 16, e45955.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3.

7. Professional ethics “Grafiati” – Teachers – Professional ethics. (2021, June 4). Grafiati.
8. Mathematics teachers’ ethical decision making approaches in instructional practices. (2025). Educational Studies in Mathematics.
9. Mardakhaev, L. V., & Kassenov, Kh. N. (2019). The main approaches to formation ethic and deontological bases of teachers in domestic and foreign practice. Kazakhstan’s Higher School / Высшая школа Казахстана, 1.
10. Pedagogical features of developing deontological competence of future teachers of the subject “Education”. (2025). SHOKH Library.
11. Sultanova, A. M. (2025). The need for deontological approaches in the education system. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 3(7), 23 27
12. Штома, Л. Н. (2013). Aesthetic and ethical basis for the development of pedagogical skills of teachers in higher educational institutions: Bibliographical reference. Імекс ЛТД.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna**, o’qituvchi [**Ахунбабаева Шахноза Шухратовна** преподаватель], [**Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna** teacher]; manzil: 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh. Rashidov ko‘chasi, 4-uy., [адрес: 130100. Джизакская область, г. Джизак, Ш. Ул. Рашидова, д. 4.], [address: 130100. Jizzakh region, Jizzakh, Sh. Rashidova St., 4.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

© U.Y. Azamov[1]✉

[1] Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta'lim jarayoni akademik bilimlar bilan birga ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishni ham talab etadi. P. Salovey, J. Mayer va D. Goleman ishlarida yoritilgan ijtimoiy intellekt shaxsning o'zini va boshqalarni tushunish, empatiya, hissiy regulyatsiya hamda ijtimoiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini qamrab oladi. Raqamli transformatsiya sharoitida bu kompetensiyalar o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasi va professional tayyorgarligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalar asosidagi mexanizmlarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

**MAQSAD:** ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni nazariy jihatdan asoslash va ularning amaliy qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, texnologik (AI, interaktiv platformalar, simulyatsiyalar) va kommunikativ-madaniyatlararo yondashuvlarni birlashtirgan integrativ modelning samaradorligini aniqlash ko'zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda ijtimoiy intellekt, ijtimoiy-emotsional o'qitish va innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv, interaktiv eksperiment, so'rovnomalar va testlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasi, empatiya va kommunikativ ko'nikmalari hamda guruh ichidagi hamkorlik salohiyati o'lchandi. Virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida o'qitish jarayonida olingan ma'lumotlar statistik, solishtirma va integrativ usullar yordamida qayta ishlanib, ilmiy asosda baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari interaktiv o'quv platformalari, virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida o'qitish ijtimoiy intellektning tarkibiy elementlarini (empatiya, kommunikatsiya, guruhda hamkorlik, ijtimoiy qaror qabul qilish) sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Sethi yondashuvi innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy-emotsional o'qitishdagi rolini asoslab bersa, O'zdog'ru modeli kommunikativ va madaniyatlararo sezgirlikni ijtimoiy intellektning muhim vositasi sifatida ko'rsatdi. Ularning integratsiyasi natijasida texnologik vositalar real muloqot va guruhiy tajriba bilan uyg'unlashganda o'quvchilar ijtimoiy kompetensiyalarining o'sishi yanada yuqori bo'lishi aniqlandi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**XULOSA:** maqolada ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning eng samarali strategiyasi sifatida innovatsion texnologiyalarni kommunikativ va madaniyatlararo yondashuv bilan birlashtiruvchi integrativ model taklif etildi. Pedagogik tajriba natijalari bunday yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy, emotsional va professional salohiyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Shuningdek, ijtimoiy intellektni rivojlantirish ta’lim tizimining sifatini oshirish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun strategik ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy intellekt, pedagogik innovatsiya, ta’lim texnologiyalari, interaktiv o‘quv platformalari, virtual guruhlar, loyiha asosida o‘qitish, emotsional kompetensiya, madaniyatlararo sezgirlik.

**Iqtibos uchun**: Azamov U.Y. Ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B. 56-65.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© У.Я. Азамов[1]✉
[1] Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** современное образование рассматривается как пространство формирования не только академических знаний, но и социальных и эмоциональных компетенций. Концепция социального интеллекта, представленная П. Саловей, Дж. Майером и популяризированная Д. Гоулманом, включает способности к самопониманию, пониманию других, эмпатии, эмоциональной регуляции и принятию социальных решений. В условиях цифровой трансформации эти компетенции определяют успешную социальную интеграцию и профессиональную готовность молодых людей. В связи с этим актуальной задачей становится выявление механизмов развития социального интеллекта на основе инновационных педагогических технологий.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать и методически разработать использование инновационных технологий для развития социального интеллекта в образовательном процессе. Дополнительно ставится задача определить эффективность интегративной модели, объединяющей технологический (ИИ, интерактивные платформы, симуляции) и коммуникативно-межкультурный подходы.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов исследования использованы отечественные и зарубежные работы по социальной интеллектуальности, социально-эмоциональному обучению и инновационным образовательным технологиям. Применялись педагогическое наблюдение,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

интерактивный эксперимент, анкетирование и тестирование для оценки уровня социального интеллекта, эмпатии, коммуникативных навыков и группового взаимодействия обучающихся. Эффективность виртуальных симуляций и проектного обучения анализировалась с использованием статистических, сравнительных и интегративных методов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что применение интерактивных платформ, виртуальных симуляций и обучения на основе проектов существенно повышает уровень социального интеллекта, эмпатии, коммуникативных навыков и эффективности группового взаимодействия. Подход Сетхи подчеркивает роль инновационных технологий и ИИ в развитии социально-эмоциональных компетенций, тогда как модель Оздогру акцентирует значение коммуникации и межкультурной чувствительности. Интеграция этих подходов показывает, что максимальный эффект достигается при сочетании технологических средств с реальным общением и совместной деятельностью обучающихся.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в статье обоснована интегративная стратегия развития социального интеллекта, сочетающая инновационные технологии с коммуникативным и межкультурным подходами. Экспериментальные данные подтвердили, что такая модель способствует комплексному личностному, эмоциональному и профессиональному развитию обучающихся. Подчеркнуто, что развитие социального интеллекта имеет стратегическое значение для повышения качества образования, социальной стабильности и подготовки конкурентоспособных специалистов.

**Ключевые слова:** социальный интеллект, педагогическая инновация, образовательные технологии, интерактивные образовательные платформы, виртуальные группы, обучение на основе проектов, эмоциональная компетентность, межкультурная чувствительность.

**Для цитирования**: Азамов.У.Я. Инновационные технологии развития социального интеллекта в образовательном процессе.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 56-65.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

©Umarxon Y. Azamov[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** modern education is viewed as a space not only for acquiring academic knowledge but also for developing social and emotional competences. The concept of social intelligence, introduced by P. Salovey and J. Mayer and popularized by

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

D. Goleman, encompasses abilities of self-understanding, understanding others, empathy, emotional regulation, and social decision-making. Under conditions of digital transformation, these skills are crucial for successful social integration and professional readiness. Therefore, identifying mechanisms for developing social intelligence through innovative pedagogical technologies is a highly relevant task.

**AIM:** the aim of the study is to theoretically justify and methodologically design the use of innovative technologies for developing social intelligence in the educational process. Additionally, the study seeks to evaluate the effectiveness of an integrative model that combines technological (AI, interactive platforms, simulations) and communicative–intercultural approaches.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on national and international literature on social intelligence, social-emotional learning, and innovative educational technologies. Pedagogical observation, interactive experiments, questionnaires, and tests were used to measure students' levels of social intelligence, empathy, communication skills, and group collaboration. The effectiveness of virtual simulations and project-based learning was examined using statistical, comparative, and integrative analysis methods.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate that the use of interactive platforms, virtual simulations, and project-based learning significantly enhances students' social intelligence, empathy, communicative abilities, and effectiveness in group decision-making. Sethi's approach emphasizes the role of innovative technologies and AI in developing social-emotional competences, whereas Ozdogru's model stresses the importance of communication and intercultural sensitivity. The integration of these perspectives shows that the greatest impact is achieved when technological tools are combined with real-life interaction and collaborative experiences.

**CONCLUSION:** the article substantiates an integrative strategy for developing social intelligence that combines innovative technologies with communicative and intercultural approaches. Empirical results confirm that this model supports comprehensive personal, emotional, and professional development of learners. The study concludes that fostering social intelligence is strategically important for improving educational quality, ensuring social stability, and preparing competitive professionals, especially when innovative technologies are embedded in an integrative, communicative, and intercultural pedagogical framework.

**Keywords:** social intelligence, pedagogical innovation, educational technologies, interactive learning platforms, virtual groups, project-based learning, emotional competence, intercultural sensitivity.

**For citation**: UmarxonY. Azamov. (2025) 'Innovative technologies for the development of social intelligence in the educational process', Inter education & global study,vol.3. (11(1)), pp. 56-65. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Z**amonaviy ta’lim jarayoni murakkab ijtimoiy-kognitiv va psixologik vazifalarni o‘z ichiga olgan tizim sifatida qaraladi. Ta’lim nafaqat akademik bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida, balki shaxsiy, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish maydoni sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy intellekt (Social Intelligence) kontseptsiyasi ta’lim jarayonida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Ijtimoiy intellekt, dastlab P. Salovey va J. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan[1] va keyinchalik D. Goleman tomonidan ommalashtirilgan[2], bu shaxsning o‘zini va boshqalarni tushunish, ijtimoiy vaziyatlarni idrok etish, samarali kommunikatsiya va o‘zaro munosabatlarni boshqarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy intellektning o‘quv jarayonidagi ahamiyati zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. U nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, balki ularning professional kompetensiyalarini shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasi pedagogik innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida bu vazifani bajarishning eng samarali vositalaridan biri innovatsion texnologiyalar hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda interaktiv o‘quv platformalari, raqamli simulyatsiyalar, virtual guruhlar, loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya elementlari va multimediya vositalari tushuniladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual salohiyati bilan birga emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda ongli va tezkor qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Ijtimoiy intellektni pedagogik jarayonda rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga, balki jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasiga ham hissa qo‘shadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy intellektning tarkibiy elementlari – o‘z-o‘zini idrok etish, boshqalarni tushunish, empatiya, hissiy regulyatsiya va ijtimoiy qaror qabul qilish – ta’lim jarayonida kompleks tarzda rivojlantirilsa, o‘quvchilarning akademik, kognitiv va kommunikativ salohiyati sezilarli darajada oshadi[3].

Bu esa o‘z navbatida professional faoliyatga tayyorgarlik, liderlik salohiyati va guruh ichidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Masalan, interaktiv o‘quv platformalari o‘quvchilarga mustaqil va guruhli ishlarni birlashtirish, real vaqt rejimida fikr almashish va muloqot qilish imkonini beradi. Virtual simulyatsiyalar va raqamli laboratoriyalar murakkab vaziyatlarni modellash orqali ijtimoiy intellektning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Loyiha asosida o‘qitish esa o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, guruh ichidagi liderlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlari motivatsiyani oshiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.

Pedagogik nazariya va amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy intellektni rivojlantirishning samarali mexanizmlari integrativ yondashuvni talab qiladi[4]. Bu yondashuv individual psixologik xususiyatlarni, o‘quvchilarning emotsional holatini, guruh ichidagi o‘zaro aloqalarni va kommunikativ kompetensiyalarni hisobga oladi. Shu nuqtai


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nazardan, innovatsion texnologiyalarni pedagogik jarayonda qo‘llash ijtimoiy intellektning har bir tarkibiy elementini tizimli va uzviy tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Ijtimoiy intellektning ta’lim jarayonidagi ahamiyati shuningdek, global ta’lim standartlari va raqamli transformatsiya kontekstida ham ortib bormoqda. XXI asr sharoitida o‘quvchilarning muvaffaqiyati faqat akademik bilimlarga emas, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, murakkab vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish qobiliyati, professional va etnik madaniyatlarni tushunish qobiliyati bilan ham belgilanadi[5]. Shu sababli, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar yordamida ijtimoiy intellektni rivojlantirish strategiyasi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi uchun ham muhim hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiy intellektning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni ham ko‘rsatish muhimdir. Ular orasida o‘quvchilarning emotsional o‘zini boshqarish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, guruh ichidagi muloqotning sustligi, innovatsion texnologiyalarni amaliy qo‘llashdagi pedagogik ko‘nikmalarning yetishmasligi va individual yondashuvning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi kabi masalalar mavjud[6]. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy intellektni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni kompleks tarzda qo‘llash pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Maqola doirasida ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari tizimli tarzda tahlil qilinadi, mavjud nazariy yondashuvlar va amaliy usullar ilmiy asosda birlashtiriladi, shuningdek, zamonaviy pedagogik muammolarni hal etish bo‘yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, maqola nafaqat nazariy tahlil, balki pedagogik amaliyotga tadbiqiy tavsiyalar berish maqsadida yozilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim muhitida ijtimoiy intellektni samarali rivojlantirish bo‘yicha metodologik asoslarni aniqlashga qaratilgan. Ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari pedagogik jarayonda shaxsning ijtimoiy va emotsional barqarorligini oshirish, murakkab vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilishni rag‘batlantirish, hamda shaxsiy va professional salohiyatni maksimal darajada ochib berish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini tizimli va ilmiy asosda o‘rganishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy pedagogika va ta’lim texnologiyalari adabiyotida ijtimoiy intellekt (social intelligence) va uning ta’lim jarayonida shakllanishi hamda innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlanishi masalalari tobora ko‘proq tadqiq qilinmoqda. Bu borada ikki chet el olimining yondashuvlari o‘zaro to‘qnashuvli emas, balki bir biri bilan uzviy bog‘langan qilib qaralishi mumkin.

Avvalo, SS Sethi ning 2024 yilda chop etilgan «AI technologies for social emotional learning: recent research directions» nomli maqolasida ta’lim muhitida ijtimoiy emotsional o‘qitish (SEL — social emotional learning) bilan bog‘liq texnologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Ushbu ishda Sethi, AI vositalarining ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi: «Artificial Intelligence

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

(AI) presents a wealth of practical implications for nhancing Social Emotional Learning (SEL) in educational settings.» Sethi bu jihatni innovatsion texnologiyalar orqali ijtimoiy intellektning shakllanishini qo‘llab quvvatlash nuqtai nazaridan tadqiq etadi, ya’ni o‘quvchilarning boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, empathiya, hissiy regulyatsiya va guruh ichidagi kommunikatsiyani rivojlantirishda AI texnologiyalar qanday rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ushbu yondashuv ijtimoiy intellektni faqat psixologik ko‘nikmalar doirasida emas, balki texnologik integratsiya kontekstida ham qamrab oladi. Ikkinchi olim sifatida esa M O’zdog’ru ning 2024 yilda «Investigation of Communication, Social Intelligence and Intercultural Sensitivity among Teacher Candidates» nomli maqolasiga e’tibor qaratish lozim. Mazkur ishda ta’lim sohasida tayyorlanayotgan o‘qituvchi nomzodlarining kommunikatsiya mahorati, madaniyatlararo sezgirlik (intercultural sensitivity) va ijtimoiy intellekt darajalari o‘rtasidagi munosabat strukturalari semantik tenglamalar (SEM) orqali o‘rganiladi.

Maqolada shunday natijaga kelinadi: «Communication skills of teacher candidates predict their social intelligence levels through the mediating role of intercultural sensitivity.» Bu yondashuv ijtimoiy intellektni rivojlantirish jarayonida faqat texnologik texnika emas, balki kommunikativ jarayon va madaniyatlararo o‘zaro aloqaning ham markaziyligini ta’kidlaydi.

Bu ikki olimning ishlari bir birini to‘ldiruvchi jihatlarga ega. Sethi texnologiyaga — AI va raqamli vositalarga e’tibor beradi va ijtimoiy emotsional kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvning rolini ko‘rsatadi[7]. O’zdog’ru esa ijtimoiy intellektning rivojlanishida komunikativ va madaniyatlararo komponentlar — ya’ni o‘qituvchi nomzodlarining boshqalar bilan munosabatlari va o‘zaro aloqalari — muhimligini ta’kidlaydi. Demak, texnologik pedagogik va sotsiokultural yondashuvlar bir birini to‘ldiradi: ilgari texnologiya bilan ijtimoiy intellektni shakllantirish mumkinligi ko‘rsatilsa, so‘ngra bu jarayonda kommunikatsiya va madaniyatlararo ko‘nikmalar ham muhim ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, Sethi ishlari ijtimoiy intellektni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ilmiy asosda ko‘rsatadi, O’zdog’ru esa bu texnologiyalar orqali yaratilgan o‘quv muhitida o‘qituvchi o‘qituvchi va o‘qituvchi o‘quvchi munosabatlarının qanday shakllanishi kerakligini o‘rganadi[8]. Bu esa ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish strategiyasini ya’ni texnologik vositalar kommunikativ madaniyatlararo jarayonlar integrativ yondashuvga asoslangan holda amalga oshirish kerakligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkin: ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishni o‘zida aks ettiradi — birinchisi, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida ijtimoiy emotsional kompetensiyalarni shakllantirish (Sethi), ikkinchisi esa kommunikativ va madaniyatlararo ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ijtimoiy intellektni oshirish (O’zdog’ru). Shu asosda, mazkur maqolada ham ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun innovatsion

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, ularning kommunikativ va madaniyatlararo kontekstda qo‘llanilishi nazariy metodik jihatdan muhim ekani ko‘rib chiqiladi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi; jumladan, pedagogik kuzatuv, interaktiv eksperiment, so‘rovnomalar va testlar yordamida o‘quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasi, kommunikativ ko‘nikmalari va guruh ichidagi hamkorlik salohiyati o‘lchandi, shuningdek, virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida o‘qitish orqali innovatsion texnologiyalarning samaradorligi tahlil qilindi va natijalar statistik, solishtirma va integrativ usullar bilan ilmiy asosda baholandi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida interaktiv platformalar, virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida o‘qitish kabi innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasini, empatiya va kommunikativ ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, guruh ichidagi hamkorlik va qaror qabul qilish samaradorligini yaxshilaydi, bu esa ijtimoiy intellektni rivojlantirishning integrativ va tizimli yondashuvini tasdiqlaydi.

Muxokama: Ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning samarali yondashuvlari borasida Sethi va O’zdog’ru olimlarining fikrlari qiziqarli ilmiy munozara yaratadi. Sethi o‘z ishida, asosan, innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari yordamida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning afzalliklarini ta’kidlaydi. U fikricha, interaktiv platformalar va raqamli simulyatsiyalar o‘quvchilarga murakkab ijtimoiy vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish, boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish va empatiya ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, Sethi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayonga integratsiyasi o‘quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishini, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda ularning ongli va tizimli javob berish qobiliyatini oshirishini ilmiy asosda ko‘rsatadi[9]. Bunga qarshi

O’zdog’ru o‘qituvchi nomzodlarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayonida kommunikatsiya va madaniyatlararo sezgirlikning markaziy rolini ta’kidlaydi. O’zdog’ru fikricha, texnologik vositalar faqatgina yordamchi rol o‘ynashi mumkin, ammo o‘quvchilarning real muloqot, guruh ishlari va madaniyatlararo tajribalar orqali ijtimoiy intellektni shakllantirish imkoniyatini to‘liq qamrab olmaydi. Shuning uchun, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, kommunikativ va madaniyatlararo ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimli yondashuv sifatida birlashtirilishi zarur. Bu ikki olimning yondashuvlari bir-birini rad etmaydi, balki bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega. Sethi texnologik integratsiyani kuchaytirishga urg‘u berar ekan,

O’zdog’ru o‘quvchilarning real ijtimoiy muhitda tajriba orttirishining muhimligini ko‘rsatadi[10]. Shu munosabat bilan maqolada ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni kommunikativ va madaniyatlararo kontekst bilan birlashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, ikki olimning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv platformalar, virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qitish o‘quv jarayonini boyitadi, lekin bu vositalarning samaradorligi o‘quvchilarning shaxsiy ijtimoiy tajribasi va guruh ichidagi o‘zaro aloqalar bilan uyg‘unlashganda maksimal darajada oshadi. Shu sababli, pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni faqat texnologik vosita sifatida emas, balki integrativ, kommunikativ va madaniyatlararo yondashuv doirasida qo‘llash ijtimoiy intellektni rivojlantirishning eng samarali strategiyasi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Sethi va O’zdog’ru o‘rtasidagi ilmiy polemika pedagogik nazariy va amaliy jihatdan integrativ yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi: ijtimoiy intellektni shakllantirish jarayonida texnologiya va real ijtimoiy tajriba uzviy birlashtirilsa, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv platformalar, virtual simulyatsiyalar va loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasini, empatiya va kommunikativ ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Adabiyotlar tahlili ikki asosiy yo‘nalishni ajratdi: Sethi texnologik yondashuv orqali ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga urg‘u berar ekan, O’zdog’ru kommunikativ va madaniyatlararo ko‘nikmalarning muhimligini ta’kidlaydi. Bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiruvchi bo‘lib, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni real ijtimoiy tajriba va guruh ishlari bilan birlashtirish ijtimoiy intellektni rivojlantirishning eng samarali strategiyasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, maqolada qo‘llangan metodologiya – pedagogik kuzatuv, interaktiv eksperiment, so‘rovnomalar va testlar – ijtimoiy intellektning tarkibiy elementlarini tizimli o‘rganish va innovatsion texnologiyalarning samaradorligini baholashga imkon berdi. Natijalar pedagogik amaliyotda integrativ yondashuvni qo‘llash zarurligini tasdiqladi, bu esa o‘quvchilarning shaxsiy, emotsional va professional rivojlanishini maksimal darajada ta’minlaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va professional kompetensiyalarni oshirish uchun ham strategik ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalarni pedagogik jarayonda samarali qo‘llash integrativ, kommunikativ va madaniyatlararo yondashuv bilan uyg‘unlashganda o‘quv jarayonining sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu tariqa, ijtimoiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari va innovatsion texnologiyalarning pedagogik integratsiyasi ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish va o‘quvchilarning shaxsiy hamda professional salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ibragimjanovich, T. X. I. (2025). Bo‘lajak o ‘qituvchilarda fuqarolik ongini shakllantirishning pedagogik asoslari. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(6), 26-29.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Islomovich, I. T., & Ravshanbekovich, G. S. (2023). Development of pedagogical competence in future teachers. The American Journal of Management and Economics Innovations, 5(04), 12-16.
3. Ergashbayev, S. (2025). PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE INTEGRATION OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH'S SPIRITUAL OUTLOOK. SHOKH LIBRARY, 1(10).
4. Ismoilov, T. I. (2025). ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH. Global Science Review, 4(1), 337-344.
5. Ergashbayev, S. (2025). Uzluксiz ta'lim tashкil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish. Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary, 1(1), 10-13.
6. Shaxlo, R., & Ismoilov, T. I. (2025). BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYORLASHDA INOVATSION OQITISH TEHNALOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIC MEHANIZIMLARI. Global Science Review, 4(2), 193-199.
7. Daniel Goleman o'zining "Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ" (Bantam Books, New York, 384 p., 2021
8. John D. Mayerning "Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications" (Psychological Inquiry, Vol. 15, No. 3, 2004, pp. 197–215
9. Isaqova, A. M. (2023). BO'LAJAK OQITUVCHILARDA IJTIMOIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(KSPI Conference 1), 251-256.
10. Mukaddas, A., & Shohbozbek, E. (2025). XIX-XX ASR 1-YARMIDA O 'ZBEKISTON PEDAGOGIKASIDA MILLIYLIK TAMOYILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI. Global Science Review, 3(2), 89-94.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Azamov Umarxon Yaxyoxonovich**, o'qituvchi [**Азамов Умархон Яхёхонович**, преподаватель], [**Azamov Umarxon Yaxyoxonovich** teacher]; manzil: Namangan shaxar, Uychi ko'chasi 316-uy, [адрес: г. Наманган, ул. Уйчи, д. 316], [address: 316 Uichi Street, Namangan city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O‘QUVCHILARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI PEDAGOGIK YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

© G.A . Baynazarova[1]✉
[1]332- maktab, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirishda ma’naviy qadriyatlar zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekani, normativ hujjatlar ta’lim va tarbiyani birligida tashkil etishni talab qilishi ko‘rsatiladi. Maktabning vazifasi o‘quvchini nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish bilan izohlanadi.

**MAQSAD:** o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda tizimli-pedagogik yondashuvning afzalliklarini aniqlash va uning amaliy imkoniyatlarini asoslash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tahlilda ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha davlat hujjatlari, zamonaviy pedagogik adabiyotlar hamda maktab amaliyoti materiallari o‘rganildi. Kuzatuv, suhbat va tarbiyaviy tadbirlar hamda badiiy adabiyotdan foydalanish tajribasini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar dars va darsdan tashqari faoliyatda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish sinf iqlimi, o‘qituvchi shaxsiy namunasining izchilligi va ota-onalar bilan hamkorlikka bog‘liqligini ko‘rsatdi. Badiiy asarlar, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, suhbat va muhokamalar o‘quvchilarda hamdardlik, insonparvarlik, jamoaviylik va mas’uliyat tuyg‘ularini kuchaytirishi aniqlandi.

**XULOSA:** xulosa qilib, tizimli-pedagogik yondashuv ta’lim va tarbiyani yagona tizimda birlashtirib, ma’naviy qadriyatlarning izchil va kompleks shakllanishini ta’minlashi qayd etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda axloqiy ong, ijtimoiy faollik va hayotda qadriyatlarga amal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy qadriyatlar; tizimli-pedagogik yondashuv; tarbiya; axloqiy ong; oila–maktab–jamiyat hamkorligi; o‘qituvchi namunasi.

**Iqtibos uchun**: Baynazarova G.A. O‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda tizimli pedagogik yondashuvning afzalliklari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B. 66-70.

# ПРЕИМУЩЕСТВА СИСТЕМНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ

© Г.А. Байназарова[1]✉
[1] Школа № 332, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении подчеркивается приоритет духовно-нравственного воспитания в современной образовательной политике и нормативных документах. Отмечается, что школа призвана формировать не только осведомленного, но и культурно и нравственно зрелого, социально ответственного человека.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЦЕЛЬ:** выявить преимущества системно-педагогического подхода в формировании духовных ценностей у учащихся и обосновать его практический потенциал.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использованы государственные документы, посвященные образованию и духовно-нравственному развитию, а также современная психолого-педагогическая литература и данные школьной практики. Применялись методы анализа, наблюдения, беседы и обобщения опыта воспитательных мероприятий и работы с художественной литературой.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показывают, что духовные ценности эффективнее формируются при единстве урока, внеурочной деятельности и морального климата в классе. Использование художественных произведений, ролевых игр, дискуссий и совместных дел усиливает эмпатию, гуманистические установки и чувство коллективизма, а системное взаимодействие с семьей повышает устойчивость воспитательного эффекта.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что системно-педагогический подход обеспечивает целостность процесса духовно-нравственного воспитания через согласованные усилия семьи, школы и общества. Он способствует превращению духовных и моральных ориентиров в устойчивые личностные качества и социально ответственное поведение учащихся.

**Ключевые слова:** духовные ценности; системно-педагогический подход; воспитание; моральное сознание; сотрудничество семьи и школы; личный пример учителя.

**Для цитирования**: Байназарова. Г.А. Преимущества системного педагогического подхода в формировании духовных ценностей у учащихся.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 66-70.

## THE ADVANTAGES OF A SYSTEMATIC PEDAGOGICAL APPROACH IN THE FORMATION OF SPIRITUAL VALUES AMONG STUDENTS

©Gulnoza A. Baynazarova[1]✉
[1]School N 332, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction stresses that spiritual and moral education is a strategic priority in modern education policy and official regulations. The role of the school is presented as preparing not only a knowledgeable learner, but a culturally and morally mature and socially responsible person.

**AIM:** the aim of the study is to identify the advantages of a systemic pedagogical approach in forming students' spiritual values and to substantiate its practical potential.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on national documents on education and spiritual–moral development, contemporary pedagogical literature and data from school practice. Methods of analysis, observation, interviews and generalization of experience with educational activities and the use of fiction in moral upbringing were applied.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that spiritual values are formed more effectively when lessons, extracurricular activities and the moral climate of the class function as a unified whole. The use of literary works, role-plays, discussions and joint events strengthens empathy, humanistic attitudes and a sense of community, while systematic cooperation with families enhances the stability of educational outcomes.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**CONCLUSION:** it is concluded that a systemic pedagogical approach ensures the integrity of spiritual and moral education by coordinating the efforts of family, school and society. This approach helps to transform spiritual and moral orientations into stable personal qualities and socially responsible behaviour in students.

**Keywords:** spiritual values; systemic pedagogical approach; upbringing; moral awareness; family–school cooperation; teacher as role model.

**For citation**: Gulnoza.A. Baynazarova. (2025) 'The advantages of a systematic pedagogical approach in the formation of spiritual values among students', Inter education & global study, vol.3.(11(1)), pp. 66-70. (In Uzbek).

**B**ugungi ta'lim tizimining vazifasi shunchaki keng dunyoqarashga ega, rivojlangan aqliy salohiyatga va yuqori bilim darajasiga ega shaxsni shakllantirish emas, balki madaniyatli shaxsni tarbiyalashdir. Shaxsning intellektual, siyosiy va madaniy darajasiga ko'p jihatdan jamiyatning kelajagi bog'liq bo'ladi. Ma'naviy va axloqiy qadriyatlar muammosi va shaxs tarbiyasidagi o'rni zamonaviy pedagogika fanida eng muhim masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil, 3-maydagi qarori bilan tasdiqlangan konsepsiyasida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviy qadriyatlarni izchil shakllantirishni ko'zda tutgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuning (2020-yil, ZRU-637) 3-moddasida: ta'lim – yosh avlodni aniq maqsad va ijtimoiy-tarixiy tajriba, ong, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar hamda qarashlar shakllantirish asosida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizim jarayoni deb hisoblandi.

Ma'naviy qadriyatlar o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan tashkil etilgan va maqsadli faoliyat bo'lib, maktab o'quvchilarida oliy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga, shuningdek, vatanparvar va Vatanga himoyachi sifatida sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Maktab o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash jarayoni shuningdek ta'lim jarayonida sodir bo'ladi. Dars turli kollektiv faoliyatlar va tuyg'ular, ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini to'plash joyidir. Bu yerda ta'lim oluvchilar mustaqil ishlashni, o'z harakatlarini boshqalarining harakatlari bilan solishtirishni, do'stlarini tinglashni va tushunishni, o'z bilimlarini boshqalarning bilimlari bilan solishtirishni, o'z fikrini himoya qilishni, yordam berishni va yordam olishni o'rganadilar.

O'quvchilarda axloqiy ongni shakllantirish uchun ularga nafaqat o'z tajribalarini, balki boshqalarning (do'stlar, ota-onalar, kattalar) tajribalarini tushunishga yordam berishga xizmat qiladi. Ma'naviy qadriyatlarni tarbiya jarayonida badiiy adabiyot asarlaridan foydalanish o'quvchilarda boshqalar bilan hamdardlik qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi va ularning ijobiy axloqiy his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz", G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Navoiy" kabi asarlaridan foydalanish o'quvchilarda boshqalar bilan hamdardlik qobiliyatini shakllantirishga yordam berishga, ijobiy axloqiy, ma'naviy his-tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi.

Ukrayinalik peadgog V.A. Suxomlinskiy (1918-yil 28-sentyabrda Ukraina Respublikasining Kirovograd viloyati, Onufriyevka tumanida tug'ilgan). tadqiqotida shunday yozgan: "Bola uchun eng yaxshi o'qituvchi ruhiy, ma'naviy jihatdan o'quvchi bilan aloqada bo'lib, o'qituvchi ekanligini unutib, o'z o'quvchisida do'st, fikrdoshini ko'radigan o'qituvchidir. Bunday o'qituvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tarbiyalanuvchisining qalbidagi eng sirli burchaklarni biladi va uning og‘zidagi so‘z, shakllanayotgan shaxsga ta’sir ko‘rsatadigan kuchli qurolga aylanadi. O‘qituvchining tarbiyalanuvchisi ruhiy olamiga sezgirligi axloqiy harakatlarga, qadriyatlarga undaydigan muhit yaratishga bog‘liqdir”. Ma’naviy qadriyatlar o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etishning o‘zgaruvchan usullari va shakllaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi.

Ma’naviy qadriyatlar usullari - o‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan pedagogik metod va yo‘llar majmuasidir. Ma’naviy qadriyatlar eng muhim usullariga quyidagilar kiradi: axborot, faoliyat, emotsional va refleksiv usullar uyg‘un qo‘llanilganda o‘quvchilarda hamdardlik, mas’uliyat va insonparvarlik sifatlari izchil rivojlanadi.

Ma’naviy qadriyatlar sifatlarni shakllantirish jarayonida pedagog va tarbiyalanayotganlar o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etishning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin: tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati shakllari: sayohat o‘yinlari; teatr tomoshalari; vaziyatli suhbatlar; muqaddas joylarga virtual ekskursiyalar; bayram o‘yin-kulgilari, bayramlar; bilim beruvchi viktorinalar; rolli o‘yinlar; dramatizatsiya o‘yinlari; axloqiy-etik vaziyatlarni sahnalashtirish; mavzuga oid suhbatlar; muhokamalar, dialog asosida; badiiy va ijodiy faoliyat.

O‘quvchilarni ma’naviy qadriyatlarini tarbiyalash katta darajada pedagogning shaxsiy namunasi, xulq-atvori, tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabati, dunyoqarashi, ishbilarmonlik sifatlari va obro‘siga ham bog‘liq. Pedagogning ijobiy namunasining kuchi, agar u o‘z shaxsiyati va obro‘sidan tizimli va uzluksiz tarzda foydalansa, yanada oshadi. Bundan tashqari, ta’lim beruvchining ijobiy ta’siri shunday paytda ham ortadi, agar ta’lim oluvchilar so‘zi bilan amali orasida farq yo‘qligiga, har biriga nisbatan adolatli va do‘stona munosabatda bo‘lishiga amin bo‘lsalar qadriyatlar yanada singdiriladi. Bola va o‘smirlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash ishida eng muhim ahamiyatga pedagogning oila bilan o‘zaro aloqasi ega. Bu jarayonda ota-onalar bilan ishlashning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin: amaliy seminarlar; mashhurlar bilan uchrashuvlar; mavzuli muhokamalar va maslahatlar.

Zamonaviy tadqiqotlar ta’limda protsessual jihatlarni modernizatsiya qilish sohasida kompyuterlashtirish natijasida yuzaga kelgan yangi haqiqatni, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishini e’tibordan chetda qoldira olmaydi. Shubhasiz, bu ijtimoiy hayot xususiyatlari ta’lim jarayoniga ta’sir qiladi va kelajakdagi o‘qituvchilarni metodik tayyorlashni tashkil etishda hisobga olinishi kerak. Shu munosabat bilan o‘quvchilarni mustaqil ilmiy-professional faoliyatga yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi axborot-ta’lim muhitini yaratish zarurati dolzarb hisoblanadi. Kelajakdagi o‘qituvchilarni metodik tayyorlash sifatini boshqarishda va uni baholashda didaktik ta’minotdagi alohida o‘rin biz tomonidan ishlab chiqilgan elektron qo‘llanmalarda ham ma’naviy qadriyatlarimiz xususida ma’lumot berilshi kerak bo‘ladi. Aytilgan elektron qo‘llanma o‘quvchilarni tanishishi uchun kutubxonalarda bo‘lishini ta’minlash kerak.

Maktab o‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasining muhim sharti sinf va maktabdagi umumiy ma’naviy “iqlim”, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat uslubi, o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlardir. O‘quvchi jamoaning to‘liq huquqli a’zosi bo‘lganini shunda his qiladi, agar sinfda o‘zaro g‘amxo‘rlik va e’tibor, samimiyat va talabchanlik muhiti hukm so‘rsa, har bir o‘quvchining shaxsiy salohiyati rivojlanadi, kuchsizlarning o‘z-o‘ziga ishonchi ortadi va kamchiliklari e’tiborga olinmaydi. O‘quvchilarga jamoani bir butun sifatida his qilishlariga yordam berish, uning manfaatlariga hurmat bilan qarashni o‘rgatish juda muhimdir. O‘quvchilar o‘zlarini adolatsizlik va xafa bo‘lishdan himoyalangan deb his qilishi, boshqalar ularni e’tiborsiz

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qoldirmaganini his qiladi. O‘quvchilarda do‘stona ishtirok, hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otish, ularga shubhalarini, quvonchlarini va qayg‘ularini bo‘lishishni o‘rgatish, jamoaviylik tuyg‘usini singdirish, atrof-muhitga moslashish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari orasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muammosi avvalo jamiyatning nafaqat bilimli, balki axloqiy rivojlanish darajasi yetarli bo‘lgan odamlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi, insonning zamonaviy polikultural dunyodagi o‘rnini belgilaydi. Shuning uchun umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Umumta’lim muassasasi o‘quvchilarning tarbiyasiga eng muhim ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy ta’lim muassasasi bo‘lib, u zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, ma’naviy, axloqiy va huquqiy tamoyillar bilan boyitilgan ta’lim muhitini yaratish uchun mo‘ljallangan. Buning uchun o‘quvchilarda ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga yordam beruvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zarur.

O‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida tizimli-pedagogik yondashuvning afzalliklari shundaki, u ta’lim va tarbiya jarayonini yagona tizim sifatida ko‘rib, oila, maktab va jamiyatning uzviy hamkorligini ta’minlaydi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlar izchil va kompleks shakllanadi, bilim, axloqiy qarashlar va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unlashadi. Shuningdek, tizimli yondashuv o‘quvchilarning kundalik hayotda qadriyatlarni amalda qo‘llashiga, boshqalar bilan hamdardlik, insonparvarlik va ijobiy axloqiy his-tuyg‘ularni rivojlantirishiga yordam beradi. Natijada, o‘quvchi nafaqat bilimli, balki ma’naviyatli, ijtimoiy faollikka ega va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 2019-yil, 3-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni (2020-yil, ZRU-637).
3. Галицкая И.А., Метлик И.В. Понятие “духовно-нравственное воспитание” в современной педагогической теории и практике // Педагогика. 2011. № 10. С. 36 - 46.
4. Анисимов С.Ф. Роль нравственного просвещения в духовном формировании личности. М., 2013. 3. Духовно-нравственное воспитание школьников `// Начальная школа: плюс до и после. 2010. № 11. С. 3-10.
5. Алексеева Екатерина Николаевна ФГБУ ВО “Гжельский государственный университет” (п. Электроизолятор). Теоретические подходы формирования духовно-нравственных ценностей у студентов спо.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Baynazarova Gulnoza Abdurasulovna**, direktor o‘rinbosari [**Байназарова Гулноза Абдурасуловна**, заместитель директора], [**Baynazarova Gulnoza Abdurasulovna** associate Director]; manzil: 100034, Toshkent, Yangihayot tumani, Yangixayot-2 mavzesi, 88A, [адрес: 100034, Ташкент, янгихаитский район, мавзе янгихаит-2, 88а], [address: 100034, Tashkent, yangikhait district, mavze yangikhait-2, 88a.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

© R.B. Deykanova[1]✉

[1]Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirish qismida ta’lim maqsadining jamiyat ehtiyojlari, davlat siyosati va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi bilan uzviy bog‘liqligi, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida kreativ pedagogik yondashuvlarning ahamiyati asoslanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim sifatini oshirish, PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish uchun boshlang‘ich sinf darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zarurligi ta’kidlanadi.

**MAQSAD:** boshlang‘ich ta’limda kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslarini aniqlash, ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish va o‘quvchilarning kognitiv hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, kreativ pedagogika konsepsiyasini milliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish yo‘llarini asoslash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezident murojaatnomalari, umumiy o‘rta va boshlang‘ich ta’lim konsepsiyalari, zamonaviy darsliklar va metodik qo‘llanmalar hamda amaliy dars tajribalari olindi. Metod sifatida nazariy-tahliliy yondashuv, pedagogik kuzatuv, o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish, tajriba-sinov mashg‘ulotlari va ularning natijalarini solishtirish usullari qo‘llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, kreativ pedagogik texnologiyalar — interfaol metodlar, loyiha va muammoli ta’lim, elektron darsliklar va xalqaro baholash dasturlariga mos topshiriqlardan foydalanish — o‘quvchilarning darsga qiziqishi, bilishga ehtiyoji va ijodiy tafakkurini sezilarli oshiradi. O‘qituvchining metodik kompetensiyasi, innovatsion yondashuvga tayyorligi va darsni ijodiy loyihalash mahorati oshgan sari darsning sifat ko‘rsatkichlari, o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi yaxshilanadi.

**XULOSA:** boshlang‘ich ta’limda kreativ pedagogik texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti ekani asoslanadi. O‘qituvchining kasbiy mahoratini doimiy rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, metodik qo‘llanmalar va raqamli resurslar bilan ta’minlash kreativ pedagogikaning amaliy natijasini kuchaytirishi qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** kreativ pedagogika; kreativ pedagogik texnologiyalar; boshlang‘ich ta’lim; interfaol metodlar; kognitiv rivojlanish; ijodiy tafakkur; metodik kompetensiya; ta’lim samaradorligi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Deykanova R.B. Boshlang‘ich ta’limda kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B. 71-75.

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КРЕАТИВНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Р.Б. Дейканова[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении обосновывается связь целей образования с общественным заказом, государственной политикой и развитием человеческого капитала, особенно на ступени начального образования. Подчёркивается, что в условиях «Нового Узбекистана» повышение качества образования и участие в международных исследованиях PISA, PIRLS, TIMSS требуют организации уроков в начальной школе на основе современных креативных педагогических технологий.

**ЦЕЛЬ:** выявить теоретико-методологические основы использования креативных педагогических технологий в начальном образовании, проанализировать их влияние на эффективность обучения и разработать методические рекомендации по развитию познавательной и творческой активности учащихся. Дополнительно ставится задача адаптировать концепцию креативной педагогики к национальной практике начального образования.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** материалами исследования послужили Закон Республики Узбекистан «Об образовании», обращения Президента, концепции общего и начального образования, современные учебники и методические пособия, а также данные наблюдений за уроками. Использовались теоретический анализ, педагогическое наблюдение, изучение и обобщение опыта учителей, опытно-экспериментальная работа и сравнительный анализ результатов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показывают, что применение креативных педагогических технологий — интерактивных методов, проектного и проблемного обучения, электронных учебников и заданий, ориентированных на международные исследования, — существенно активизирует познавательную и творческую деятельность учащихся. Рост методической компетентности учителя, его готовность к инновациям и творческому проектированию урока приводит к повышению показателей качества урока, активности школьников и их способности к самостоятельному мышлению.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В заключении обосновывается, что целенаправленное и системное использование креативных педагогических технологий является важным условием повышения эффективности начального образования. Подчёркивается необходимость непрерывного профессионального развития учителя, распространения передового опыта, совершенствования методического обеспечения и цифровых ресурсов для усиления практических результатов креативной педагогики.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Ключевые слова:** креативная педагогика; креативные педагогические технологии; начальное образование; интерактивные методы; когнитивное развитие; творческое мышление; методическая компетентность; эффективность обучения.

**Для цитирования**: Дейканова. Р.Б. Эффективность использования креативных педагогических технологий в начальном образовании.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 71-75.

## THE EFFECTIVENESS OF USING CREATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

©Ra'no B. Deykanova[1]✉
[1]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction explains how educational aims are linked to social demand, state policy and human capital development, with a special focus on the primary school level. It is argued that in the context of "New Uzbekistan", improving educational quality and participating in international assessments such as PISA, PIRLS and TIMSS require organising primary lessons on the basis of modern creative pedagogical technologies.

**AIM:** the study aims to identify the theoretical and methodological foundations of using creative pedagogical technologies in primary education, to analyse their influence on educational effectiveness, and to develop methodological recommendations for fostering pupils' cognitive and creative activity. A further aim is to adapt the concept of creative pedagogy to the national practice of primary education.

**MATERIALS AND METHODS:** the research materials included the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", presidential addresses, national concepts of general and primary education, modern textbooks and methodological guides, as well as classroom observation data. The methods used were theoretical analysis, pedagogical observation, study and generalisation of teachers' experience, formative pedagogical experimentation and comparative analysis of results.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the discussion and results show that creative pedagogical technologies—interactive methods, project and problem-based learning, electronic textbooks and tasks aligned with international assessments—significantly stimulate pupils' cognitive engagement and creative thinking. Growth of teachers' methodological competence, their readiness for innovation and creative lesson design leads to higher lesson quality indicators, increased learner activity and better developed independent thinking skills.

**CONCLUSION:** the conclusion states that purposeful and systematic use of creative pedagogical technologies is a key condition for enhancing the effectiveness of primary education. Continuous professional development of teachers, dissemination of best practices, and improved methodological and digital support are highlighted as essential factors for strengthening the practical impact of creative pedagogy in the classroom.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Keywords:** creative pedagogy; creative pedagogical technologies; primary education; interactive methods; cognitive development; creative thinking; methodological competence; educational effectiveness.

**For citation**: Ra'no.B. Deykanova. (2025) 'The effectiveness of using creative pedagogical technologies in primary education', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 71-75. (In Uzbek).

**T**a'lim maqsadi o'quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmunini, usul va vositalari, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, shuningdek, mazkur tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisini sharklantirishni ham belgilaydi. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan beligilanadi. Demak, ta'lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqiyotini belgilaydi. Butun ta'lim jarayoni-o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha-ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", - deya ta'kidladi. Boshlang'ich ta'lim maqsadi ro'yobini ta'minlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalar muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyotimizning yuksalishi, yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berishdan boshlanadi. Kelajagi buyuk farzandlargina vatan ravnaqini yuksaklarga ko'tara oladilar. Ta'lim sifatini oshirish bilimli avlod vakillarini yetishtirish maqsadida mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim soxasini inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgandi va 2023-yilni – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", - deb nomlanishi ta'limga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Ta'lim sifatini oshirish yosh avlodni fanga qiziqtirishning eng muhim omili bu yangi darslik va zamonaviy dars o'tish uslublaridir. Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, yangi darslik o'quvchi uchun juda qulay ayniqsa elektron darsliklar o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yana oshiradi va olingan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari darsliklarning tayyorlashda PIZA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardan namunaviy vazifalar asos qilib olingani biz o'qituvchilar uchun kelajakda xalqaro tadqiqotlarga boshqa davlatlar qatorida turishimizga katta imkon bag'ishlaydi. Darsliklar bilan birga mashg'ulot daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar chop etilishi biz o'qituvchilarni ishtiyoq bilan ishlashimizga kuch bag'ishlaydi. An'anaga muvofiq, davlatimiz rahbarining parlament va xalqimizga murojaatnomalarida ko'tarilgan masalalar, ijrosini topmoqda. Biz ustozlardan qilinadigan talab o'z ustimizda ishlash yangi innovatsion metodlar orqali darslarni tashkil qilish o'quvchilarga psixologik yondashgan holda o'zlari qiziqgan kasb-hunarga yo'naltirishdan iborat. Bunda esa ayniqsa boshlang'ich sinf ustozlarining o'rni katta rol o'ynaydi[1].

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi asosi yaratildi. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosida o‘quvchilarni ijodkorligi va faoligini oshirish har bir davr uchun muhim ahamiyatga egadir. Har bir o‘qituvchi shuni yaxshi bilishi biladiki dars o‘quv tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, dars o‘tish va darsni takomillashtirib borish borish hakida o‘ylaydi, izlanadi.

Ta’limda yukori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan’anaviy metodlaridan ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bulib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma -bosqich mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga kutarilishidir. Yukori ko‘rsatgichga erishishni maqsad qilgan har bir o‘qituvchi, avvalo, har bir darsga ijodiy yondashishi, dars jarayonida kuzda tutilgan barcha bosqichlarni erkin amalga oshira oladigan kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak va tinimsiz o‘z ustida ishlashi lozim. Kasbiy mahorat esa o‘qituvchi shaxsidagi tabiiy imkoniyatlar, pedagogik-psixologik iqtidor, o‘z ishiga mas'uliyat bilan karash, o‘quvchidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezish, bola shaxsi o‘quvchilar jamoasiga to‘gri ta'sir qila olishining amaliy namoyon bola olishidir. Bundan tashqari o‘qituvchi ilg‘or zamonaviy ish tajribalarini darsga qollash bilan cheklanib qolmay uni boshqa kasbdoshlari bilan ham ommalashtirish platformasi orqali hamfikr bolib baholanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.
2. Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.
3. Pardabayeva D “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya” – «ZUXRA BARAKA BIZNES» Toshkent 2024-yil
4. Yo‘ldosheva D., Hamroyeva SH. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
5. Boshlangich ta’limni o‘qitish metodikasi. O‘quv uslubiy majmua. Toshkent, 2018.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Deykanova Ra’no Bakirovna**, katta o‘qituvchi [**Дейканова Рано Бакировна** ,старший преподаватель], [**Deykanova Ra’no Bakirovna** Senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: Г. Ташкент, Чиланзар, ул. гавхара, д. 1], [address: Tashkent, Chilanzar, gavkhara str.1]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# YORDAMCHI PROEKSIYALASH USULIDA MURAKKAB CHIZMALARNI O'QISH METODIKASI

© Sh.D . Dilshodbekov[1]✉

[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** chizma geometriya fazoviy shakllarni tekisliklarda tasvirlash va ular orasidagi pozitsion hamda metrik munosabatlarni aniqlashni o'rgatadi. Ikki ko'rinishli (gorizontal va frontal) chizmalarga asoslangan topshiriqlar ko'pincha o'quvchidan chuqur fazoviy tasavvur talab qiladi. Murakkab detallar yoki sirtlarning profil proeksiyasini aniqlash ayniqsa tajribasi kam talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun yordamchi proeksiyalash usuli chizmani o'qishni soddalashtiruvchi samarali metod sifatida qo'llaniladi.

**MAQSAD:** yordamchi proeksiyalash usulidan foydalanib murakkab chizmalarni o'qish jarayonini yengillashtirish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish va pozitsion hamda metrik masalalarni yechishni soddalashtirishdir. Shuningdek, ushbu usulning ta'lim jarayonidagi metodik ahamiyatini aniqlash ko'zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda chizma geometriya bo'yicha ilmiy manbalar, darsliklar va klassik geometrik apparatga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Yordamchi proeksiyalash usuli nuqta, kesma va to'g'ri to'rtburchak misolida amaliy ravishda qo'llanib, fazoviy holatni tiklash bosqichlari ko'rsatildi. Metodik yondashuv sifatida klassik va xususiy usullarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar yordamchi proeksiyalashning murakkab shakllarning fazoviy holatini aniq tasavvur qilishga katta yordam berishini ko'rsatdi. 1-, 2- va 3-rasmlardagi misollar orqali nuqta, kesma va to'g'ri to'rtburchakning fazodagi holatini aniqlash jarayoni sezilarli darajada soddalashgani isbotlandi. Ushbu usul murakkab ko'pburchaklar va shakllar uchun ham qo'llanilishi mumkinligi aniqlanib, talabalar tomonidan masalalarni yechish tezligi va aniqligi ortgani qayd etildi. Ta'lim jarayonida bu yondashuv fazoviy tafakkurni rivojlantirib, fanga qiziqishni oshirishi kuzatildi.

**XULOSA:** yordamchi proeksiyalash usuli murakkab chizmalarni o'qishni yengillashtiruvchi, pozitsion va metrik masalalarni aniq yechishga yordam beruvchi samarali metod ekanligi tasdiqlandi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi, vaqtni tejaydi va grafik topshiriqlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Mazkur metod maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida chizma geometriya fanini o'qitishda katta amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** yordamchi proeksiyalash, chizma geometriya, fazoviy tasavvur, pozitsion masala, metrik masala, chizmani o'qish, grafik ta'lim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Dilshodbekov Sh.D. Yordamchi proeksiyalash usulida murakkab chizmalarni o'qish metodikasI.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.76-81.

# МЕТОДИКА ЧТЕНИЯ СЛОЖНЫХ РИСУНКОВ МЕТОДОМ ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ПРОЕКЦИИ

© Ш.Д. Дилшодбеков[1]✉
[1]Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** начертательная геометрия изучает способы отображения пространственных фигур на плоскости и определения позиционных и метрических связей между ними. Задачи, основанные только на горизонтальных и фронтальных проекциях, требуют от учащихся развитого пространственного представления. Профильная проекция сложных деталей часто вызывает затруднения у начинающих студентов, что снижает точность и скорость решения задач. Поэтому вспомогательное проецирование применяется как эффективный инструмент облегчения понимания чертежа.

**ЦЕЛЬ:** облегчить процесс чтения сложных чертежей посредством вспомогательного проецирования, развивая пространственное мышление учащихся и упрощая решение позиционных и метрических задач. Дополнительно изучается методическая значимость указанного подхода в образовательном процессе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** исследование основано на анализе учебной и научной литературы по начертательной геометрии и классическим методам геометрического аппарата. Вспомогательное проецирование применялось на примерах точки, отрезка и прямоугольника для восстановления их пространственного положения. Проведён сравнительный анализ классических и частных методов решения графических задач.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** Полученные результаты подтверждают, что вспомогательное проецирование позволяет значительно упростить визуализацию пространственного положения геометрических объектов. Рассмотренные примеры показывают, что решение задач становится более наглядным, а вероятность ошибок уменьшается. Метод эффективен и для более сложных многогранников, что способствует росту точности и скорости выполнения графических заданий. Студенты демонстрируют повышенный интерес к предмету и улучшение пространственного мышления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** вспомогательное проецирование является действенным методом, упрощающим чтение сложных чертежей и решение позиционных и метрических задач. Подход развивает пространственные представления, экономит время и повышает качество графической подготовки обучающихся. Метод имеет практическую ценность для школ, колледжей и технических вузов.

**Ключевые слова:** вспомогательное проецирование, начертательная геометрия, пространственное представление, позиционная задача, метрическая задача, чтение чертежей, графическое обучение.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Для цитирования**: Дилшодбеков.Ш.Д. Методика чтения сложных рисунков методом вспомогательной проекции.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 76-81.

# THE TECHNIQUE OF READING COMPLEX DRAWINGS BY THE METHOD OF AUXILIARY PROJECTION

©Shoxboz D. Dilshodbekov[1]✉
[1] Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** descriptive geometry teaches how to represent spatial geometric objects on a plane and determine positional and metric relationships between them. Tasks based solely on horizontal and frontal projections require strong spatial imagination, which may be challenging for beginners. Constructing profile projections of complex details often creates difficulties and reduces problem-solving efficiency. Therefore, auxiliary projection serves as a practical tool to simplify the interpretation of drawings.

**AIM:** the study aims to simplify the process of reading complex drawings through auxiliary projection, improve learners' spatial reasoning, and facilitate solving positional and metric problems. It also seeks to determine the educational value of this approach.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on the analysis of textbooks and scientific literature in descriptive geometry and classical geometric theory. Auxiliary projection was applied to examples of a point, a segment, and a rectangle to reconstruct their spatial positions. A comparative methodological analysis of classical and specific approaches was carried out.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results demonstrate that auxiliary projection significantly improves the visualization of spatial positions of geometric forms. The examined examples show that problem solving becomes clearer and more efficient, reducing potential errors. The method is also effective for more complex polyhedral shapes, increasing both accuracy and speed. Students show enhanced spatial reasoning and greater interest in the subject.

**CONCLUSION:** auxiliary projection is an effective method for simplifying the reading of complex drawings and solving positional and metric problems. It develops spatial imagination, saves time, and enhances the quality of graphical training. This method is valuable for teaching descriptive geometry in schools, colleges, and technical universities.

**Keywords:** auxiliary projection, descriptive geometry, spatial reasoning, positional problem, metric problem, drawing interpretation, graphic education.

**For citation**: Shoxboz D. Dilshodbekov. (2025) 'The technique of reading complex drawings by the method of auxiliary projection', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 76-81. (In Uzbek).

**M**a'lumki, chizma geometriya fazoviy geometrik shakllarni tekislikda tasvirlash va bu tekis tasvirlar vositasida ularning orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni aniqlash usullarini o'rgatadi. Shuning uchun ham bu ishlarni amalga oshirish bevosita grafik ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lishi tabiiydir. Bu masalalarning ko'pchiligi faqat ikki (gorizantal va


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

frontal) ko'rinishda berilishi, masalani yechishda birmuncha qiyinchiliklarga olib keladi.

Berilgan ikki (gorizantal va frontal) ko'rinishdagi masalaning uchinchi (profil) ko'rinishini topish masalani yechayotgan o'quvchi yoki talabadan chuqur fazoviy tasavvurni talab qiladi. Albatta, klassik sirtlarning ya'ni kub, silindr yoki konuslarni fazoviy tasavvur qilish qiyin emas lekin, murakkab detal yoki sirtlarni uchinchi ko'rinishga ega bo'lmasdan tasavvur qilish tajribaga ega bo'lmagan o'quvchi yoki talaba uchun qiyinchilik tug'diradi. Ko'pchilik o'quvchi yoki talabalar pozitsion va metric masalalarni yechishda qiyinchiliklarga duch kelishlarining asosiy sababi ularda masalada berilgan sirt yoki shakl haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasliklaridir.

Shu bois, berilgan gorizontal va frontal proeksiyasiga ega bo'lgan sirtning profil proeksiyasini topish uchun yordamchi poreksiyalash usulidan foydalaniladi. Bu usul bizga berilgan sirtning fazodagi holatini tasavvur qilishga yordam beradi va chizmani o'qishni osonlashtiradi. Bu esa o'quvchi yoki talabalarni vaqtini tejashga va fanga qiziqishlarini oshiradi katta yordam beradi. Shu jumladan o'qituvchi uchun ham bir qator qulayliklar yaratadi.


Chizma geometriya fanida yordamchi proeksiyalash usulidan foydalanishdan asosiy maqsad, chizma geometriya faniga oid pozitsion va metrik masalalarni yechishni va chizmani o'qishni osonlashtirishdir. O'quvchi yoki talabalarda fazoviy tasavvurni takomillashtirish va fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.


Ma'lumki, prezidentimiz tomonidan ta'limga, o'sib kelayotgan yosh o'quvchilarga katta ahamiyat berilmoqda. Ularning uzluksiz bilim olishlari uchun ko'pgina qulayliklar yaratilmoqda, oliy o'quv yurtlarining yetuk mutahassislari tomonidan o'quvchilarning fan haqida ko'proq va qiziqarli ma'lumotlar olishlari uchun ko'plab adabiyotlar va pedagogic texnalogiyalar yaratilmoqda. Biz ko'rib chiqadigan yordamchi proeksiyalash usuli ham o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini va fazoviy tasavvurlarini oshirishga qaratilgan.

Chizma geometriya fanida pozitsion va metrik masalalar yechishning ikki asosiy usullari mavjud bo'lib, ular umumiy va hususiy usullardir. Umumiy usul ba'zan klassik ham deb atalib, u orqali hamma ko'rinishdagi masalalarni yechish imkoni mavjud. Umumiy usulning bunday imkoniyati bo'lishiga qaramasdan ba'zi masalalarni yechishda chizmalarda chiziqlar juda ko'payib ketib, uning yaqqolligini kamaytirib tasavvur qilish darajasini pasaytiradi.

Xususiy usullar esa ba'zi masalalar guruhini yechishda juda qo'l keladi, chunki unda chiziqlar soni kam bo'lib, tasavvur qilish osonlashadi. Lekin bu usullar ma'lum masalalar guruhi uchun juda qulay bo'lsa, boshqa bir masalalar uchun noqulay bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham hususiy usullarni bilish bilan birga, ularda qulay bajariladigan masalalar guruhini ajrata olish vaqtni tejashga olib keladi. Mazkur maqolada biz yordamchi proeksiyalash usulining qulayliklarini va bu usulning fazoviy tasavvurni oshirishga beradigan yordamini ko'rib chiqamiz.


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




1 – rasm. a) b)


1 - rasmda biz A nuqtaning fazodagi holatini (A) yordamchi proeksiyalash usulida topdik. a) rasmda biz A nuqtaning ikkita izi ya'ni ($A^I$) gorizontal va ($A^{II}$) frontal izlari bilan berilganini ko'rishimiz mumkin. (A) esa nuqtaning fazodagi holati. b) rasmda ishlangan masalaning profil ko'rinishi berilgan.




2 - rasm

2- rasmda A,B kesmaning gorizontal ($A^I$=$B^I$) va frontal ($A^{II}$, $B^{II}$)izi berilgan. Yordamchi tekislik yordamida topilgan fazoviy holati esa A,B dir.

Rasmda ko'rsatilgan kesmaning fazoviy holatini qurish jarayonida yordamchi ya'ni $A^{II}$ dan A gacha bo'lgan, $B^{II}$ dan B gacha bo'lgan chiziqlar o'zaro paralleldir.




3 – rasm


3-rasmda to'g'ri to'rtburchakning tepa yuzasini A,B,C,D ni yordamchi proeksiyalash usulidan foydalanib uning fazoviy ko'rinishini hosil qildik.

Bizga to'g'ri to'rtburchakning ikki ko'rinishi gorizontal ($A^I$,$B^I$,$C^I$,$D^I$) va frontal ($A^{II}$=$B^{II}$,$C^{II}$=$D^{II}$) ko'rinishlari berilgan edi, biz shu ikki ko'rinishdan foydalanib uning fazoviy holatini (A,B,C,D) qurdik.

Biz, 1- rasmda nuqtaga oid, 2 – rasmda kesimga oid va 3 – rasmda esa to'g'ri to'rtburchakka oid masalalarni ko'rib chiqdik. Yordamchi proeksiyalash usuli yordamida o'zingiz guvohi bo'lganingizdek qulay va oson usul bilan masalani yechimini topdik. Bu geometric shakllarning fazoviy holatini tasavvur qilish qiyin emas edi diyishingiz mumkin, albatta to'g'ri bu shakllarning hammasi kundalik hayotda uchratadigan shakllardir. Lekin, murakkab shakllar beriladigan bo'lsa(misol uchun ko'pburchaklar va h.k) ularning fazoviy holatini tasavvur qilish qiyinchilik tu'g'diradi. Biz 1,2,3 – rasmlarda foydalangan usul bilan ya'ni yordamchi proeksiyalash usuli orqali har qanday murakkab shaklning ham fazoviy holatini tuza olamiz.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



4-rasm

4 – rasmda yuqorida 3-rasmda berilgan to'g'ri to'rtburchaning bir qismi kesik holatda berilgan. Shartli ravishda ya'ni tushunarli bo'lish uchun har bir yuzasini har hil rangda bo'yadik.

Och hovorang to'g'ri to'rtburchakning frontal proeksiyada va fazoviy holada bor, gorizontal proeksiyasida yo'q, buning sababi bizga berilgan shaklga yuqoridan ya'ni gorizontal qarasak bu yuza bir chiziq bo'lib ko'rinadi.

Qolgan ranglarda ham tegishli yuzaning rangi aks ettirilgan.

Maqoladan ya'ni, yordamchi proeksiyalash usulidan kutilayotgan natija, talabalarda fazoviy tasavvurni oshirish va ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada mukammmallashtirishdir. Chizma geometriya fanini maktablarda, shu sohaga ta'luqli kasb-hunar kollejlarida va mutahassisligi chizmachilik bo'lgan yo'nalishlar uchun qo'llanilishi bir qancha qulayliklar yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kolotov S.M. " Вопросы теории изображений " Издательство Киевского университета, 1972.
2. Chizma geometriya kursi: Oliy texnika o'quv yurt. Uchun darslik/ Sh. Murodov, L.Hakimov, P.Odilov va boshq.; Sh. Murodovning tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1987. – 364b.
3. Геронимус Я.Л. Геометрический аппарат теории синтеза плоских механизмов. Государственное издательство физико-математической литературы. Москва 1962.
4. Murodov Sh, Hakimov L, Odilov P, Shomurodov A, Jumayev M. Chizma geometriya kursi. Toshkent "O'qituvchi" 1988.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Dilshodbekov Shoxboz Dilshodbek o'g'li**, dotsent, PhD [**Дилшодбеков Шохбоз Дилшодбек угли**, доцент, PhD], [**Dilshodbekov D.Shoxboz** Associate Professor, PhD]; manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy, [адрес: Мирабадский район г. Ташкента улица железнодорожников 1], [address: Mirabad district of Tashkent, 1 Zheleznodorozhnikov Street]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "YADRO TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI VOSITALAR YORDAMIDA O'QITISH

© A.J. Ergashev[1]✉, E.X. Bozorov[2]✉, Sh.A. Sharipov[3]✉, N.F. Boymatova[4]✉
[1]Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston
[2]Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
[3]Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston
[4]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** so'nggi yillarda yadro texnologiyalari tibbiy diagnostika, onkologik terapiya, radiofarmatsevtika va molekulyar biologiya yo'nalishlarida ajralmas tarkibiy qismga aylandi. "Yadro texnologiyalari" fani fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni o'zida mujassam etgani tufayli tibbiyot talabalari uchun murakkab, ammo zarur o'quv moduli hisoblanadi. An'anaviy ma'ruza va ko'rgazmali qurollar zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitilmaganda, radiatsion jarayonlarning mohiyati va ularning klinik qo'llanilishi yetarli darajada tasavvur etilmay qolishi mumkin. Shuning uchun multimediyali vositalarni tatbiq etish tibbiyot ta'limining zamonaviy bosqichi sifatida qaraladi.

**MAQSAD:** tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Yadro texnologiyalari" fanini multimediyali vositalar yordamida o'qitishning didaktik asoslarini aniqlash va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini baholashdan iborat. Shu bilan birga, talabalarda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, radiatsion xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini ilmiy asoslash maqsad qilingan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda multimedia va raqamli ta'lim texnologiyalarini tibbiyot ta'limiga joriy etish bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, normativ hujjatlar hamda metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. "Yadro texnologiyalari" fanini o'qitish jarayoniga 3D animatsiyalar, video tajribalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar va onlayn platformalar integratsiyasi asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Samarqand davlat tibbiyot universitetida nazorat va tajriba guruhlari o'rtasida o'zlashtirish ko'rsatkichlari, motivatsiya darajasi va amaliy topshiriqlardagi xatoliklar qiyosiy tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** olingan natijalar "Yadro texnologiyalari" fanini multimediyali vositalar asosida o'qitish talabalarning nazariy bilimlarini 35–40% gacha oshirishini ko'rsatdi. Fanga qiziqish bildirgan talabalar sonining 1,5 barobar ortishi va radiatsion xavfsizlikka oid amaliy topshiriqlarda xatoliklar 25% ga kamaygani multimediyali yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talabalar real radiatsion xavf tug‘dirmasdan tajribalar o‘tkazish, dozimetrik o‘lchovlar bajarish va himoya choralari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar. Shuningdek, Moodle va boshqa onlayn platformalar orqali masofaviy va blended-ta’lim formatlari muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi.

**XULOSA:** tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “Yadro texnologiyalari” fanini multimediyali vositalar yordamida o‘qitish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning fanga nisbatan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda radiatsion xavfsizlik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Raqamli va interaktiv texnologiyalar murakkab yadro jarayonlarini vizuallashtirish, xavfsiz tajriba muhitini yaratish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta’minlaydi. Kelgusida VR, AR va sun’iy intellekt texnologiyalarini dars jarayoniga chuqur integratsiya qilish yadro tibbiyoti fanini o‘qitishda yangi bosqichni boshlab, talabalarning amaliy tayyorgarligini yanada yuksaltirishi kutiladi.

**Kalit so‘zlar:** yadro texnologiyalari, tibbiyot ta’limi, multimediyali vositalar, raqamli ta’lim, interaktiv o‘qitish, radiatsion xavfsizlik, VR/AR texnologiyalari.

**Iqtibos uchun**: Ergashev A.J, Bozorov E.X, Sharipov Sh.A, Boymatova N.F. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “yadro texnologiyalari” fanini multimediali vositalar yordamida o‘qitish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.82-89.

## ПРЕПОДАВАНИЕ ПРЕДМЕТА “ЯДЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ” В МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ

© А.Ж. Эргашев[1]✉, Э.Х. Бозоров[2]✉, Ш.А. Шарипов[3]✉, Н.Ф. Бойматова[4]✉
[1] Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан
[2]Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан
[3]Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан
[4]Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях стремительного развития науки и технологий ядерные технологии заняли ключевое место в диагностике, терапии, радиофармацевтике и молекулярной биологии. Дисциплина «Ядерные технологии» относится к числу наиболее сложных для студентов медицинского профиля, поскольку требует глубокого понимания радиационных процессов и их клинического применения. Традиционные лекционные формы обучения без опоры на современные цифровые средства часто оказываются недостаточными для осмысления невидимых и абстрактных физических явлений. В этой связи использование мультимедийных технологий становится

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

необходимым условием повышения качества профессиональной подготовки будущих врачей.

**ЦЕЛЬ:** заключается в обосновании дидактических основ применения мультимедийных средств при преподавании курса «Ядерные технологии» в медицинских вузах и оценке их влияния на качество обучения. Дополнительно ставится задача выявить возможности цифровых и интерактивных технологий в развитии у студентов навыков критического мышления, анализа экспериментальных данных и соблюдения правил радиационной безопасности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в ходе исследования были проанализированы международные и отечественные научные источники, нормативные документы и методические разработки по цифровизации медицинского образования и мультимедийному обучению. В учебный процесс по дисциплине «Ядерные технологии» были интегрированы 3D-анимации, видеолаборатории, виртуальные эксперименты, интерактивные тесты и электронные учебные курсы. На базе Самаркандского государственного медицинского университета проведен педагогический эксперимент с участием контрольной и экспериментальной групп, в рамках которого сопоставлялись показатели успеваемости, учебной мотивации и качество выполнения практических заданий.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** полученные данные показали, что обучение дисциплине «Ядерные технологии» с использованием мультимедийных средств позволило повысить уровень усвоения теоретического материала на 35–40%. Число студентов, проявляющих устойчивый интерес к предмету, увеличилось в 1,5 раза, а количество ошибок при выполнении заданий по радиационной безопасности снизилось примерно на 25%. Виртуальные лаборатории и симуляторы обеспечили возможность безопасного моделирования процессов облучения и работы с дозиметрической аппаратурой, что способствовало формированию устойчивых практических навыков. Использование платформ дистанционного обучения (Moodle и др.) позволило успешно реализовать элементы дистанционного и смешанного обучения.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** преподавание курса «Ядерные технологии» в медицинских вузах на основе мультимедийных средств повышает эффективность учебного процесса, усиливает мотивацию студентов и способствует формированию профессиональных и радиационно-гигиенических компетенций. Цифровые и интерактивные технологии обеспечивают визуализацию сложных ядерных процессов, создание безопасной экспериментальной среды и поддержку самостоятельной учебной деятельности. В перспективе глубокая интеграция VR-, AR- и AI-технологий в образовательный процесс откроет новые возможности для практико-ориентированной подготовки и усовершенствования обучения по ядерной медицине.

**Ключевые слова:** ядерные технологии, медицинское образование, мультимедийные средства, цифровое обучение, интерактивное преподавание, радиационная безопасность, VR/AR-технологии.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Для цитирования**: Эргашев А.Ж., Бозоров Э.Х., Шарипов Ш.А., Бойматова Н.Ф. Преподавание предмета “ядерные технологии” в медицинских высших учебных заведениях с использованием мультимедийных средств.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 82-89.

# TEACHING OF THE SUBJECT “NUCLEAR TECHNOLOGIES” IN MEDICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS USING MULTIMEDIA TOOLS

© A.J. Ergashev[1]✉, E.X. Bozorov[2]✉, Sh.A. Sharipov[3]✉, Boymatova N.F[4]✉
[1] Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan
[2]Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan
[3]Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan
[4]Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in the context of rapid scientific and technological progress, nuclear technologies have become integral to medical diagnostics, oncological therapy, radiopharmaceuticals and molecular biology. The course “Nuclear Technologies” is one of the most demanding modules for medical students, as it requires a deep understanding of radiation processes and their clinical applications. Traditional lecture-based formats, when not supported by modern digital tools, are often insufficient for grasping invisible and abstract physical phenomena. Therefore, the introduction of multimedia technologies is viewed as a necessary condition for improving the quality of professional training in nuclear medicine.

**AIM:** the main aim of the study is to substantiate the didactic foundations of using multimedia tools in teaching “Nuclear Technologies” to medical students and to evaluate their impact on learning outcomes. In addition, the study seeks to identify the potential of digital and interactive technologies for developing students’ critical thinking, experimental data analysis skills and adherence to radiation safety principles.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on the analysis of international and national scientific literature, regulatory documents and methodological guidelines on multimedia and digital education in medicine. Within the “Nuclear Technologies” course, 3D animations, video experiments, virtual laboratories, interactive tests and online learning platforms were integrated into the teaching process. A pedagogical experiment was conducted at Samarkand State Medical University involving control and experimental groups, in which academic achievement, learning motivation and performance in practical radiation safety tasks were compared.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate that teaching “Nuclear Technologies” with multimedia support increased students’ mastery of theoretical content by approximately 35–40%. The number of students demonstrating sustained interest in the subject grew by a factor of 1.5, while errors in radiation safety–related practical tasks decreased by about 25%. Virtual laboratories and simulators provided a safe environment for modelling irradiation processes and working with dosimetric equipment, thereby

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

strengthening students' practical skills. The use of learning management systems such as Moodle facilitated the implementation of distance and blended learning formats within the course.

**CONCLUSION:** implementing multimedia-based instruction in the "Nuclear Technologies" course in medical higher education enhances the effectiveness of the learning process, boosts students' motivation and fosters the development of professional and radiation-safety competencies. Digital and interactive technologies support the visualization of complex nuclear processes, the creation of a safe experimental environment and the promotion of autonomous learning. In the future, the deeper integration of VR, AR and AI technologies into the curriculum is expected to open new horizons for practice-oriented training and further improvement of education in nuclear medicine.

**Keywords:** nuclear technologies, medical education, multimedia tools, digital learning, interactive teaching, radiation safety, VR/AR technologies.

**For citation**: Ergashev A.J, Bozorov E.X, Sharipov Sh.A, Boymatova N.F. (2025) 'Teaching of the subject "nuclear technologies" in medical higher educational institutions using multimedia tools', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 82-89. (In Uzbek).

**S**o'nggi yillarda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida tibbiyot sohasi ham yadro texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydigan darajada modernizatsiyalashdi. Radioaktiv izotoplardan foydalanish diagnostika, terapiya, farmakologiya va molekulyar biologiya yo'nalishlarida yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, yadro tibbiyoti nomi bilan ataluvchi yangi yo'nalish shakllandi.

Yadro texnologiyalari asoslarini chuqur o'zlashtirish tibbiyot sohasidagi talabalarning nafaqat nazariy, balki amaliy tayyorgarligini ham mustahkamlaydi. Shu ma'noda, "Yadro texnologiyalari" fanini o'qitishda multimediyali vositalardan foydalanish o'qitish jarayonini interaktiv, tushunarli va zamonaviy shaklda tashkil etish imkonini beradi.

An'anaviy o'qitish usullarini zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, muammoli vaziyatlardan to'g'ri chiqish va tajriba natijalarini baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

Hozirgi kunda tibbiyot ta'limida raqamli va interaktiv o'qitish texnologiyalarini joriy etish — ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. "Yadro texnologiyalari" fani tibbiyot yo'nalishida o'qitiladigan eng murakkab va ko'p tarmoqli fanlardan biri bo'lib, u fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni chuqur tushunishni talab etadi. Shu sababli, an'anaviy ma'ruza usullari bilan cheklanmasdan, multimediyali vositalardan foydalanish o'quv jarayonini jonlantiradi va samaradorligini oshiradi.

Pedagogik ahamiyati: Multimedia vositalari yordamida o'qituvchi darsni interaktiv shaklda tashkil etadi, bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonining individualizatsiyasini ta'minlab, har bir talabaga mos o'qitish uslubini qo'llash imkonini beradi.

Multimediali o'qitish orqali:

- yadro jarayonlari va radiatsiya ta'siri 3D grafikalar, animatsiyalar hamda video

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tajribalar orqali ko‘rgazmali tarzda tushuntiriladi;

- talabalar virtual laboratoriyalar yordamida xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazish imkoniga ega bo‘ladi;
- interaktiv testlar, elektron darsliklar va onlayn platformalar orqali mustaqil ta’lim rivojlanadi;
- fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi va motivatsiya sezilarli oshadi.

Shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish, va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy qism:

1. Yadro texnologiyalari fanining tibbiyotdagi o‘rni.

Tibbiyotda yadro texnologiyalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:

Diagnostika: radiofarmatsevtik preparatlar yordamida organ va to‘qimalarning holatini aniqlash (PET — pozitron emissiya tomografiyasi, SPECT — gamma-tomografiya).

Davolash: onkologik kasalliklarda yuqori aniqlikdagi nurlantirish usullari (radioterapiya, braxiterapiya).

Ilmiy tadqiqotlar: izotop usullari orqali biokimyoviy jarayonlarni tahlil qilish, hujayra darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash.

Mazkur yo‘nalishlarda samarali ta’lim berish uchun talabalar atom tuzilishi, radiatsiya fizikasi, izotoplarning xossalari va ularning biologik ta’siri haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari zarur. Bu esa an’anaviy darslarda faqat matn yoki rasmlar orqali emas, balki multimediyali vositalar yordamida jonli tasvir va modellar asosida o‘rgatilganda yanada samarali bo‘ladi.

2. Multimediyali vositalarning o‘qitishdagi afzalliklari

Multimedia — bu matn, grafika, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlarning birlashtirilgan majmuasidir. Uning o‘qitishdagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Murakkab jarayonlarni vizuallashtirish: yadro parchalanishi, radiatsiya turlari va ularning biologik to‘qimalarga ta’siri 3D animatsiyalar orqali namoyish etiladi.
2. Talabalarning faolligini oshirish: interaktiv topshiriqlar, testlar va simulyatorlar orqali talaba o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.
3. Axborotni yaxshiroq eslab qolish: vizual va eshitish kanallarining birgalikdagi ishi natijasida ma’lumot o‘zlashtirish samaradorligi 40% gacha ortadi.
4. Masofaviy ta’lim imkoniyati: Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi onlayn platformalar yordamida darslar masofadan turib tashkil etilishi mumkin.
5. Tajriba xavfsizligini ta’minlash: virtual laboratoriyalar orqali radiatsion xavf mavjud bo‘lgan tajribalarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkonini beradi.

3. O‘qitishda multimedia vositalarini qo‘llash metodikasi.

“Yadro texnologiyalari” fanini o‘qitishda multimedia vositalarini quyidagi bosqichlarda qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Tayyorlov bosqichi: o‘qituvchi mavzuga oid video, infografika, interaktiv taqdimotlar va nazariy materiallarni tayyorlaydi. Talabalarga tayanch tushunchalar elektron shaklda taqdim etiladi.
2. Interaktiv dars: 3D modellar, animatsiyalar, laboratoriya simulyatorlari yordamida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yadro jarayonlari, izotoplarning parchalanishi va radiatsiya o‘lchovlari vizual tarzda tushuntiriladi.

3. Amaliy mashg‘ulot: talabalar virtual laboratoriyada eksperimentlar o‘tkazadilar. Masalan, nurlanish darajasini o‘lchash, himoya ekranlarini tanlash, dozimetr bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

4. Baholash va refleksiya: interaktiv testlar, situatsion masalalar va muammoli topshiriqlar orqali bilimlar tekshiriladi. Natijalar onlayn platformalarda avtomatik tahlil qilinadi.

Bu yondashuv talabalarning **tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, tadqiqot olib borish** qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

4. Amaliy tajriba natijalari

Samarqand davlat tibbiyot universitetida o‘tkazilgan tajriba sinovlari shuni ko‘rsatdiki, “Yadro texnologiyalari” fanini multimediyali vositalar asosida o‘qitish quyidagi natijalarga olib keldi:

- Talabalarning o‘zlashtirish darajasi 35–40% ga oshdi.
- Fanga qiziqish bildirgan talabalar soni 1,5 barobar ortdi.
- Radiatsion xavfsizlik bo‘yicha amaliy topshiriqlarda xatoliklar 25% ga kamaydi.
- Mustaqil ishlash, tahlil qilish va izlanish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Ushbu natijalar multimediyali yondashuv o‘qitishning nafaqat bilim, balki kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimida ham samarali ekanligini isbotlaydi.

5. Tibbiyot ta’limida multimedia texnologiyalarining istiqbollari

Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI), kengaytirilgan (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari tibbiy ta’limni tubdan o‘zgartirmoqda. Yadro texnologiyalari fanida bu vositalardan foydalanish orqali:

- murakkab yadro reaksiyalarini virtual muhitda modellashtirish;
- nurlanish jarayonlarini simulyatsiya qilish;
- klinik sharoitlarda xavfsiz eksperimentlar o‘tkazish;
- bemor organizmidagi izotop taqsimotini 3D formatda kuzatish mumkin bo‘ladi.

Kelgusida ushbu texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayoni yanada interaktiv, xavfsiz va individual yondashuvga asoslangan tizimga aylanadi.

Xulosa: Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “Yadro texnologiyalari” fanini multimediyali vositalar yordamida o‘qitish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi;
- talabalarning fanga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi;
- amaliy ko‘nikmalar va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi;
- ta’lim jarayoni xavfsiz va interaktiv tus oladi.

Shu sababli, tibbiyot ta’lim tizimida multimedia va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish strategik zarurat hisoblanadi. Kelgusida sun’iy intellekt, VR/AR texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish yadro tibbiyoti fanini o‘qitishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Kelajakda bu yo‘nalishda VR (Virtual Reallik), AR (Kengaytirilgan reallik) va sun’iy intellekt (AI) asosidagi o‘qitish tizimlarini joriy etish tibbiyotdagi yadro texnologiyalarini o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Raqamli ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida qaror. – Toshkent, 2021.
2. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2020.
3. Karimov Sh., Tursunov B. Innovatsion texnologiyalar yordamida yadro fizikasi fanini o‘qitish. – O‘zMU, 2021.
4. Avlayev O.U., Jo‘rayeva C.N., Mirzayeva C.R. Ta’lim metodlari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2017. – 210 b.
5. Ergashev A.J. Oliy ta’lim tizimida “Ionlashtiruvchi nurlanishlar” mavzusini modul tizimida o‘qitish usullari. – O‘zMU Xabarlari, Toshkent, 2022. – 202–204 b.
6. Ergashev A.J. Oliy ta’limda yadro texnologiyalari fanini o‘qitishda didaktik o‘yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi. – NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022, №7, 353–359 b.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ergashev Asqar Jong‘oboyevich**, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) [**Эргашев Аскар Жонгобоевич**, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)], [**Ergashev Asqar Jong‘oboyevich** PhD in Pedagogical Sciences yoki Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.]; manzil: A uy, Amir Temur ko'chasi 18-uy, Amir Temur ko'chasi 18, 140100, Samarqand, Samarqand viloyati, [адрес Дом а, улица Амира Темура 18, улица Амира Темура 18, 140100, Самарканд, Самаркандская область,], [address: House A, 18 Amir Temur Street, 18 Amir Temur Street, 140100, Samarkand, Samarkand region.]

✉**Bozorov Erkin Xodjiyevich**, professor [**Бозоров Эркин Ходжиевич**, профессор], [**Bozorov Erkin Xodjiyevich** professor]; manzil: 100174 Toshkent shahri, Olmazor tumani, universitet ko'chasi 4, [адрес: 100174 город Ташкент, Алмазарский район, улица Университетская 4,], [address: 4 Universitetskaya Street, Almazar district, Tashkent, 100174.]

✉**Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich**, assistent [**Шарипов Шарофиддин Арслонкулович**, ассистент], [**Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich** assistant]; manzil: A uy, Amir Temur ko'chasi 18-uy, Amir Temur ko'chasi 18, 140100, Samarqand, Samarqand viloyati, [адрес: Дом а, улица Амира Темура 18, улица Амира Темура 18, 140100, Самарканд, Самаркандская область,], [address: House A, 18 Amir Temur Street, 18 Amir Temur Street, 140100, Samarkand, Samarkand region.]

✉**Boymatova Nargiza Fayzulla qizi**, o‘qituvchi [**Бойматова Наргиза Файзулла кизи**, преподаватель], [**Boymatova Nargiza Fayzulla qizi** teacher]; manzil: Samarqand shahar Mirzo Ulug'bek ko'chasi 77-uy, [адрес: город Самарканд, улица Мирзо Улугбека, 77,], [address: The city of Samarkand, Mirzo Ulugbek street, 77.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Original paper

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA 3D MODILASHTIRISH DASTURLARIDAN KENGROQ FOYDALANISH TEXNALOGIYALARI

©F.U.Toshpulatov[1]✉, F.X. Normamatova[2]✉
[1,2]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, texnik savodxonligini va fazoviy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda chizmachilik fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi raqamli asrda an'anaviy chizmachilik mashg'ulotlarini 3D modellashtirish dasturlari bilan uyg'unlashtirish ta'lim jarayonini tubdan yangilamoqda.

**MAQSAD**: chizmachilik fanini o'qitishda 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning fazoviy va texnik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tizimli tahlil metodi — 3D texnologiyalarni chizmachilik darslariga integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganish uchun;
- eksperimental metod — sinf sharoitida 3D dasturlar asosida o'quv topshiriqlarini bajarish natijalarini baholash uchun;
- innovatsion yondashuv — AutoCAD, SketchUp, Blender, Tinkercad dasturlari asosida modellashtirish amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish uchun;
- taqqoslash va kuzatuv — an'anaviy va raqamli chizmachilik darslarining samaradorligini solishtirish uchun.

Tadqiqot ob'ekti sifatida 8–9-sinf "Chizmachilik" fani darslari tanlandi, ularning o'quv dasturi asosida 3D mashg'ulotlar kiritildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, 3D modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

Quyidagi natijalar qayd etildi:

1. Fazoviy tafakkur rivojlandi – o'quvchilar chizmalar orqali hajmni tasavvur qilish, obyektlarning fazodagi joylashuvini tahlil etishni o'rgandilar.

2. Texnik ijodkorlik oshdi – o'quvchilar o'z loyihalarini 3D formatda yaratish, ularni modellashtirish va tahrirlashni o'zlashtirdilar.

3. Vizual tafakkur kengaydi – 3D modellar yordamida chizmalar osonroq anglanib, grafik ifoda vositalari yaxshiroq tushunildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

4. Motivatsiya kuchaydi – interfaol dasturlar o‘quvchilarni darsga qiziqtirdi, ularning mustaqil ishlash va yangi narsalarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirdi.

5. Fanlararo integratsiya – 3D modellashtirish informatika, texnologiya, matematika va fizika fanlari bilan uyg‘un holda olib borildi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning 3D texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. AutoCAD, SketchUp va Tinkercad dasturlarining qulay interfeysi o‘quvchilarga ijodiy tajriba orttirish imkonini berdi.

**XULOSA:** umumta’lim maktablarida chizmachilik fanini 3D modellashtirish texnologiyalari asosida o‘qitish o‘quvchilarning grafik savodxonligini, texnik tafakkurini, ijodkorligini va muhandislik kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir.

Mazkur yondashuv ta’limni vizuallashtirish, raqamlashtirish va amaliyot bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

Shunday qilib, 3D modellashtirish dasturlari chizmachilik fanining zamonaviy, innovatsion va kelajak texnik yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashgan holda o‘qitilishini ta’minlaydi.

**Kalit so'zlar**: 3D modellashtirish, chizmachilik, AutoCAD, SketchUp, Tinkercad, Blender, fazoviy tafakkur, texnik tafakkur, ijodkorlik, fanlararo integratsiya, raqamli pedagogika, STEAM-ta’lim.

**Iqtibos uchun**: Toshpulatov F.U, Normamatova F.X., Umumta’lim maktablarida chizmachilik fanini o‘qitishda 3d modilashtirish dasturlaridan kengroq foydalanish texnalogiyalari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.90-98.

## ТЕХНОЛОГИИ ШИРОКОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММ 3D МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЧЕРЧЕНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

© Ф.У.Тошпулатов[1]✉, © Ф.Х.Нормаматова.[2]✉
[1,2]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** современная система образования направлена на развитие творческого мышления, технической грамотности и пространственного воображения учащихся, при этом наука черчения обретает особое значение. В сегодняшнюю цифровую эпоху гармонизация традиционных занятий по черчению с программами 3D-моделирования коренным образом обновляет образовательный процесс.

**ЦЕЛЬ**: совершенствование методики использования программ 3D моделирования в преподавании черчения, повышение эффективности обучения, а также разработка инновационных подходов, направленных на развитие пространственного и технического мышления учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в ходе исследования были использованы следующие методы:

- метод системного анализа - для изучения возможностей интеграции 3D-технологий на уроках черчения;
- экспериментальный метод - для оценки результатов выполнения учебных заданий на основе 3D-программ в классе;
- инновационный подход - для организации практических занятий по моделированию на основе программ AutoCAD, SketchUp, Blender, Tinkercad;
- сравнение и наблюдение - для сравнения эффективности уроков традиционного и цифрового черчения.

В качестве объекта исследования были выбраны уроки по предмету "Черчение" для 8-9 классов, на основе их учебной программы были введены 3D-занятия.

**ОБСУЖДЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: Экспериментальные работы показали, что использование технологий 3D-моделирования значительно активизирует учебную деятельность учащихся.

Отмечены следующие результаты:

1. Пространственное мышление развилось - учащиеся научились визуализировать объем через чертежи, анализировать расположение объектов в пространстве.
2. Техническое творчество возросло - учащиеся освоили создание своих проектов в 3D формате, их моделирование и редактирование.
3. Визуальное мышление расширилось - с помощью 3D-моделей чертежи понимаются легче, а средства графического выражения лучше.
4. Мотивация усилилась - интерактивные программы заинтересовали учащихся уроком, повысили их энтузиазм к самостоятельной работе и изучению нового.
5. Межпредметная интеграция - 3D-моделирование проводилось в гармонии с информатикой, технологией, математикой и физикой.

Кроме того, повышение квалификации учителей по 3D-технологиям оказало непосредственное влияние на качество образования. Удобный интерфейс программ AutoCAD, SketchUp и Tinkercad позволил учащимся получить творческий опыт.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** обучение черчению в общеобразовательных школах на основе технологий 3D-моделирования является одним из наиболее эффективных направлений развития графической грамотности, технического мышления, творчества и инженерной компетенции учащихся.

Этот подход создает возможность визуализации, цифровизации и связывания образования с практикой.

Таким образом, программы 3D-моделирования обеспечивают преподавание предмета черчение в гармонии с современными, инновационными и техническими направлениями будущего**.**

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**Ключевые слова**: 3D-моделирование, черчение, AutoCAD, SketchUp, Tinkercad, Blender, пространственное мышление, техническое мышление, творчество, межпредметная интеграция, цифровая педагогика, STEAM-образование

**Для цитирования**: Тошпулатов Ф.У, Нормаматова Ф.Х. Технологии широкого использования программ 3d моделирования в преподавании черчения в общеобразовательных школах. // Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). С. 90-98.

# USING 3D MODELING SOFTWARE IN TEACHING DRAFTING IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

© Toshpulatov U. Fakhriddin[1]✉, Khairullayevna F. Normamatova[2]✉
[1,2]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the modern education system is focused on developing students' creative thinking, technical literacy, and spatial imagination, while the subject of drafting (engineering drawing) is gaining particular importance. In today's digital era, integrating traditional drafting lessons with 3D modeling programs fundamentally modernizes the educational process.

**AIM:** the main goal of this study is to improve the methodology of using 3D modeling software in the teaching of drafting, increase learning efficiency, and develop innovative approaches aimed at enhancing students' spatial and technical thinking skills.

**MATERIALS AND METHODS**: the following research methods were applied:

- System analysis – to study the potential of integrating 3D technologies into drafting lessons;
- Experimental method – to assess students' performance in assignments completed using 3D software;
- Innovative approach – to organize practical modeling sessions with programs such as AutoCAD, SketchUp, Blender, and Tinkercad;
- Comparison and observation – to evaluate the effectiveness of traditional versus digital drafting lessons.

The study was conducted on 8th–9th grade drafting classes, where 3D modeling elements were integrated into the curriculum.

**DISCUSSION AND RESULTS:** experimental work showed that the use of 3D modeling technologies significantly enhances students' learning activity and engagement. The following outcomes were observed:

- Improved spatial thinking**:** students learned to visualize volume through drawings and to analyze object placement in space.
- Increased technical creativity**:** students mastered creating, modeling, and editing their own 3D projects.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

- Expanded visual thinking**:** 3D models helped students better understand drawings and improve graphical expression skills.
- Higher motivation**:** interactive software sparked interest in lessons and promoted self-directed learning.
- Interdisciplinary integration**:** 3D modeling lessons were successfully connected with informatics, technology, mathematics, and physics.

Additionally, teacher professional development in 3D technologies directly improved educational quality. The user-friendly interfaces of AutoCAD, SketchUp, and Tinkercad allowed students to gain valuable creative experience.

**CONCLUSION:** teaching drafting in general education schools through 3D modeling technologies is one of the most effective methods for developing students' graphical literacy, technical thinking, creativity, and engineering competence.

This approach enables visualization, digitalization, and the connection of theoretical knowledge with real-world applications.

Thus, 3D modeling programs ensure that the teaching of drafting aligns with modern, innovative, and technologically advanced educational trends.

**Keywords:** 3D modeling, drafting, AutoCAD, SketchUp, Tinkercad, Blender, spatial thinking, technical thinking, creativity, interdisciplinary integration, digital pedagogy, STEAM education.

**For citation**: Toshpulatov U. Fakhriddin, Khairullayevna F Normamatova (2025) Using 3d modeling software in teaching drafting in general education schools, Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 90-98. (In Uzbek).

Bugungi raqamli transformatsiya davrida ta'lim jarayonida o'quvchilarning texnik tafakkuri, ijodiy salohiyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitish mazmuni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi zarur. Chunki chizmachilik — bu faqat chiziqlar va shakllar bilan ishlash emas, balki o'quvchilarda fazoviy tasavvur, konstruktiv fikrlash, muhandislik tafakkuri va badiiy-estetik didni shakllantiruvchi fan hisoblanadi.

An'anaviy taxtadagi yoki qog'ozdagi chizma mashg'ulotlari bugungi kunda 3D modellashtirish dasturlari bilan boyitilib, o'quvchilarning real ob'ektlarni fazoda tasavvur qilish, ularni tahlil qilish, yaratish va raqamli shaklda ifodalash qobiliyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli, chizmachilik darslariga AutoCAD, SketchUp, Tinkercad, Fusion 360, Blender kabi dasturlarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

Chizmachilik fanida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati;

Bugungi zamon ta'limi o'quvchidan tayyor bilimni emas, balki mustaqil fikrlash, amaliy qo'llash va yangi yechim yaratish ko'nikmalarini talab qiladi. Chizmachilik fani esa bu jarayon uchun eng qulay platformalardan biridir. Agar ilgari bu fan nazariy grafik chizmalar bilan cheklangan bo'lsa, endi u 3D muhitda interaktiv o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning amaliy-ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

3D modellashtirish dasturlari yordamida o‘quvchilar shakl, hajm, simmetriya, mutanosiblik, proyeksiya, yorug‘lik va soya tushunchalarini amaliy tarzda o‘rganadilar. Ular o‘z qo‘llari bilan chizgan oddiy chizmani raqamli formatga o‘tkazib, undan mashinasozlik, arxitektura yoki dizayn loyihalarida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3D modellashtirish dasturlarining pedagogik imkoniyatlari;

3D dasturlar orqali o‘qitishning asosiy afzalligi — ko‘rgazmalilik, interfaollik va tahliliy fikrlashni shakllantirishdir. Masalan:

- AutoCAD — aniq texnik chizmalar yaratish, o‘lcham qo‘yish, kesim va proyeksiyalarni hosil qilish imkonini beradi.
- SketchUp — arxitektura va interyer dizayn sohasida 3D obyektlarni oson modellashtirish uchun qulay.
- Tinkercad — boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan, soddalashtirilgan interfeysga ega onlayn platforma.
- Fusion 360 — murakkab mexanik va muhandislik loyihalarini raqamli tahlil qilishda qo‘llanadi.
- Blender — badiiy vizualizatsiya, animatsiya va dizayn yo‘nalishlari uchun ochiq manbali dastur.

Bu dasturlar yordamida o‘quvchi chizmaning har bir elementini 3D fazoda aylantirib, kesib, tahlil qilib, uni amaliy holatda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada fazoviy tasavvur, mantiqiy tahlil, estetik did va texnik tafakkur birgalikda rivojlanadi.

3D modellashtirish asosida integratsion o‘qitishning afzalliklari;

3D texnologiyalar chizmachilik fanini STEAM-ta’lim konsepsiyasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ya’ni:

- “Science” (fan) — shakl, geometriya va fizik qonuniyatlarni anglashni ta’minlaydi.
- “Technology” (texnologiya) — kompyuter dasturlarida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- “Engineering” (muhandislik) — chizmani real texnik mahsulotga aylantirishga o‘rgatadi.
- “Art” (san’at) — estetik ifoda va dizayn tafakkurini shakllantiradi.
- “Mathematics” (matematika) — o‘lchov, nisbat, koordinata tizimlari va geometrik tahlilni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, o‘quvchilar nafaqat chizmani chizish, balki uni loyihalash, tahlil qilish va amaliy qo‘llash bosqichlarida ishtirok etadilar.

Ta’lim jarayonida 3D modellashtirish texnologiyasining psixologik-pedagogik ta’siri

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3D muhitda ishlash o‘quvchilarda tasavvur, diqqat, kuzatuvchanlik va sabr kabi ruhiy jarayonlarni faollashtiradi. O‘quvchi chizmaning fazoviy shaklini yaratish jarayonida o‘z tafakkurini nazorat qiladi, tahlil qiladi, xatolarni o‘zi tuzatadi. Bu esa metakognitiv (o‘z fikrlashini boshqarish) ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, 3D modellashtirish mashg‘ulotlari o‘quvchi markazli ta’lim modeliga mos keladi. Unda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

maslahat beruvchi rolini bajaradi. Bu esa o‘quvchida mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodiy mas’uliyatni shakllantiradi.

Amaliy natijalar va kuzatishlar;

O‘tkazilgan tajriba darslari natijalariga ko‘ra, 3D dasturlar asosida o‘qitilgan o‘quvchilar quyidagi yutuqlarga erishgan:

- Fazoviy fikrlash darajasi 40–45% ga oshgan;
- O‘quvchilarning texnik va estetik tafakkuri o‘rtasidagi muvozanat shakllangan;
- Grafik topshiriqlarni bajarish aniqligi 35% ga yaxshilangan;
- Ijodiy loyihalar soni va sifati sezilarli oshgan;
- O‘quvchilarning texnik yo‘nalishdagi kasblarga qiziqishi kuchaygan.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, 3D modellashtirish chizmachilik fanining zamonaviy bosqichi sifatida o‘quvchilarda ijodiy, mantiqiy va analitik tafakkurni uyg‘unlashtiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish va metodik ta’minot;

3D modellashtirishni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarni zamonaviy dasturlardan foydalanish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslariga jalb etish zarur. Har bir o‘qituvchi AutoCAD, SketchUp yoki Fusion 360 dasturlarining asosiy imkoniyatlarini bilishi, virtual laboratoriyalar tashkil qila olishi kerak.

Shuningdek, metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, 3D model banklari, interfaol test va topshiriqlar ishlab chiqilishi lozim. Bu nafaqat o‘quv jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil ishlashini rag‘batlantiradi.

7. 3D modellashtirishda o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish

O‘quvchilarda 3D modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi – geometrik shakllar, proyeksiyalar va koordinatalarni tushuntirish;
2. Model yaratish bosqichi – dastur interfeysi va vositalari bilan tanishtirish;
3. Yaratilgan obyektni tahlil qilish bosqichi – hajm, nisbat, yorug‘lik va materialni o‘rganish;
4. Loyiha bosqichi – mustaqil 3D kompozitsiya yoki obyekt ishlab chiqish;
5. Taqdimot bosqichi – yakuniy modelni taqdim etish, xatolarni muhokama qilish.

Bu jarayon o‘quvchining tahliliy fikrlashidan ijodiy qarorga o‘tishini ta’minlaydi.

Xulosa; Umumta’lim maktablarida chizmachilik fanini 3D modellashtirish dasturlari asosida o‘qitish — bu nafaqat raqamli ta’lim talabi, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishning samarali yo‘lidir. Bu texnologiya o‘quvchilarni kelajak kasblari — muhandislik, arxitektura, dizayn va texnologiya sohalariga tayyorlaydi.

3D dasturlar yordamida o‘quvchi:

- fazoviy tasavvurini kengaytiradi;
- texnik va badiiy fikrlashni uyg‘unlashtiradi;
- ijodiy loyihalar yaratish orqali o‘z salohiyatini namoyon etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Shunday qilib, 3D modellashtirishni chizmachilik faniga joriy etish ta’lim jarayonida innovatsion, interaktiv va amaliy yo‘nalishdagi yondashuvni qaror toptiradi hamda zamonaviy o‘qitishning eng muhim tendensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. FU T. F. U. T. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN’AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – T. 1. – №. 01.
2. Toshpulatov F. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI CHUQURLASHTIRIB O ‘RGANISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – C. 30-37.
3. Uralovich T. F. THE ROLE OF APPLIED ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC SKILLS OF STUDENTS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 111-118.
4. Uralovich T. F. PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING AESTHETIC SKILLS IN FUTURE DRAWING TEACHERS //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 139-144.
5. Toshpulatov F. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA CHIZMACHILIK FANINI O ‘QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
6. Toshpulatov F. Qadimiy grix va o ‘simliksimon (Islimiy) naqsh elementlarining geometrik tahlili //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
7. Toshpulatov F. Use of geometric patterns and their types from eliminations of drawing and applied art in architectural facilities //Физико-технологического образование. – 2022. – T. 1. – №. 1.
8. Dilrabo H. et al. Gut microbiota-derived metabolites and coronary artery disease severity: A case-control metabolomics analysis //Revista Latinoamericana de Hipertension. – 2025. – T. 20. – №. 6.
9. Toshpulatov F. IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING AESTHETIC SKILLS OF A FUTURE DRAWING TEACHER //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 112-115.
10. Toshpulatov F. U. CHIZMACHILIK DARSLARIDA GEOMETRIK YASASHLAR ORQALI ESTETIK KO ‘NIKMALARINI REVOJLANTERISH //Inter education & global study. – 2025. – №. 4. – C. 38-45.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

✉**Toshpulatov Faxriddin Urolovich**, Dotsent., p.f.f.d. (PhD), [**Тошпулатов Фахриддин Уролович,** Доцент, д.п.ф.н. (PhD), [**Toshpulatov F Urolovich,** Associate Professor, Doctor of Philological Sciences. (PhD**),** manzil: [1]O‘zbekiston, Termiz shahari., Umit ko'chasi, 2-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица Умит, дом 2], [address: Umit street, 2nd house, Termiz city, Uzbekistan] Email: toshpulot@terdpi.uz https://orcid.org/0009-0007-2368-9524

✉**Normamatova Fazilat Xayrullayevna,**TerDPI 1-bosqich magistranti [**Нормаматову Фазилат Хайруллаевну**, магистрант 1-го курса ТерГПИ], [**Khairullayevna F Normamatova**,TerDPI 1st year master's student]; manzil: [1]O‘zbekiston, Termiz shahari., Umit ko'chasi, 2-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица Умит, дом 2], [address: Umit street, 2nd house, Termiz city, Uzbekistan] Email: toshpulot@terdpi.uz https://orcid.org/0009-0007-2368-9524

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

© O.M . Gilishtaganova[1]✉
[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqolpog‘iston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat kasbiy, balki yuksak axloqiy mas’uliyatni ham talab etadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik deontologiya tamoyillarini shakllantirish dolzarbdir.

**MAQSAD:** bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirishning asosiy pedagogik va psixologik omillarini qisqacha ilmiy jihatdan asoslash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, normativ hujjatlarni o‘rganish hamda umumlashtiruvchi nazariy tahlil usullari qo‘llanilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalari deontologik sifatlarning kasbiy etika, empatiya va emotsional intellekt bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik amaliyot va refleksiv yondashuvlar deontologik kompetensiyani kuchaytirishi asoslab berildi.

**XULOSA:** deontologik sifatlarni rivojlantirish integrativ yondashuvni, ya’ni psixologik omillar va ta’lim muhiti uyg‘unligini talab etadi. Amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va axloqiy vaziyatlarni modellashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik deontologiya, deontologik sifatlar, kasbiy etika, empatiya, emotsional intellekt, axloqiy madaniyat.

**Iqtibos uchun**: Gilishtaganova O.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.99-106.

# ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

© О.М. Гилиштаганова[1]✉
[1] Нукусский государственный педагогический институт им. Аджиниоза, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ:** современное образование требует от учителя высокого уровня профессиональной и нравственной ответственности. Поэтому формирование деонтологических качеств у будущих педагогов приобретает особую актуальность.

**ЦЕЛЬ:** лратко обосновать основные педагогические и психологические факторы развития деонтологических качеств будущих учителей.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы анализ психолого-педагогической литературы, изучение нормативных документов и теоретическое обобщение научных подходов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что деонтологические качества тесно связаны с профессиональной этикой, эмпатией и эмоциональной устойчивостью педагога. Анализ педагогических ситуаций, практика и рефлексия способствуют укреплению деонтологической компетентности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Развитие деонтологических качеств требует интеграции психологических механизмов и педагогических условий. Тренинги, кейс-стади и моделирование этических ситуаций повышают профессионально-нравственную культуру будущих учителей.

**Ключевые слова:** педагогическая деонтология, деонтологические качества, профессиональная этика, эмпатия, эмоциональный интеллект, нравственная культура.

**Для цитирования**: Гилиштаганова.О.М. Педагогико-психологические основы развития деонтологических качеств у будущих педагогов.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 99-106.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF DEONTOLOGICAL QUALITIES IN FUTURE TEACHERS

© Ogultagan M. Gilishtaganova[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute named after Adjiniosa, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

**INTRODUCTION:** modern education places high demands on teachers' professional and moral responsibility. Therefore, the formation of deontological qualities in future teachers is of particular relevance.

**AIM:** to briefly substantiate the main pedagogical and psychological factors in the development of deontological qualities of future teachers.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on the analysis of psychological and pedagogical literature, relevant regulatory documents and theoretical synthesis of existing approaches.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show a close link between deontological qualities and professional ethics, empathy and emotional stability. Analysis of pedagogical situations, teaching practice and reflection help strengthen deontological competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**CONCLUSION:** The development of deontological qualities requires an integrative approach that combines psychological mechanisms with appropriate educational conditions. Trainings, case studies and modelling of ethical situations contribute to enhancing the professional moral culture of future teachers.

**Keywords:** pedagogical deontology, deontological qualities, professional ethics, empathy, emotional intelligence, moral culture.

**For citation**: Ogultagan M. Gilishtaganova. (2025) 'Pedagogical and psychological foundations of the development of deontological qualities in future teachers', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 99-106. (In Uzbek).

**M**amlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va pedagogik faoliyat sifatini oshirish jarayonida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi hamda ijtimoiy-madaniy muhitning tezkor o'zgarishi pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki ularning axloqiy-etik mas'uliyatini ham yuqori darajada bo'lishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik deontologiya tamoyillarini shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatda amal qilinadigan me'yorlar, etik qoidalar, burch va mas'uliyat tushunchalari asosida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Pedagogik deontologiya o'qituvchining kasbiy axloqiy majburiyatlari, odobi, o'z vazifasini bajarish jarayonidagi xulq-atvor normalarini belgilab beruvchi ilmiy yo'nalish sifatida ta'lim jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchida ushbu sifatlarni shakllantirish esa pedagogik va psixologik yondashuvlarni bir-biriga bog'liq holda qo'llashni talab qiladi. Chunki deontologik sifatlar nafaqat bilim va ko'nikmalar orqali, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy faolligi hamda o'zini anglash darajasi orqali ham rivojlanadi.

Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning deontologik sifatlarini rivojlantirish jarayoni ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, pedagogik muhitni to'g'ri tashkil etish, kasbiy-axloqiy tarbiya metodlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur masalaning ilmiy jihatdan o'rganilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, ta'lim jarayonida samarali muloqot olib borishi, o'quvchilar shaxsiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishi va pedagogik etika me'yorlariga qat'iy amal qilishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Pedagogik deontologiya, kasbiy etika va o'qituvchi shaxsining axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Ushbu adabiyotlarni tahlil qilish bo'lajak o'qituvchilar deontologik sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari, psixologik jarayonlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Pedagogik adabiyotlarda deontologiya tushunchasi insonning odob-axloqi bilan bog'liq bo'lgan fan [1] atamasi sifatida o'rganila boshlagan.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik tayyorgarligi muammosi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, L.Belyakova, I.Korobeynikov, N.Malofeev, M.Nazarova, Ye.Strebeleva, T.Filicheva, S.Shaxovskaya [6] va boshqa mualliflarning ishlarida pedagogik deontologiyani shakllantirishga doir izlanishlar o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan M.Ochilov, Ochilova N [4], A.Boltayev [2], K.Uzakova [5] va boshqalar o‘qituvchi odobi, bo‘lajak o‘quvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish, talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda deontologik yondoshuvning ahamiyati yuzasidan ilmiy ishlarini olib borishgan.

G.Karaxanovaning fikricha [3] kasbiy faoliyatga deontologik tayyorgarlik quyidagi sifatlarda namoyon bo‘ladi:

- oldindan bor bo‘lgan tajribaning “shu yerda va hozir” vaziyatiga proyeksiyasi sifatida;
- insonga u qilayotgan ishning ma’nosi va qiymatini anglash imkonini beruvchi dunyo manzarasini “tartibga keltirish”ga motivatsion tayyorlik ko‘rinishida;
- shaxsiylashtirish jarayoni orqali o‘z-o‘zini anglashga kasbiy-shaxsiy tayyorlik ko‘rinishida.

Olimlarning fikricha deontologik madaniyat deontologik komponentlardan sifat darajasida foydalanish qobiliyati sifatida qaraladi, ammo ushbu muammoni o‘rganishda bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik madaniyatini shakllantirishda asosiy tamoyillarni ajratib ko‘rsatish kerak, ular orasida quyidagilar mavjud: tarbiyaviy ta’sirlarni farqlash va individuallashtirish; inson shaxsining o‘z-o‘zini qadrlashiga tayanish; kasbiy yo‘nalganlik va xatti-harakatlarni hisobga olish; faoliyatda talabalarning mustaqilligi va faolligining ustuvorligi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining pedagogik hamda psixologik mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ilmiy izlanish quyidagi metodologik asoslar, yondashuvlar va tadqiqot usullari tizimi orqali amalga oshirildi. Tadqiqot quyidagi umumiy ilmiy, pedagogik, psixologik va metodologik tamoyillarga tayandi:

- shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bo‘lajak o‘qituvchining individual fazilatlari, kasbiy o‘ziga xosliklari, axloqiy qadriyatlari va ichki motivatsiyasi rivojlanish jarayonining markazida bo‘ldi;
- faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – deontologik sifatlar pedagogik faoliyatda namoyon bo‘lishi sababli ularni kasbiy faoliyat jarayonida rivojlantirish konsepsiyasi asos qilib olindi;
- kompetensiyaviy yondashuv – o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida pedagogik deontologiya, kasbiy etika, kommunikativ madaniyat va axloqiy mas’uliyatni shakllantirish mezonlari belgilandi;
- tizimli yondashuv – deontologik sifatlar shaxsning axloqiy, emotsional, kommunikativ, kasbiy va sotsial jihatlari bilan o‘zaro bog‘liq kompleks tizim sifatida o‘rganildi;
- insonparvarlik tamoyili – tarbiyaviy jarayonlarda o‘qituvchi shaxsining qadriyatlari,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hurmat, adolat, empatiya kabi sifatlar asosiy mezon sifatida olindi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy usullar majmui qo‘llandi:

1) pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;

2) deontologik sifatlar bo‘yicha mavjud konsepsiyalarni taqqoslash;

3) normativ-huquqiy hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, DTS, malaka talabalarni)ni o‘rganish;

4) deontologiya va axloqiy madaniyatga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirish.

Empirik tadqiqot usullari sifatida quyidagi metodlardan foydalanildi: so‘rovnoma (bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik sifatlar haqidagi tasavvurlari va ularning shakllanganlik darajasini aniqlash); intervyu (pedagoglar, metodistlar va psixologlarning fikrlarini o‘rganish); kuzatish (pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy-etik xatti-harakatlarini tahlil qilish); eksperiment (maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida deontologik sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish); diagnostik testlar (axloqiy sezgirlik, empatiya, kommunikativ madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik testlar majmuasi).

Tahlil va natijalar. Kreativ yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoga noodatiy yechim topishi va bilimlarni ijodkorlik bilan qo‘llashga yo‘naltirilgan metodik konsepsiya sifatida qaraladi. Kreativlik (lot. *creatio* – “yaratish”) shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlar o‘rtasida yangi bog‘lanishlar topish va fikrlash jarayonida original yo‘llarni tanlash qobiliyatidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘qituvchi shaxsining kasbiy etika, axloqiy mas’uliyat, pedagogik burch, muloqot madaniyati va kasbiy o‘zini tutish qoidalariga amal qilishini nazarda tutadi. Deontologiya o‘qituvchining: o‘z burchi va vazifalarini anglash, o‘quvchilarga nisbatan odolatli va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kasbiy qarorlar qabul qilishda axloqiy mezonlarga tayanish, javobgarlik hissini rivojlantirish, ta’lim jarayonida etik muvozanatni saqlash kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyati davomida paydo bo‘ladigan axloqiy muammolarni barqaror hal etishga yordam beradi va uning kasbiy kamolotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, deontologik sifatlar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonida, dars jarayonida, o‘zaro muloqotda, tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Pedagogik asoslar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlar integratsiyasi.* Ta’lim jarayonida o‘quv materiallari, pedagogik texnologiyalar va metodlar orqali axloqiy tushunchalarni integratsiya qilish deontologik sifatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi: adolat, halollik, mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik kabi universal qadriyatlarni namuna sifatida ko‘rsatadi, talabalarga pedagogik etikaga oid amaliy topshiriqlar beradi, ta’lim jarayonida etik me’yorlarga amal qilishni rag‘batlantiradi.

2. *Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish metodi.* Axloqiy dilemmalar, real hayotiy pedagogik vaziyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarni to‘g‘ri kasbiy qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Deontologik trening va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish talabaning: fikrlashning axloqiy mezonlarga asoslanishi, qaror qabul qilishda adolat va mas'uliyatni shakllantirishi, pedagogik rolni ongli bajarishi kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. *Pedagogik amaliyotning roli.* O'quv amaliyoti bo'lajak o'qituvchilarni real muhitga tayyorlaydi. Amaliyot davomida ular o'quvchilar bilan muloqotda etik harakatlarni qo'llaydi, murakkab vaziyatlarda axloqiy yondashuvni tanlaydi, pedagogik kuzatuvlar asosida o'z faoliyatini tahlil qiladi. Pedagogik amaliyot deontologik sifatlarni real vaziyatlarda mustahkamlashning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Deontologik sifatlar faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlari motivatsiya, empatiya, emotsional intellekt, ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchining o'quvchilar holatini tushunishi, ularning hissiy dunyosiga kirishi deontologik sifatlarning psixologik negizi hisoblanadi. Empatiya yuqori bo'lgan pedagog: o'quvchi ehtiyojini to'g'ri anglaydi, konfliktlarni to'g'ri yo'l bilan hal qiladi, pedagogik ta'sirni individualizatsiya qiladi. Emotsional intellekti rivojlangan o'qituvchi o'z hissiyotlarini boshqara oladi va stress vaziyatlarida axloqiy barqarorlikni saqlaydi.

Kasbiy motivatsiya deontologik xatti-harakatning psixologik harakatlantiruvchi kuchidir. O'qituvchida kasbga muhabbat, ma'naviy mas'uliyat, ijtimoiy burchni anglash, talabaning shaxsiga hurmat kabi ichki motivlar kuchli bo'lsa, deontologik fazilatlar barqaror shakllanadi.

Ta'lim jarayonining tashkiliy-psixologik jihatlari ham deontologik fazilatlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagogik amaliyot davomida ustoz-shogird munosabatlarining sifati, metodik ko'makning doimiyligi, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik muhiti talabalar ongida professional mas'uliyat tushunchasini mustahkamlaydi. Shuningdek, interfaol metodlar, rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va refleksiv tahlil deontologik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda deontologik sifatlarni shakllantirish integrativ yondashuvni talab etadi. Ya'ni, nazariy tayyorgarlik, psixologik rivojlantirish texnologiyalari va amaliy tajriba uyg'unligida kasbiy-axloqiy madaniyat shakllanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik sifatlarning shakllanish darajasi o'rganilganda, talabalarning 60-70 foizi deontologik bilimlarga ega bo'lsa da, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarida bo'shliq mavjudligi aniqlandi. Pedagogik-psixologik omillar deontologik sifatlarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi isbotlandi. Jumladan, kasbiy motivatsiya, empatiya darajasi, shaxslararo muloqot kompetensiyasi, refleksiya qobiliyati deontologik xulq-atvorning asosiy psixologik komponentlari sifatida qayd etildi.

Olingan natijalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetensiyani shakllantirishning samarali modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

- nazariy tayyorgarlik bloki;
- psixologik rivojlantirish bloki;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- pedagogik amaliyot va refleksiya bloki;
- kasbiy etika bo‘yicha o‘zini-o‘zi baholash tizimi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirish ko‘p omilli, uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etishini ko‘rsatdi. Mazkur xulosalar pedagogik ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchilarni kasbiy-axloqiy kompetentlarga aylantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik sifatlarini rivojlantirish ta’lim tizimining sifatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik deontologiya tamoyillariga asoslangan kasbiy-axloqiy tarbiya nafaqat o‘qituvchining kasbiy faoliyatda to‘g‘ri yo‘l tutishini ta’minlaydi, balki uning shaxsiy fazilatlarini takomillashtiradi, muloqot madaniyatini oshiradi hamda ta’lim jarayonida yuqori darajada mas’uliyatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, deontologik sifatlarni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni, ya’ni pedagogik va psixologik mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

Psixologik nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning o‘z-o‘zini anglash darajasi, emotsional barqarorligi, kommunikativ ko‘nikmalari va ichki motivatsiyasi deontologik fazilatlarning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa ta’lim muhiti, pedagogik muloqot madaniyati, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy-etik talablar hamda o‘quv jarayonida axloqiy me’yorlarni tizimli qo‘llash deontologik sifatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Zero, ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan murakkab pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olishga, mas’uliyat bilan qaror qabul qilishga va o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me’yorlarga mos ravishda yo‘naltirishga undaydi.

Shu bois mazkur masala bo‘yicha nazariy g‘oyalarni yanada boyitish, amaliy metodikalarni takomillashtirish, o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan deontologik ta’lim tizimini joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarni har tomonlama rivojlangan, yuksak axloqiy madaniyatga ega mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida deontologik tarbiya tizimini oshirishga, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish o‘rinli deb o‘ylaymiz:

1) bo‘lajak o‘qituvchilar uchun pedagogik deontologiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, keys-stadilar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan darslar sonini ko‘paytirish lozim;

2) empatiya, emotsional intellekt, stressni boshqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi psixologik treninglarni muntazam ravishda o‘quv jarayoniga joriy etish tavsiya etiladi;

3) amaliyot davomida talabalarni real pedagogik vaziyatlarda deontologik me’yorlarga amal qilishga o‘rgatuvchi maxsus metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish zarur;

zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo‘llanilayotgan sharoitda o‘qituvchilarga onlayn muloqot madaniyati, axborot xavfsizligi va raqamli etika bo‘yicha maxsus modul joriy etish lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бентам И. Деонтология, или наука о морали. – М.: Инфра-М, 1997. –790 с.
2. Болтаев А. Социально-педагогическое основы привития национально-духовных ценностей в сознание студентов // Молодой учёный. – Казань, 2015, – №5. – С.436-438.
3. Караханова Г.А. Формирование деонтологической культуры учителя в системе непрерывного педагогического образования // Общество: социология, психология, педагогика, – 2017. – С. 17.
4. Очилов М, Очилова Н. Ўқитувчи одоби. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 132 б.
5. Uzakova K.E. Oliy texnika ta’limi tizimida talabalarning kommunikativ muloqot madaniyatini rivojlantirishning deontologik asoslari // The journal of academic research in educational sciences. – Uzbekiston, 2021. – №2. – P. 641-645.
6. Шараборина Т.В. Деонтологическая готовность педагога // Материалы XIV Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» (дата обращения: 28.11.2025).

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Gilishtaganova Ogultagan Meretbaevna**, doktorant [**Гилиштаганова Огултаган Меретбаевна**,докторант], [**Gilishtaganova Ogultagan Meretbaevna** doctoral student]; manzil: Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi, raqamsiz uy, [адрес: Республика Каракалпакстан, г. Нукус, п.Улица сейтова, дом без номеров], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus, P. Seitova Street, house without rooms]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O‘QUVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY VA IJTIMOIY MUHITNING O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASHGA TA’SIRI

© S.T. Jakbarova[1]✉
[1]Yangi asr unversiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini qamrab oluvchi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib bormoqda. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida oila va ijtimoiy muhitning psixologik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan kompleks foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

**MAQSAD:** Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda oilaviy va ijtimoiy muhitning ta’sirini nazariy jihatdan asoslash hamda ularning o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ishda kognitiv kompetensiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash, oilaviy va ijtimoiy muhitga oid pedagogik hamda psixologik manbalar nazariy tahlil qilindi. Kontent-tahlil va konseptual yondashuv asosida o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv rivojiga ta’sir etuvchi omillar umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijobiy oilaviy muhit, ota-onaning intellektual qo‘llab-quvvatlashi va muloqot madaniyati o‘quvchilarda motivatsiya, mantiqiy fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Maktab, tengdoshlar guruhi va raqamli axborot muhiti esa ijodiy fikrlash, ijtimoiy faollik va mustaqil bilim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**XULOSA:** Oila va ijtimoiy muhit uyg‘unlashgan taqdirda o‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalar va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatlari izchil shakllanadi, bu esa shaxsning intellektual va ijtimoiy yetukligini ta’minlaydi. Amaliy jihatdan esa oilaviy tarbiya madaniyatini yuksaltirish, maktab–oila hamkorligini mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik muhit yaratish zarur.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv kompetensiya; o‘z-o‘zini tarbiyalash; oilaviy muhit; ijtimoiy muhit; metakognitiv ko‘nikmalar; shaxs rivoji.

**Iqtibos uchun**: Jakbarova S.T. O‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda oilaviy va ijtimoiy muhitning o‘z-o‘zini tarbiyalashga ta’siri.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.107-112.

## ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНО-СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА САМООБРАЗОВАНИЕ НА РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© С.Т. Жакбарова[1]✉
[1]Университет Янги Аср, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях современного образования развитие когнитивных компетенций, включающих восприятие, переработку информации, анализ, сравнение и решение проблем, становится ключевой задачей воспитательно-образовательного процесса. При этом особое значение приобретает комплексное использование воспитательного потенциала семьи и социальной среды.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать влияние семейной и социальной среды на развитие когнитивных компетенций учащихся и выявить их взаимосвязь с процессами самообразования и самовоспитания.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве основного материала использованы психолого-педагогические исследования по проблемам когнитивной компетентности, самообразования и влияния среды. Применялись методы теоретического анализа, контент-анализа и концептуального обобщения факторов, определяющих когнитивное и метакогнитивное развитие личности.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что благоприятный семейный климат, ценностные установки родителей и их участие в учебной деятельности усиливают у учащихся мотивацию, логическое мышление и навыки самоконтроля. Социальная среда (школа, сверстники, информационно-цифровое пространство) способствует развитию творческого мышления, коммуникативной активности и устойчивых навыков самостоятельного обучения.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** согласованное воздействие семьи и социальной среды обеспечивает последовательное формирование когнитивной компетентности и способности к самовоспитанию, что является основой интеллектуальной и личностной зрелости учащихся. Практическая значимость заключается в необходимости укрепления сотрудничества «семья–школа» и создания поддерживающей социальной и психологической среды.

**Ключевые слова:** когнитивная компетентность; самообразование; семейная среда; социальная среда; метакогнитивные навыки; личностное развитие.

**Для цитирования**: Жакбарова. С.Т. Влияние семейно-социальной среды на самообразование на развитие познавательных компетенций учащихся.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 107-112.

## THE INFLUENCE OF THE FAMILY AND SOCIAL ENVIRONMENT ON SELF-EDUCATION ON THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCIES OF STUDENTS

©Surayyo T. Jakbarova[1]✉
[1] Yangi Asr University, Tashkent, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION**: in contemporary education, fostering cognitive competences that include information processing, analysis, comparison and problem solving has become a core objective of the teaching–learning process. In this context, the combined educational potential of the family and social environment plays a decisive role.

**AIM:** The aim of the study is to theoretically substantiate the influence of family and social environment on the development of students' cognitive competences and to reveal their relationship with processes of self-development and self-education.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on psychological and pedagogical studies addressing cognitive competence, self-education and environmental influences. Theoretical analysis, content analysis and conceptual generalization were used to identify key factors shaping learners' cognitive and metacognitive development.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate that a supportive family climate, parents' value orientations and their involvement in learning strengthen students' motivation, logical thinking and self-regulation skills. At the same time, the social environment (school, peer community and digital space) promotes creative thinking, communicative activity and stable independent learning competences.

**CONCLUSION:** the synergy of family and social influences ensures consistent development of cognitive competences and self-educational capacity, forming the basis for students' intellectual and personal maturity. Practically, this requires enhancing school–family partnership and creating a supportive socio-psychological environment for learners.

**Keywords:** cognitive competence; self-education; family environment; social environment; metacognitive skills; personal development.

**For citation**: Surayyo T. Jakbarova. (2025) 'The influence of the family and social environment on self-education on the development of cognitive competencies of students', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 107-112. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim, balki yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Kognitiv kompetensiyalar o'quvchining axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish, muammo yechish kabi faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bunday ko'nikmalarning rivojlanishiga nafaqat maktab, balki oila va keng ijtimoiy muhit ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni esa shaxsning ichki motivatsiyasi, mustaqil maqsad qo'yish, o'z xatti-harakati va o'qish jarayonini boshqara olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning qadriyatlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va atrofdagi kommunikativ muhitga bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kognitiv kompetensiyalar zamonaviy pedagogika va psixologiyada quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

-mantiqiy fikrlash,

-tahlil va sintez qilish,

-mustaqil qaror qabul qilish,

-metakognitiv nazorat o‘z fikrlash jarayonini kuzatish, boshqarish va baholash,

-axborotni izlash va qayta ishlash,

-muammoli vaziyatlar yechimi,

-ijodiy tafakkur.

Ushbu ko‘nikmalar maktabdagi o‘quv faoliyati bilan cheklanmaydi, balki oila va ijtimoiy muhit orqali mustahkamlanib boradi.

Mantiqiy fikrlash shaxsning atrof-muhitdagi hodisalar, jarayonlar va faktlarni izchil, asosli hamda tartibli ravishda tahlil qilish, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini anglash va umumlashtirilgan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda mantiqiy fikrlash inson intellektining asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanadi, chunki u bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, muammoli vaziyatlarni samarali hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarining markazida turadi. Mantiqiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, tasniflash va sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash. Ushbu komponentlarning tizimli shakllanishi o‘quvchining mavhum tasavvur qilish, dalillarni baholash, fikrni aniq ifodalash va muammoga ratsional yondashish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning muhim pedagogik vazifalaridan biri o‘quv faoliyatini muammoli, izlanishli va analitik xarakterga ega bo‘lishini ta’minlashdir. Muammoli savollar berish, tahliliy topshiriqlarni qo‘llash, sabab-oqibat tahlili, mantiqiy zanjirlar tuzish, dalillash talab qiluvchi mashqlar o‘quvchilarda fikrlash jarayonining ongli va izchil bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, interfaol metodlardan “Aql charxi”, “Tahliliy jadval”, “Konseptual xarita”, “Bahs-munozara” kabi yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning tasniflash, solishtirish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi ko‘p jihatdan oilaviy muhit va kundalik muloqot madaniyatiga ham bog‘liq. Oilada savollar berish, fikrni asoslash, mantiqiy izohlar keltirish, biror holatni tahlil qilish, kitob o‘qish kabi kundalik faoliyatlar bolaning fikrlash jarayonlarini tabiiy ravishda rivojlantiradi. Shuningdek, intellektual o‘yinlar, konstruktorlar, matematik yoki strategik o‘yinlar (shaxmat, domino, rebuslar) mantiqiy tafakkurni chuqurlashtiradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki mantiqan fikrlay oladigan o‘quvchi bilimni shunchaki eslab qolmaydi, balki uni tahlil qiladi, qayta ishlaydi, qo‘llaydi va yangi vaziyatlarda mustaqil yechim topadi. Bu esa nafaqat o‘quv jarayonida, balki real hayotiy vaziyatlarda ham samarali faoliyat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Ijodiy tafakkur bu shaxsning mavjud bilim, tasavvur va tajribalarni yangicha,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

noodatiy hamda samarali shaklda qayta ishlash, yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga original yechimlar topish qobiliyatidir. Psixologik nuqtai nazardan ijodiy fikrlash inson tafakkurining eng yuqori bosqichlaridan biri bo‘lib, u tafakkurning elastikligi, moslashuvchanligi va divergent (turli yo‘nalishda fikrlash) xarakteri bilan tavsiflanadi. Ijodiy tafakkur jarayoni insonning tasavvuri, emotsional tajribasi, intellektual salohiyati va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro hamkorlikda shakllanadi. Bu jarayonda shaxs borliqni biryoqlama qabul qilmaydi, balki uni qayta talqin qiladi, mavjud holatlardan yangi mazmun yaratadi. Shu bois ijodiy tafakkur faqat san’at yoki adabiyotga xos bo‘lgan qobiliyat emas, balki fan, texnika, ta’lim, kundalik hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan universal ko‘nikmadir.

Ijodiy fikrlash bir vaqtning o‘zida bir nechta aqliy jarayonlarning uyg‘unlashuvi orqali kechadi. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lib, shaxs mavjud bo‘lmagan obrazlarni mental shaklda yaratadi, turli variantlarni ko‘z oldiga keltiradi. Bu bosqichda mantiqiy chegaralar cheklanmaydi. Muammoga bir emas, bir nechta ehtimoliy yechimlarni taklif qilish, fikrni turli yo‘nalishlarga “tarqatish” ijodiy tafakkurning asosiy belgisi hisoblanadi. Shaxsning bir fikrdan boshqasiga tez o‘ta olishi, turli nuqtai nazarlarni solishtirishi, stereotip fikrlardan yiroqlashish qobiliyatidir. Taklif etilayotgan g‘oyaning noodatiyligi, yangiligi, boshqalarnikidan farq qilishi ijodiy tafakkurning muhim ko‘rinishidir.

Oiladagi erkinlik, qo‘llab-quvvatlash, ota-onalarning yangi g‘oyalarga ochiqligi, bolaga mustaqil qaror qabul qilish imkonining berilishi ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Taqiqlovchi yoki haddan ziyod nazoratga asoslangan muhit esa ijodiy jarayonni cheklashi mumkin. Oila o‘quvchi shaxsining birlamchi ijtimoiylashuv muhitidir. Oila ichidagi muloqot madaniyati, tarbiyaviy yondashuvlar va axloqiy qadriyatlar bevosita bolaning kognitiv jarayonlariga ta’sir qiladi. Kitob, gazeta, ensiklopediya, o‘yinchoq-konstruktor kabi rivojlantiruvchi vositalarning mavjudligi, Ota-onalarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, uyda kuzatish, savol berish, tajriba qilish imkoniyatlarining yaratilishi muhim.

Ota-ona va bola o‘rtasidagi doimiy suhbatlar, savollar berilishi va ularni birgalikda muhokama qilish, bolaning fikriga hurmat bilan yondashish. Bu jarayonlar bolaning tanqidiy fikrlashi, mantiqiy mulohaza yuritishi va mustaqil xulosa chiqarishini rag‘batlantiradi.

O‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bunda oila va ijtimoiy muhitning ta’siri beqiyosdir. Oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning intellektual madaniyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashini kuchaytiradi. Ijtimoiy muhit esa shaxsning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va metakognitiv nazorati shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu ikki muhit uyg‘unlashganda o‘quvchining kognitiv va shaxsiy rivoji yuqori darajada ta’minlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Digital Pedagogy?"A Digital Pedagogy Unconference. 2012-08-30. Retrieved 2017-01-06.
2. Can Online Learning Bend the Higher Education Cost Curve?" (PDF). 2015.
3. History of Distance Education at University of London". University of London. Retrieved 2022-08-03
4. About us". University of London. Retrieved 2018-11-03.
5. Hirsch, Brett D. (2012). Hirsch, Brett D (Ed.). Digital Humanities Pedagogy: Practices, Principles and Politics. Open Book Publishers. doi: 10.11647. ISBN 9781909254275.
6. Anastasi A., Urbina S. (1997). Psychological testing. New York: Pearson [Google Scholar]
7. Andreas Demetriou, George Charilaos Spanoudis, Samuel Greiff, Nikolaos Makris, Rita Panaoura , Smaragda Kazi https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.954971 Changing priorities in the development of cognitive competence and school learning: A general theory
8. Hakimova Gulchehra & Bozarova Gulira’no Sadriddin qizi. Maqola: “Raqamli pedagogik imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar.
9. Ю. В. Пушкарёв 1, Е. А. Пушкарёва 1 Факторы, определяющие развитие когнитивных способностей в условиях цифровизации процессов образования: обзор текущих исследований. Новосибирский государственный педагогический университет, Новосибирск, Россия.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jakbarova Surayyo Tangirberganovna**, o‘qituvchi [**Жакбарова Сурайё Тангирбергановна**,преподаватель], [**Jakbarova Surayyo Tangirberganovna** teacher]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, So'galli ota ko'chasi 5-uy, [адрес: Г. Ташкент, Чиланзарский район,ул. Сугаллык, д. 5], [address: Tashkent, Chilanzar district, Sugallik str., 5.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# SIMULYATSION TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA KLINIK “TAHLIL–TASHXIS–MUOLAJA” SIKLINI BAHOLASH UCHUN OSCE-BAHOLASH MEZONLAR TIZIMI

© A.K. Jamolov[1]✉
[1]Professional ta'limni rivojlantirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada tibbiyot texnikumlarining “Hamshiralik ishi” yo‘nalishi o‘quvchilari klinik tayyorgarligini baholashda OSCE (Objective Structured Clinical Examination) tizimidan foydalanishning dolzarbligi yoritiladi. An’anaviy baholash usullarining cheklanganligi, amaliy ko‘nikmalarni ob’ektiv baholash mezonlari yetarli emasligi klinik “tahlil–tashxis–muolaja” siklini baholash uchun yangi yondashuvlarni talab qilishi asoslab beriladi.

**MAQSAD:** simulyatsion ta’lim resurslari asosida klinik “tahlil–tashxis–muolaja” siklini baholash uchun motivasion, kognitiv va amaliy komponentlarni qamrab oluvchi OSCE-baholash mezonlar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini amaliy tajriba asosida asoslashdir. Shuningdek, ushbu tizim yordamida hamshiralik ishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro talablarga yaqinlashtirish imkoniyatlarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda OSCE, simulyatsion ta’lim, klinik kompetensiyalar bo‘yicha xalqaro manbalar, O‘zbekiston ta’lim to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bazasida o‘tkazilgan pilot tajriba materiallari tahlil qilindi. Baholash tizimi motivasion (20%), kognitiv (30%) va amaliy (50%) komponentlarga ajratilib, ularning har biri bo‘yicha batafsil mezonlar va ballar shkalasi (jadval shaklida) ishlab chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** simulyatsion ta’lim resurslari (turli darajadagi simulyatorlar, virtual muhitlar, standartlashtirilgan bemorlar) asosida tashkil etilgan OSCE-stansiyalarida 3-kurs “Hamshiralik ishi” yo‘nalishi o‘quvchilari (n=120) ishtirokida pilot sinov o‘tkazildi. Natijalar motivasion (M=16,2±2,8), kognitiv (M=22,5±4,2) va amaliy (M=38,7±6,5) ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘quvchilarning 50% dan ortig‘i yuqori darajaga erishganini ko‘rsatdi; umumiy ball bo‘yicha 54,2% yuqori, 37,5% o‘rtacha va 8,3% past daraja qayd etildi. OSCE tizimi an’anaviy baholashga nisbatan klinik fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va motivasiyani kompleks baholash imkonini bergani aniqlangan.

**XULOSA:** simulyatsion ta’lim resurslari asosida ishlab chiqilgan OSCE-baholash mezonlar tizimi hamshiralik ishi bo‘yicha o‘quvchilarning klinik “tahlil–tashxis–muolaja” siklini bosqichma-bosqich va ob’ektiv baholashga xizmat qiladi. Taklif etilgan tizim tibbiyot texnikumlarida o‘quv jarayonini standartlashtirish, ta’lim sifati va klinik tayyorgarlik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

darajasini oshirishga, shuningdek, turli ta’lim muassasalari o‘rtasida kompetensiyalarni taqqoslashga keng imkoniyat yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** OSCE-baholash tizimi, simulyatsion ta’lim resurslari, hamshiralik ishi, klinik “tahlil–tashxis–muolaja” sikli, motivasion komponent, kognitiv baholash, amaliy kompetensiyalar, tibbiy ta’lim sifati.

**Iqtibos uchun**: Jamolov A.K. Simulyatsion ta'lim resurslari asosida klinik “tahlil–tashxis–muolaja” siklini baholash uchun osce-baholash mezonlar tizimi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.113-122.

# СИСТЕМА КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ OSCE ДЛЯ АНАЛИЗА КЛИНИЧЕСКОГО ЦИКЛА “АНАЛИЗ–ДИАГНОЗ–ЛЕЧЕНИЕ” НА ОСНОВЕ РЕСУРСОВ СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

© А.К. Жамолов[1]✉
[1]Институт развития профессионального образования, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье обосновывается актуальность применения системы OSCE (Objective Structured Clinical Examination) для оценки клинической подготовки студентов медицинских техникумов по направлению «Сестринское дело». Показано, что ограничения традиционных форм контроля, ориентированных преимущественно на теоретические знания, не позволяют в полной мере оценить клинический цикл «анализ–диагноз–лечение» и уровень сформированности практических навыков.

**ЦЕЛЬ:** разработать систему критериев оценки OSCE для клинического цикла «анализ–диагноз–лечение» на основе ресурсов симуляционного обучения, включающую мотивационный, когнитивный и практический компоненты, и экспериментально обосновать ее эффективность. Дополнительно ставится задача оценить вклад данной системы в повышение качества подготовки специалистов сестринского дела в соответствии с международными стандартами.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве теоретической базы использованы международные исследования по OSCE, симуляционному обучению и клинической компетентности, а также нормативно-правовые документы системы медицинского образования Узбекистана. На базе техникума общественного здоровья им. Абу Али ибн Сино был проведен пилотный эксперимент с участием студентов 3 курса (n=120), в рамках которого разработанная система критериев, включающая мотивационный (20%), когнитивный (30%) и практический (50%) компоненты, реализована через серию OSCE-станций.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** в ходе исследования были внедрены различные ресурсы симуляционного обучения: низко-, средне- и высокореалистичные манекены, виртуальные симуляторы и стандартизированные

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

пациенты. Анализ результатов показал, что средние показатели по мотивационному (16,2±2,8), когнитивному (22,5±4,2) и практическому (38,7±6,5) компонентам соответствуют преобладанию высокой и средней степени сформированности компетенций; 54,2% студентов продемонстрировали высокий, 37,5% – средний и 8,3% – низкий уровень общей подготовленности. Установлено, что OSCE обеспечивает более объективную и прозрачную оценку клинических навыков, чем традиционные методы контроля.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** разработанная система критериев OSCE на основе ресурсов симуляционного обучения позволяет комплексно оценивать клинический цикл «анализ–диагноз–лечение», объединяя мотивационные, когнитивные и практические аспекты профессиональной компетентности студентов. Ее внедрение в медицинских техникумах Узбекистана способствует повышению качества клинического обучения, стандартизации оценочных процедур и сближению подготовки специалистов сестринского дела с международными требованиями.

**Ключевые слова:** система оценки OSCE, симуляционное обучение, сестринское дело, клинический цикл «анализ–диагноз–лечение», мотивационный компонент, когнитивная оценка, практические компетенции, качество медицинского образования.

**Для цитирования**: Жамолов.А.К. Система критериев оценки osce для анализа клинического цикла “анализ–диагноз–лечение” на основе ресурсов симуляционного обучения.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 113-122.

## OSCE ASSESSMENT CRITERIA SYSTEM FOR EVALUATING THE CLINICAL CYCLE “ANALYSIS–DIAGNOSIS–TREATMENT” BASED ON SIMULATION TRAINING RESOURCES

©Anvar K. Jamolov[1]✉
[1]Institute of Professional Education Development, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article substantiates the relevance of using the OSCE (Objective Structured Clinical Examination) system to assess the clinical training of medical college students in the “Nursing” program. It is argued that traditional assessment methods, which focus mainly on theoretical knowledge, are insufficient for an objective evaluation of the clinical “analysis–diagnosis–treatment” cycle and the level of practical skills.

**AIM:** the main aim of the study is to develop an OSCE assessment criteria system for the clinical “analysis–diagnosis–treatment” cycle based on simulation training resources, integrating motivational, cognitive and practical components, and to provide experimental evidence of its effectiveness. An additional aim is to determine how this system can improve the quality of nursing education in line with international standards.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MATERIALS AND METHODS:** the theoretical framework includes international studies on OSCE, simulation-based education and clinical competence, as well as national regulatory documents in medical education. A pilot study was conducted at the Siyob Abu Ali ibn Sino Public Health College with 3rd-year nursing students (n=120), where the proposed criteria system—comprising motivational (20%), cognitive (30%) and practical (50%) components—was implemented through a set of OSCE stations.

**DISCUSSION AND RESULTS:** various simulation-based training resources were used, including low-, medium- and high-fidelity simulators, virtual simulation tools and standardized patients. The results showed mean scores of 16.2±2.8 for the motivational component, 22.5±4.2 for the cognitive component and 38.7±6.5 for the practical component, with 54.2% of students achieving a high, 37.5% a moderate and 8.3% a low overall performance level. The findings indicate that the OSCE system provides more objective, transparent and competency-oriented assessment of clinical skills compared to traditional methods.

**CONCLUSION:** the OSCE assessment criteria system based on simulation training resources enables comprehensive evaluation of the clinical "analysis–diagnosis–treatment" cycle by simultaneously capturing motivational, cognitive and practical dimensions of student competence. Its implementation in medical colleges of Uzbekistan can enhance the quality of clinical training, standardize assessment procedures and align nursing education with international competency-based requirements.

**Keywords:** OSCE assessment system, simulation-based education, nursing, clinical "analysis–diagnosis–treatment" cycle, motivational component, cognitive assessment, practical competencies, quality of medical education.

**For citation**: Anvar K. Jamolov. (2025) 'Osce assessment criteria system for evaluating the clinical cycle "analysis–diagnosis–treatment" based on simulation training resources', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 113-122. (In Uzbek).

**Z**amonaviy tibbiy ta'lim tizimi tobora yangi texnologiyalar va innovasion yondashuvlarni qabul qilmoqda. Jumladan, simulyasion ta'lim usullari hamshiralik ishi mutaxassislarini tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Bunday yondashuv o'quvchilarga xavfsiz muhitda klinik vaziyatlarni modellashtirish, xatolarni tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish imkonini beradi.

OSCE (Objective Structured Clinical Examination) – ob'ektiv strukturaviy klinik imtihon tizimi bo'lib, u o'quvchilarning klinik kompetensiyalarini standartlashtirilgan va ob'ektiv baholash uchun xalqaro miqyosda qabul qilingan usul hisoblanadi [1, 2]. Ushbu tizim 1975 yilda Ronald Harden tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida qo'llanilmoqda [3]. O'zbekiston Respublikasi yangi tahririning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, tibbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarini ham baholash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

zarurati belgilangan [4]. Shu boisdan, simulyasion ta'lim asosida OSCE baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda tibbiyot texnikumlarida hamshiralik ishi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilarni baholashda quyidagi muammolar mavjud:

1. An'anaviy baholash usullari asosan nazariy bilimlarga qaratilgan bo‘lib, amaliy ko‘nikmalar etarli darajada tekshirilmaydi;
2. Klinik amaliyotda o‘quvchilarga real bemorlar ustida tajriba orttirish imkoniyatlari cheklangan va etarli emas;
3. Baholash jarayonida sub'ektiv omillar ta'siri yuqori, natijada ob'ektiv baholash qiyinlashadi;
4. Motivasion va kognitiv jihatlarni baholash uchun aniq mezonlar etishmaydi;
5. Standartlashtirilgan baholash tizimi yo‘qligi sababli turli ta'lim muassasalari o‘rtasida o‘quvchilar tayyorgarlik darajasini solishtirish mushkul.

OSCE baholash tizimining asosiy tamoyillari

OSCE (Objective Structured Clinical Examination) – ob'ektiv strukturaviy klinik imtihon tizimi bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning klinik kompetensiyalarini standartlashtirilgan va shaffof tarzda baholashdir [5]. Ushbu tizim quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: Ob'ektivlik – barcha o‘quvchilar uchun bir xil standartlar va mezonlar qo‘llaniladi; Strukturaviylik – imtihon aniq reja va ketma-ketlik asosida tashkil etiladi; Ko‘p stansiyalilik – turli klinik vaziyatlarni baholash uchun 10-20 ta alohida stansiyalar tashkil etiladi; Standartlashtirilganlik – barcha o‘quvchilar uchun bir xil vaziyatlar va baholash kriteriylari; Ko‘ptomonlamalik – bilim, ko‘nikma, munosabat va muomala qobiliyatlarining kompleks baholanishi.

Simulyasion ta'lim resurslari. Simulyasion ta'lim – bu real klinik vaziyatlarni xavfsiz va nazorat ostida takrorlash imkonini beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyasidir [6]. Hamshiralik ta'limida quyidagi simulyasion resurslar qo‘llaniladi:

1. Past darajali simulyatorlar: in'eksiya qilish, zond qo‘yish, kateter o‘rnatish uchun sodda modullar;
2. O‘rta darajali simulyatorlar: yurak-qontomir tizimi, nafas olish, asab tizimi funksiyalarini modellashtiruvchi manekenlar;
3. Yuqori darajali simulyatorlar: kompyuter boshqaruvidagi, fiziologik javoblarni takrorlovchi interaktiv manekenlar;
4. Virtual simulyatorlar: 3D-texnologiyalar asosida ishlaydigan dasturiy ta'minot va virtual reallik tizimlari;
5. Standartlashtirilgan bemorlar: maxsus tayyorlangan aktyorlar real klinik vaziyatlarni hayot kabi ko‘rsatadilar.

Klinik tahlil–tashxis–muolaja sikli. Hamshiralik amaliyotida klinik sikl quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [7]: Baholash (Assessment): bemorning holatini tekshirish, sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlarni yig‘ish; Tashxis (Diagnosis): hamshiralik muammolarini aniqlash va tavsiflash; Rejalashtirish (Planning): hamshiralik maqsadlari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va intervensiyalarini belgilash; Bajarish (Implementation): rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish; Baholash (Evaluation): natijalarni tahlil qilish va kerak bo‘lsa, hamshiralik rejasini qayta ko‘rib chiqish.

Baholash mezonlari tizimi. Ishlab chiqilgan OSCE baholash tizimi uch asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: motivasion, kognitiv va amaliy. Har bir komponent turli mezonlar va ballar tizimiga ega (1-jadval).

1-jadval. Baholash komponentlariningumumiy tavsifi

| Komponent | Vazni (%) | Asosiymezonlar | Maks. ball |
|---|---|---|---|
| Motivasion | 20% | Motivasiya darajasi, ichki qiziqish, professional munosabat, mas'uliyat hissi | 20 |
| Kognitiv | 30% | Nazariy bilimlar, klinik fikrlash, muammolarni echish, tibbiy terminologiya | 30 |
| Amaliy | 50% | Klinik ko‘nikmalar, manipulyasiyalar texnikasi, xavfsizlik qoidalari, vaqt boshqaruvi | 50 |

Motivasion komponent: Motivasion komponent o‘quvchining hamshiralik kasbiga bo‘lgan munosabati, ichki qiziqishi va professional rivojlanishga intilishini baholaydi. Ushbu komponent barcha baholarning 20% ini tashkil etadi va quyidagi mezonlarni o‘z ichiga oladi (2-jadval):

*2-jadval.* Motivasion komponent bo‘yicha baholash mezonlari

| № | Mezon | Baholashkriteriysi | Ball |
|---|---|---|---|
| 1 | Kasbiy qiziqish va motivasiya | Yuqori darajada o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish namoyon bo‘lsa, qo‘shimcha resurslardan foydalansa | 5 |
| | | O‘rtacha darajada qiziqish ko‘rsatsa, belgilangan topshiriqlarni bajarsa | 3-4 |
| | | Past motivasiya, faqat majburiy topshiriqlarni bajarish | 1-2 |
| 2 | Bemorlarga munosabat va empatiya | Bemorga empatik yondashuv, ehtiyotkorlik va hurmat bilan muomala qilish. | 5 |
| | | Empatiya ko‘rsatiladi, lekin biroz rasmiylik mavjud. | 3-4 |
| | | Empatiya etarli emas, rasmiy munosabat. | 1-2 |
| 3 | Professional etika va mas'uliyat | Etika qoidalariga to‘liq rioya qilish, yuqori mas'uliyat hissi. | 5 |
| | | Asosiy etika talablariga rioya qilish. | 3-4 |
| | | Etika qoidalari buzilishi yoki mas'uliyatsizlik. | 1-2 |
| 4 | Jamoada ishlash qobiliyati | Samarali hamkorlik, faol ishtirok, boshqalar bilan maqsadga yo‘naltirilgan ishlar. | 5 |
| | | Jamoada ishlaydi, lekin tashabbuskorlik kam. | 3-4 |
| | | Jamoadan alohida ishlashga moyillik, hamkorlik qilishda qiyinchilik. | 1-2 |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Motivasion komponent bo‘yicha umumiy baholash shkalasi:

- 17-20 ball: Yuqori motivasiya darajasi;
- 12-16 ball: O‘rtacha motivasiya;
- 4-11 ball: Past motivasiya (qo‘shimcha psixologik yordam tavsiya etiladi).

Kognitiv komponent: Kognitiv komponent o‘quvchining nazariy bilimlari, klinik fikrlash qobiliyati va muammolarni echishdagi malakasini baholaydi. Bu komponent barcha baholarning 30% ini tashkil etadi va quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi (3-jadval):

*3-jadval.* Kognitiv komponent bo‘yicha baholash mezonlari

| № | Mezon | Baholashkriteriysi | Ball |
|---|---|---|---|
| 1 | Anatomiya va fiziologiya bilimlari | Chuqur va sistematik bilimlar, klinik vaziyatga qo‘llay olish | 8 |
| | | Asosiy bilimlar mavjud, qo‘llashda kichik xatoliklar | 5-7 |
| | | Bilimlar etarli emas, nazariy-amaliy bog‘liqlik zaif | 1-4 |
| 2 | Klinik fikrlash va muammolarni echish | Tez va aniq klinik echimlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash | 8 |
| | | Muammolarni etarli darajada echish, ayrim hollarda ko‘mak talab qilish | 5-7 |
| | | Mustaqil fikrlash qiyin, doimiy yo‘riqnoma kerak | 1-4 |
| 3 | Tibbiy terminologiya va hujjatlar bilan ishlash | Terminologiyani erkin qo‘llash, to‘g‘ri hujjatlashtirish | 7 |
| | | Terminologiyani qo‘llashda kichik xatoliklar, hujjatlar etarli darajada to‘ldiriladi | 4-6 |
| | | Terminologik xatolar ko‘p, hujjatlashtirish talablari buzilgan | 1-3 |
| 4 | Dori vositalari va dozirovkalar bilimi | Dori vositalari tasnifi, dozirovka hisoblash va qo‘llash bo‘yicha chuqur bilim | 7 |
| | | Asosiy dori vositalarini bilish, dozirovkani hisoblash qobiliyati | 4-6 |
| | | Dorilar bo‘yicha bilim cheklangan, dozirovkani hisoblashda xatolar | 1-3 |

Kognitiv komponent bo‘yicha umumiy baholash shkalasi:

- 25-30 ball: Yuqori darajadagi nazariy bilimlar;
- 17-24 ball: O‘rtacha darajadagi bilimlar;
- 4-16 ball: Past darajadagi bilimlar (qo‘shimcha nazariy tayyorgarlik kerak).

Amaliy komponent: Amaliy komponent – OSCE baholash tizimining eng muhim qismi bo‘lib, u o‘quvchining klinik ko‘nikmalari, manipulyasiyalarni bajarish texnikasi va vaqt boshqaruvini baholaydi. Bu komponent barcha baholarning 50% ini tashkil etadi (4-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jadval):

4-jadval. Amaliy komponent bo‘yicha baholash mezonlari

| № | Klinik ko‘nikma kategoriyasi | Baholash kriteriysi | Ball |
|---|---|---|---|
| 1 | Aseptika va antiseptika | Barcha aseptika qoidalariga qat'iy rioya qilish | 10 |
| | | Asosiy qoidalar bajarilgan, kichik kamchiliklar mavjud | 6-9 |
| | | Aseptika qoidalari etarli darajada bajarilmagan | 1-5 |
| 2 | Vital alomatlarni o‘lchash va baholash | Barcha texnika bosqichlari to‘g‘ri, natijalar aniq talqin qilingan | 10 |
| | | Texnika asosan to‘g‘ri, kichik xatoliklar bor | 6-9 |
| | | Texnika buzilgan yoki natijalar noto‘g‘ri talqin qilingan | 1-5 |
| 3 | In'eksiyalar ( mushak orasi , vena ichi, teri osti teri orasi ) | To‘g‘ri joy tanlash, texnika mukammal, xavfsizlik ta'minlangan | 10 |
| | | Texnika etarli, kichik kamchiliklar bor | 6-9 |
| | | Texnika buzilgan, xavfsizlik choralari etarsiz | 1-5 |
| 4 | Bemorni ko‘rish va fizikal tekshirish | Sistematik yondashuv, barcha kerakli tekshirish usullari qo‘llangan | 10 |
| | | Asosiy tekshirish usullari bajarilgan | 6-9 |
| | | Tekshirish sistematik emas, muhim bosqichlar o‘tkazib yuborilgan | 1-5 |
| 5 | Vaqt boshqaruvi va samaradorlik | Belgilangan vaqtda barcha topshiriqlar mukammal bajarilgan | 10 |
| | | Asosiy topshiriqlar vaqtida bajarilgan | 6-9 |
| | | Vaqt etishmasligi, topshiriqlar to‘liq bajarilmagan | 1-5 |

Amaliy komponent bo‘yicha umumiy baholashshkalasi:

- 42-50 ball: Yuqori darajadagi amaliy malaka;
- 28-41 ball: O‘rtacha darajadagi malaka;
- 5-27 ball: Past darajadagi malaka (qo‘shimcha amaliy mashg‘ulot talab qilinadi).

Baholash metodikasi: OSCE imtihoni 12-15 ta alohida stansiyalardan iborat bo‘lib, har bir stansiyada o‘quvchi 7-10 daqiqa davomida belgilangan topshiriqni bajaradi. Stansiyalarning tuzilishi quyidagicha (5-jadval):

*5-jadval.* OSCE stansiyalari misollari

| № | Stansiya nomi | Davomiyligi | Asosiy ko‘nikmalar | Baholashkomponenti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Vital alomatlarni o‘lchash | 8 daqiqa | Arterial bosim, puls, nafas chastotasini aniqlash | Amaliy (10 ball) |
| 2 | In'eksiya qilish | 7 daqiqa | Mushak orasiga in'eksiya qilish texnikasi | Amaliy (10 ball) |
| 3 | Aseptika va antiseptika | 8 daqiqa | Qo‘llarga ishlov berish, steril qo‘lqop kiyish va echish | Amaliy (10 ball) |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| № | Stansiya nomi | Davomiyligi | Asosiy ko‘nikmalar | Baholashkomponenti |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Bemorni ko‘rish | 10 daqiqa | Anamnez yig‘ish, fizikal tekshirish | Amaliy + Kognitiv (15 ball) |
| 5 | Shoshilinch yordam | 8 daqiqa | Reanimasiya tadbirlari (SLR) | Amaliy (10 ball) |
| 6 | Nazariy savollar | 7 daqiqa | Anatomiya, fiziologiya, farmakologiya | Kognitiv (15 ball) |
| 7 | Dorilar bilan ishlash | 7 daqiqa | Dozalashni hisoblash, dori tayyorlash | Kognitiv + Amaliy (10 ball) |
| 8 | Bemor bilan muloqot | 10 daqiqa | Empatiya, maslahat berish, savollarga javob | Motivasion (20 ball) |

Natijalar tahlili: Ishlab chiqilgan OSCE baholash tizimi Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumida 2024 yil may-iyun oylarida pilot rejimda sinab ko‘rildi. Tadqiqotda "Hamshiralik ishi" yo‘nalishi 3-kurs o‘quvchilari (n=120) ishtirok etdilar. Natijalar 6-jadvalda keltirilgan:

*6-jadval.*O‘tkazilgan tadqiqot natijalar itahlili

| Komponent | O‘rtacha ball (M±SD) | Yuqori daraja (%) | O‘rtacha daraja (%) | Past daraja (%) |
|---|---|---|---|---|
| Motivasion (20 ball) | 16.2±2.8 | 58.3% | 33.3% | 8.4% |
| Kognitiv (30 ball) | 22.5±4.2 | 45.8% | 43.3% | 10.9% |
| Amaliy (50 ball) | 38.7±6.5 | 52.5% | 36.7% | 10.8% |
| Umumiy (100 ball) | 77.4±10.8 | 54.2% | 37.5% | 8.3% |

Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarning 54.2%i yuqori darajada, 37.5%i o‘rtacha darajada va 8.3%i past darajada baholandi. Bu ko‘rsatkichlar an'anaviy baholash usullariga nisbatan aniq va ob'ektiv natijalar beradi. Ushbu tadqiqot doirasida tibbiyot texnikumlarida "Hamshiralik ishi" yo‘nalishi o‘quvchilari uchun simulyasion ta'lim resurslari asosida OSCE-baholash mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Tizim motivasion (20%), kognitiv (30%) va amaliy (50%) komponentlarni o‘z ichiga oladi va klinik tahlil–tashxis–muolaja siklining barcha bosqichlarini baholashga imkon beradi. Pilot tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, OSCE tizimi an'anaviy baholash usullariga nisbatan quyidagilar: O‘quvchilar kompetensiyalarini ob'ektiv va aniqroq baholaydi; Klinik fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ko‘maklashadi; O‘quvchilarning motivasiyasini ko‘tarib, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi; Standartlashtirilgan baholash orqali turli ta'lim muassasalari o‘rtasida kompetensiyalarni solishtirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan tizim O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot texnikumlarida keng miqyosda qo‘llanishi uchun amaliy tavsiyanomalar tayyorlandi. OSCE-baholash mezonlar tizimini joriy etish hamshiralik ishi buyicha kadrlarni tayyorlashning sifatini sezilarli darajada yaxshilashga va xalqaro standartlarga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Harden R.M., Gleecon Ф.A. Acceccment оф clinical competence ucing an оbjective ctructureд clinical examination (OCCE) // Medical Education. – 1979. – Vol. 13(1). – P. 39-54.
2. Khan K.Z., Ramачandran C., Gaunt K., Puшkar P. The Оbjective Ctructureд Clinical Examination (OCCE): AMEE Guiде No. 81. Part I: An hictorical anд theoretical percpective // Medical Teачer. – 2013. – Vol. 35(9). – P. e1437-e1446.
3. Patricio M.Ф., Julião M., Фareleira Ф., Carneiro A.V. Ic the OCCE a фeaciбle tool to accecc competenciec in undergraduate medical education? // Medical Teачer. – 2013. – Vol. 35(6). – P. 503-514.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. https://lex.uz/docs/5013007
5. Zayян M. Оbjective ctructureд clinical examination: The accecсment оф чoice // Oman Medical Journal. – 2011. – Vol. 26(4). – P. 219-222.
6. Gaба Д.M. The фuture vicion оф cimulation in health care // Quality anд Caфety in Health Care. – 2004. – Vol. 13(Cuppl 1). – P. i2-i10.
7. Alфaro-LeФevre R. Applying Nurcing Procecc: The Фoundation фor Clinical Reaconing. – 9th ед. – Philadelphia: Wolterc Kluwer, 2020. – 368 p.
8. McGaghie W.C., Iccenбerg C.Б., Cohen E.R., Бarcuk J.H., Wayne Д.Б. Доec cimulation-бaceд medical education with деliберate practice yielд бetter reculц than traditional clinical education? A meta-analytic comparative review оф the evidence // Academic Medicine. – 2011. – Vol. 86(6). – P. 706-711.
9. Ruшфorth H.E. Оbjective ctructureд clinical examination (OCCE): Review оф literature anд implicationc фor nurcing education // Nurce Education Today. – 2007. – Vol. 27(5). – P. 481-490.
10. Alinier G. Developing high-фidelity health care cimulation ccenarioc: A guiде фor educatorc anд profeccionalc // Cimulation & Gaming. – 2011. – Vol. 42(1). – P. 9-26.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jamolov Anvar Kuchkorovich**,mustaqil tadqiqotchi[**Жамолов Анвар Кучкорович**, независимый исследователь,], [**Jamolov Anvar Kuchkorovich,** independent researcher,]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent ZIYO KO`CHASI, 76-UY, [адрес: Узбекистан, Ташкент, ул. ЗИЁ, 76], [address: 76 ZIE Street, Tashkent, Uzbekistan]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# PEDAGOGIK MADANIYAT VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISH O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK

© Y.B. Kamalova[1]✉

[1] Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida qaralib, talabaning jismoniy, ruhiy va ma’naviy salomatligini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida pedagogik madaniyat axloqiy qadriyatlar, mas’uliyat, intizom va ijtimoiy hamkorlikni shakllantirish bilan birga sog‘lom hayotiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Sog‘lom turmush tarzi esa kundalik xulq-atvor, jismoniy faollik, ovqatlanish va stressni boshqarish madaniyatini o‘z ichiga oladi. Shu bois ushbu ikki tushuncha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni nazariy va amaliy jihatdan asoslashdir. Shuningdek, ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik madaniyatga tayangan samarali strategiya va texnologiyalarni aniqlash maqsad qilingan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, sog‘lom turmush tarzi va pedagogik madaniyatga oid konseptual ishlar kontent-tahlil metodi yordamida o‘rganildi. Talabalarning pedagogik madaniyat darajasi va sog‘lom turmush tarziga munosabatini aniqlash uchun so‘rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar qo‘llanildi. Psixologik-pedagogik eksperimentlar orqali interaktiv treninglar, raqamli vositalar va pedagogik texnologiyalar ta’siri sinovdan o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar analitik va taqqoslash metodlari asosida qayta ishlanib, integrativ xulosalar ishlab chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda sog‘lom turmush tarzini qabul qilish, jismoniy faollik va stressni boshqarish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Raqamli suhbat vositalari, interaktiv mashg‘ulotlar va kompleks pedagogik texnologiyalar sog‘lom xulq-atvorni rag‘batlantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Azzini, Baroni, Celino va Zholdasbekovlar ishlarining tahlili innovatsion texnologiyalar va tizimli pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi sog‘lom turmush strategiyasini kuchaytirishini tasdiqladi.

**XULOSA:** tadqiqot pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslab, ta’lim tizimida integrativ yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Pedagogik madaniyatga tayangan holda interaktiv texnologiyalarni, psixologik-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pedagogik treninglarni va sog‘lomlikka yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini birgalikda qo‘llash talabalarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy salomatligini kompleks ravishda rivojlantiradi. Bu esa jamiyatda sog‘lom, faol va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash uchun muhim shart sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, talaba sog‘ligi, ma’naviy rivojlanish, psixologik-pedagogik yondashuv, raqamli vositalar, ijtimoiy integratsiya.

**Iqtibos uchun**: Kamalova Y.B. Pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.123-131.

## НЕРАЗРЫВНАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И РАЗВИТИЕМ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

© Ё.Б. Камалова[1]✉
[1]Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях глобальных изменений образование рассматривается как пространство формирования не только знаний, но и ценностей, связанных со здоровьем и образом жизни. Педагогическая культура обеспечивает развитие моральных и социальных качеств, ответственности и самодисциплины, необходимых для осознанного выбора здоровых практик. Здоровый образ жизни включает повседневное поведение, физическую активность, рациональное питание и стрессоустойчивость, что делает его неотъемлемой частью воспитательного процесса. Поэтому изучение связи между педагогической культурой и здоровым образом жизни приобретает высокую научную и практическую значимость.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать и эмпирически выявить взаимосвязь между уровнем педагогической культуры и степенью сформированности здорового образа жизни у студентов. Дополнительной задачей является определение эффективных педагогических стратегий и технологий, способствующих интеграции ценностей здорового образа жизни в практику образовательных учреждений.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использованы научные публикации по педагогической культуре, здоровому образу жизни и педагогическим технологиям, а также нормативные и учебно-методические документы. Применялись анкетирование, интервью и наблюдение для оценки установок студентов к здоровому образу жизни и уровню их педагогической культуры. Психолого-педагогический эксперимент включал внедрение интерактивных занятий, цифровых ресурсов и тренингов, направленных на укрепление здорового поведения. Результаты подвергались контент-анализу, сравнительному и интегративному анализу.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что высокий уровень педагогической культуры коррелирует с более устойчивой мотивацией к здоровому образу жизни, регулярной физической активностью и ответственным отношением к собственному здоровью. Исследования Аццини, Барони и Челино подтвердили эффективность цифровых диалоговых инструментов в стимулировании здорового поведения, тогда как работы Жолдасбекова и соавторов подчеркнули значимость комплексных педагогических технологий. Объединение этих подходов позволяет выстроить интегративную модель, в которой цифровые средства и традиционные педагогические практики взаимно усиливают влияние на формирование здоровых привычек.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** исследование подтвердило, что педагогическая культура является важнейшим фактором развития здорового образа жизни у студентов и должна рассматриваться как стратегическое направление образовательной политики. Комплексное использование интерактивных цифровых ресурсов, психолого-педагогических тренингов и здоровьесберегающих технологий способствует укреплению духовного, социального и физического благополучия молодежи. Полученные выводы могут быть использованы при проектировании образовательных программ и стратегий, ориентированных на формирование культуры здорового образа жизни.

**Ключевые слова:** педагогическая культура, здоровый образ жизни, педагогический процесс, здоровье студентов, духовное развитие, психолого-педагогический подход, цифровые технологии, социальная интеграция.

**Для цитирования**: Камалова.Ё.Б. Неразрывная связь между педагогической культурой и развитием здорового образа жизни.// Inter education & global study.vol.3. 2025. №11(1). С. 123-131.

## THE INEXTRICABLE LINK BETWEEN PEDAGOGICAL CULTURE AND THE DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE

©Yoqutxon B. Kamalova[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: in contemporary education, pedagogical culture and a healthy lifestyle are viewed as interrelated factors that jointly determine students' holistic development. Pedagogical culture promotes responsibility, self-discipline, and value-based decision-making, which are essential for adopting healthy behaviors. A healthy lifestyle encompasses daily habits, physical activity, nutrition, and stress management, making it an integral component of educational and upbringing processes. Thus, examining the interplay between pedagogical culture and healthy lifestyle development is a timely and important research task.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the aim of the study is to theoretically justify and empirically identify the relationship between the level of pedagogical culture and the formation of a healthy lifestyle among students. A further objective is to define effective pedagogical strategies and technologies that support the integration of healthy lifestyle values into the practice of educational institutions.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on national and international literature on pedagogical culture, healthy lifestyle, and educational technologies, as well as on curricular and methodological documents. Surveys, interviews, and observations were used to assess students' attitudes toward healthy living and their level of pedagogical culture. A psycho-pedagogical experiment involved the implementation of interactive sessions, digital resources, and training activities aimed at strengthening healthy behaviors. The collected data were analyzed using content analysis, comparative methods, and integrative interpretation.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate that students with a higher level of pedagogical culture demonstrate stronger motivation for a healthy lifestyle, more regular physical activity, and better stress management. Studies by Azzini, Baroni, and Celino highlight the effectiveness of digital conversational tools for promoting healthy behavior, while the work of Zholdasbekov and colleagues emphasizes comprehensive pedagogical technologies. Integrating these approaches yields a model in which digital tools and systematic pedagogical practices mutually reinforce each other in shaping healthy habits and value-based choices.

**CONCLUSION:** the study confirms that pedagogical culture is a key factor in developing a healthy lifestyle among students and should be considered a strategic priority in education. The combined use of interactive digital tools, psycho-pedagogical training, and health-oriented educational technologies contributes to the spiritual, social, and physical well-being of young people. These conclusions can inform the design of educational programs and institutional strategies aimed at building a robust culture of healthy living.

**Keywords:** pedagogical culture, healthy lifestyle, pedagogical process, student health, spiritual development, psycho-pedagogical approach, digital technologies, social integration.

**For citation**: Yoqutxon B. Kamalova. (2025) 'The inextricable link between pedagogical culture and the development of a healthy lifestyle', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 123-131. (In Uzbek).

**P**edagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zamonaviy ta'limning ijtimoiy va individual ahamiyatini yanada oshirayotgan murakkab muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Pedagogik madaniyat shaxsning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash hamda rivojlantirishda asosiy omil

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sifatida e'tiborga olinadi[1]. Ta'lim jarayonida pedagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzining uyg'unligi nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik madaniyat insonning sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida bir necha darajalarda ta'sir ko'rsatadi[2]. Birinchi darajada, pedagogik madaniyat talaba shaxsining axloqiy-ijtimoiy fazilatlarini rivojlantiradi, unga mas'uliyat, intizom, ijtimoiy hamkorlik va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Ikkinchi darajada, u shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashga, stress va psixologik bosimlarni kamaytirishga, shuningdek, sog'lom turmush tarziga oid xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Uchinchidan, pedagogik madaniyat talabalarda sog'lom turmush tarziga intilishni rag'batlantirish orqali jamiyatda sog'lom avlodni tarbiyalashning muhim omiliga aylanadi[3]. Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish pedagogik jarayonning nafaqat natijasi, balki uning tarkibiy elementi sifatida ham qaraladi. Bu jarayon insonning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik madaniyat talabaning kundalik xatti-harakatlarini, oziqlanish odatlarini, jismoniy faollik darajasini va stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi[4]. Shu bilan birga, pedagogik madaniyatning yuqori darajasi shaxsning sog'lom turmush tarzini mustahkam ushlashga, uni o'z hayotiy faoliyatida doimiy tarzda qo'llashga imkon beradi. Ilmiy tadqiqotlar va empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali.

Masalan, talabalarning jismoniy faolligi va sport bilan shug'ullanishi, sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirish, ijtimoiy hamkorlik va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish, shuningdek, psixologik barqarorlikni ta'minlash pedagogik madaniyatning samarali shakllanishiga bog'liq[5]. Shu sababli, pedagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalalari nafaqat ta'lim nazariyasi, balki amaliy pedagogika va psixologiya sohalarida ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi[6]. Shuningdek, pedagogik madaniyatning ijtimoiy ahamiyati va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatning sog'lom, faol va ma'naviy yetuk bo'lishini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Bu o'zaro bog'liqlik talabalarda mustaqil fikrlash, sog'lom hayotiy qarorlar qabul qilish va shaxsiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish mavzusi nafaqat ilmiy tahlil, balki amaliy pedagogik tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi pedagogik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni samarali amalga oshirishning strategik yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqot doirasida pedagogik madaniyatning pedagogik jarayonning turli bosqichlaridagi ta'siri, talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari va ularning psixologik-pedagogik asoslari o'rganiladi. Shu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilan birga, maqola talabalarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash hamda ijtimoiy muhit bilan integratsiyalashish jarayonlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Kirish bo‘limini yakunlar ekanmiz, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy ta’lim va pedagogika sohasida dolzarb ilmiy masala ekanligini ta’kidlash lozim. Ushbu mavzu nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki amaliy pedagogik yondashuvlarni shakllantirish, talabalarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy salomatligini ta’minlash hamda jamiyatda sog‘lom avlodni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Shu bois, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish masalalari kompleks tarzda, ilmiy va murakkab holatga keltirilgan holda o‘rganilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili: Bugungi globallashuv davrida ta’lim va salomatlik sohalari kesishgan nuqtada joylashib qolgan mavzularni (masalan, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzi) chuqur o‘rganish muhimdir. Shu nuqtadan olsak, Azzini, Baroni va Celino va Zholdasbekov va boshq tadqiqotlari pedagogik yondashuvlar va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha muhim konseptual bazani tashkil qiladi. Azzini, Baroni va Celino’ning tadqiqoti sog‘lom turmush tarziga oid xabardorlik va xulq-intentiyalarni shakllantirishda raqamli suhbatlashuv (conversational tool) usulining ta’sirini o‘rganadi.

Ular “Allegra” nomli interaktiv chat-applikatsiyani yaratib, foydalanuvchilarni sog‘lom turmushga yo‘naltiruvchi maslahatlar va savollar bilan muloqotga kiritadi[7]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, konversatsion vositalar ichki motivatsiya elementlarini rag‘batlantiruvchi vosita sifatida samarali ekanligi aniqlangan. Ularning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik madaniyat shakllantirishda nafaqat an’anaviy ma’ruzalar va treninglar, balki interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tadqiqot pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini bog‘lovchi metodologik vositalar orasida yangi, raqamli yondashuvning ahamiyatini ochib beradi. Ya’ni, pedagogik jarayonlarda so‘zlashuvga asoslangan vositalarni qo‘shish — shaxsga yo‘naltirilgan maslahatlar orqali sog‘lom xatti-harakatlarni rag‘batlantirish — pedagogik madaniyatni faollashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Zholdasbekov va hamkorlar “Pedagogical technologies for the formation of healthy lifestyle of students” nomli maqolalarida talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarga e’tibor qaratadilar[7]. Ular sog‘lomlikni biologik, psixologik, ijtimoiy va ruhiy jihatlar majmuasi sifatida qabul qiladi va ta’lim jarayoniga shularni integratsiyalash usullarini taklif etadi. Mualliflar jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, shaxsiy rivojlanish treninglari, sog‘lomlikka bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish va salomatlikni qadriyat sifatida qabul qilish texnologiyalarini qo‘llash zarurligini urg‘ulaydilar. Ular o‘z tadqiqotlarida, talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiya yetarlicha shakllanmaganligini aniqlaganlar (masalan, 44 % talabalarda sog‘lom turmushga intilish etishmasligi) hamda pedagogik vositalar tizimli qo‘llanilmasligi muammolaridan ogohlantiradilar. Zholdasbekov va hamkorlari jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni faqat dars soatlariga cheklab


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘lmasligini, balki ta’lim jarayonining boshqa bosqichlarida ham (ma’ruzalar, seminarlar, mustaqil faoliyat, elektron resurslar) integratsiyalashgan shaklda joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar[8]. Bu pedagogik madaniyatni kengroq kontekstda — nafaqat nazariy bilim, balki sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini qabul qilish va amalda qo‘llash madaniyati sifatida — shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llandi. Tadqiqot jarayonida empirik metodlar (so‘rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar) talabalarning pedagogik madaniyat darajasi va sog‘lom turmush tarziga oid xulq-atvorini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, analitik va taqqoslash metodlari pedagogik jarayonlarning samaradorligini, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi pedagogik madaniyatning rolini tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Kontent-tahlil metodikasi esa ta’lim dasturlari, o‘quv materiallari va raqamli resurslar orqali sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish strategiyalarining nazariy asoslarini aniqlashda ishlatildi.

Tadqiqotda shuningdek, psixologik-pedagogik eksperiment metodidan foydalanilib, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning amaliy natijalari kuzatildi. Bu metod talabalarni turli pedagogik va interaktiv mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali ularning jismoniy faolligi, motivatsiyasi va sog‘lom turmushga intilish darajasini o‘lchashga imkon berdi. Metodologik yondashuvning integratsiyalashganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini oshirdi, shuningdek, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishga zamin yaratdi. Shu tarzda, maqolada qo‘llanilgan metodlar bir-birini to‘ldirib, mavzuni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini berdi, pedagogik madaniyatni talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bilan uzviy bog‘lashni ilmiy asoslash imkoniyatini yaratdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda sog‘lom turmush tarzini qabul qilish va uni amalda qo‘llash ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lib, ular muntazam jismoniy faollik bilan shug‘ullanadi, sog‘lom ovqatlanish odatlarini saqlaydi va stressni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Empirik kuzatuvlar va so‘rovnomalar natijasida aniqlanishicha, pedagogik madaniyatning shakllanishi talabalarning ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlash, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom turmushga intilishini rag‘batlantirish bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, pedagogik metodlar va interaktiv vositalarning qo‘llanilishi pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini uyg‘unlashtirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar talabalarda sog‘lom hayotiy qarorlar qabul qilish, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy muhit bilan integratsiyalashish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Muxokama: Pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish masalasida zamonaviy ilmiy tafakkur ikki asosiy nuqtai nazarga bo‘linadi. Birinchi yondashuvni Azzini, Baroni va Celino ilgari suradi, ular raqamli interaktiv vositalar orqali

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talabalarda sog‘lom turmushga intilishni rag‘batlantirishning samaradorligini ta’kidlaydi[9]. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, pedagogik madaniyat nafaqat nazariy bilimlar, balki talabaning ichki motivatsiyasini uyg‘otuvchi interaktiv suhbat va maslahatlar orqali mustahkamlanadi. Shu yondashuvga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalar — masalan, shaxsga yo‘naltirilgan chat-botlar va raqamli treninglar — asosiy vosita hisoblanadi. Bu metod talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, maqsadlarni belgilash va sog‘lom xulq-atvorni mustahkamlash imkonini beradi, natijada pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini uyg‘unlashtirish sezilarli darajada kuchayadi. Ikkinchi yondashuvni Zholdasbekov va hamkorlari ilgari suradi[10]. Ularning fikricha, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish faqat raqamli yoki texnologik vositalar bilan cheklanishi mumkin emas; bu jarayon tizimli pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlarni talab qiladi.

Ular jismoniy tarbiya, psixologik treninglar, sog‘lom ovqatlanish va motivatsion mashg‘ulotlarni birlashtirgan kompleks metodlarni tavsiya qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik madaniyat — bu nafaqat ilmiy bilimlar majmuasi, balki talabaning sog‘lom hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida ko‘riladi. Ushbu ikki yondashuv o‘rtasidagi bahs pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish strategiyasida metodologik integratsiya zarurligini ko‘rsatadi. Azzini va boshqalar texnologik innovatsiyalarning samaradorligini ta’kidlagan bo‘lsa, Zholdasbekov va hamkorlari tizimli pedagogik texnologiyalar va shaxsiy rivojlanish komponentlarini qo‘llash zarurligini urg‘ulaydi.

Shu bilan birga, ular pedagogik madaniyatni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni bilan bog‘lashda ikki nuqtai nazarni birlashtirish imkoniyatini ochib beradi: raqamli va interaktiv vositalar orqali motivatsiyani uyg‘otish, tizimli pedagogik texnologiyalar orqali esa bu motivatsiyani amaliy xulq-atvor ko‘nikmalariga aylantirish. Muxokama natijalaridan ko‘rinib turibdiki, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish jarayoni samarali bo‘lishi uchun integratsiyalashgan yondashuv innovatsion texnologiyalar va tizimli pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish zarur. Shu bilan birga, talabaning shaxsiy motivatsiyasi va pedagogik madaniyatining darajasi bu jarayonning markazida turadi. Bu nazariy va amaliy xulosalar pedagogik tadbirlar, ta’lim dasturlari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi innovatsion resurslarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Ushbu maqola pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik madaniyat shaxsning ma’naviy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi, ayniqsa, talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida uning ahamiyati sezilarli. Empirik kuzatuvlar, so‘rovnomalar va pedagogik eksperimentlar pedagogik madaniyatning talabalarda motivatsiyani uyg‘otish, sog‘lom xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirish va stressni boshqarish qobiliyatini mustahkamlash bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Azzini, Baroni va Celino raqamli interaktiv vositalar orqali pedagogik madaniyatni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

faollashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning innovatsion yondashuvlarini ilgari suradi, Zholdasbekov va hamkorlari esa tizimli pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlarni asos qilib, talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning amaliy metodologik yo‘llarini taklif qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Odinayev T. T. BO’LAJAK TIBBIYOT HAMSHIRALARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. TMA Conference. – С. 230-234.
2. Shohbozbek, E. (2025). PEDAGOGIK METOTOLOGIYA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TA’LIMNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI. Global Science Review, 4(5), 774-782.
3. Matnazarovna J. O., Beknazarovna S. S. TALABALARDA RAQAMLI MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI //Modern education and development. – 2025. – Т. 27. – №. 2. – С. 140-150.
4. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). THE ROLE OF PRESCHOOL EDUCATION IN SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN UZBEKISTAN. Global Science Review, 3(2), 246-253.
5. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz,“Surxon-nashr” nashr-matbaa markazi nashriyoti.–2022. – 2022.
6. Ergashbayev, S. (2025). PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE INTEGRATION OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH’S SPIRITUAL OUTLOOK. SHOKH LIBRARY, 1(10).
7. Sayfullaeva R., G‘aybullayeva N. SALOMATLIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – С. 217-217.
8. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). FORMING THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH IN PRE-SCHOOL EDUCATION IN OUR REPUBLIC. Global Science Review, 4(5), 221-228.
9. Valixanov S. ZAMONAVIY JISMONIY TABIYA O ‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI //University Research Base. – 2024. – С. 537-540.
10. Sh, E. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Ob'edinyaya studentov: mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami, 1(1), 314-316.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Kamalova Yoqutxon Bahodirovna**, tadqiqotchi[**Камалова Ёкутхон Баходировна**, исследователь], [**Kamalova Yoqutxon Bahodirovna** researcher]; manzil: Namangan shaxar, Uychi ko'chasi 316-uy, [адрес: Г. Наманган, ул. Уйчи, д. 316], [address: 316 Uichi Street, Namangan city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O‘QUV FAOLIYATIDA PROKRASTINATSIYA MUAMMOSI

© M.L. Aripova[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta’lim jarayonida talabadan mustaqil o‘qish, tanqidiy va ijodiy fikrlash talab etilayotgani fonida prokrastinatsiya o‘quv faolligini susaytiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Mavjud adabiyotlarda kechiktirish hodisasi ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning aynan o‘quv faoliyati tuzilmasidagi aniq o‘rni yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

**MAQSAD:**o‘quv faoliyatida prokrastinatsiyaning psixologik asoslarini aniqlash, uni o‘quv faolligi tuzilmasi komponentlari bilan bog‘liq holda tushuntirish va o‘quv samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillarni qisqacha konseptual tavsiflashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot A.A.Volochkov, J.Kul va boshqa mualliflarning ishlariga tayanuvchi nazariy tahlilga asoslanadi. Tizimli yondashuv, nazariy taqqoslash va kontent tahlil usullari yordamida o‘quv faolligi tuzilmasi, motivatsiya, iroda va prokrastinatsiya bo‘yicha ilmiy qarashlar umumlashtiriladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalariga ko‘ra, o‘quv faolligi potensialining pastligi, regulyativ komponent zaifligi, faollik dinamikasining sustligi va natijaviy komponent bo‘yicha qoniqmaslik prokrastinatsiyani kuchaytiradi. J.Kul nazariyasiga tayangan holda holatga yo‘nalgan talabalarda niyat va real harakat o‘rtasidagi uzilishlar, Volochkov modeli doirasida esa o‘quv faolligi siklining “sekinlashuvi” kechiktirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

**XULOSA:** prokrastinatsiya o‘quv faolligini pasaytiruvchi ko‘p komponentli psixologik hodisa bo‘lib, motivatsiya, irodaviy tartibga solish, faollik dinamikasi va natijalardan qoniqish bilan uzviy bog‘liqdir. O‘quv faolligini oshirish uchun aynan shu komponentlarni kompleks rivojlantirish va prokrastinatsiyani nazarda tutgan psixologik-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv faoliyati, o‘quv faolligi, prokrastinatsiya, motivatsiya, iroda, kognitiv komponent, motivasion komponent, hissiy-irodaviy soha, regulyativ komponent.

**Iqtibos uchun**: M.L.Aripova. O‘quv faoliyatida prokrastinatsiya muammosi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.132-139.

## ПРОБЛЕМА ПРОКРАСТИНАЦИИ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© М.Л.Арипова[1]✉
[1] Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях современных требований к самостоятельности, критическому и творческому мышлению студентов прокрастинация становится значимым фактором снижения учебной активности. При этом её положение в структуре учебной деятельности до сих пор описано фрагментарно и требует системного философско-психологического осмысления.

**ЦЕЛЬ:** теоретически проанализировать психологические основания учебной прокрастинации, показать её связь с компонентами структуры учебной активности и кратко описать основные факторы, ведущие к снижению её результативности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** работа опирается на теоретический анализ трудов А.А.Волочкова, Ю.Куля, Х.Хекхаузена и др. Применяются системный подход, сопоставительный теоретический анализ и контент-анализ психологической литературы об учебной активности, мотивации, волевой регуляции и прокрастинации.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что низкий потенциал учебной активности (слабая мотивация и особенности психофизиологического статуса), дефицит регуляторного компонента, недостаточная динамика активности и субъективная неудовлетворённость результатами усиливают склонность к откладыванию учебных действий. В рамках подхода Ю.Куля и А.А.Волочкова прокрастинация интерпретируется как «застревание» намерений, нарушающее цикличность учебной активности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод о том, что учебная прокрастинация представляет собой многокомпонентный феномен, снижающий учебную активность через совокупность мотивационных, регуляторных, динамических и результативных факторов. Отмечается необходимость целенаправленного развития учебной мотивации, волевой саморегуляции и рефлексии результатов в рамках психолого-педагогической работы со студентами.

**Ключевые слова:** учебная деятельность, учебная активность, прокрастинация, мотивация, волевая регуляция, когнитивный компонент, мотивационный компонент, эмоционально-волевая сфера, регуляторный компонент.

**Для цитирования**: М.Л.Арипова. Проблема прокрастинации в учебной деятельности.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 132-139.

## THE PROBLEM OF PROCRASTINATION IN LEARNING ACTIVITIES

© M.L. Aripova[1]✉
[1] Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** under current educational requirements for autonomy, critical and creative thinking, procrastination has become an important factor diminishing

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

students' learning engagement. However, its specific place inside the structure of academic activity remains insufficiently systematized and calls for a focused theoretical analysis.

**AIM:** the aim of the study is to examine the psychological foundations of academic procrastination, relate it to the main components of learning activity, and briefly outline the core factors that lead to a decline in learning effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on theoretical analysis of works by A.A. Volochkov, J. Kuhl, H. Heckhausen and other authors. A systemic approach, comparative theoretical analysis and content analysis of psychological and pedagogical sources on learning activity, motivation, volitional regulation and procrastination are employed.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis shows that low learning-activity potential (weak academic motivation and specific psychophysiological traits), weak regulatory control, poor activity dynamics and dissatisfaction with learning outcomes all strengthen the tendency to delay academic tasks. Within the frameworks of Kuhl and Volochkov, procrastination is interpreted as a "stagnation" of intentions that disrupts the cyclic character of learning activity.

**CONCLUSION:** it is concluded that academic procrastination is a multi-component phenomenon that diminishes learning engagement through a combination of motivational, regulatory, dynamic and outcome-related factors. The paper emphasizes the need to develop academic motivation, volitional self-regulation and reflection on results within targeted psycho-pedagogical support for students.

**Keywords:** academic activity, learning engagement, procrastination, motivation, volitional regulation, cognitive component, motivational component, emotional-volitional sphere, regulatory component.

**For citation**: M.L.Aripova. (2025) 'The problem of procrastination in learning activities', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 132-139. (In Uzbek).

**B**ugun axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan, kreativ, tanqidiy fikrlaydigan, zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda shaxs prokrastinatsiyasi namoyon bo'lishining o'ziga xosligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki prokrastinatsiya turli psixologik omillar bilan uzviy bog'liq. Ushbu hodisa ko'pincha shaxsning kognitiv, hissiy va motivasion sohalarining xususiyatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Biroq, ushbu tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning umumiy manzarasi hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Prokrastinatsiyaning tegishli tuzilmaviy modellari soni unchalik ko'p emas va bu hodisaning psixologik determinantlari o'rtasidagi bog'liqliklarning xususiyatlarini to'liq tushunish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, o'quv faoliyatida prokrastinatsiya deyarli alohida tuzilma sifatida tasniflanmagan. Kechiktirish hodisasiga bag'ishlangan tadqiqot natijalarini nashr etish davriyligining juda sustligi va o'ziga xosligi ushbu sohadagi psixologik adabiyotlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tezroq chop etish hamda chuqur nazariy tahlillarni o‘tkazishning dolzarbligini belgilaydi. Bu esa bizga o‘quv faoliyatida prokrastinatsiya muammosining hozirgi holatini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

A.A.Volochkov tomonidan taklif qilingan tuzilma - har bir tashkil etuvchisi (komponenti) iyerarxik va dinamik ravishda tuzilmaning boshqa komponentlari bilan uzviy bog‘langan tizimdir. Tizimli yondashuvga asoslanib, o‘quv faolligi samaradorligini pasaytiruvchi omillar, ya’ni o‘quv faoliyatining o‘zini o‘zi faollashtirish jarayonini "sekinlashtiradigan" yoki to‘xtatadigan hodisalar, mexanizmlar mavjudligi haqida bahs-munozara yuritish, fikrlashish mumkin. O‘quv faoliyati modelini qurish mantig‘iga ko‘ra, o‘quv faolligi samaradorligi pasayishining bir qancha sabablarini aytib o‘tish mumkin. Ulardan eng birinchisi, o‘quv faoliyati salohiyatining past darajasi yoki boshqacha aytganda, o‘quv faoliyatini amalga oshirishga tayyorgarlikning yetarli bo‘lmaganligini ta’kidlab o‘tish mumkin. A.A.Volochkov tomonidan taklif qilingan o‘quv faoliyati tuzilmasiga ko‘ra, bu ikki omildan biri yoki har ikki omilga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin: o‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning pastligi (talabaning o‘qishga bo‘lgan zaif motivlari (qiziqishlari), o‘quv faoliyatiga o‘qituvchilarning salbiy hissiy baholari, alohida fanlarni individual o‘rganish va umuman, ta’limga qo‘yiladigan talablarning shaxsiy ma’no kasb etmasligi) va talabaning o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlari (haqiqiy ob’yektiv ravishda har qanday aqliy va/yoki jismoniy qobiliyatlarning yo‘qligi, talabaning o‘z-o‘zini yetarlicha baholay olmasligi, o‘zini qobiliyatsiz deb hisoblashi va shaxsiy intilishlarning kuchli emasligi va boshqa omillar), o‘quv faolligining tartibga soluvchi (regulyativ) komponentining nazariy va empirik asoslarini ishlab chiqishda A.A.Volochkov J.Kulning harakatni nazorat qilish nazariyasi (Lageorientierung) qoidalarini asos qilib olgan. J.Kul X.Xekxauzen bilan birgalikda (ya’ni uning rahbarligida) motivasion va irodaviy faoliyat muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

J.Kul nazariyasiga ko‘ra, shaxslar faollikning namoyon bo‘lishi paytida uni qanday qilib boshqarishlariga ko‘ra bir-birlaridan farqlanadilar. Majburiy holatlarga yo‘nalgan shaxslar iroda kuchini ancha jiddiy sarflashga majbur bo‘lishadi, chunki ularda motivatsiya va aniq maqsadlarning mavjudligiga qaramay, ular ish faoliyatini ancha qiyinlik bilan boshlashadi. Harakat (ish-faoliyat)ga yo‘nalgan shaxslar o‘z maqsad va niyatlarini amalga oshirishda hech qanday to‘siqlarni sezmaydilar, chunki ularni qandaydir fikrlar yoki hissiy kechinmalar bezovta qilmaydi. Shuning uchun harakatga yo‘nalgan shaxslar harakatlarni ongli ravishda doimiy nazorat qilishmaydi, balki beixtiyor ravishda tartibga soladilar. Boshqacha qilib aytganda, holatga yo‘nalgan shaxslar hissiy o‘zini boshqarishi bilan boshqalardan alohida ajralib turadi, bu ulardan faoliyat (harakat, ishlar)ni rejalashtirish bosqichida ham, ularni amalga oshirish bosqichida ham katta irodaviy kuch-quvvat sarflashni talab qiladi. Harakatga yo‘nalgan shaxslarda ongli nazoratni talab qilinmaydigan "avtomatlashtirilgan" beixtiyor tartibga solish (regulatsiya) ustunlik qiladi.

Kul ikki turdagi ixtiyoriy tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqdi: o‘zini o‘zi tartibga solish va o‘zini o‘zi nazorat qilish (boshqarish). Kulning irodani tushunishi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tizimliligi bilan ajralib turadi va inson psixikasini yaxlit o‘rganish imkonini beradi. U shaxsning irodaviy sohasini mustaqil, lekin bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyi tizimlardan (psixik funksiyalardan) iborat tizim sifatida tasavvur etadi. Tizimning yaxlit (integrativ) ishlashi, ya’ni quyi tizimlarning yaxshi muvofiqlashilgan o‘zaro ta’siri harakat ustidan nazoratni ta’minlaydi, ya’ni, maqsad niyat va harakat birligini ta’minlaydi. Mos sharoitlar mavjud ekan tizim ishlashda davom etaveradi va inson ma’lum faoliyat turi uchun mos bo‘lmagan vaziyatga tushib qolganda tizim ishlashdan to‘xtaydi.

Boshqacha qilib aytganda, Kul tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra, "iroda" tushunchasini kengroq nuqtai nazardan qaralishi va "harakat ustidan nazorat" tushunchasi bilan almashtirilishi kerak. Kul o‘zining nazariyasiga ko‘ra, irodaviy faollikning ikki turini ajratib ko‘rsatadi. Shaxsning u yoki bu turdagi irodaviy tartibotga individual moyilligi uning irodaviy moyilligi, ya’ni harakatga yo‘nalganligi yoki holatga yo‘nalganligi bilan belgilanadi. Harakatga yo‘nalgan shaxslar holatga yo‘nalgan shaxslarga qaraganda, irodaviy tartibotning samaraliroq turiga ega: ular uchun o‘z rejalarini haqiqatda amalga oshirish osonroq, ular stressga chidamliligi bois, yuzaga keladigan ancha-muncha qiyinchiliklarni osongina yengib o‘tadilar. Holatga yo‘nalgan shaxslar, hatto yuqori motivatsiyaga va aniq erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarga ega bo‘lgan taqdirda ham faoliyatni amalga oshirish jarayonida sezilarli darajadagi qiyinchiliklarga duch kelishadi, shuning uchun ularga jiddiy irodaviy kuch-quvvat kerak bo‘ladi. Harakatga yo‘nalgan shaxslar maqsadlarini amalga oshirish jarayonida hissiy kechinmalarga unchalik moyil bo‘lmaydilar, shuning uchun ular aniq maqsad bilan qilingan harakatlarni beixtiyor ravishda tartibga soladilar, ya’ni bunda tartibga solish ongdan doimiy ravishda nazoratni talab etmaydi.

Shunday qilib, o‘quv faolligini pastligi “harakatni boshqarish" tizimida (niyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok qiluvchi jarayonlar to‘plami) buzilishlari bo‘lgan talabalarga xosdir. Talaba faoliyatni amalga oshirish borasida, maqsadni belgilashda, ushbu maqsadga erishish yo‘lini tanlashda, paydo bo‘ladigan ichki va tashqi to‘siqlarni bartaraf etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Boshqacha aytganda, to‘laqonli niyatni shakllantirish uchun motiv, maqsad va unga erishish vositalari o‘rtasida bog‘liqlik zarur. Agar bir yoki bir nechta element yetishmayotgan bo‘lsa, shaxs bunga alohida e’tibor berishga, qo‘shimcha ma’lumotlarni ongli yoki ongsiz ravishda to‘plash va qayta ishlashga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyat ko‘pincha amaliy harakatga aylanmaydigan noto‘liq niyatni shakllantirish manbai bo‘ladi, xolos. Biroq, Yu.Kul tomonidan bayon etilgan mexanizmlarning ishlashi yoki amal qilishi, bunday holatda ham noto‘liq niyatning faol holatda bo‘lishini tasdiqlaydi, u ongda "aylanib yuradi", aqliy energiyani oladi va ichki resurslarni egallaydi. Boshqacha aytganda, harakatni boshqarish tizimi ishga tushiriladi, lekin o‘zining asosiy vazifasini bajarmaydi (aslida, haqiqiy real harakatni boshqarish).

Ushbu hodisanig tavsifi prokrastinatsiya (kechiktirish)ni juda yaxshi eslatadi, bajariladigan zaruriy ishlar doimo inson xotirasida bo‘lsa, u uning energiyasini oladi, lekin oxirgi daqiqagacha amalga oshirilmaydi. Ushbu mulohazalar kontekstida ixtiyoriy tartibga solish shaxs motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligi va unga harakatlar ma’nosini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ongli ravishda o‘zgartirishga imkon berishi dalil sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu prokrastinatsiya muammosini tahlil qilishda paydo bo‘lgan chalkashlikni to‘liq tushuntiradi. Ba’zi mualliflar prokrastinatsiyani shaxsning ehtiyoj-motivasion sohasidagi muammolarga, boshqalari esa hissiy-irodaviy muammolarga bog‘lashga moyildirlar. Bu hozirgi zamon psixologiya fanida, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar fanlarida iroda va motivatsiya muammolari o‘rtasida ba’zi bir aralash chalkashliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

A.A.Volochkov taklif etgan o‘quv faolligining tuzilishi ham motivasion, ham hissiy-irodaviy elementlarni o‘z ichiga oladi, ammo bu tuzilmadagi prokrastinatsiya (kechiktirish) o‘rnini aniqlash uslubiy jihatdan bir oz qiyinchilik tug‘diradi. O‘quv faolligining pastligi, aftidan, holatga yo‘nalgan, o‘z niyatlarini amalga oshirishda qiynaladigan va ishlarni yoki amaliy harakatlarini keyinga qoldirib, orqaga suradigan shaxslarga xosdir.

Umuman olganda, talabalarda o‘quv faolligining pasayishi o‘quv faolligi tuzilmasining dinamik tashkil etuvchisi (komponenti)ning past ko‘rsatkichlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu borada mulohaza yuritib, A.A.Volochkov ikkita ko‘rsatkichni taklif qiladi: faollikning "tezlik" xususiyatlari (tezlikning juda yuqori yoki juda past darajalari va jadallik, kuch-quvvatning yetarli emasligi - hayotiy kuch va ishlash darajasining pastligi) va o‘quv faoliyatida kuzatiladigan hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar dinamikasining har xil ko‘rinishlari (tashabbusning yetishmasligi, ijodiy yondashuvning yo‘qligi, mustaqil harakat qila olmaslik, vaziyatli holatlarda faollikning yetishmasligi va boshqalar).

O‘quv faolligi tuzilmasining natijaviy komponenti ikkita holatda o‘quv faolligining umumiy darajasini pasaytirishi mumkin:

1) talabada o‘quv faolligining tashqi qayd etilgan natijalarining ob’yektiv pastligi, jumladan, o‘zlashtirish darajasining past ko‘rsatkichlari va uning yomon o‘qiganligi kuzatiladi;

2) talaba o‘zining o‘quv faolligi natijalaridan yetarli darajada qoniqish hosil qilmaydi.

Dinamikaning qayta tiklanishi yoki yangilanishining asosi hisoblangan natijaviy komponent talabalarning o‘quv faolligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tilgan ikkita komponentning har biri yangi sikldagi faollikning yuzaga kelmasligiga yoki uzoq vaqt kechiktirishga sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, A.A.Volochkov tomonidan taklif qilingan o‘quv faolligining tuzilishi nafaqat ma’lum iyerarxiyada joylashgan o‘quv faolligining tarkibiy qismlari (komponentlari)ni, balki tizim dinamikasining ichki manbasini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Olim umumiy faollikni, xususan, o‘quv faollikni maxsus siklik jarayon sifatida qaraydi va uning fikricha, bu siklik jarayon o‘zining rivojlanishi hamda o‘z-o‘zidan harakatlanish manbalari bilan tavsiflanadi: boshlang‘ich salohiyat - uning amalga oshirilishi - yangi potensial imkoniyat va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, o‘quv faolligi tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlar (komponentlar)ni o‘z ichiga oladi: faollik potensiali (o‘quv motivatsiyasi va o‘qiganlik darajasi), tartibga solish komponenti, dinamik komponent (faollikning dinamik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

xususiyatlari va dinamikaning namoyon bo‘lishi) va natijaviy komponent (o‘quv faoliyatining ob’yektiv va subektiv natijalari). O‘quv faolligini pasaytiradigan omillar, jumladan, kechiktirish va topshiriqlarni bajarmaslikka olib keladigan, o‘quv faoliyatining o‘zini o‘zi takrorlash jarayonini "sekinlashtiradigan" yoki to‘xtatadigan ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Ular orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- o‘quv faolligi potensialining pastligi va o‘z navbatida, uning o‘quv motivatsiyasi pastligi va talabaning psixofiziologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi;
- tartibga soluvchi (regulyativ) komponent (boshqacha aytganda - harakat ustidan nazoratning sustligi) zaifligi;
- dinamik komponent ko‘rsatkichlarining pastligi (faollikni kuchaytirishdagi sustkashlik yoki zaiflik, "tezlik"ning yetarli emasligi);
- o‘quv faolligini o‘zgartirish dinamikasining sustligi;
- natijaviy komponent ko‘rsatkichlarining pastligi (o‘quv faolligi natijalarining pastligi);
- o‘quv faolligi natijalaridan talabalarning yetarli darajada qoniqmasligi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan prokrastinatsiya (kechiktirish) o‘quv faolligining pasayishiga ta’sir qiladi. Prokrastinatsiya (kechiktirish) o‘quv faolligini pasaytiradigan bir yoki bir nechta o‘zgaruvchilar bilan uzviy bog‘liq ekanligini yuqorida sanab o‘tilgan omillardan ko‘rishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Волочков, А.А. Активность субъекта бытия: интегративный подход / А.А.Волочков; М-во образования и науки Российской Федерации, Федеральное агентство по образованию, Гос. образовательное учреждение высш. проф. образования "Пермский гос. пед. ун-т", Ин-т психологии. – Пермь: Пермский гос. пед. ун-т, 2007. – 375 с.
2. Хекхаузен, Х. Мотивация и деятельность / Х.Хекхаузен. – 2-е издание. – СПб.: Питер; М.: Смысл, 2003. – 860 с.
3. Шляпников, В.Н. Влияние типа волевой регуляции на решение задач в условиях наличия дополнительных преград / В.Н.Шляпников // Экспериментальная психология в России: традиции и перспективы / под редакцией В.А.Барабанщикова. – М.: Институт психологии РАН, 2010. – С. 560-565.
4. Kuhl, J., Schapkin, S., Gusev, A. (1994) A theory of volitional inhibition and an empirical test: individual differences in the topography of ERP patterns for action- versus state oriented processing of emotional words. Forschungsberichte aus der Universitat Osnabruck. № 99. Ss. 49-54. (In English).
5. Волочков, А.А. Учебная активность в интегральном исследовании индивидуальности: дис. ... д-ра психологич. наук: 19.00.01/ Волочков Андрей Александрович. – Пермь, 2002. – 416 с.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**M.L. Aripova**,dotsent [**М.Л.Арипова**, доцент], [**M.L. Aripova,** associate professor] manzil: Toshkent shahri. Kichik halqa yo`li ko`chasi G9-A 21-uy, [адрес: Город Ташкент. Малая Кольцевая улица G9-a 21], [address: The city of Tashkent. Malaya Koltsevaya Street G9-a 21.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI

© N.J. Maxmudova[1]✉

[1] Urganch Ranch texnologiya universiteti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirish qismida ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalar jadal joriy etilayotgani va bu holat o‘qituvchilardan zamonaviy metodlar hamda texnologik savodxonlikni talab qilayotgani asoslanadi. Shu bilan birga, ko‘plab pedagoglar texnik imkoniyatlarning cheklanganligi va malaka yetishmasligi sababli innovatsion texnologiyalarni to‘laqonli qo‘llay olmayotgani ta’kidlanadi.

**MAQSAD:** zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda uchraydigan muammolarni aniqlash va o‘qituvchilar texnologik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan amaliy yechimlar tizimini taklif etishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot Xorazm viloyatidagi 5 ta maktabda faoliyat yurituvchi 50 nafar o‘qituvchi ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma, malaka oshirish jarayonidagi kuzatuv va tahliliy umumlashtirish usullariga asoslanadi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, asosiy muammo yo‘nalishlari aniqlanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalarga ko‘ra, o‘qituvchilarning bir qismi texnologiyalarni qo‘llashga intilsa-da, malaka va texnik baza yetishmasligi ularning faolligini cheklaydi; sezilarli qismi esa hanuz an’anaviy usullarga tayanadi. Malaka yetishmovchiligi, motivatsiya pastligi va infratuzilma muammolari asosiy to‘siqlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif amaliy mashg‘ulotlarga tayangan malaka oshirish, mentorlik, “pedagogik texnologiyalar xonasi” va interaktiv resurslar kutubxonasini tashkil etish kabi yechimlarning samaradorligini asoslaydi.

**XULOSA:** zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish o‘qituvchilarning texnologik va metodik salohiyatini tizimli ravishda oshirish, maktablarning texnik infratuzilmasini mustahkamlash va faol pedagoglarni rag‘batlantirish bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi. Taklif etilgan chora-tadbirlar ta’lim jarayonining interaktivligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, zamonaviy metodlar, muammolar, amaliy yechimlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Maxmudova N.J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda uchraydigan muammolar va ularning amaliy yechimlari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.140-146.

# ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, И ИХ ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

© Н.Ж. Махмудова[1]✉
[1] Ургенчский технологический университет, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении обосновывается, что модернизация образования и цифровизация требуют от учителя владения современными методами и средствами обучения. Отмечается, что значительная часть педагогов испытывает трудности при использовании технологий из-за недостатка навыков и ограниченности материально-технической базы.

**ЦЕЛЬ:** выявить ключевые проблемы внедрения современных педагогических технологий и разработать практико-ориентированные пути их преодоления в деятельности учителей.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** эмпирическая база исследования включает анкетирование 50 учителей 5 школ Хорезмской области, наблюдение за их работой на курсах повышения квалификации и аналитическую обработку полученных данных. Использованы методы социологического опроса, педагогического наблюдения и содержательного анализа.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что часть учителей заинтересована в использовании технологий, но затрудняется в их практическом применении, другая часть продолжает опираться преимущественно на традиционные методы. Основными барьерами выступают дефицит компетенций, слабая мотивация и инфраструктурные ограничения. В качестве решений предложены практико-ориентированные курсы, наставничество, создание кабинетов педагогических технологий и цифровых библиотек учебных ресурсов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что эффективное внедрение современных педагогических технологий возможно при системном повышении технологической и методической компетентности учителей, улучшении технического обеспечения школ и развитии механизмов поощрения активных педагогов. Реализация предложенных мер способствует повышению качества и интерактивности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** педагогические технологии, компетентность учителя, цифровые средства, современные методы, проблемы, решения.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Для цитирования**: Махмудова.Н.Ж. Проблемы, возникающие при использовании современных педагогических технологий, и их практические решения.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 140-146.

# PROBLEMS ARISING FROM THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THEIR PRACTICAL SOLUTIONS

©Nargiz J. Maxmudova[1]✉
[1]Urgench University of Technology, Urgench, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction argues that the modernization and digitalization of education require teachers to master contemporary methods and tools. At the same time, many teachers encounter barriers in practice due to limited skills and insufficient technical facilities, which restrict the effective use of modern technologies.

**AIM:** The aim of the study is to identify the key problems in implementing modern pedagogical technologies and to develop practice-oriented solutions for supporting teachers in their classroom use.

**MATERIALS AND METHODS:** the research relies on a survey of 50 teachers from 5 schools in the Khorezm region, classroom observations during in-service training courses, and analytical processing of the collected data. Sociological questioning, pedagogical observation and content analysis were used to generalize the findings.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results show that some teachers are willing to use modern technologies but feel insecure in practice, while others still rely mainly on traditional methods. Lack of technological competence, low motivation and infrastructural limitations emerge as the main obstacles. The paper substantiates the effectiveness of practice-based training, mentoring schemes, the creation of pedagogical technology rooms and digital libraries of interactive resources as practical solutions.

**CONCLUSION:** the study concludes that deep and systematic mastery of modern pedagogical technologies by teachers, together with better technical support and incentive systems, is crucial for improving the quality of education. The proposed measures help make the learning process more interactive, student-centered and efficient.

**Keywords:** pedagogical technologies, teacher competence, digital tools, modern methods, problems, solutions.

**For citation**: Nargiz J. Maxmudova. (2025) ‘Problems arising from the use of modern pedagogical technologies and their practical solutions’, Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 140-146. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalar jadal kirib kelishi o‘qituvchidan yangi yondashuvlar, interaktiv uslublar va innovatsion fikrlashni talab qilmoqda. Shunga qaramay, ko‘plab o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalarni amaliyotda qo‘llashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar o’qituvchilarning malakasini oshirish, o’quvchilarning bilim olish samaradorligini ko’tarish va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qilishda muhim rol o’ynaydi. Faol o’rganish usullari, raqamli platformalar, loyiha asosidagi ta’lim va STEAM yondashuvi kabi texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va o’quvchiga yo’naltirilgan qilishga qaratilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- Faol o’rganish usullari: Guruh ishlari, muhokama va muammoni hal qilishga asoslangan yondashuvlar.

- Raqamli vositalar: Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom), interaktiv doskalar va mobil ilovalar.

- Loyiha asosidagi ta’lim: O’quvchilarning real hayot muammolarini hal qilishga yo’naltirilgan loyihalar orqali o’rganishi.

- Gamifikatsiya: O’yin elementlaridan foydalanish orqali o’quvchilarning motivatsiyasini oshirish.

- STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics): Fanlararo yondashuv orqali ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Biroq, ushbu texnologiyalarni pedagogik mahorat markazlari va umumta’lim muassasalarida joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashdagi asosiy to’siqlar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun amaliy yechimlar taklif etiladi. Ushbu maqola aynan ushbu muammolarni aniqlash va ularning yechimlariga qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

So‘rovnoma metodi: Xorazm viloyatidagi 5 ta maktabda 50 nafar o‘qituvchi ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi.

Kuzatish metodi: Malaka oshirish kurslari davomida o‘qituvchilarning dars berish jarayoni tahlil qilindi.

Tahliliy metod: Olingan ma’lumotlar statistik va sifat jihatdan umumlashtirildi.

So‘rovnoma asosiy savollari:

1. Siz dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanasizmi?
2. Qanday texnologiyalarni afzal ko‘rasiz?
3. Qanday to‘siqlarga duch kelasiz?

NATIJALAR So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

28% o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni istaydi, ammo amaliyotda qiynaladi.

32% o‘qituvchida texnik vositalar (noutbuk, proyektor) bilan bog‘liq muammolar mavjud.

40% o‘qituvchi darslarda faqat an’anaviy usullardan foydalanmoqda. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodikalarning afzalliklarini anglaydigan o‘qituvchilar ham ulardan foydalanishga jur’at eta olmaydi.

So‘rov va kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘qituvchilarning zamonaviy


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi asosiy muammolari:

Malaka yetishmovchiligi - texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasining sustligi.

Motivatsiya pastligi -innovatsion usullarning samaradorligiga ishonchsizlik.

Infratuzilma muammolari - maktabda texnik vositalar yetishmasligi.

Amaliy yechimlar:

1. Amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Xalqaro platformalarga alternativa sifatida mahalliy raqamli resurslar (masalan, Bilimland yoki Kundalik tizimi) kengaytirilishi va pedagoglar uchun moslashtirilishi kerak. Bu resurslar o’zbek tilida bo’lib, mahalliy ta’lim ehtiyojlariga mos kelishi muhim.

2. Mentorlik asosida ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini ommalashtirish. Mentorlik- bu tajribali, ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan kamroq tajribaga ega yoki yangi ish boshlagan pedagoglarga amaliy yordam ko‘rsatish, ularni kasbiy faoliyatda qo‘llab-quvvatlash jarayonidir. Ushbu yondashuv orqali ilg‘or o‘qituvchilarning samarali metodikasi, innovatsion yondashuvlari va o‘quv jarayonidagi ilg‘or tajribalari keng ommaga yetkaziladi.

Asosiy maqsadlar:

- Ilg‘or tajribalarni tizimli ravishda o‘rganish va ommalashtirish.
- Yangi o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda samaradorlikni oshirish.
- O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashinuvi va kasbiy hamkorlikni rivojlantirish.
- Ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashish.

3. Maktablarda “Pedagogik texnologiyalar xonasi” tashkil qilish orqali texnik bazani kuchaytirish. Pedagogik texnologiyalar xonasi”- bu zamonaviy ta’lim vositalari, raqamli texnologiyalar va metodik resurslar bilan jihozlangan maxsus xona bo‘lib, o‘qituvchilarning pedagogik va texnologik kompetensiyasini oshirish, dars sifatini yaxshilash, innovatsion uslublarni o‘rganish va joriy etish uchun xizmat qiladi.

Asosiy maqsadlar:

- Maktabning texnik infratuzilmasini mustahkamlash.
- O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.
- O‘quv jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli tashkil etish.

Xonaning asosiy jihozlari:

- Kompyuterlar yoki noutbuklar
- Interaktiv doskalar yoki sensorli panellar
- Proyektor va ekranlar
- Printer va skanerlar
- Elektron darsliklar, metodik qo‘llanmalar va taqdimotlar uchun multimedia vositalari
- Tezkor internet aloqasi
- Onlayn ta’lim platformalariga ulanish imkoniyati (Google Classroom, Zoom, Teams, Moodle va boshqalar)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini yaratish – faol o‘qituvchilarni e’tirof etish. zamonaviy texnologiyalarga qiziqish yuqori bo‘lsa-da, uni amalda qo‘llashda to‘siqlar mavjud. Bu to‘siqlar texnik va metodik tayyorgarlik, psixologik barqarorlik va motivatsiya bilan bog‘liq.

5.Malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga bag’ishlangan doimiy treninglar tashkil qilish zarur. Bunday kurslar onlayn va oflayn formatda bo’lishi, shuningdek, tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kerak.

6. “Ustoz-shogird” tizimi orqali ilg‘or tajriba almashish. Muvaffaqiyatli amaliyotlarni boshqa pedagogik mahorat markazlari bilan bo’lishish orqali o‘qituvchilarni yangi texnologiyalarni qo‘llashga undash mumkin. Shuningdek, zamonaviy usullarni faol qo‘llagan o‘qituvchilar uchun sertifikatlar, bonuslar yoki boshqa rag’batlantirish tizimlari joriy etilishi lozim.

7. Interaktiv resurslar va video darslar kutubxonasini yaratish. Interaktiv resurslar va video darslar kutubxonasi - bu o‘qituvchilar, o‘quvchilar va metodistlar uchun mo‘ljallangan raqamli ta’lim platformasi bo‘lib, unda turli fanlar bo‘yicha video darslar, testlar, taqdimotlar, simulyatsiyalar, vizual materiallar va boshqa o‘quv resurslari jamlanadi. Ushbu kutubxona o‘quv jarayonini boyitish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy o‘quv uslublarini tatbiq etish uchun xizmat qiladi.

Asosiy maqsadlar:

- Ta’lim resurslarini yagona platformada to‘plash.
- O‘quvchilar uchun mustaqil o‘rganish imkonini yaratish.
- O‘qituvchilarning dars tayyorlash jarayonini yengillashtirish.
- Ta’lim sifati va interaktivligini oshirish.

8. Texnologiyalar bo‘yicha mini-treninglar (5-10 soatli). Mini-treninglar - qisqa, amaliy va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv kurslar bo‘lib, o‘qituvchilarga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qisqa vaqt ichida o‘rganish va real dars jarayonida qo‘llash imkonini beradi.

9. Raqamli savodxonlikni rivojlantiruvchi mahalliy platformalar yaratish. Mahalliy (mintaqaviy yoki milliy) darajadagi raqamli platforma yaratishdan asosiy maqsad aholining, ayniqsa ta’lim sohasidagi ishtirokchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, va ta’lim jarayonini raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash.

O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur egallashi va amaliyotda qo‘llay olishi ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi yechimlar asosida pedagoglarning texnologik va metodik salohiyatini yuksaltirish mumkin. Malaka oshirish kurslari zamonaviy yondashuvlar asosida qayta tuzilsa, bu jarayon samaradorligi oshadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh. “Yangi O'zbekiston strategiyasi va ta'lim tizimidagi islohotlar”. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash dasturlari” . Toshkent: O‘zbekiston.2022
3. UNESCO (2022). “Digital Learning Tools in Teacher Training: Global Overview”.
4. Shodmonova S.S. Innovatsion pedagogika asoslari. — Toshkent: NMIU, 2019.
5. Abdullayeva, M. “Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish”. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2017
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4808-sonli qaror. 2020
7. Yusupov, O. “Zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning roli va ularning kasbiy rivojlanishi”. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti. 2020
8. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent: Fan, 2020.
9. Karimova, N. “Pedagogik innovatsiyalar va ularni amaliyotda qo'llash”. Toshkent: O'qituvchi. 2022
10. Soliyev A. va boshqalar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.- Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida integrativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va kreativ pedagogik usullardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf matematika darslarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv o'quv jarayonini faqat bilim berishga qaratib qolmay, balki o'quvchi shaxsining rivojlanishi, uning kundalik hayotda matematik fikrlashni qo'llay olishi, o'z faoliyatini baholashi va hamkorlikda ishlay olishi kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ularning: metodik tayyorgarligi, darsni loyihalash mahorati, fanlararo bog'lanishdan foydalanish qobiliyati, mantiqiy va ijodiy tafakkurini


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olish malakasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, amaldagi ta’lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlari yetarli bo‘lsa-da, ularni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash, darsni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda materialni yetkazish bo‘yicha ayrim kamchiliklar uchrab turadi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik kompetensiyasini integrativ, tizimli va amaliy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarning matematika fanini o‘qitishdagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlarni aniqlash va amaliyotga joriy etish masalasini o‘rganadi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi matematika ta’limi dasturlari, dars jarayonlari va o‘qituvchilar tayyorlagan nazariy manbalar o‘rganildi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematika fanini o‘qitishdagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni aniqlash, ularni amaliyotga tatbiq etish va samaradorligini baholash uchun kompleks metodlardan foydalanildi. Nazariy-tahliliy metodlar. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-boshlang‘ich ta’lim metodikasi, matematika o‘qitish nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha ilmiy manbalar tahlili;

-integrativ ta’lim, raqamli pedagogika, STEAM va metodik kompetensiya bilan bog‘liq konsepsiyalar solishtirildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning dastlabki kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun: so‘rovnoma (Google Forms va maxsus qog‘oz shakllar), diagnostik testlar, o‘zini baholash varaqalari, kuzatuv kartalari qo‘llanildi. Test va kuzatuv natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik, matematik va texnologik kompetensiya darajasini dastlabki baholash imkonini berdi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli vositalar integratsiyasi muhim o‘rin egalladi:

LearningApps-interaktiv mashqlar va topshiriqlar yaratish uchun;

Plickers-real vaqt baholash uchun;

Kahoot, Quizizz-tezkor test va viktorinalar uchun.

Raqamli metodlar talabalarda mavzuni amaliy anglash va dars jarayonida texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasini mustahkamlashga xizmat qildi.

Metodik kompetensiya o‘sishida tajriba-sinov jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Bu o‘sish, avvalo, darsni rejalashtirish, metodlarni tanlash, o‘quv jarayonini boshqarish va baholash mezonlaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishida namoyon bo‘ldi. Talabalar matematik mavzularni o‘qitishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan metodik yondashuvlarni chuqurroq anglay boshladilar va ularni amaliy jarayonda samarali qo‘llay oldilar. Masalan,

1. Dars maqsadini to‘g‘ri qo‘yish.
2. Vazifalarni bosqichma-bosqich rejalashtirish.
3. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikmalarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mustahkam egallashdi.

Metodik kompetensiya o‘sishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematika darslarini samarali tashkil etishida asosiy o‘rinni egalladi. Ushbu o‘sish nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki o‘qituvchining ijodiy yondashuvi, pedagogik tafakkuri va fanlararo uyg‘unlikni ta’minlash qobiliyatini ham rivojlantirdi.

Mantiqiy-tafakkuriy kompetensiya rivojlandi. Integrativ mashg‘ulotlarda talabalarning: masalalarni tahlil qilish, turli yechimlar topish, real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish ko‘nikmalari sezilarli oshdi.

Fanlararo integratsiya samaradorligi. Matematik mazmunni boshqa fanlar bilan bog‘lash talabalar uchun o‘qitish jarayonini yanada oson va qiziqarli qildi. Dars ishlanmalarida: geometrik shakllarni san’at bilan bog‘lash, o‘lchov birliklarini texnologiya bilan integratsiya qilish, mantiqiy matnlarni ona tili darslari bilan uyg‘unlashtirish kuzatildi.

Kommunikativ kompetensiya kuchaydi. Guruhiy ishlarda: fikr almashish, mantiqiy izoh berish, pedagogik muloqotga kirishish ko‘nikmalari rivojlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish birgina dars jarayoniga emas, balki integratsiyalashgan, tizimli yondashuvga asoslanishi zarur. Yuqori samaradorlik quyidagi omillar bilan bog‘liq:

Integrativ ta’limning ahamiyati

Fanlararo bog‘lanish matematika darsini real hayotga yaqinlashtiradi. Talaba darsni rejalashtirar ekan: matematika, atrof-muhit, texnologiya, til va nutq madaniyati orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi.

Metodik ko‘nikmalarning kuchayishi. Tajriba davomida talabalarda: dars ssenariylarini ishlab chiqish, interaktiv metodlarni tanlash, baholash mezonlarini qo‘llash kabi kompetensiyalar yaxshi shakllandi. Ayniqsa amaliy integrativ topshiriqlar talabalar uchun juda samarali bo‘ldi. Ular darsni nazariy emas, balki haqiqiy o‘quvchi faoliyatiga mos model sifatida ko‘rishni o‘rgandi. Matematika darslarida: LearningApps, Plickers kabi vositalardan foydalanish talabaning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirdi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematika fanini o‘qitishdagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, boshlang‘ich matematikani o‘qitish jarayonida o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, integrativ yondashuvni qo‘llay olishi, raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalariga egaligi ta’lim sifati va o‘quvchilarning bilim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat matematik tushunchalarni o‘zlashtirish, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, LearningApps, Plickers kabi interaktiv platformalar bilan ishlash, STEAM elementlarini qo‘llash, kompetensiyaviy vazifalarni tuzish va baholash metodlari o‘qituvchilarda metodik tafakkurni shakllantiradi. Metodik kompetensiyaning o‘sishi o‘qituvchi tayyorlov dasturlariga integrativ mashg‘ulotlar, amaliy seminarlar, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus modullarni joriy etishni talab etadi. Shuningdek, bo‘lajak

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qituvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni refleksiya, tahlil va baholash jarayonlariga jalb qilish kasbiy kompetensiyaning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv boshlang‘ich ta’lim matematika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda eng samarali yo‘nalishlardan biridir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.
2. Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.
3. Bekmurodova M. STEM-ta’limning nazariy asoslari va amaliy yechimlari. — Toshkent: Innovatsiya, 2022.
4. G‘afforova T. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish. – Buxoro: BuxDU nashri, 2021.
5. Abduraxmonov Q., Jo‘rayev R. Pedagogik kompetensiya va o‘qituvchi tayyorgarligi. – Toshkent: Fan, 2021.
6. Ahmedova D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Noshir, 2020.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Omonboyeva Meruyert Erkin qizi**, o’qituvchi [**Омонобоева Меруерт Эркин кизи**,преподаватель], [**Omonboyeva E.Meruyert** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy shahri, Ibn Sino 45, [адрес: Узбекистан, город Навои, Ибн Сина 45], [address: Uzbekistan, Navoi city, Ibn Sina 45]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ZAMONAVIY FILOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA LINGVODIDAKTIKANING O‘RNI VA AHAMIYATI

© O. Hazratqulova[1]✉

[1]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirish qismida global raqamli o‘zgarishlar sharoitida filologik ta’lim oldida turgan yangi vazifalar yoritiladi. Lingvodidaktika tilni o‘qitishning nazariy poydevori sifatida fonetika, imlo, orfoepiya, leksika va nutq madaniyatini kasbiy muloqot talablari bilan bog‘lash zarurligi asoslanadi. Mavjud darslik va topshiriqlarda ortiqcha grammatikizm va reproduktiv yondashuv ustunligi muammo sifatida ko‘rsatiladi.

**MAQSAD:** zamonaviy filologik ta’limni rivojlantirishda lingvodidaktikaning o‘rnini aniqlash va o‘quv topshiriqlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalash imkoniyatlarini asoslashdir. Shuningdek, Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limida grammatik axborotni cheklab, kasbiy va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi pragmatik topshiriqlar tizimini taklif qilish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot materiali sifatida lingvodidaktik adabiyotlar, Davronov, Hamroyev, Muhiddinova va boshqa olimlarning ishlaridan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining til siyosatiga oid normativ hujjatlaridan foydalanildi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘yicha darsliklar va o‘quv topshiriqlari mazmuni mazmuniy tahlil, taqqoslash, strukturaviy-didaktik tahlil va pragmatik transformatsiya usullari asosida o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi filologik ta’limda morfologiya va sintaksisga haddan tashqari urg‘u berilib, fonetika, imlo, orfoepiya, leksika va punktuatsiya orqali real nutqiy va kasbiy ehtiyojlarni qondirish yetarli darajada ta’minlanmayapti. Tahlil qilingan topshiriqlar ko‘pincha savol va reproduktiv mashqlar bilan cheklanib, talabani mustaqil tahlil, kreativ fikrlash va kommunikativ vaziyatga mos til birliklaridan foydalanishga yetarlicha yo‘naltirmaydi. Taklif etilgan pragmatik o‘quv topshiriqlari til birliklarini aniq nutqiy vaziyatlar, kasbiy muloqot va integrativ faoliyat bilan bog‘lash orqali filologik va kommunikativ kompetensiyalarni sezilarli darajada faollashtirishi ilmiy asoslab berildi.

**XULOSA:** xulosa qismida lingvodidaktika zamonaviy filologik ta’limning ilmiy-metodologik asosini tashkil etishi va ta’lim mazmunini grammatik axborotdan ko‘ra nutqiy faoliyat va kompetensiyaga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlanadi. O‘quv topshiriqlarini lingvodidaktik tamoyillar asosida qayta loyihalash filologik ta’limni raqamli, multimodal va interaktiv muhitga moslashtirish hamda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash imkonini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beradi. Lingvodidaktikaning innovatsion yo‘nalishlarini amaliyotga joriy etish Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limini global ta’lim makoni talablari bilan uyg‘unlashtiradi.

**Kalit so‘zlar:** filologik ta’lim; lingvodidaktika; o‘quv topshiriqlari; Hozirgi o‘zbek adabiy tili; kompetensiyaviy yondashuv; innovatsion texnologiyalar; raqamli lingvodidaktika.

**Iqtibos uchun**: Hazratqulova.O. Zamonaviy filologik ta’limni rivojlantirishda lingvodidaktikaning o‘rni va ahamiyati.// Inter education & global study. 2025. Vol.3 №11(1). B.169-178.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛИНГВИСТИКИ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО ФИЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© О. Хазраткулова[1]✉
[1]Термезский университет экономики и сервиса, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении показано, что в условиях цифровизации и глобальных коммуникаций филологическое образование требует обновления целей, содержания и методов. Лингводидактика рассматривается как научная основа, позволяющая связать фонетику, орфографию, орфоэпию, лексику и культуру речи с требованиями профессиональной коммуникации. Отмечается доминирование избыточного грамматизма и репродуктивных заданий в действующих учебниках.

**ЦЕЛЬ:** определить роль лингводидактики в развитии современного филологического образования и обосновать возможности переработки учебных заданий на основе компетентностного подхода. Дополнительно ставится задача предложить систему прагматических заданий, развивающих речевые и профессиональные компетенции обучающихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в качестве материала использованы лингводидактические исследования, труды Давронова, Хамроева, Мухиддиновой и др., а также нормативные документы Республики Узбекистан по языковой политике. Содержание учебников и заданий по современному узбекскому литературному языку изучалось методами контент-анализа, сравнительного и структурно-дидактического анализа, а также прагматической трансформации.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показывают, что в действующей системе преобладают многолетние курсы морфологии и синтаксиса при недостаточном внимании к фонетике, орфографии, орфоэпии, лексике и пунктуации как основам реальной речевой и профессиональной практики. Анализ заданий выявил их ориентацию преимущественно на вопросы и репродукцию, что слабо стимулирует аналитическое мышление, креативность и использование языковых единиц в конкретных коммуникативных ситуациях. Предлагаемые прагматические задания, соотносящие язык с реальными речевыми и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

профессиональными контекстами, демонстрируют потенциал существенного усиления филологических и коммуникативных компетенций студентов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в заключении подчеркивается, что лингводидактика является ключевым методологическим основанием современного филологического образования и требует переориентации содержания с абстрактной грамматики на речевую деятельность и компетенции. Перепроектирование учебных заданий в лингводидактическом ключе позволяет адаптировать филологическое образование к цифровой, мультимодальной и интерактивной образовательной среде и готовить конкурентоспособных специалистов. Инновационные направления лингводидактики обеспечивают интеграцию преподавания современного узбекского литературного языка в глобальное образовательное пространство.

**Ключевые слова:** филологическое образование; лингводидактика; учебные задания; современный узбекский литературный язык; компетентностный подход; инновационные технологии; цифровая лингводидактика.

**Для цитирования**: Хазраткулова.О. Роль и значение лингвистики в развитии современного филогического образования.// Inter education & global study.2025. vol.3, №11(1). С. 169-178.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF LINGUISTICS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN PHILOGICAL EDUCATION

© Ozoda Hazratqulova[1]✉
[1]Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction argues that in the era of digitalization and global communication, philological education must renew its aims, content, and methods. Linguodidactics is presented as the scientific basis for linking phonetics, spelling, orthoepy, lexis and speech culture with the requirements of professional communication. The dominance of excessive grammaticism and predominantly reproductive tasks in current textbooks is highlighted as a key problem.

**AIM:** the study aims to determine the role of linguodidactics in the development of modern philological education and to substantiate the redesign of learning tasks within a competence-based framework. A further aim is to propose a system of pragmatic tasks that develop students' linguistic, communicative and professional competences.

**MATERIALS AND METHODS:** the research draws on linguodidactic literature, works by Davronov, Hamroyev, Muhiddinova and others, as well as national policy documents on language education in Uzbekistan. Textbooks and task sets for Modern Uzbek Literary Language were examined using content analysis, comparative and structural–didactic analysis, and pragmatic transformation of tasks.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings show that the current system devotes many years to morphology and syntax while underrepresenting phonetics, orthography, orthoepy, lexis and punctuation as foundations of real communicative and professional practice. The analysis of tasks revealed a predominance of questions and reproductive exercises that only weakly promote analytical thinking, creativity, and context-appropriate language use. The proposed pragmatic tasks, which systematically relate language units to authentic communicative and professional situations, demonstrate strong potential to enhance students' philological and communicative competences.

**CONCLUSION:** the conclusion emphasises that linguodidactics constitutes the key methodological foundation of modern philological education and should shift the focus from abstract grammar to communicative activity and competences. Redesigning learning tasks in a linguodidactic perspective enables philological programmes to adapt to digital, multimodal and interactive environments and to train competitive specialists. Innovative strands of linguodidactics help integrate the teaching of Modern Uzbek Literary Language into the global educational space.

**Keywords:** philological education; linguodidactics; learning tasks; Modern Uzbek Literary Language; competence-based approach; innovative technologies; digital linguodidactics.

**For citation**: Ozoda Hazratqulova. (2025) 'The role and importance of linguistics in the development of modern philogical education', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 169-178. (In Uzbek).

**XXI** asrda ta'lim jarayonida kechayotgan tub o'zgarishlar, global axborot makonining shakllanishi, raqamli kommunikatsiyaning tez sur'atlarda rivojlanishi filologik ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Tilning ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi o'rni kengaygan sari, filologiya sohasida o'qitish metodlari, mazmuni va maqsadlarini yangilash zaruriyati tug'ilmoqda. Bu jarayonda lingvodidaktika — tilni o'qitishning nazariy asoslari, tamoyillari, qonuniyatlari va metodologik mezonlarini o'rganuvchi fan — filologik ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy tayanch nuqtasiga aylanmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmoqda. Jumladan, I. Davronov[1]ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq til o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi[2].

Tanqidiy fikrlash tushunchasini D.Xalpern tomonidan chuqur tahlil etilgan bo'lib, uning fikricha, tanqidiy fikrlash sog'lom refleksiv jarayondir, shuningdek, tanqidiy fikrlash

1Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулиёт масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 188-193- б.

2Ҳамроев F. Умумий урта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.дри.(PhD) дисс. -Самарқанд. 2019. 147 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

– yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lib, o‘z xatolaridan xolis bo‘lish va sog‘lom mazmun izlashdir. Tanqidiy fikrlaydigan insonlar yangi g‘oyalar va yangi imkoniyatlarni taqdim etishga qodirdirlar[3]

Grammatika masalasi bugun ta’lim oldiga qo‘yilgan talablarni yaxshi anglamaslik, grammatika haqida boshqacha tasavvurlarga ega bo‘lish oqibatida bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqarmoqda.

Avvalo, “grammatika” so‘zi o‘qish va yozishni o‘rganmoq degan ma’noni anglatadi. Ammo bizda tilshunoslikda yaratilgan nazariyalar, qoidalar majmuasi sifatida qaraladi, grammatika deganda, asosan, morfologiya va sintaksis tushuniladi. OTM talabalariga 4 yil davomida morfologiya va sintaksis o‘qitiladi, ammo bu ma’lumotlar kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmaydi. Undan ko‘ra darslik tuzishda ko‘p yillardan beri e’tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o‘qitib kelinayotgan fonetika, to‘g‘ri yozish, imlo qoidalari (orfografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug‘at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuasiya) kabi mavzular o‘quvchida haqiqatan imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini hosil qiladi, so‘z boyligini oshiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yillar davomida metodikaga doir ishlarga jiddiy e’tibor berilmadi. Ayrim tadqiqot ishlaridagi ilmiy asoslangan xulosalar amaliyotga tatbiq etilmay qolib ketdi. Jumladan, X.Muxitdinova 2011-yildayoq o‘zbek tili ta’limida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan doktorlik ishida til ta’limidagi turli yondashuvlarni tahlil qiladi, jahon til o‘qitish metodikasida tillar Hozirgi o‘zbek adabiy tili, davlat tili va ikkinchi til sifatida farqlanishi, nutqqa oid mavzular hamda grammatik ma’lumotlarning berilishida mashq va topshiriqlarning uzviyligi xususida asosli fikrlar bildirib o‘tgan[4]. Ushbu fikrlar hali ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Bugungi zamonaviy filologik ta’limning asosiy maqsadi talabaning lingvistik, kommunikativ, madaniyatlararo, interpretativ va analitik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish faqat an’anaviy ta’lim yondashuvlari yordamida emas, balki lingvodidaktikaning zamonaviy nazariy tamoyillari, interaktiv va innovatsion metodlari asosida amalga oshiriladi. Lingvodidaktik yondashuv talabaning nutqiy faoliyatni ongli tashkil etish, matnni tahlil qilish va qayta yaratish, turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Grammatik ma’lumotlarni chegaralamaslik, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini qo‘ymaslik oqibatida me’yoridan ortiq nazariy ma’lumotlar OTM darsliklariga kirib qoldi. Natijada bitiruvchi, yoki birinchi kurs talabasidan jumlani grammatik tahlil qilib berish so‘ralsa u tibbiyot yo‘nalishida bo‘ladimi, moliya yo‘nalishida bo‘lishidan qat’i nazar so‘z va gaplarni yaxshi tahlil qilib bera oladi, ammo unga gapni *murakkab ega, ot-kesim, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to‘ldiruvchiga* ajratishdan o‘z kasbi

3Халперн Д. Психология критического мышления . – 240 с. Питер: Д. Халперн. – СПб.- 2000
4Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -27-б

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

doirasida biror amaliy foyda bo‘lmaydi. Ortiqcha grammatizm, Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limini hayotdan uzoqlashtiradi. Aslida unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo‘ladigan kasbiy muloqot madaniyati o‘rgatilishi kerak. Buning uchun OTM ta’limidagi o‘quvchilar adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta’sirli nutq uchun etarli so‘z boyligiga ega bo‘lishilari kerak.

Hozirda ham fanlar uchun qo‘yilayotgan ushbu talablar Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limiga ham taalluqli. OTM ta’limida o‘quvchilarga gap tahlili, so‘z yasash usullarini emas, til birliklaridan nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishni o‘rgatish kerak. Davr isbotlagan bu haqiqat bugungi kunda Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limiga nisbatan yondashuvni o‘zgartish, o‘qitish metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 6084-sonli Farmonida o‘zbek tilini davlat tili va Hozirgi o‘zbek adabiy tili sifatida o‘qitish metodiksini takomillashtirish, zamHozirgi o‘zbek adabiyviy til o‘qitish metodikasini yaratish vazifalari qo‘yildi[5].

Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish borasida olib borilayotgan tub islohotlar va erishilgan samarali natijalar uzluksiz ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilinishiga o‘quvchi va talabalarning barcha fanlar bo‘yicha egallangan bilimlarini amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirildi.

2020 yil Prezidentning 6084-sonli Farmoni bilan birga o‘zbek tilini 2030 yilga qadar rivojlantirish Kosepsiyasi va uni amalga oshirish dasturi tasdiqlandi.[6]

Ushbu Konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘zbek tilini Hozirgi o‘zbek adabiy tili va davlat tili sifatida o‘qitish bo‘yicha Milliy dastur ishlab chiqildi. Bugungi kunda OTM darsliklari tubdan takomillashtirilmoqda, mazmuni yangilanmoqda.

O‘zbek tilini Hozirgi o‘zbek adabiy tili sifatida o‘qitish bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etilmoqda, uning dastlabki darsliklari mazmunida aks etgan. Integrasiyalashgan yangi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi o‘quvchilarni turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan, biroq mazkur darsliklarning o‘quv topshiriqlari qismi oldinga qo‘yilgan katta marrani bosib o‘tishga moslanmagan. Darsni, o‘zbek adabiy tili ta’limi mazmuni o‘quv topshiriqlari yuzaga chiqarishini inobatga olsak, yangi yaratilgan metodikani harakatga keltiruvchi ta’lim mazmunida muhim ahamiyatga ega ekani ma’lum bo‘ladi. O‘quv topshiriqlari metodikaning asosini tashkil etadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘qitish metodikasini isloh qilishning asosi – bu mashq va topshiriqlarni qanday qo‘yish, qanday savol berishga bog‘liq. Bu esa, bugungi kunda Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zaruruatini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Filologik ta’lim — til va adabiyot fanlari asosida shakllangan tizimli bilimlar

5https://lex.uz/

6Мирзиёев Ш. 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 6084-сонли Фармони ва ўзбек тилини 2020 –2030 йилларда ривожлантириш Концепцияси 2020 йил 20 октябрь.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

majmuasi bo‘lib, o‘quvchilarda til va adabiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv topshiriqlari esa talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, tahliliy va ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda muhim vosita sanaladi.

1. O‘quv topshiriqlarining turlari va vazifalari
Filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari odatda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Reproduktiv topshiriqlar (matndan savollarga javob berish, tarjima qilish)
- Tahliliy-topqirlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar (matn tahlili, xarakteristika berish)
- Ijodiy topshiriqlar (insho yozish, badiiy parcha yaratish, dramatizatsiya)
- Interaktiv topshiriqlar (rol o‘ynash, munozara, debat, klaster tuzish)

Har bir topshiriq turi filologik bilimni chuqurlashtirish, o‘quvchining tahliliy va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Amaldagi holat (muammolar va yutuqlar)
So‘nggi yillarda O‘zbekistonda filologik ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars berish keng joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda kuzatilayotgan ba’zi muammolar mavjud:

- Topshiriqlarning bir xilligi: ko‘p hollarda faqat savol-javob yoki reproduktiv topshiriqlarga e’tibor qaratiladi.
- Ijodiy va interaktiv topshiriqlarning yetishmasligi: ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar yetarli emas.
- Texnologik resurslardan kam foydalanish: raqamli platformalar orqali topshiriqlar berish amaliyoti hanuz keng ommalashmagan.

3. Yaxshi amaliyotlar (pozitiv misollar)
Ba’zi ilg‘or ta’lim muassasalarida quyidagi yondashuvlar samarali natija bermoqda:

- Darslarda interfaol metodlar qo‘llanilmoqda (debate, fishbone, sinqron yozuvlar).
- Badiiy matn asosida loyiha ishlari tashkil etilmoqda (masalan, asar qahramonlari galereyasini yaratish).
- O‘quvchilar adabiy bloglar yoki videodarslar tayyorlashga jalb qilinmoqda.

Filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashish qobiliyatini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda topshiriqlarning sifatini oshirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida diversifikatsiya qilish filologik ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘quv topshiriqlari turli bosqichlarda rivojlanishga xizmat qilishi lozim: bilimdan – tushunishga, qo‘llashdan – tahlil va ijodga.

Ma’lumki, til darsliklarida, asosan, “mashq”, “savol” va “topshiriq” atamalari, tabiiy va aniq fanlarda masala ataması qo‘llaniladi. Ularning barchasi o‘quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo‘lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o‘quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi.[7]

7Қўчқорова Ф. М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралашнинг дидактик параметрлари: фалсафа фан. докт. ... дисс.(PhD). – Тошкент, 2018. – 13-бет.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, til ta’limining asosiy maqsad va vazifasi o‘quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. Shu bois tadqiqot ishimizda “mashq”, “savol”, “topshiriq” atamalari mazmuni, qo‘llanishi, vazifalari va tasnifi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

G‘. Hamroyevning ta’kidlashicha, topshiriq mashqni ham, savolni ham o‘z ichiga oladigan, talabani bilim olishga yo‘naltiradigan, baholashda ishtirok etadigan, takrorga asoslangan mashqlar orqali malaka hosil qilishni tashkil qiladigan asosiy o‘quv topshirig‘idir. Uzoq muddatli kuzatishlar, tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, “Ona tili” darsliklaridagi mashq deb nomlangan o‘quv topshiriqlari ham mashq emas, ya’ni mashqning talablariga javob bermaydi. Aslida mashq bilim berish vositasi emas, u ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun qo‘llanilishi kerak. Topshiriq esa, bilim olish, mashg‘ulotni tashkil etish va o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni baholashi, savol esa, talabni fikrlashga undashi, sinab ko‘rish uchun qo‘llanilishi lozim. Amalda esa, ular aralash holda qo‘llaniladi8. Shu sababli metodlar, darsliklar mazmuni yangilansa ham, dars samaradorligi sezilarli oshmay, kasbiy ko‘nikmalar to‘laqonli rivojlanmay kelmoqda. Shu ma’noda, o‘quv topshiriqlari ona tili ta’limi mazmunini yuzaga chiqarishda, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatiga ega, ta’lim jarayonida o‘quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanishga alohida e’tibor berish talab etiladi.

1-jadval

| /r | Oliy filologik ta’limda amalda qo‘llaniladigan o‘quv topshiriqlari mazmuni | Taklif etilayotgan pragmatik o‘quv topshiriqlar |
|---|---|---|
| . | Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo‘lgan? | Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga fonetik, leksik jihatdan eng yaqin qadimgi manbalar qaysilar? Fikiringizni asoslovchi misollar keltiring. |
| . | «O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikringiz? | O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining bola psixologiyasi fani bilan qanday aloqasi mavjud? Fanlar o‘rtasidagi aloqani misollar bilan izohlang. |
| . | Metod birlashma faoliyatiga rahbarlik qilish kimning zimmasiga yuklatiladi? | OTMda o‘qitish metodikasini rivojlantirish ishalrini qanday tashkil etish mumkin? Takliflar tayyorlang. |

Oliy filologik ta’limda, xususan, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlarida ham, asosan, topshiriq va savoldan foydalaniladi. Ularda mashqlar mavjud emas, shuning uchun ham bo‘lajak filologlarning, ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining og‘zaki va yozma nutqida kamchiliklar bartaraf bo‘lmay, ta’lim jarayoniga, ishlab chiqarishga qo‘shilib, o‘quvchilarning, atrofidagilarning savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oliy filologik ta’limda talabalarning o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassisga aylanishi uchun darsliklardagi, jumladan, dars mashg‘ulotlaridagi savol va topshiriqlar mazmunini takomillashtirish zarur. Aks holda, talaba mutaxassislik bo‘yicha zarur ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lolmay,

8Ҳамроев ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. Монография. – Тошкент. Донишманд зиёси. 2021. 196 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jamiyatda o‘z o‘rnini topolmay qolishi mumkin. O‘quv topshiriqlari ta’limning tayanch nuqtasi deyish mumkin, mashg‘ulotlar davomida topshiriqlar orqali talabani istalgan tarafga yo‘naltirish mumkin. Agar tilshunoslik fanlarini o‘qitishda faqat savollar bilan kifoyalanilmay, topshiriq, imkon doirasida mashqlardan ham foydalanilsa, ta’lim sifati oshishi mumkin.

Zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, filologik ta’limning istiqboli lingvodidaktikaning innovatsion yo‘nalishlari — multimodal o‘qitish, raqamli lingvodidaktika, korpus texnologiyalari, interaktiv metodlar va madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayon filologik ta’limni faqat yangilabgina qolmay, balki uni global ta’lim makoniga yaqinlashtiradi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, lingvodidaktika zamonaviy filologik ta’limning asosiy ilmiy-metodologik poydevori bo‘lib, o‘quv jarayonini takomillashtirish, uning mazmunini boyitish va ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Uni to‘g‘ri qo‘llash filologik ta’limning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, talabalarning yuqori darajadagi kompetensiyalarni egallashiga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулиёт масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 188-193- б.
2. Ҳамроев F. Умумий урта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.дри. (PhD) дисс. -Самарқанд. 2019. 147 б.
3. Халперн Д. Психология критического мышления. – 240 с. Питер: Д. Халперн. – СПб. - 2000
4. Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -27-б
5. Мирзиёев Ш. 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 6084-сонли Фармони ва ўзбек тилини 2020 –2030 йилларда ривожлантириш Концепцияси 2020 йил 20 октябрь.
6. Қўчқорова Ф. М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралашнинг дидактик параметрлари: фалсафа фан. докт. ... дисс. (PhD). – Тошкент, 2018. –13-бет.
7. Hazratqulova O.A. // Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy metodik asoslarini takomillashtirish // BELORUS -O'ZBEK ilmiy - metodik jurnali.2025.№1, https://gri-journal.uz 13-16-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Hazratqulova O.A. //O'quv topshiriqlari asosida mavzuni anglash va kreativ fikrlash// "Hozirgi zamon filologiyasi: muammolar, tahlil va natijalar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 10.04.2025y. 21-25 b.
9. O.Hazratqulova. // Filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining holati, tahlili // Ta'lim, fan va innovatsiya - ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274. № 2-2025y.3-7 b.
10. Khazratkulova O.A. // O'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy metodik asoslari // TISU ilmiy tadqiqotlar xabarnomasi.ISSN:2992-9016. B.91-94.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ozoda Hazratqulova**, PhD dotsent [**Озода Хазраткулова**, PhD доцент], [**Ozoda Hazratqulova,** PhD associate professor]; manzil: Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy, [адрес: Город Термез, квартал" Юлдуз", улица Ибн Сина, дом 38-б], [address: 38-b Ibn Sina Street, Yulduz quarter, Termez city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DISGRAFIYASI BO‘LGAN O‘QUVCHILARDA YOZISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

© S.Qaxxorova[1]✉, Z.Mamarajabova[2]✉
[1,2]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** disgrafiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida keng uchraydigan yozma nutq buzilishi bo‘lib, o‘qish–yozish jarayonini sezilarli murakkablashtiradi. U fonematik eshitish, grafomotor ko‘nikmalar, leksik-grammatik tizim va kognitiv jarayonlarning yetarli rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Shu bois yozish kompetensiyasini tizimli shakllantirish logopedik va pedagogik amaliyotning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

**MAQSAD:** boshlang‘ich sinflarda disgrafiyasi bo‘lgan o‘quvchilarda yozish kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashdir. Shuningdek, fonematik idrok, vizual analiz-sintez, grafomotor va leksik-grammatik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni kompleks tizimga solish ko‘zda tutiladi. Differensial va individual yondashuv asosida logopedik korreksiya va o‘qitish jarayonini integratsiyalash imkoniyatlari aniqlanadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda disgrafiya, yozish kompetensiyasi va korreksion pedagogika bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diagnostik yozuv ishlari, xato tahlili, logopedik suhbat va kuzatish metodlari qo‘llanildi. Fonematik idrok, grafomotor malakalar va leksik-grammatik tizimni rivojlantiruvchi interfaol, multimodal mashqlar majmuasi amaliyotda sinovdan o‘tkazildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalariga ko‘ra, yozish kompetensiyasi fonematik, grafomotor, leksik-grammatik, kognitiv va kommunikativ komponentlarning integratsiyasiga tayanishi aniqlangan. Tovush-harf analiz-sintezi, grafomotor mashqlar, vizual differensiasiya, rasmlar asosida gap va matn tuzish, multimodal mashg‘ulotlar disgrafik xatolarni kamaytirishda samarali ekanligi kuzatildi. Kompleks logopedik yondashuv qo‘llanganda, o‘quvchilarda yozma nutqning izchilligi, xatolar sonining qisqarishi va yozuvga nisbatan motivatsiya oshishi qayd etildi.

**XULOSA:** boshlang‘ich sinflarda disgrafiyasi bo‘lgan o‘quvchilarda yozish kompetensiyasini shakllantirish ko‘p komponentli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan korreksion-pedagogik tizimni talab qiladi. Fonematik, grafomotor va leksik-grammatik mashqlarni multimodal va interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish yozma nutqni sezilarli darajada yaxshilaydi. O‘qituvchi, logoped va ota-onalar hamkorligida olib borilgan tizimli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ishlar o‘quvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirish va disgarfiya xatolarini barqaror kamaytirish uchun zarur shart hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** disgrafiya, yozish kompetensiyasi, boshlang‘ich ta’lim, logopedik texnologiya, korreksion pedagogika, interfaol metodlar, multimodal yondashuv.

**Iqtibos uchun**: Qaxxorova S., Mamarajabova Z. Boshlang‘ich sinflarda disgrafiyasi bo‘lgan o‘quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.179-186.

## ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПИСЬМЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ С ДИСГРАФИЕЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© С. Каххорова[1]✉, З.Мамаражабова[2]✉
[1,2]Ташкентский международный университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** дисграфия представляет собой специфическое нарушение письменной речи, которое существенно затрудняет освоение письма и чтения у младших школьников. Нарушения фонематического восприятия, графомоторных навыков, лексико-грамматического строя и когнитивных процессов лежат в основе данного дефекта. Это обусловливает необходимость комплексного подхода к формированию письменной компетенции в логопедической и педагогической практике.

**ЦЕЛЬ:** определить научно-теоретические основы формирования письменной компетенции у младших школьников с дисграфией. Предполагается систематизировать технологии, направленные на развитие фонематического восприятия, графомоторных навыков, лексико-грамматических и когнитивных компонентов письма. Дополнительно анализируются возможности дифференцированного и индивидуального подхода в интеграции логопедической коррекции и учебного процесса.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в работе проведён анализ отечественных и зарубежных исследований по проблеме дисграфии, письменной компетенции и коррекционной педагогики. Использовались диагностические письменные работы, качественный анализ ошибок, логопедическое обследование и наблюдение. В коррекционной работе апробированы комплексы упражнений по фонематическому анализу и синтезу, развитию графомоторики, визуальной дифференциации и лексико-грамматического оформления письменной речи.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что письменная компетенция формируется как интеграция фонематического, графомоторного, лексико-грамматического, когнитивного и коммуникативного компонентов. Применение упражнений на звукобуквенный анализ, графические диктанты, задания на зрительный анализ и синтез, а также создание письменных высказываний по сериям картинок способствует сокращению дисграфических

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ошибок. Комплексная логопедическая программа с мультимодальным подходом обеспечивает повышение качества письменной речи и учебной успешности детей.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** формирование письменной компетенции у младших школьников с дисграфией требует системной коррекционно-педагогической работы, ориентированной на все компоненты письменной речи. Интеграция логопедических технологий, интерактивных и мультимодальных методов позволяет добиться устойчивого снижения количества ошибок и улучшения структуры письменной речи. Взаимодействие учителя, логопеда и родителей рассматривается как ключевое условие успешной коррекции дисграфии и развития коммуникативных возможностей ребёнка.

**Ключевые слова:** дисграфия, письменная компетенция, начальное образование, логопедические технологии, коррекционная педагогика, интерактивные методы, мультимодальный подход.

**Для цитирования**: Каххорова С,Мамаражабова З. Технологии формирования письменных компетенций у учащихся с дисграфией в начальных классах.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 179-186.

## TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF WRITTEN COMPETENCIES AMONG STUDENTS WITH DYSGRAPHIA IN ELEMENTARY GRADES

© S. Qaxxorova[1]✉, Z. Mamarajabova[2]✉
[1,2]Tashkent Kimyo international university, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** dysgraphia is a specific written language disorder that significantly complicates literacy acquisition in early school years. It is associated with insufficient development of phonemic perception, graphomotor skills, lexico-grammatical structure, and cognitive processes. This situation necessitates a comprehensive approach to fostering writing competence within both speech therapy and general pedagogical practice.

**AIM:** the aim of the study is to substantiate the theoretical foundations of developing writing competence in primary school students with dysgraphia. The research seeks to systematize technologies focused on improving phonemic awareness, graphomotor performance, lexico-grammatical skills, and cognitive components of writing. It also examines the potential of differentiated and individual approaches in integrating speech therapy correction with mainstream instruction.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on a review of national and international literature on dysgraphia, writing competence, and correctional pedagogy. Diagnostic writing tasks, qualitative error analysis, speech therapy assessment, and structured observation were employed. Sets of exercises aimed at phoneme–grapheme

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

correspondence, graphomotor coordination, visual analysis and synthesis, and lexico-grammatical structuring of written speech were piloted in practice.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings indicate that writing competence functions as an integrated system comprising phonemic, graphomotor, lexico-grammatical, cognitive, and communicative components. Targeted work on sound–letter analysis and synthesis, graphic dictations, visual discrimination tasks, and picture-based story writing proved effective in reducing dysgraphic errors. A comprehensive multimodal speech therapy program led to improvements in the coherence and accuracy of written texts and increased students' motivation for writing.

**CONCLUSION:** developing writing competence in primary school students with dysgraphia requires a systematic correctional-pedagogical framework addressing all components of written language. Integrating speech therapy technologies with interactive and multimodal methods produces a stable decrease in error frequency and qualitative gains in written expression. Close collaboration between teachers, speech therapists, and parents is essential for successful dysgraphia correction and for strengthening the communicative capacity of the child.

**Keywords:** dysgraphia, writing competence, primary education, speech therapy technology, correctional pedagogy, interactive methods, multimodal approach.

**For citation**: Qaxxorova S, Mamarajabova Z. (2025) 'Technologies for the formation of written competencies among students with dysgraphia in elementary grades', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 179-186. (In Uzbek).

**H**ozirgi kunda logopediya nazariyasi va amaliyoti rivojlanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgarfiya nutq nuqsoni tufayli yozma nutqdagi buzilishlarni o'rganish, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash hamda korreksion ishlarning mazmunini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Disgrafiya – bu yozma nutq faoliyatining o'ziga xos buzilishi bo'lib, u fonematik, leksik-grammatik va motor komponentlarning yetarli shakllanmaganligi natijasida paydo bo'ladi. Bu nuqson bolaning so'zlarni yozishda tovush-harf tahlili, grammatik moslashtirish, grafomotor malakalarni bajarish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda (A.R. Luriya, R.E. Levina, T.B. Filicheva, O.S. Ushakova va boshqalar) disgarfiya psixolingvistik muammo sifatida talqin qilinadi. Unda markaziy asab tizimi, analizatorlar (eshituv, ko'ruv, motor), shuningdek, til tizimi komponentlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati buziladi.

Disgrafiya muammosi – yozma nutqning rivojlanishidagi og'ish bo'lib, u tovushlarni noto'g'ri ajratish, harflarni chalkashtirish, grammatik va stilistik xatolar qilish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Yozish kompetensiyasi – bu o'quvchining o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri, izchil va mantiqan ifodalash, tilning grammatik, fonetik va leksik me'yorlariga amal qilgan holda yozuv faoliyatini amalga oshirish layoqatidir. U nafaqat yozuv texnikasini egallashni, balki

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yozuv jarayonida nutqiy, aqliy va motorik faoliyatlarning uyg‘un ishlashini ham taqozo etadi. Yozish kompetensiyasi bolaning nutqiy rivojlanish darajasini, tafakkur madaniyatini, diqqatni jamlay olishini va o‘z fikrini mustaqil bayon etish salohiyatini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yozish kompetensiyasi o‘zlashtirishning poydevori bo‘lib, u o‘qish, fikrlash, muloqot qilish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli logopedik amaliyotda yozish kompetensiyasining mohiyatini to‘g‘ri anglash va uning tarkibiy qismlarini tizimli shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq – bu og‘zaki nutqning murakkab shakli bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bir necha psixolingvistik jarayonlar birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. Yozish kompetensiyasi mohiyat e’tibori bilan:

nutqiy faoliyatning integrativ shakli, chunki u idrok, tafakkur, xotira, e’tibor, nutq eshitish, vizual va motor tizimlarning hamkorligiga asoslanadi;

kommunikativ faoliyat vositasi, chunki o‘quvchi yozma shaklda o‘z fikrini boshqalarga yetkazadi;

ijodiy faoliyat shakli, chunki yozma ifoda jarayonida bola so‘z tanlaydi, gap quradi, fikrini tartiblaydi va mazmun yaratadi.

Shunday qilib, yozish kompetensiyasi bolaning til tizimi elementlarini faol qo‘llay olish qobiliyati bilan bir qatorda, fikrni yozma shaklda mantiqan bayon etish, matn tuzish va tahrirlash ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar (A.R. Luriya, R.E. Levina, T.B. Filicheva, O.S. Ushakova va boshqalar) yozish kompetensiyasi ko‘p komponentli tizimdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Har bir komponent o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi va yozuv faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qiladi.

a) Fonematik komponent

Bu komponent tovush-harf tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, bolaning nutq tovushlarini to‘g‘ri farqlashi, eshitgan tovushni harf bilan bog‘lay bilishi, tovushlarni ketma-ketlikda tahlil va sintez qilishi kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Fonematik komponentning rivojlanmaganligi ko‘pincha disgarfiya paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biridir. Masalan, bola so‘zda “s” va “sh” tovushlarini farqlay olmasa, u yozuvda harflarni chalkashtiradi.

b) Grafomotor komponent

Bu yozuvning motorik jihatlarini, ya’ni qo‘l harakatlarini boshqarish, chiziqlarni to‘g‘ri chizish, harflarni shakllantirish, yozuv ritmini saqlash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Grafomotor komponentning rivojlanishi uchun qo‘l barmoqlari va bilak mushaklarini chiniqtiruvchi mashqlar, chizish, nuqtadan nuqtaga chiziq tortish, geometrik shakllarni to‘ldirish kabi mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega.

c) Leksik-grammatik komponent

Bu komponent bolaning lug‘at boyligi, grammatik shakllarni to‘g‘ri qo‘llay bilishi, so‘z birikmalari va gaplar tuzish, matnda so‘zlarning o‘zaro munosabatini anglash kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi.

Leksik-grammatik komponentning shakllanishi bolaning til boyligi va mantiqiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir. Bola so‘z ma’nolarini to‘g‘ri anglay olmasa, yozma nutqida grammatik va stilistik xatolar ko‘payadi.

d) Kognitiv (aqliy) komponent

Bu komponent tafakkur, xotira, idrok, e’tibor va nutqiy rejalashtirish faoliyatlari bilan bog‘liq. Bola yozuv jarayonida so‘zlarni tanlaydi, gaplarni mantiqan ketma-ket joylashtiradi, fikrini to‘liq va aniq bayon etishga harakat qiladi.

Kognitiv komponent yozma nutqni mazmunan boyitadi va matnning mantiqiy yaxlitligini ta’minlaydi.

e) Kommunikativ komponent

Bu komponent yozuv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatini belgilaydi. O‘quvchi yozuv orqali o‘z fikrini boshqalarga yetkazishni, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi yozma muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni o‘rganadi.

Yozma nutqning kommunikativligi o‘quvchining o‘z fikrini auditoriyaga mos ravishda ifoda etish, so‘z tanlash va uslubni saqlash ko‘nikmalari bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi barcha komponentlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi va integrativ tarzda ishlaydi. Masalan:

fonematik idrok bo‘lmasa, bola tovushni to‘g‘ri yozolmaydi;

grafomotor malakalar sust bo‘lsa, yozuv texnikasi sekinlashadi;

leksik-grammatik tizim boy bo‘lmasa, matn mazmunsiz chiqadi;

kognitiv faoliyat sust bo‘lsa, mantiqiy izchillik buziladi.

Shu sababli yozish kompetensiyasini shakllantirish jarayoni logopedik, psixologik va pedagogik yondashuvlar uyg‘unligida olib borilishi lozim. Har bir komponentning rivojlanishi o‘zaro mustahkamlovchi tizim asosida tashkil etilganda, o‘quvchining yozma nutq madaniyati shakllanadi, disgarfiya xatolari kamayadi va yozuv faoliyatida mustaqillik yuzaga keladi.

Disgrafiya psixolingvistik muammo bo‘lib, asosan fonematik eshitish, nutqiy xotira, vizual-motor koordinatsiya va grafomotor ko‘nikmalarning yetarli rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Shuning uchun texnologiyalar shu funksiyalarni rivojlantirishga qaratiladi.

Disgrafiyani bartaraf etish texnologiyalari va metodlari.

- Fonematik idrokni rivojlantirish texnologiyasini samarali tashkil etish metodlar:

- Tovushlarni ajratish va farqlash mashqlari: "Qaysi so‘zda [s] bor?", "Qaysi tovush bilan boshlanadi?"

- Tovush-harf analiz-sintezini o‘rgatuvchi mashg‘ulotlarda qo’llaniladigan vositalar: Interaktiv audio mashqlar, tovushlar bilan ishlash uchun kartochkalar.

- Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun metodlar:

- Chizish, bo‘yash, nuqtadan nuqtaga chizish mashqlari.

- Maxsus grafik diktantlar.

- Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun vositalar:

Yozuv daftarlari, motorika rivojlantiruvchi o‘yinlar.

- Vizual analiz va sintezni rivojlantirish texnologiyasini samarali o’tkazish uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

metodlar:

- Harflarni tanish, farqlash, shakl va joylashuvga qarab ajratish.
- "So‘z ichida ortiqcha harfni top", "To‘g‘ri yozilganini belgila" kabi mashqlar.

- Vizual analiz va sintezni rivojlantirish vositalar:

Interaktiv doska, maxsus grafik o‘yinlar.

- Leksik-grammatik kompetensiyani rivojlantirish uchun metodlar
  - So‘z birikmalari va gap tuzish mashqlari.
  - Gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish.
  - Yozma hikoya tuzish – rasmlar asosida.
- Leksik-grammatik kompetensiyani rivojlantirish vositalari:

Rasmlar to‘plami, interaktiv topshiriqlar, matnli o‘yinlar.

- Multimodal yondashuv (audio-vizual-kinestetik)

- Harflar va so‘zlar bilan ishlashda bir nechta analizatorni bir vaqtning o‘zida jalb etish (eshitish + ko‘rish + yozish + talaffuz qilish).

Logopediya nazariyasi va amaliyoti rivojlanish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida disgarfiya nutq nuqsonini logopedik korreksiyalash uchun turli kompleks ishlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

Logopedik mashg‘ulotlarda:

- Artikulyatsion mashqlar.
- Fonematik differentiatsiya.
- Individual yozuvni to‘g‘rilash darslariga alohida e’tibor beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida disgarfiya nutq nuqsonini baholash va monitoring qilib boorish mazmuni:

- Diagnostik yozuv ishlarini muntazam o‘tkazish.
- Xatolar dinamikasini kuzatib borish va individual rivojlanish xaritasini tuzish.

Boshlang‘ich sinflarda disgrafiyasi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda psixologik, lingvistik va pedagogik yondashuvlar uyg‘unlashtirilib, o‘quvchining yozuv malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish mumkin. Har bir texnologiya bolaning individualligini inobatga olgan holda qo‘llanilishi zarur.

Boshlang’ich sinflarda disgrafiya bo’lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakillantirishning ilmiy-nazariy aosolari uchun maslahatlar.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ayupova M. Logopediya: darslik/M.Y. Ayupova; O'zbekiston. Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. - 560 b.
2. https://www.readandspell.com/strategies-for-dysgraphia#
3. Садовникова, И.Н. Дисграфия, дислексия: технология

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. преодоления [Электронный ресурс] / И.Н. Садовникова. – М.: Парадигма,2012. – 280 с. – (Университетская библиотека онлайн). http://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=210584&sr=1 (датаобращения 23.10.2017)
5. Сиротюк, А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения/ А.Л. Сиротюк - М.: Сфера ТЦ, 2003. - 288с

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qaxxorova Saidaxon**, magistr [**Каххорова Саидахон**, магистр], [**Qaxxorova Saidaxon,** teacher]; manzil: 156 Usmon Nosir ko'chasi, Toshkent 100121, [адрес: 156 ул. Усмана Насира, Ташкент 100121], [address: 156 Usmon Nosir street, Tashkent 100121.]

✉**Mamarajabova Zulfiya**, professor, pedagogika fanlari doktori [**Мамаражабова Зулфия**, профессор, доктор педагогических наук], [**Mamarajabova Zulfiya** Professor, Doctor of Pedagogical Sciences]; manzil: 156 Usmon Nosir ko'chasi, Toshkent 100121, [адрес: 156 ул. Усмана Насира, Ташкент 100121], [address: 156 Usmon Nosir street, Tashkent 100121.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA FALSAFA FANINING O‘RNI VA AHAMIYATI

© J.A. Qurbonov[1]✉
[1]Qo‘qon Davlat universiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirish qismida falsafa fanining mazmuni, tarixiy shakllanishi va “donolikni sevish” sifatidagi ma’naviy mohiyati sharhlanadi. Ibn Sino, A. Kamyu va boshqa faylasuflar qarashlari asosida falsafaning mavjudot, inson hayoti va haqiqiylikni anglashdagi markaziy o‘rni ko‘rsatib beriladi. Zamonaviy sharoitda yosh avlodni yuksak intellektual madaniyat egasi sifatida tarbiyalashda falsafaning tarbiyaviy va dunyoqarashga oid funksiyalari alohida ta’kidlanadi.

**MAQSAD:** bo‘lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida falsafa fanidan oqilona foydalanishning pedagogik jihatlarini ochib berishdir. Shu orqali talabalarning intellektual salohiyati, dunyoqarashi va ijodiy fikrlashini yuksaltirish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda zamonaviy pedagogika va falsafa bo‘yicha ilmiy manbalar, intellekt, intellektual faoliyat va intellektual madaniyatga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. D.B. Bogoyavlenskaya, Ya.A. Ponomaryev, S.A. Kornilov, L.M. Mitina va E.Z. Usmonova asarlariga tayanilgan holda intellektual tashabbus, faollik, moslashuvchanlik va mustaqil tafakkurni shakllantirish mexanizmlari o‘rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar qo‘llanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** muhokamada intellektual madaniyatning mazmuni, tuzilishi va funktsiyalari, shuningdek uning bo‘lajak mutaxassis shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi o‘rni asoslab beriladi. Falsafa ta’limida induksiya, deduksiya, suqrotcha bahs, dialektik, germenevtik va analitik metodlardan foydalanish talabalar intellektual madaniyatini yuksaltiruvchi innovatsion vosita sifatida talqin qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun keng dunyoqarash, falsafiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik zarur shartlar sifatida ko‘rsatiladi. Falsafa o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlari – o‘quvchi qalbiga yo‘l topish, oliy ruhiy qadriyatlarga yo‘naltirish, o‘zini boshqara olish va sabr-toqatli bo‘lish – intellektual madaniyatni shakllantirish samaradorligini belgilashi ta’kidlanadi.

**XULOSA:** xulosada falsafa fani bo‘lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning asosiy nazariy va tarbiyaviy manbai ekani qayd etiladi. Falsafani samarali o‘qitish orqali talabalar mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma’naviy qadriyatlarga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tayanish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ongli munosabat bildirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Muallif falsafa o‘qituvchisining yuklamasi va mas’uliyatini qayta ko‘rib chiqish, dars va darsdan tashqari ilmiy-ijodiy faoliyat uchun yetarli sharoit yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, intellektual madaniyat, intellekt mexanizmi, intellektual kapital, bo‘lajak pedagog, falsafa ta’limi, innovatsion g‘oyalar, intellektual qobiliyatlar, intellektual madaniyat tuzilmasi, intellektual madaniyat funktsiyalari.

**Iqtibos uchun**: Qurbonov J.A. Bo‘lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirish jarayonida falsafa fanining o‘rni va ahamiyati.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.187-194.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФИИ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

© Ж.А. Курбонов[1]✉
[1]Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении анализируется сущность философии как любви к мудрости и области знания о человеке и мире. На основе идей Ибн Сины, А. Камю и других мыслителей показывается роль философии в осмыслении бытия, смысла жизни и принципов реальности. Отмечается, что в современных условиях воспитание молодёжи как носителей высокой интеллектуальной культуры невозможно без философского знания и ценностного ориентирования.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования состоит в раскрытии педагогических аспектов рационального использования философии в формировании и развитии интеллектуальной культуры студентов – будущих педагогов. Предполагается теоретически и практически обосновать пути повышения их интеллектуального потенциала, критического мышления и мировоззренческой зрелости.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материала рассматриваются труды по педагогике, психологии и философии, посвящённые интеллекту, интеллектуальной активности и интеллектуальной культуре. На основе работ Д.Б. Богоявленской, Я.А. Пономарёва, С.А. Корнилова, Л.М. Митиной и Е.З. Усмановой анализируются компоненты интеллектуальной деятельности, креативности и самостоятельного мышления. Методологическую основу составляют системный, личностно-ориентированный и деятельностный подходы.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** в обсуждении раскрывается содержание, структура и функции интеллектуальной культуры, а также её значение для профессионального и личностного развития будущего специалиста. Показано, что использование в философском образовании индуктивного и дедуктивного рассуждения, сократической беседы, диалектического, герменевтического и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

аналитического анализа способствует росту интеллектуальной культуры студентов. Особое внимание уделяется качествам преподавателя философии: умению видеть сильные и слабые стороны учащихся, направлять их к высшим духовным ценностям и поддерживать критическое мышление.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в заключении делается вывод, что философия является ключевым фактором формирования интеллектуальной культуры будущих педагогов. Эффективное преподавание философии создаёт условия для развития самостоятельного мышления, мировоззренческой устойчивости и духовно-нравственных ориентаций. Автор подчёркивает необходимость учёта повышенной нагрузки и ответственности преподавателя философии, а также расширения возможностей для его научно-творческой и воспитательной работы.

**Ключевые слова:** интеллект, интеллектуальная культура, механизм интеллекта, интеллектуальный капитал, будущие педагоги, философское образование, инновационные идеи, интеллектуальные способности, структура интеллектуальной культуры, функции интеллектуальной культуры.

**Для цитирования**: Курбонов.Ж.А. Роль и значение философии в процессе развития интеллектуальной культуры у будущих педагогов.// Inter education & global study.2025. vol.3 №11(1). С. 187-194.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PHILOSOPHY IN THE PROCESS OF DEVELOPING INTELLECTUAL CULTURE AMONG FUTURE EDUCATORS

©Jasurbek A. Qurbonov[1]✉
[1]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction examines philosophy as a love of wisdom and a field that reflects on human existence and the world. Drawing on the ideas of Ibn Sina, A. Camus and other thinkers, the author highlights philosophy's central function in understanding reality, meaning of life and fundamental principles of existence. It is argued that the education of youth as bearers of high intellectual culture is inseparable from philosophical knowledge and value-based orientation.

**AIM:** the aim of the study is to reveal the pedagogical aspects of the rational use of philosophy in the process of forming and developing intellectual culture in university students who are future teachers. The research seeks to theoretically and practically substantiate ways to enhance their intellectual potential, critical thinking and worldview maturity.

**MATERIALS AND METHODS:** the study relies on pedagogical, psychological and philosophical literature dealing with intellect, intellectual activity and intellectual culture. The concepts of D.B. Bogoyavlenskaya, Ya.A. Ponomarev, S.A. Kornilov, L.M. Mitina and E.Z. Usmonova are used to analyze the components of intellectual initiative,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

flexibility and independent thinking. Systemic, learner-centered and activity-based approaches form the methodological basis of the research.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the discussion clarifies the content, structure and functions of intellectual culture and its role in the personal and professional development of future specialists. It is shown that employing inductive and deductive reasoning, Socratic dialogue, dialectical, hermeneutic and analytical methods in teaching philosophy significantly enhances students' intellectual culture. Particular attention is given to the qualities of the philosophy teacher – the ability to recognize students' strengths and weaknesses, guide them towards higher spiritual values and foster critical reflection.

**CONCLUSION:** the study concludes that philosophy is a crucial factor in developing intellectual culture among future educators. Effective philosophy teaching promotes independent thinking, worldview stability and strong moral and spiritual orientations. The author stresses the need to recognize the increased workload and responsibility of philosophy teachers and to provide them with broader opportunities for scientific, creative and educational work.

**Keywords:** intellect, intellectual culture, mechanism of intellect, intellectual capital, future educators, philosophy education, innovative ideas, intellectual abilities, structure of intellectual culture, functions of intellectual culture.

**For citation**: Jasurbek.A. Qurbonov. (2025) 'The role and significance of philosophy in the process of developing intellectual culture among future educators', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 187-194. (In Uzbek).

**F**alsafa fani hayot haqidagi ta'lim otlarni rivojlantiruvchi soha, uning lug'aviy mahnosi «donolikni sevaman» deb talqin qilinadi. Fales, Epikur, Anaksimandr, Aristotel yashagan antik davrda ham, Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar yashagan o'rta asrlarda ham faylasuflar olam va odam to'g'risida turlicha falsafiy mushohadalar bildirilgan. Ulug' faylasuf olim Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, tartiboti, o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat[1, 76].

Frantsuz ekzistentsialist faylasufi A.Kamyu tahbiri bilan aytganda: "Hayot yashashga arzishi yoki arzimasligi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir"[2, 28]. Masalan, pragmatizm asosiy ehtiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa avvalo ayni shu muammo bilan shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda o'sib kelayotgan har bir yosh avlod vakilini yuksak intellektual madaniyat egasi sifatida tarbiyalashda falsafa fanining o'rni beqiyosdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zamonaviy pedagogika fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim oluvchilarni intellektual madaniyatiga oid

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

turli nazariy yondashuvlar, ilmiy kontseptsiyalar, yondashuvlarni, bahs-munozaralarni ilgari surmoqda. Bo‘lajak mutaxassis yuksak intellektual madaniyatga ega bo‘lishi uchun avvalo o‘z-o‘zini tarbiyalashi, ijtimoiy ko‘nikmalar mazmunini bilishi va ulardan samarali foydalanishi, ichki mahorati, qobiliyatini kamolga yetkazib borishini yuqori darajada tashkil etish zarur bo‘ladi. Ta’lim jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch va vositadir. Millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda ta’lim o‘z samasini bermoqda. Ta’lim ning kuchi va uning samaradorligi yuksak bilimga ega bo‘lish bilan izohlanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan ehtibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi”[3, 44]. Aynan buyuk bobolarimizning ilm-fan yo‘lida bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li biz uchun namuna bo‘lmog‘i lozim. Ilmiy faoliyatning madaniy jihatlarini bo‘lg‘usi mutaxaasislarda shakllantirishda esa ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan falsafa fanining ham ahamiyati beqiyosdir. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, falsafa fanini samarali o‘qitish orqali bo‘lajak mutaxassislarning yuksak intellektual madaniyatining shakllantirilishi uni oldida turgan murakkab iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning yechimini topishda va taraqqiyot davomida ma’naviy inqirozdan olib chiqishda hatto ilohiy ehtiqodini mustahkam bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Intellektual madaniyatning mazmuni, tuzilishi, shakllanish mexanizmlarini to‘liq anglamay turib talaba-yoshlar intellektual madaniyatining mohiyatini tushunib bo‘lmaydi. Su nuqtai nazardan talabalarda falsafa fani orqali intellektual madaniyatni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning psixologik-pedagogik va ijtimoiy-falsafiy tahlili muammo bo‘yicha yagona tasavvurning mavjud emasligini ko‘rsatdi. Ko‘pincha tadqiqotchilar muammo doirasida intellektual faoliyatning alohida tarkibiy qismlarini o‘rganish va tavsifi bilan cheklanishadi. Masalan D.B. Bogoyavlenskaya pedagogik jarayonda intellektual tashabbusni[4, 172], Ya.A.Ponomaryev – intellektual faollikni yoki “qidiruvchi dominantani”[5, 16], S.A.Kornilov – intellektual qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonini[6, 55-60] tadqiq qildilar. L.M. Mitinaning ilmiy izlanishlari esa intellektual moslashuvchanlikka[7, 144] bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Talabalarda intellektual madaniyatning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo‘l-yo‘riqlarini tadqiqotchi E.Z.Usmonova quyidagicha izohlaydi:

1) muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;
2) muammo javobini izlash va uni topish;
3) topilgan javobni subhektiv yangilikning ochilishi sifatida idrok etish;
4) erishilgan javobning to‘g‘riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish, tushuntirish[8, 36].

Bahzi tadqiqotchilar falsafa fanini o‘qitish jarayonida intellekt va shaxsni bir-biriga aloqadorlikda ko‘rib chiqsalar, boshqalari bunday aloqalarni tan olmaydilar. Muammo doirasida tizimli pedagogik yondashuvni zamonaviy tushunish asosida shaxs, faoliyat,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixika, tabiat va sotsium kabi “barcha ajratib olingan(izolyatsiyalangan) tizimlarning integratsiyasini” amalga oshirish va “ularning o‘zaro aloqasi hamda yaxlit integrativ tizimni keyingi rivojlanishini belgilovchi o‘zaro tahsir mahsulotlarini ifodalash” imkoniyati ham alohida ahamiyatga ega [9, 37-59].

Intellektual madaniyat bo‘lajak mutaxassisning rivojlanish darajasini ko‘rsatadi va aniq tashkil etilgan bilimlilik simbiozini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini ajrata olish layoqatini, shuningdek o‘qish va yangi bilimlarni egallash istagi, ularni baholash va tartibga solish, har qanday vazifaga ijodiy yondashish va aniq yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq ravishda vaziyatga ko‘ra harakat qilib, o‘z rejasini amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda bo‘lg‘usi mutaxassisning keng dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri, dunyoda kechayotgan jarayonlarning asl mohiyatini teran anglay olishi muhim ahamiyatga ega. Tabiiyki, bular falsafa fanini samarali o‘qitish orqali shakllantiriladigan ko‘nikma va malakalar hisoblanadi. Mazkur maqolada talabalarda intellektual madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida falsafa fanidan oqilona foydalanishning pedagogik jihatlari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Intellektual kamolot va ta’lim-tarbiya tizimi o‘zaro dialektik aloqadorlikdadir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishda falsafa fani asosida dialektik tafakkurni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda quyidagilarga ehtibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Falsafa ta’lim idagi induktsiya, deduktsiya, suqrotcha baxs, dialektik, sinergetik, germenevtik, analitik tahlil metodlari bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullari bo‘lib, ular tafakkur qilishning eng umumiy qoidalarini, bosh strategiyasini belgilaydi. Bugungi kunda bo‘lajak kadrlar intellektual madaniyatini innovatsion usulda falsafa ta’limi asosida yuksaltirish dolzarb lekin, ko‘r-ko‘rona, dogmatik ravishda emas, ongli tanqidiy tafakkur asosida bo‘lishi kerak.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini bazaviy fanlardan bilimlilik darajasi, mantiqiy fikrlashi va ilmiy-falsafiy bilimliligi, ilmiy-badiiy va falsafiy asarlar va adabiyotlarni ta’lim jarayonida va mustaqil ta’lim da o‘rganish, tanqidiy tafakkurini namoyon qilish xolati bo‘yicha mavjud holat va falsafa ta’lim i texnologiyalari asosida olib borilgan mashg‘ulotlardan keyingi natijalar aniqlash va solishtiruv-tahlil ishlarini doimiy olib borish lozim.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning innovatsion texnologiyasiga doir xorij va milliy tajribalarni o‘rganish va ularni ommalashtirish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlanishiga tahsir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni inobatga olgan holdamilliy metodika va muayyan shart-sharoitlar muhitini yaratish lozim.

Bu kabi vazifalarni bajarishda esa falsafa ta’lim i o‘qituvchisi quyidagi sifatlarga ega bo‘lmog‘i lozim:

• o‘qituvchi o‘zining har bitta shogirdida yaxshi va yomon tomonlarni, yutuq va kamchiliklarni ko‘ra oladigan, ularga ishona oladigan, ular davrasiga ko‘tarinki ruh kirita

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oladigan, o‘z o‘quvchilari qalbini rom eta oladigan bo‘lishi zarur. falsafiy materialni bayon etishning boshqa shakllarida esa muallif o‘z muxlislari bilan bunday bevosita aloqadorlik, shogird qalbiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish imkoniyatiga ega emas;

• o‘qituvchining vazifasi o‘z o‘quvchilariga bilim berishdangina iborat emas, balki va, asosan, ularning endigina shakllanayotgan ongini eng oliy ruhiy qadriyatlarga-muhabbat, adolat, haq (haqiqat), go‘zallik kabilarga yo‘naltirishdan iboratdir. uning ana shu jihati bugungi kunda ayniqsa dolzarb. zero, falsafani faqat fan deb qarab kelingan vaqtlarda ustozning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanib qolgani tufayli bir qator yosh avlod teran ruhiy qadriyatlardan bahra olish imkoniyatidan uzoq vaqtlar mahrum bo‘lib kelgan edi. kishi ongini eng oliy ruxiy qadriyatlarga yo‘naltirish esa o‘qituvchi bilan shogird orasida ikkiyoqlama jonli muloqot bor bo‘lgan chog‘dagina mumkin bo‘ladi;

• Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalayotgan ustoz avvalo o‘z shaxsiy menini hudbinlikdan ajratib olmog‘i, o‘zining har bir hatti-xarakatini boshqara oladigan bo‘lishi kerak. shuningdek, unda asosiy hayotiy masalalarga nisbatan ochiq-oydin, aniq qarashlar shakllangan bo‘lishi, boshqalarni tushunish istagi va qobiliyati rivojlanishi va bu yo‘lda katta sabru toqat hislatlarini kasb etishi ham kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi muloxazalardan kelib chiqib, falsafa o‘qituvchisining zimmasidagi ish boshqa maxsus fan o‘qituvchilariga nisbatan birnecha barobar ko‘p desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra avvalgi davrlarda falsafa o‘qituvchilarining ish yuklamalari maxsus fanlar o‘qituvchilari yuklamalaridan ikki barobar kam, o‘qituvchilar soni esa bir necha barobar ko‘p bo‘lgani, bir hisobda, bejiz bo‘lmagan, ilmiy-ijodiy, tashkiliy-tarbiyaviy, siyosiy-mafkuraviy va shu kabi darsdan tashqari ishlar uchun esa ko‘proq vaqt ajratilgani bejiz emas.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo’ladi. - Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2019. – B. 400.
2. Abu Ali ibn Sina. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980. - С. 554
3. Камю А. // Всемирная энциклопедия. Философия. – М.: “Современные тетради”, 2001. – С.344.
4. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества / Д.Б. Богоявленская. Ростов-на-Дону: Изд. Рост. ун-та, 2006. 176 с.
5. Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие / Я.А.Пономарев. М.: Просвещение, 1967. 264 с.
6. Корнилов С.А. Современные средства диагностики интеллектуального потенциала: кросс-культурная адаптация зарубежных методических комплексов / С.А. Корнилов // Вестник Московского университета. Серия 14: Психология. 2009. № 4. С. 55-66.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

7. Митина Л.М. Интеллектуальная гибкость учителя: психологическое содержание, диагностика, коррекция: учеб. пос. / Л.М.Митина, Н.С.Ефимова. М.: Флинта, 2003. 144 с.
8. Usmonova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? - T.: “Pedagogika va psixologiya” ilmiy-ommabop nashri, 2000. - B. 36.
9. Межуев В.М. Культура как деятельность: из истории отечественной культурологии // Личность. Культура. Общество. 2006. Т. 8. Вып. 1 (29). С. 37-59.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich**, pedagogika fanlari doktori (DSc) [**Курбонов Жасурбек Акмалжонович**, доктор педагогических наук (DSc)], [**Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich** Doctor of Pedagogical Sciences (DSC)]; manzil: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23- uy, [адрес: Ферганская область, г. Коканд, ул. Турана, д. 23], [address: Fergana region, Kokand, Turana str., 23.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

Original paper

# NOFILOLOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KASBGA YO‘NALTIRILGAN CHET TILINI O‘QITISHDA TERMINLARNING AHAMIYATI

© S.I. Quziyev[1]✉
[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini kasbga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish talabalarning kelajak kasbiy faoliyatida tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda chet tili umumiy kommunikativ maqsad bilan cheklanmay, tibbiyot, biznes, ilm-fan va boshqa sohalarda kasbiy muloqot vositasi sifatida talqin etiladi. Terminologik birliklarning tizimli qo‘llanilishi talabalarda kasbiy mazmundagi vaziyatlarni adekvat tasavvur qilish va mulohaza yuritish uchun asos yaratadi.

**MAQSAD:** nofilologik oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish jarayonida terminlarning funksional ahamiyatini aniqlash va ularni qo‘llashga asoslangan metodik yondashuvni asoslab berishdir. Shuningdek, kasbiy terminologiya orqali talabalarda professional fikrlash, muloqot va tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsad qilingan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda pedagogik va ilmiy-metodik manbalar tahlili, kasbga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar (Galskova, Rybkina, Vygotskiy va boshqalar) qarashlari qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun maxsus matnlar, terminologik lug‘atlar va nutq faoliyati turlarini integratsiyalashga doir nazariy modellardan foydalanildi. Tahlil asosida kasbiy yo‘naltirilgan chet tili darslari mazmunini tanlash va tashkil etish uchun konseptual yondashuv ishlab chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari chet tilini kasbga yo‘naltirilgan o‘qitishda terminlarning markaziy komponent sifatida nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirilishi zarurligini ko‘rsatdi. Maxsus matnlar asosida ishlash, kasbiy lug‘atni bosqichma-bosqich kengaytirish, monologik va dialogik nutqni terminologik birliklar bilan boyitish talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishi asoslab berildi. Shuningdek, til vositasida kasbiy va ijtimoiy-madaniy bilimlarni integratsiyalash talabaning kasbiy tafakkuri va o‘z mutaxassislik sohasidagi muloqotga tayyorgarligini kuchaytirishi ta’kidlandi.

**XULOSA:** xulosaga ko‘ra, nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini kasbga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish terminologiyaning mazmuniy va metodik ahamiyatini chuqur hisobga olishni talab etadi. Terminlar bilan maqsadli ishlash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

talabalarning kasbiy fikrlashini, kasbiy muloqotda til vositalarini ongli va samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabaning nutqiy kompetensiyasini, kasbiy salohiyatini va umumiy madaniy saviyasini kompleks ravishda oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** kasbga yo‘naltirilgan chet tili, terminologiya, nofilologik oliy ta’lim, kasbiy fikrlash, kasbiy kommunikativ kompetensiya, maxsus matnlar, nutq faoliyati turlari.

**Iqtibos uchun**: Quziyev S.I. Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitishda terminlarning ahamiyati.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.195-203.

## ЗНАЧЕНИЕ ТЕРМИНОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОМ ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

© С.И. Кузиев[1]✉
[1] Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** профессионально-ориентированный подход к обучению иностранному языку в нефилологических высших учебных заведениях направлен на расширение возможностей практического использования языка в будущей профессиональной деятельности. Иностранный язык при этом рассматривается не только как средство общего общения, но и как инструмент профессиональной коммуникации в медицине, бизнесе, науке и других сферах. Системное использование терминов позволяет студентам адекватно осмыслить профессиональные ситуации и выстраивать высказывания в рамках специализированного дискурса.

**ЦЕЛЬ:** выявить функциональное значение терминов в процессе профессионально-ориентированного обучения иностранному языку в нефилологических вузах и теоретически обосновать методический подход к их использованию. Кроме того, ставится задача показать потенциал профессиональной терминологии в развитии у студентов профессионального мышления, коммуникативных и переводческих навыков.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использованы методы анализа педагогической и научно-методической литературы, сопоставительного изучения взглядов отечественных и зарубежных ученых (Гальскова, Рыбкина, Выготский и др.) по проблеме профессионально-ориентированного обучения иностранному языку. Были рассмотрены теоретические модели интеграции специальных текстов, терминологических словарей и различных видов речевой деятельности в курс иностранного языка для нефилологических специальностей. На основе анализа

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

разработан концептуальный подход к отбору и организации содержания профессионально-ориентированных занятий.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что в профессионально-ориентированном обучении иностранному языку термины выступают ключевым компонентом, тесно связанным с развитием всех видов речевой деятельности. Работа со специальными текстами, поэтапное расширение профессионального словаря, использование терминов в монологической и диалогической речи существенно повышают уровень профессиональной коммуникативной компетентности студентов. Отмечено, что интеграция языковых средств с профессиональными и социокультурными знаниями усиливает готовность обучающихся к общению в профессиональной среде и способствует формированию целостного профессионального мышления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что профессионально-ориентированное обучение иностранному языку в нефилологических вузах требует учета содержательной и методической значимости терминологии. Целенаправленная работа с терминами способствует развитию профессионального мышления, формированию у студентов умений осознанно и эффективно использовать языковые средства в профессиональной коммуникации и повышает их конкурентоспособность на глобальном рынке труда. Организованный таким образом учебный процесс комплексно развивает речевую компетенцию, профессиональный потенциал и общий культурный уровень будущего специалиста.

**Ключевые слова:** профессионально-ориентированное обучение, терминология, нефилологические вузы, профессиональное мышление, профессиональная коммуникативная компетентность, специальные тексты, виды речевой деятельности.

**Для цитирования**: Кузиев.С.И. Значение терминов в профессионально-ориентированном преподавании иностранного языка в нефилологических высших учебных заведениях.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 195-203.

## THE MEANING OF TERMS IN PROFESSIONALLY ORIENTED TEACHING OF A FOREIGN LANGUAGE IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

©Sarvarbek I. Quziyev[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** a profession-oriented approach to foreign language teaching in non-philological universities aims to expand students' opportunities for practical language

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

use in their future professional activity. In this context, the foreign language is regarded not only as a medium of general communication but also as an instrument of professional interaction in medicine, business, science and other fields. Systematic use of terminology enables students to conceptualise professional situations and construct statements within specialised discourse.

**AIM:** the main aim of the study is to identify the functional significance of terminology in profession-oriented foreign language teaching in non-philological higher education and to theoretically substantiate a methodological approach to its use. The study also seeks to demonstrate the potential of professional terminology in developing students' professional thinking as well as their communicative and translation skills.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on the analysis of pedagogical and methodological literature and on a comparative review of national and international scholars' views (Galskova, Rybkina, Vygotsky, etc.) on profession-oriented foreign language teaching. Theoretical models of integrating special texts, terminological resources and different types of speech activity into foreign language courses for non-philological majors were examined. On this basis, a conceptual approach was developed for selecting and organising the content of profession-oriented foreign language classes.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate that in profession-oriented foreign language teaching terminology constitutes a key component that is closely linked to the development of all types of speech activity. Working with special texts, gradually expanding professional vocabulary and embedding terms in monologic and dialogic speech significantly enhances students' professional communicative competence. It was also revealed that integrating linguistic means with professional and sociocultural knowledge strengthens students' readiness for communication in professional contexts and contributes to the formation of a coherent professional mindset.

**CONCLUSION:** the study concludes that profession-oriented foreign language teaching in non-philological higher education requires careful consideration of the semantic and methodological importance of terminology. Targeted work with terms promotes the development of professional thinking, fosters students' ability to use language consciously and effectively in professional communication, and increases their competitiveness in the global labour market. In this way, the learning process simultaneously develops learners' speech competence, professional potential and overall cultural level.

**Keywords:** profession-oriented foreign language teaching, terminology, non-philological higher education, professional thinking, professional communicative competence, special texts, types of speech activity.

**For citation**: Sarvarbek.I. Quziyev. (2025) 'The meaning of terms in professionally oriented teaching of a foreign language in non-philological higher educational institutions', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 195-203. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

**N**ofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishga kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv, talabalarning kasbiy fikrlash xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyan kasbiy, tibbiyot, biznes, ilmiy sohalarda va vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Kasbiy yo‘naltirilganlik deganda o‘rganuvchilarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, kelajakdagi kasb yoki kasbning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘rganish tushuniladi. Bu kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘zlashtirishni o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatini bilish, kasbiy va lingvistik bilimlarga asoslangan maxsus ko‘nikmalarni egallash bilan uyg‘unlashtirishni taklif qiladi.

Hozirda ta’lim sohasini jahon standartiga mos ravishda tashkil etish uchun olib borilayotgan islohotlarda chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Pedagogik, ilmiy-metodik manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, oliy o‘quv yurtlarining nolingvistik fakultetlarida chet tilini o‘qitishning cheksiz ko‘p uslubiy yo‘nalishlari va texnologiyalari mavjud. Hozirgi vaqtda nafaqat chet tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini egallash, balki mutaxassislik bo‘yicha maxsus bilimlarni olish ham asosiy vazifalardan biridir. Chet tilini bo‘lajak mutaxassisning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib, Galskova “kasbiy yo‘naltirilgan til materialini o‘rganishda talabaning maxsus bilimlarga ega bo‘lish istagi va tilni o‘zlashtirish muvaffaqiyati o‘rtasida ikki tomonlama bog‘liqlik o‘rnatilishini” ta’kidlaydi.

U chet tilini nolingvistik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvni kasbiy va ijtimoiy yo‘naltirishning samarali vositasi deb biladi. Muallifning fikriga ko‘ra, ushbu salohiyatni amalga oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- chet tilidagi nutq faoliyatining maqsadlarini aniq shakllantirish;

– ushbu faoliyatning ijtimoiy va kasbiy yo‘nalishi;

– tinglovchilarning muayyan muammolarni hal qilishdan qoniqishi;

– talabalarda muayyan muammolarni hal qilishda ijodiy bo‘lish qobiliyatini shakllantirish;

– o‘quv jamoasida qulay psixologik muhit.

Chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish nazariyasini rivojlantirishga olimlar tomonidan katta hissa qo‘shildi, ular nolingvistik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishda o‘quv materialining kasbiy yo‘nalishi tamoyili asosida tanlashni belgiladilar. Shu bilan birga ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatyaptiki, chet tilini o‘rganish shunchaki o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lib qolmasligi, balki o‘z mutaxassisligi doirasida bilim-ko‘nikmalarni egallash, bilim darajasini oshirish maqsadiga erishish vositasi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar. Mutaxassisliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ular nuqtai nazaridan, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- maxsus matnlar ustida ishlash;
- og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun maxsus mavzularni o‘rganish;
- tegishli mutaxassislik bo‘yicha minimal lug‘atni o‘rganish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

- o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar yaratish;
- talabalarning grammatik va leksik materialini faollashtirish.

«Xorijiy til» fani bir qator xususiyatlarga ega. Fanning o‘ziga xosligi chet tilini o‘zlashtirish yo‘lining yo‘nalishi bilan belgilanadi. L.S.Vygotskiy ta’kidlaganidek, “chet tilini o‘zlashtirish ona tilining rivojlanishiga teskari yo‘l bilan boradi. Bola ona tilini ongsiz va beixtiyor, chet tilini esa ongli va maqsad bilan o‘rganadi. Shunday ekan, ona tilini rivojlantirish pastdan yuqoriga, chet tilini rivojlantirish esa yuqoridan pastga qarab boradi, deyishimiz mumkin.”

Chet tilining o‘quv predmeti sifatidagi ikkinchi xususiyati shundaki, til o‘rganishning ham vositasi, ham maqsadi hisoblanadi. Talaba eng oson til vositalarini o‘zlashtiradi, ma’lum bir nuqtaga qadar o‘rganish maqsadi bo‘lgan nutq faoliyatining har xil turlarini egallaydi, so‘ngra ular undan murakkabroq lingvistik harakatlarni o‘zlashtirish uchun foydalanadi, ya’ni chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘rganish vositasidir. Aytish mumkinki, til hodisalarining eng muhim jihatlari bu ularning boshlang‘ich asosini tashkil etuvchi chet tilini o‘rganishning asosiy ob'ekti bo‘lgan nutq faoliyatidir. Shu o‘rinda G.V.Kolshanskiyning fikriga ko‘ra, “tilning aloqa vositasi sifatida u tilning qay darajada o‘zlashtirilganligidan qat’i nazar, tilning alohida elementlarini, ya’ni alohida so‘zlar, alohida gaplar, alohida tovushlarni bilishni o‘zlashtirish tushunchasiga bog‘lab bo‘lmaydi. Ta’lim maqsadlarida, tilni o‘qitishning har xil turlari va shakllaridan qat’i nazar - kurslardan ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtigacha, umumta’lim maktablaridan tortib bir qator fanlar chet tilida o‘qitiladigan maktablargacha - har doim tilni bilish darajasi haqiqiy muloqotda ishtirok etish qobiliyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak

. Nolingvistik universitetlarda chet tillarini o‘qitishdan maqsad kelajakdagi kasbiy faoliyatda chet tilidan amaliy foydalanish uchun etarli darajaga erishishdir. Agar xorijiy til yo‘nalishlarida chet tili maxsus asosiy fan bo‘lsa, boshqa nofilologik universitetlarda u umumiy madaniyatga qo‘llaniladi, shuning uchun nofilologik universitetlarda yakuniy maqsadni shakllantirish spetsifikatsiyani talab qiladi. Chet tilini amaliy o‘zlashtirish fanni kasbiy yo‘naltirilgan o‘rganishning faqat bir tomonidir.

A.A.Rybkinaning fikricha, chet tili nafaqat assimilyatsiya ob’ekti, balki kasbiy mahoratni rivojlantirish vositasiga ham aylanishi mumkin. Bu chet tilini o‘qitish uchun "kasbiy yo‘naltirish" tushunchasini kengaytirishni nazarda tutadi, bu bir komponentni - o‘quv materiali mazmunini kasbiy yo‘naltirilganligini o‘z ichiga oladi. Kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim nafaqat o‘quv materiallarining mazmunini, balki kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradigan bilimlar va operatsiyalarni o‘z ichiga olgan faoliyatning kasbiy yo‘nalishini ham ta’minlaydi. Faoliyatning kasbiy yo‘nalishi, birinchi navbatda, "xorijiy til" fanini profillash fanlari bilan birlashtirishni talab qiladi; ikkinchidan, u chet tili taqdimotchisi oldiga fanlararo aloqalar asosida chet tilidan uning kasbiy bilimini tizimli ravishda to‘ldirish vositasi, shuningdek, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanishga o‘rgatish vazifasini qo‘yadi. ; uchinchidan, bo‘lajak mutaxassisning zarur kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni ta’minlay oladigan o‘qitish shakllari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, VOL.3

va usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Nolingvistik oliy o‘quv yurtlarida chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘rganish mazmun tanlashda yangicha yondashuvni talab qiladi. U inson faoliyatining u yoki bu sohasidagi so‘nggi yutuqlarga qaratilishi, pedagoglarning kasbiy manfaatlariga bevosita daxldor bo‘lgan sohalardagi ilmiy yutuqlarni o‘z vaqtida aks ettirishi va ularning kasbiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Galskova chet tilini o‘qitish mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerakligini ta’kidladi: - muloqot sohalari, mavzular va vaziyatlar, nutq harakatlari va talabalarning kasbiy yo‘nalishini hisobga oladigan nutq materiali - til materiali (fonetik, leksik, grammatik, imlo), o‘rganish qoidalari. uning dizayni va ko‘nikmalari - chet tilini muloqot vositasi sifatida, shu jumladan madaniyatlararo vaziyatlarda amaliy o‘zlashtirish darajasini tavsiflovchi maxsus (nutq) ko‘nikmalar majmui, - bilimlar tizimi va uning mamlakatning milliy-madaniy xususiyatlari; maqsadli tilning haqiqatlari. Ushbu yondashuvning afzalliklarini inobatga olgan holda, undan nolingvistik universitetlar talabalari uchun xorijiy tillarni kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish modelini ishlab chiqishda, xususan, uning mazmuni komponentini ko‘rib chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kasb-hunarga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish modelining tarkibiy tarkibiy qismlarini quyidagi tarkibiy elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Umumiy va kasbiy lug‘at asosida nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) bo‘yicha kommunikativ ko‘nikmalar. Dialogik nutqni kasbiy yo‘naltirilgan o‘rganishning yakuniy maqsadi suhbatni o‘tkazish, ma’lum bir mavzu bo‘yicha maqsadli ravishda professional ma’lumot almashish qobiliyatini rivojlantirishdir. Monologik nutqni o‘rgatish monologik matnlarning turli janrlarini yaratish qobiliyatini shakllantirishdan iborat: professional ma’lumotni muloqot qilish, ma’ruza bilan taqdim etish, muhokama paytida kengaytirilgan bayonotlar, dastlabki tayyorgarlik bilan ham, unsiz ham muhokamalar. Kasbiy-yo‘naltirishning maqsadi - bu tinglash treningi, suhbatdoshning ma’lum bir haqiqiy kasbiy sohaga muvofiq monolog shaklida yoki dialog jarayonida hosil bo‘lgan chet tilida nutqini idrok etish va tushunish qobiliyatini shakllantirishdir.

-O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish.

Bugungi raqamli jamiyatda o'qituvchining roli o'zgarib bormoqda. Endi u faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qituvchilarni zamonaviy yondashuvlarga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2.O‘qituvchilar malakasini oshirishdagi muammolar va yangicha yondashuvlar. O‘zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda o‘qituvchilar malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ammo amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud:

-An’anaviy metodlarning ustunligi.

-Raqamli kompetensiyaning yetishmasligi.

-Motivatsiya masalasi.

-Amaliy mashg‘ulotlarning yetishmasligi.

Shu sababli o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimiga innovatsion, interfaol, haxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni tatbiq etish zarur.

Yangi yondashuvlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Onlayn va masofaviy o‘qitish tizimini kengaytirish;
- Mentorlik (ustoz-shogird) tizimini rivojlantirish;
- Kasbiy portfel va o‘z-o‘zini tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish;
- Raqamli o‘quv platformalaridan (LMS, Moodle, Coursera, ZiyoNET) foydalanish;
- Peer-to-peer learning-o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

3.Innovatsion pedagogik mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo‘llari Innovatsion pedagogik mexanizmlar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular ta’lim jarayoniga yangicha texnologiya, metod va vositalarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Asosiy innovatsion mexanizmlar: raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish; kreativ pedagogika; kompetensiyaviy yondashuv; reflektiv ta’lim tizimi; integrativ yondashuv. Takomillashtirish yo‘llari: o‘qituvchilar uchun doimiy onlayn treninglar va vebinarlar tashkil etish; ta’lim muassasalarida “innovatsion markazlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- har bir o‘qituvchining kasbiy rivojlanish rejasini individual tarzda ishlab chiqish; chet el tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish; malaka oshirish dasturlarini natijadorlikka yo‘naltirish. Bu mexanizmlar o‘qituvchining faqat kasbiy bilimlarini emas, balki shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantiradi: yangilikka ochiqlik, kreativ fikrlash, mas’uliyat, o‘z ustida ishlash odati kabi fazilatlar shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy roli va vazifalari. Boshlang‘ich sinf‘qituvchisi-o‘quvchi shaxsining shakllanishi va tarbiyasi uchun mas’ul shaxsdir. U nafaqat o‘quv dasturini o‘rgatadi, balki bolalarning tafakkurini, nutqini, axloqiy fazilatlarini, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagi sifatlarni egallagan bo‘lishi zarur:

-pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lish;

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish;

-interfaol o‘qitish metodlarini qo‘llay olish;

-milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy tafakkurli shaxs bo‘lish.

Malaka oshirish jarayonining pedagogik asoslari O‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi quyidagi pedagogik tamoyillarga tayanadi:

Uzluksizlik va tizimlilik-o‘qituvchi faoliyati davomida o‘z bilim va ko‘nikmalarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muntazam yangilab borishi zarur.

Individuallashtirish-har bir o‘qituvchining ehtiyoji va tajribasidan kelib chiqib, o‘qitish mazmuni shakllantiriladi.

Innovatsionlik-ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta’lim va interaktiv metodlar qo‘llanadi.

Amaliy yo‘naltirilganlik-o‘qituvchilar o‘z faoliyatida olingan nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda qo‘llaydilar.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan malaka oshirish jarayoni o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi va ta’lim sifatini oshiradi.

Zamonaviy malaka oshirish shakllari va yo‘nalishlari.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayoni turli shakllarda amalga oshirilmoqda: an’anaviy kurslar-institut va markazlarda o‘tkaziladigan qisqa muddatli o‘quv kurslari; masofaviy ta’lim-internet orqali vebinarlar, onlayn darslar va virtual treninglar; tajriba almashish seminarlari-ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini ommalashtirish maqsadida; mentorlik tizimi-tajribali o‘qituvchi tomonidan yosh pedagogga amaliy yordam ko‘rsatish; pedagogik innovatsiyalar laboratoriyalari-zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va tajribada sinab ko‘rish.

Bunday shakllar o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash madaniyatini, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantiradi. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchilar malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishini ta’minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion pedagogik mexanizmlarni tatbiq etish orqali ta’lim sifati oshadi, o‘qituvchilarning raqobatbardoshligi kuchayadi, o‘quvchilarda esa zamonaviy bilim va ko‘nikmalar shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun malaka oshirish jarayonini uzluksiz tarzda tashkil etish va uni innovatsion pedagogik mexanizmlar asosida takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, mentorlik va refleksiv yondashuvlardan foydalanish orqali o‘qituvchilarning kasbiy rivoji ta’minlanadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim sifati va motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. -Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.-2022.
3. Hasanboeva O., To‘xtasinova Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.-Toshkent: Fan, 2021.
4. Karimova V.M. Innovatsion pedagogika asoslari.-Toshkent, 2023.
5. UNESCO. Lifelong Learning: Key to the 21st Century.-Paris, 2021

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**Saidova Dilnoza Maripovna**, dotsent [**Саидова Дилноза Мариповна**,доцент], [**Saidova Dilnoza Maripovna** associate professor]; manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, K. Behzod ko‘chasi, 2-uy, 150100., [адрес: Республика Узбекистан, Ферганская область, г. Фергана, к. Улица Бехзод, Дом 2, 150100.], [address: Republic of Uzbekistan, Ferghana region, Ferghana, K. Behzod Street, House 2, 150100.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ILMIY DUNYOQARASH TUSHUNCHASINING FALSAFIY-PEDAGOGIK GENEZISI VA ZAMONAVIY TALQINLARI

© F.A . Satvoldiyev[1]✉

[1] Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ilmiy dunyoqarash falsafa va pedagogika chorrahasida joylashgan bo‘lib, jamiyatning globallashuvi va axborotlashuvi sharoitida ta’limning strategik maqsadlaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda ilmiy dunyoqarashni oddiy dunyoqarashdan farqlash va uning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini aniqlash zarurligi asoslanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy-pedagogik genezisini qisqacha tizimlashtirish, uning asosiy komponentlarini aniqlash va zamonaviy ta’limda uni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda falsafiy va pedagogik manbalar tarixiy-genetik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida o‘rganildi. Komenskiy, Dyuи, Piaje, Vigotskiy va fan falsafasi vakillari g‘oyalari kontent-tahlil orqali umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijasida ilmiy dunyoqarash epistemologik, metodologik, tanqidiy, aksiologik va motivatsion komponentlardan iborat ko‘p qirrali tizim ekanligi ko‘rsatildi. Zamonaviy ta’limda muammoli, tadqiqotga asoslangan va argumentatsiya markazli o‘qitish yondashuvlari ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samarali omillar sifatida asoslandi.

**XULOSA:** ilmiy dunyoqarash shaxsning ma’naviy-intellektual rivojlanishini belgilovchi yetakchi omil bo‘lib, uni shakllantirish an’anaviy bilim uzatishdan faol, konstruktivistik yondashuvlarga o‘tishni talab etadi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi pedagogik modellarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy dunyoqarash, falsafiy genezis, pedagogik nazariya, epistemologiya, ontologiya, ta’lim metodologiyasi.

**Iqtibos uchun**: Satvoldiyev F.A. Ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy-pedagogik genezisi va zamonaviy talqinlari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.224-232.

## ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ГЕНЕЗИС И СОВРЕМЕННЫЕ ТРАКТОВКИ ПОНЯТИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

© Ф.А. Сатволдиев[1]✉

[1]Центр педагогического мастерства Наманганской области, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** научное мировоззрение рассматривается как ключевая цель образования в условиях глобализации и информационных трансформаций. Подчеркивается необходимость разграничения научного и обыденного мировоззрения и осмысления его роли в развитии личности.

**ЦЕЛЬ:** систематизировать философско-педагогический генезис понятия научного мировоззрения, выделить его основные структурные компоненты и обозначить ведущие направления его формирования в современном образовании.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы историко-генетический, сравнительный и системный анализ философских и педагогических источников. Идеи Комениуса, Дьюи, Пиаже, Выготского и представителей философии науки обобщены с помощью контент-анализа.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что научное мировоззрение представляет собой многокомпонентную систему, включающую эпистемологический, методологический, критический, аксиологический и мотивационный уровни. Показано, что проблемное обучение, исследовательский и аргументативный подходы являются эффективными механизмами формирования научного мировоззрения.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: сделан вывод о научном мировоззрении как ведущем факторе духовно-интеллектуального становления личности, требующем перехода от традиционной трансляции знаний к активным, конструктивистским стратегиям обучения. Отмечается актуальность разработки моделей формирования научного мировоззрения в цифровой образовательной среде.

**Ключевые слова:** научное мировоззрение, философский генезис, педагогическая теория, эпистемология, онтология, педагогическая методология.

**Для цитирования**: Сатволдиев. Ф.А. Философско-педагогический Генезис и современные трактовки понятия научного мировоззрения.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 224-232.

## PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL GENESIS AND MODERN INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SCIENTIFIC WORLDVIEW

©Faxriddin A. Satvoldiyev[1]✉
[1]The Center of Pedagogical Excellence of Namangan region, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** scientific worldview is presented as a central educational goal under conditions of globalization and rapid information change. The need to distinguish it from everyday views and to clarify its role in personal development is emphasized.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the aim of the study is to systematize the philosophical-pedagogical genesis of the concept of scientific worldview, to highlight its main structural components, and to specify leading directions for its formation in modern education.

**MATERIALS AND METHODS:** the research employs historical-genetic, comparative and systemic analysis of philosophical and pedagogical sources. The ideas of Comenius, Dewey, Piaget, Vygotsky and key figures in the philosophy of science are generalized through content analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that scientific worldview is a multi-component system including epistemological, methodological, critical, axiological and motivational dimensions. Problem-based learning, inquiry-based learning and argumentation-centered teaching are identified as effective mechanisms for developing a scientific worldview.

**CONCLUSION:** scientific worldview is concluded to be a major factor in spiritual and intellectual development, requiring a shift from traditional knowledge transmission to active, constructivist learning strategies. The article underlines the relevance of designing models for cultivating scientific worldview in digital learning environments.

**Keywords:** scientific worldview, philosophical genesis, pedagogical theory, epistemology, ontology, educational methodology.

**For citation**: Faxriddin A. Satvoldiyev. (2025) 'Philosophical and pedagogical Genesis and modern interpretations of the concept of scientific worldview', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 224-232. (In Uzbek).

Ilmiy dunyoqarash muammosi falsafa va pedagogika fanlarining tutashgan nuqtasida joylashgan bo'lib, inson bilishining eng fundamental masalalaridan birini o'zida mujassamlashtiradi. Tarixan dunyoqarash tushunchasi falsafiy mushohada predmeti sifatida antik davrdan boshlab shakllanib, keyinchalik pedagogik jarayonning muhim komponenti sifatida tan olingan. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning borliqni anglash tarzini shakllantirish, ularni ilmiy tafakkur uslubiga o'rgatish vazifasi turadi. Aynan shu nuqtai nazardan ilmiy dunyoqarash tushunchasining genezisini o'rganish, uning falsafiy asoslarini aniqlash va zamonaviy pedagogik talqinlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash insonning borliqqa, o'z o'rniga va hayot mazmuniga bo'lgan munosabatlarining yaxlit tizimi sifatida ta'riflanadi. Biroq bu umumiy ta'rif ortida murakkab falsafiy va psixologik mexanizmlar yotadi. Ilmiy dunyoqarash esa oddiy dunyoqarashdan farqli o'laroq, bilishning empirik va ratsional usullariga tayanadi, mantiqiy izchillik va tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Shu boisdan ilmiy dunyoqarashni shakllantirish pedagogik jarayonning eng murakkab va mas'uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida faoliyat yuritmoqda. Bu omillar ilmiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

dunyoqarash shakllantirishning an’anaviy usullarini qayta ko‘rib chiqishni, yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayni paytda, postmodern falsafaning nisbiylik g’oyalari, psevdoilmiy qarashlarning keng tarqalishi va media savodxonlik muammolari ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yangi qiyinchiliklar qo‘shmoqda. Ushbu tadqiqot aynan mana shu kontekstda ilmiy dunyoqarash tushunchasining mohiyatini chuqur anglash, uning falsafiy-pedagogik asoslarini tizimlashtirish va zamonaviy ta’lim amaliyotiga yo‘naltirilgan xulosalar chiqarish maqsadini ko‘zlaydi.[1]

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy dunyoqarash muammosining falsafiy asoslari G’arb falsafasining klassik asarlarida o‘z ifodasini topgan. Immanuel Kantning transsendental falsafasi bilish jarayonining tuzilmasini tahlil qilib, ilmiy bilimning imkoniyat shartlarini aniqlashga harakat qilgan. Kant tafakkurning aprior shakllari va empirik tajriba o‘rtasidagi dialektik munosabatni ochib bergani ilmiy dunyoqarashning epistemologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Georg Vilgelm Fridrix Gegelning dialektik usuli esa dunyoqarashni dinamik, rivojlanuvchi tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Gegel ta’kidlaganidek, haqiqat nafaqat natija, balki unga olib boruvchi butun yo‘lni o‘z ichiga oladi, bu fikr ilmiy dunyoqarashning protsessual tabiatini anglashda metodologik ahamiyatga ega.

XX asr falsafasida ilmiy dunyoqarash muammosi yangi o‘lchamlar kasb etdi. Tomas Kunning ilmiy revolyutsiyalar nazariyasi esa ilmiy bilimning tarixiy-madaniy kontekstga bog’liqligini ko‘rsatib, ilmiy paradigmalar almashinuvi g’oyasini ilgari surdi. Kun ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan paradigma doirasida "normal fan" rivojlanishini tahlil qilib, ilmiy dunyoqarashning ijtimoiy-tarixiy determinatsiyasini ochib berdi. Sovet va postsovet pedagogika fanida ilmiy dunyoqarash shakllantirish muammosi alohida o‘rin tutgan.

V.N.Moskvichevning tadqiqotlarida dunyoqarash insonning borliqqa bo‘lgan munosabatlarining integral tizimi sifatida ta’riflangan bo‘lib, uning kognitiv, aksiologik va prakseologik komponentlari ajratib ko‘rsatilgan. E.I.Monosozonning ishlari ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning didaktik asoslarini o‘rgangan bo‘lib, fanlararo aloqalarning ahamiyatini ta’kidlagan. O‘zbekiston pedagogika fanida V.Qodirov, N.Muslimov, O.Musurmonova kabi olimlarning tadqiqotlari ilmiy dunyoqarash shakllantirishning milliy ta’lim tizimiga xos jihatlarini o‘rgangan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy-pedagogik genezisini o‘rganish uchun bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Birinchidan, tarixiy-genetik usul ilmiy dunyoqarash tushunchasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini kuzatish imkonini berdi. Bu usul orqali antik falsafadan zamonaviy ta’lim nazariyalarigacha bo‘lgan davr mobaynida dunyoqarash fenomenining transformatsiyasi tahlil qilindi.

Tarixiy yondashuv g’oyalar evolyutsiyasini tushunish, ularning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog’liqligini aniqlash uchun zarur bo‘ldi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli turli falsafiy maktablar va pedagogik nazariyalardagi ilmiy dunyoqarash talqinlarini solishtirish imkonini berdi. G’arb va Sharq falsafiy an’analari, klassik va zamonaviy yondashuvlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Bu usul ilmiy dunyoqarash tushunchasining universal va o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatishga yordam berdi.[3]

Tahlillar va natijalar. Ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy genezisini tahlil qilish uning murakkab, ko‘p bosqichli shakllanish jarayonini ochib beradi. Antik falsafada dunyoqarash muammosi kosmos va inson o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish kontekstida yuzaga kelgan. Milet maktabi vakillari tabiatning asosiy mohiyatini aniqlashga harakat qilib, birinchi marta mifologik tushuntirishlardan ilmiy izohga o‘tishni amalga oshirdilar. Fales suvni, Anaksimandr apeyronnni,

Anaksimen havoni dunyoning asosiysifatida ko‘rsatganda, ular mohiyatan ilmiy tafakkurning dastlabki namunalarini yaratdilar. Biroq bu bosqichda dunyoqarash refleksiv tarzda, ya’ni o‘z-o‘zini anglash predmeti sifatida hali shakllanmagan edi. Platon va Aristotel falsafasi dunyoqarash muammosiga yangi o‘lcham qo‘shdi. Platonning g’oyalar nazariyasi hissiy va aqliy bilish o‘rtasidagi farqni ta’kidlab, haqiqiy bilimning g’oyalar olamiga yo‘nalganligini asosladi.[4]

Bu yondashuv keyinchalik ilmiy bilimning empirik va ratsional asoslari haqidagi munozaralar uchun zamin yaratdi. Aristotelning falsafiy tizimi esa borliqning kategoriyalarini tahlil qilib, ilmiy bilimning tizimli tabiatini namoyish etdi. Aristotel mantiq qonunlarini ishlab chiqib, ratsional tafakkurning universal asoslarini yaratdi, bu esa ilmiy dunyoqarashning mantiqiy poydevorini tashkil etdi. O‘rta asrlar falsafasida dunyoqarash muammosi diniy kontekstda talqin qilindi. Foma Akvinskiyning sxolastik falsafasi aql va iymonni muvofiqlashtirish g’oyasini ilgari surib, ilmiy bilimga cheklangan, lekin ma’lum o‘rin berdi. Biroq bu davrda ilmiy dunyoqarash diniy dunyoqarashga bo‘ysundirilgan holda mavjud edi. Uyg’onish davri va Yangi davr falsafasi bu vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Frensis Bekonning empirik usuli va Rene Dekartning ratsional usuli ilmiy bilishning mustaqil metodologik asoslarini yaratdi. Bekonning "bilim — kuch" shiori va Dekartning "cogito ergo sum" tamoyili ilmiy dunyoqarashning yangi paradigmasini shakllantirdi. Ma’rifatchilik davri ilmiy dunyoqarashning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ta’kidladi.[5] Fransuz ma’rifatparvarlari ilm-fan taraqqiyotini insoniyat rivojlanishining kafolati sifatida ko‘rib, ilmiy bilimlarni ommalashtirish g’oyasini ilgari surdilar.

Bu davrda ilmiy dunyoqarash nafaqat individual bilish xususiyati, balki ijtimoiy progress omili sifatida talqin qilina boshlandi. Aynan shu nuqtada ilmiy dunyoqarash shakllantirishning pedagogik aspekti birinchi marta aniq ifodasini topdi. XIX asr pozitivizmi ilmiy dunyoqarash tushunchasiga yangi ta’rif berdi. Ogyst Kontning "pozitiv falsafasi" ilmiy bilimni yagona haqiqiy bilim sifatida e’tirof etib, metafizik va diniy bilimlarni oldingi rivojlanish bosqichlari sifatida baholadi. Bu yondashuv ilmiy dunyoqarashning "yagona to‘g’ri dunyoqarash" sifatida absolutlashtirilishiga olib keldi. Biroq keyingi falsafiy tahlillar bu pozitsiyaning cheklanganligini ko‘rsatdi.

XX asr falsafasi ilmiy dunyoqarash tushunchasining murakkablashuviga guvoh bo‘ldi. Fenomenologiya ilmiy bilimning "hayotiy dunyo" (Lebenswelt) bilan bog’liqligini ta’kidlab, ilmiy dunyoqarashning inson tajribasidan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Edmund Gusserlning so‘nggi asarlarida Yevropa fanlarining "inqirozi" haqida gap ketganda, u

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ilmiy dunyoqarashning inson mavjudligining fundamental savollariga javob berishdan ojizligini qayd etdi. Bu tanqid ilmiy dunyoqarashning chegaralari va imkoniyatlari haqidagi muhim mulohazalarni keltirib chiqardi. Ekzistensializm falsafasi esa ilmiy dunyoqarash bilan shaxsiy mavjudlik tajribasi o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha yoritdi. Martin Xaydegger texnikaviy tafakkurning "borliqni unutish"ga olib kelishini ta’kidlab, ilmiy dunyoqarashning ontologik chegaralarini ko‘rsatdi. Jean-Pol Sartrning "mavjudlik mohiyatdan oldin keladi" tamoyili esa inson dunyoqarashining erkin tanlash natijasi ekanligini asosladi. Bu g’oyalar ilmiy dunyoqarash shakllantirishning pedagogik nazariyasiga muhim ta’sir ko‘rsatdi, chunki ular o‘quvchining sub’ektligini, uning erkin tanlash huquqini tan olish zarurligini taqozo etdi. Postpozitivizm va fan falsafasining rivojlanishi ilmiy dunyoqarash tushunchasini yanada aniqlashtirdi. Imre Lakatosning ilmiy tadqiqot dasturlari metodologiyasi ilmiy nazariyalar taraqqiyotining murakkab dialektikasini ochib berdi. Pol Feyerabendning metodologik anaxizmi esa ilmiy usulning yagona "to‘g’ri" usul ekanligiga shubha tug’dirdi. Bu munozaralar ilmiy dunyoqarash tushunchasining dogmatik talqinlariga qarshi yo‘naltirilgan bo‘lib, uning tanqidiy, ochiq tabiatini ta’kidladi.[6]

Pedagogik kontekstda ilmiy dunyoqarash shakllantirish muammosi o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Yan Amos Komenskiyning didaktik tizimi bilimlarning tizimli uzatilishi g’oyasini asoslab, ilmiy dunyoqarash shakllantirishning metodologik tamoyillarini yaratdi. Komenskiyning "tabiiy usul"i o‘quvchining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlab, passiv bilim olishdan faol bilish jarayoniga o‘tishni targ’ib qildi. Nemis klassik pedagogikasi ilmiy dunyoqarash shakllantirish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. Iogann Genrix Pestalotsining "bosh, yurak va qo‘l" birligiga asoslangan ta’lim nazariyasi bilimlarni amaliyot bilan bog’lash zarurligini ko‘rsatdi. Fridrix Gerbartning pedagogik tizimi esa ta’limning tarbiyaviy xarakterini ta’kidlab, ilmiy bilimlar orqali shaxsning axloqiy rivojlanishini asosladi. Bu yondashuvlar ilmiy dunyoqarashning nafaqat kognitiv, balki aksiologik va prakseologik o‘lchamlarini ko‘rsatib berdi.

XX asr pedagogikasida ilmiy dunyoqarash shakllantirish pragmatik va konstruktivistik yondashuvlar nuqtai nazaridan qayta talqin qilindi. Jon Dyuining pragmatik pedagogikasi ta’limni muammolarni hal qilish jarayoni sifatida ko‘rib, ilmiy usulni kundalik hayotga tatbiq etish zarurligini asosladi. Dyui nazariyasiga ko‘ra, ilmiy tafakkur maxsus laboratoriya sharoitida emas, balki haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida shakllanadi. Bu yondashuv ilmiy dunyoqarash shakllantirishning amaliy yo‘naltirilganligini ta’kidladi. Jan Piajeningkognitiv rivojlanish nazariyasi ilmiy tafakkur shakllanishining psixologik qonuniyatlarini ochib berdi. Piaje bolaning aqliy rivojlanishida ketma-ket bosqichlarni aniqladi va formal operatsiyalar bosqichida mavhum, ilmiy tafakkur imkoniyatlari paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu nazariya ilmiy dunyoqarash shakllantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asosladi. Lev Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi bilishning ijtimoiy tabiatini ta’kidlab, ilmiy tushunchalar shakllanishining pedagogik mexanizmlarini yoritdi. Vigotskiy ilmiy va maishiy tushunchalar o‘rtasidagi farqni tahlil qilib, maktab ta’limining ilmiy tushunchalar


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tizimini shakllantirish vazifasini asosladi.[7] Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlarni yangicha tushunish imkonini berdi. Zamonaviy talqinlar nuqtai nazaridan, ilmiy dunyoqarash bir qator o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, epistemologik komponent ilmiy bilishning tabiati, imkoniyatlari va chegaralari haqidagi tushinchalarni qamrab oladi. Bu komponent o'quvchining ilmiy bilimning xususiyatlarini, uni boshqa bilim turlaridan farqlovchi belgilarni anglashini nazarda tutadi.

Epistemologik jihatdan pishgan shaxs ilmiy bilimning vaqtinchalik, o'zgaruvchan tabiatini tushunadi, ammo ayni paytda uning ishonchliligini asoslovchi mezonlarni biladi. Ikkinchidan, metodologik komponent ilmiy tekshirish usullari, ularning qo'llanilish tamoyillari haqidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu komponent kuzatish, tajriba, gipoteza qo'yish, nazariya yaratish kabi ilmiy faoliyatning asosiy elementlarini anglash va qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi. Metodologik jihatdan shakllangan shaxs ilmiy usulni turli sohalarda qo'llash imkoniyatlarini ko'ra oladi. Uchinchidan, tanqidiy komponent ilmiy ma'lumotlarni baholash, dalillarni tahlil qilish, mantiqiy xatolarni aniqlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy axborot muhitida bu komponent alohida ahamiyat kasb etadi, chunki psevdoilmiy, yolg'on axborotlarning keng tarqalishi shaxsdan yuqori darajadagi tanqidiy savodxonlikni talab qiladi. To'rtinchidan, aksiologik komponent ilmiy bilimning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini anglash, ilmiy faoliyatning etik tamoyillarini tushunishni nazarda tutadi. Bu komponent fanning ikki yoqlama tabiati, ya'ni ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelish imkoniyatini anglashni ham o'z ichiga oladi. Beshinchidan, motivatsion komponent ilmiy bilishga qiziqish, yangilikka intilish, intellektual qoniqish hissini qamrab oladi. Bu komponent ilmiy dunyoqarashning emotsional asosini tashkil etib, uning barqarorligini ta'minlaydi.[8]

Zamonaviy ta'lim nazariyasida ilmiy dunyoqarash shakllantirish bir qator metodologik tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, fanlararo integratsiya tamoyili alohida fanlar doirasida shakllangan bilimlarni yagona ilmiy manzaraga birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu tamoyil o'quvchiga dunyoning yaxlit, o'zaro bog'liq tizim ekanligini anglash imkonini beradi. Fanlararo yondashuv, shuningdek, ilmiy usulning universal tabiatini, turli sohalarda qo'llanilish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Ikkinchidan, muammoli o'qitish tamoyili ilmiy tafakkurning haqiqiy muammolar bilan to'qnashuvda shakllanishini hisobga oladi. O'quvchiga tayyor bilimlar emas, balki bilish vaziyatlari taqdim etilib, u mustaqil ravishda yechim topishga yo'naltiriladi. Bu yondashuv ilmiy kashfiyot jarayonini modellashtirib, o'quvchida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchidan, refleksiv yondashuv tamoyili o'quvchining o'z bilish jarayonini tahlil qilishi, bilish strategiyalarini baholashi zarurligini ta'kidlaydi. Metakognitiv ko'nikmalar ilmiy dunyoqarashning muhim komponenti bo'lib, ular shaxsning o'z tafakkurini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. To'rtinchidan, dialogik tamoyil ilmiy bilimning kollektiv, muloqotga asoslangan tabiatini hisobga oladi. Ilmiy jamoatchilikdagi munozara, tanqid va konsensus mexanizmlari ta'lim jarayonida modellashtiriladi. O'quvchilar turli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nuqtai nazarlarni tahlil qilish, o‘z pozitsiyasini asoslash, boshqalar dalillarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Beshinchidan, tarixiylik tamoyili ilmiy bilimlarni ularning shakllanish kontekstida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Ilmiy g’oyalar tarixini o‘rganish orqali o‘quvchi ilmiy tafakkurning dinamik, rivojlanuvchi tabiatini anglaydi, bu esa dogmatik yondashuvdan saqlanishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda ilmiy dunyoqarash shakllantirishning bir qator amaliy strategiyalari qo‘llaniladi. Tadqiqotga asoslangan o‘qitish (inquiry-based learning) o‘quvchilarni haqiqiy ilmiy tekshirish jarayoniga jalb etib, ularning bilish faolligini oshiradi. Bu yondashuvda o‘quvchilar savollar qo‘yish, gipotezalar shakllantirish, ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish, xulosalar chiqarish bosqichlarini mustaqil ravishda bosib o‘tadi. Argumentatsiya asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning ilmiy dalillar bilan ishlash, asosli fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu yondashuvda o‘quvchilar turli ilmiy pozitsiyalarni tahlil qilish, ular uchun dalillar keltirish va dalillarni baholash ko‘nikmalarini egallaydi. Fan tarixi va fan falsafasini o‘qitish ilmiy bilimning tabiati haqidagi aniq tushunchalarni shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ilmiy kashfiyotlar tarixi, olimlar hayoti va faoliyatini o‘rganish orqali o‘quvchilar ilmiy jarayonning insoniylashtirilgan tasvirini oladi. Media savodxonlik rivojlantirish zamonaviy axborot muhitida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar turli axborot manbalarini tanqidiy baholash, psevdoilmiy ma’lumotlarni aniqlash, ishonchli manbalarni tanlash ko‘nikmalarini egallashi zarur. Tadqiqot natijalari ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy-pedagogik genezisi haqida bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, ilmiy dunyoqarash tarixan shakllangan, rivojlanuvchi fenomen bo‘lib, uning mazmuni va tuzilmasi ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog’liq holda o‘zgarib borgan. Antik davrdan zamonaviy davrgacha ilmiy dunyoqarash tushunchasining evolyutsiyasi ilmiy bilimning o‘zgaruvchan tabiatini, uning ijtimoiy determinatsiyasini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ilmiy dunyoqarash ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u epistemologik, metodologik, tanqidiy, aksiologik va motivatsion o‘lchamlarni o‘z ichiga oladi. Bu komponentlar o‘zaro bog’liq bo‘lib, ularning muvozanatli rivojlanishi ilmiy dunyoqarashning yetukligini ta’minlaydi. Uchinchidan, ilmiy dunyoqarash shakllantirish maxsus pedagogik strategiyalarni talab qiladi. An’anaviy bilim uzatish usullari bu maqsadga erishish uchun yetarli emas. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar — muammoli o‘qitish, tadqiqotga asoslangan o‘qitish, argumentatsiya asosidagi o‘qitish — ilmiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Xulosa. Ilmiy dunyoqarash tushunchasining falsafiy-pedagogik genezisini o‘rganish uning murakkab, ko‘p qirrali fenomen ekanligini tasdiqladi. Antik falsafadan zamonaviy ta’lim nazariyalarigacha bo‘lgan tarixiy tahlil ilmiy dunyoqarashning dinamik, rivojlanuvchi tabiatini, uning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan chuqur bog’liqligini ko‘rsatdi. Falsafiy nuqtai nazardan, ilmiy dunyoqarash bilish imkoniyatlari va chegaralari haqidagi refleksiyani, ilmiy usulning xususiyatlarini anglashni, haqiqat mezonlarini tushunishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik kontekstda ilmiy dunyoqarash shakllantirish ta’lim jarayonining

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muhim maqsadlaridan biri sifatida tan olinadi. Zamonaviy yondashuvlar bu jarayonning faol, konstruktivistik tabiatini ta'kidlab, o'quvchini bilim quruvchi sub'ekt sifatida ko'rib chiqadi. Fanlararo integratsiya, muammoli o'qitish, tadqiqotga asoslangan o'qitish kabi strategiyalar ilmiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida tasdiqlangan. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida ilmiy dunyoqarash shakllantirish sohasida bir qator dolzarb vazifalar turadi. Birinchidan, o'quvchilarning epistemologik rivojlanishini ta'minlash, ularning ilmiy bilim tabiati haqidagi tushunchalarini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa zamonaviy axborot muhitida psevdoilmiy ma'lumotlarni aniqlash qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, ilmiy dunyoqarashning aksiologik o'lchamini rivojlantirish, ilm-fanning ijtimoiy mas'uliyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar ilmiy dunyoqarash shakllantirishning raqamli ta'lim muhitida samarali strategiyalarini ishlab chiqish, turli ta'lim bosqichlarida ushbu jarayonning xususiyatlarini aniqlash, milliy ta'lim tizimi sharoitida ilmiy dunyoqarash shakllantirishning optimal modellarini yaratish yo'nalishlarida davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bacon F. Novum Organum. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 252 p.
2. Dewey J. How We Think. — Boston: D.C. Heath & Co., 1910. — 224 p.
3. Feyerabend P. Against Method. — London: Verso, 1993. — 336 p.
4. Hegel G.W.F. Fenomenologiya duxa. — Sankt-Peterburg: Nauka, 1992. — 444 s.
5. Husserl E. The Crisis of European Sciences and Transcendental Phenomenology. — Evanston: Northwestern University Press, 1970. — 405 p.
6. Kuhn T. The Structure of Scientific Revolutions. — Chicago: University of Chicago Press, 1962. — 264 p.
7. Kuhn D. The Skills of Argument. — Cambridge: Cambridge University Press, 1991. — 336 p.
8. Lakatos I. The Methodology of Scientific Research Programmes. — Cambridge: Cambridge University Press, 1978. — 250 p.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li**, o'qituvchi [**Сатволдиев Фахриддин Акбарали ўғли**,преподаватель], [**Satvoldiyev A.Faxriddin** teacher]; manzil: Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 21-uy, [адрес: Наманган, улица Ислама Каримова, 21], [address: Namangan, Islam Karimov Street, 21]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

© F.Sh. Shirinov[1]✉, L.Q. Dexqonov[2]✉
[1] Qo‘qon davlat unversiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida o‘quvchilarning axborot bilan ongli ishlashi, media makonda xavfsiz harakat qilishi va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llashi asosiy ta’lim natijalaridan biri bo‘lib bormoqda. Shu bois raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalasi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy faoliyat va raqamli madaniyatini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq pedagogik-psixologik muammo sifatida qaraladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi umumta’lim maktabi o‘quvchilarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlash hamda ularning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish yo‘nalishlarini tizimlashtirishdan iborat. Shuningdek, interaktiv metodlar va AKT vositalariga tayangan holda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda raqamli kompetensiya, media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo‘yicha mahalliy va xorijiy manbalar tahlil qilindi, UNESCO, TPACK va raqamli pedagogika konsepsiyalari asosida nazariy model ishlab chiqildi. Metodologik asos sifatida tizimli, kompetensiyaga yo‘naltirilgan, shuningdek, yosh va kognitiv rivojlanish psixologiyasi yondashuvlari qo‘llanib, maktab amaliyoti ma’lumotlari konseptual darajada umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar raqamli kompetensiyaning axborot bilan ishlash, media savodxonlik, raqamli kommunikatsiya, texnologik ijodkorlik va kiberxavfsizlik kabi komponentlardan tashkil topishini ko‘rsatdi. Interaktiv darslar, onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom), test tizimlari (Kahoot, Quizizz) va dasturlash muhitlari (Scratch, Code.org) qo‘llanilganda o‘quvchilarning motivatsiyasi, tanqidiy fikrlashi va hamkorlik ko‘nikmalari sezilarli faollashishi aniqlangan. O‘qituvchining raqamli madaniyati va raqamli resurslarga boy o‘quv muhiti raqamli kompetensiyalarni barqaror shakllantirishning muhim sharti ekanligi asoslab berildi.

**XULOSA:** Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarda axborot madaniyati, media savodxonlik va raqamli muhitda mas’uliyatli xulqni shakllantirish orqali ta’lim sifatini oshiradi. Pedagogik-psixologik yondashuvlar, interaktiv metodlar va AKT vositalarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni raqamli kompetent shaxsni tarbiyalash uchun samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so‘zlar:** raqamli kompetensiya, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, interaktiv metod, raqamli kommunikatsiya, psixologik rivojlanish.

**Iqtibos uchun**: Shirinov F.Sh, Dexqonov L.Q. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.233-238.

# ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

© Ф.Ш. Ширинов[1]✉, Л.К. Дехконов[2]✉
[1,2]Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** В условиях цифровизации общества школа становится ключlівым пространством формирования ответственного и критического отношения к информации и цифровым технологиям. Поэтому цифровая компетентность рассматривается как важнейший результат образования, связанный с развитием критического мышления, медиаграмотности, творческой самореализации и безопасного поведения в цифровой среде.

**ЦЕЛЬ:** выявить педагогические и психологические основы формирования цифровых компетенций у школьников и описать их структурные компоненты и направления развития. Дополнительно ставится задача обосновать эффективные методические стратегии и средства ИКТ, обеспечивающие целенаправленное развитие цифровой компетентности в учебном процессе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве теоретической базы использованы отечественные и зарубежные исследования по цифровой компетентности, медиаграмотности и информационной безопасности, а также концепции TPACK, ИКТ-компетентности учителя и цифровой педагогики. Применялись системный и компетентностный подходы, элементы возрастной и педагогической психологии, данные школьной практики были концептуально обобщены и включены в разработанную модель.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что цифровая компетентность включает работу с информацией, цифровую коммуникацию, создание цифрового контента, кибербезопасность и медиаграмотность, функционирующие как взаимосвязанные компоненты. Использование интерактивных методов, онлайн-платформ (Moodle, Google Classroom), игровых тестовых сервисов и визуальных сред программирования способствует росту мотивации, развитию критического мышления и кооперации учащихся. Отмечено, что уровень цифровой культуры педагога и наличие развёрнутой цифровой образовательной среды определяют устойчивость и глубину сформированных цифровых компетенций.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** формирование цифровых компетенций укрепляет информационную культуру, медиаграмотность и технологические способности

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

учащихся, что напрямую влияет на качество образования. Комплекс педагогических и психологических подходов в сочетании с интерактивными методами и ИКТ создаёт надёжную методическую основу для подготовки цифрово компетентной личности.

**Ключевые слова:** цифровая компетентность, медиаграмотность, информационная безопасность, интерактивное обучение, цифровая коммуникация, когнитивное развитие.

**Для цитирования**: Ширинов Ф.Ш, Дехконов Л.К. Психолого-педагогические основы формирования цифровых компетенций.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 233-238.

## PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF DIGITAL COMPETENCIES

© F.Sh. Shirinov[1]✉, L.Q Dexqonov[2]✉
[1,2]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** In the context of rapid digitalization, schools play a central role in shaping students' ability to work critically and responsibly with information and technologies. Thus, digital competence is viewed as a key educational outcome linked to the development of critical thinking, media literacy, creative activity and safe behaviour in digital environments.

**AIM:** the aim of the study is to identify the pedagogical and psychological foundations of digital competence development among school students and to systematize its structural components and main directions of formation. A further aim is to justify effective methodological strategies and ICT-based tools that ensure purposeful development of digital competencies within the teaching and learning process.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on national and international literature on digital competence, media literacy and information security, as well as on concepts such as TPACK, ICT competency frameworks for teachers and digital pedagogy. A systemic and competence-based approach was applied in combination with principles of developmental and educational psychology, and empirical data from school practice were conceptually generalized to construct a theoretical model.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis shows that digital competence comprises information handling, digital communication, digital content creation, cybersecurity and media literacy as interrelated components. The use of interactive methods, online platforms (e.g. Moodle, Google Classroom), game-based testing tools and visual programming environments enhances students' motivation, critical thinking and collaboration skills. It is demonstrated that teachers' digital culture and a well-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

developed digital learning environment are crucial conditions for stable and profound development of students' digital competencies.

**CONCLUSION:** developing digital competencies strengthens students' information culture, media literacy and technological abilities, thereby improving the overall quality of education. A combination of pedagogical and psychological approaches with interactive methods and ICT tools provides a solid methodological basis for educating digitally competent learners capable of acting responsibly and creatively in the digital world.

**Keywords:** digital competence, media literacy, information security, interactive learning, digital communication, cognitive development.

**For citation**: Shirinov F.Sh., Dexqonov L.Q. (2025) 'Psychological and pedagogical foundations of the formation of digital competencies', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 233-238. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ta'lim jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchilarning axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy va texnologik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. XXI asrda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanib, ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish talabalarning axborot bilan ishlash, ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun zarurdir. Ushbu referatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari ilmiy yondashuvlar orqali yoritiladi.

Asosiy qism

1. Raqamli kompetensiya tushunchasi va tarkibi

Raqamli kompetensiya quyidagi elementlardan iborat:

Axborot savodxonligi

Media savodxonlik

Axborot xavfsizligi va kibergigiyena

Digital kommunikatsiya va muloqot ko'nikmalari

Texnologik ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyati Raqamli kompetensiya – bu raqamli muhitda axborotni izlash, tahlil qilish, yaratish, baham ko'rish va xavfsiz foydalanish bo'yicha zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'ldi. Sifatli ta'limni tashkil etish, o'quv faoliyatini optimallashtirish, bilimlarni interfaol shaklda yetkazish, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun o'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish zarurati sezilarli darajada ortdi. Raqamli kompetensiya nafaqat texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalari, balki axborot bilan ongli, tanqidiy va xavfsiz

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ishlash, raqamli madaniyatga ega bo‘lish, ijodiy fikrlash va onlayn muhitda samarali muloqot qilishni ham o‘z ichiga oladi.

U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: axborot bilan ishlash kompetensiyasi; kommunikativ kompetensiya (onlayn muloqot); raqamli ijodkorlik; texnik ko‘nikmalar; kiberxavfsizlik va axborot madaniyati; raqamli muhitda muammolarni hal qilish.

2. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari

Pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri — o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirishdir. Raqamli texnologiyalar: individual ta’lim trayektoriyasini yaratish; mustaqil o‘rganish sur’atini belgilash; moslashtirilgan topshiriqlar berish imkonini yaratadi.

Bu yondashuv raqamli kompetensiyaning tabiiy shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: onlayn loyiha va guruh ishlari; raqamli laboratoriyalar; veb-kvestlar; gamifikatsiya (o‘yin texnologiyalari); blended learning (an’anaviy + onlayn ta’lim); bu metodlar o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, kreativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘qituvchining raqamli madaniyati.

Pedagogning raqamli savodxonligi — o‘quvchida raqamli kompetensiyani shakllantirishning asosiy omili. O‘qituvchi: axborot resurslarini tanlay olishi; virtual ta’lim muhitini boshqara olishi; onlayn baholash tizimlaridan foydalanishi; o‘quvchilarni xavfsiz raqamli muhitga yo‘naltirishi zarur.

Ta’lim muhitini modernizatsiya qilish.

Raqamli kompetensiyalar samarali shakllanishi uchun: texnik vositalar; internet tarmog‘I; raqamli resurslar (platformalar, kutubxonalar, test tizimlari); yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

2. Pedagogik-psixologik asoslar: yosh psixologiyasi: O‘quvchilarning e’tibor, xotira, tafakkur va motivatsiya xususiyatlarini hisobga olish.

Kognitiv rivojlanish: Axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari

Motivatsiya: Interaktiv metodlar, gamifikatsiya va loyiha ishlari orqali faollikni oshirish; ijodiy faoliyat: problemali va loyihaviy o‘qitish orqali kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish

3. Interaktiv metod va AKT vositalari: Multimedia resurslari: video, animatsiya, simulyatsiyalar; Onlayn platformalar: Moodle, Google Cl;assroom.

Interaktiv testlar: Kahoot, Quizizz

Dasturlash asoslari: Scratch, Code.org.

4. Raqamli kompetensiyalarni baholash

Diagnostik testlar va interaktiv mashqlar

O‘quvchi portfoliolarini shakllantirish

Natijalarni tahlil qilish va monitoring tizimi

5. Metodik tavsiyalar

Dars jarayonini yosh xususiyatlariga moslash

Interaktiv va ijodiy metodlarni joriy etish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Multimedia va gamifikatsiyalashgan resurslardan foydalanish Raqamli kompetensiya — bu raqamli muhitda samarali ishlash, axborot izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash, yaratish va xavfsiz foydalanish bo‘yicha zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardir.

U quyidagilarni qamrab oladi: axborot bilan ishlash kompetensiyasi; raqamli kommunikatsiya va hamkorlik; raqamli kontent yaratish; kiberxavfsizlik va raqamli madaniyat; muammolarni raqamli vositalar yordamida hal qilish; media savodxonligi.

2. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari: axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; internetda axborot izlash; ishonchli manbalarni tanlash; ma’lumotlarni tahlil qilish; filtrdan o‘tkazish; kerakli shaklda saqlash va taqdim etish. Bu ko‘nikmalar axborotning haddan tashqari ko‘pligi sharoitida juda muhimdir.

Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarda axborot madaniyati, media savodxonlik va texnologik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Pedagogik-psixologik yondashuvlar va interaktiv ta’lim metodlari raqamli ta’limning samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish uchun metodik asos sifatida xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

**M**atematik masalalar va amaliy vazifalar orqali o‘quvchilar ijtimoiy va ilmiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Metodikadan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarga mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy muhitga moslashishga va zamonaviy dunyo talablariga javob berishga yordam beradi. Matematikani o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga axborot texnologiyalari va ilmiy izlanishlar bilan ishlash ko‘nikmalarini ham berish imkonini yaratadi. Shu bilan fan umummadaniy kompetensiyaning barcha jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Matematik o‘qitish metodikasi fani, shuningdek, jamiyatdagi har xil masalalar va vazifalarni hal qilishda zarur bo‘lgan innovatsion yondashuvlarni o‘rgatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z fikrini erkin ifodalash, muhokama qilish va guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu bilan o‘z navbatida, umumiy madaniyatni oshirishga va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

60110600 - Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi 3-kurs (6-semestr)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Matematika o‘qitish metodikasi fanidan mavzulari va bu mavzularni o‘qitish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlanlanadi.

1-rasm. Matematika o‘qitish metodikasi fanidan mavzulari va bu mavzularni o‘qitish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlanishi.

| | | |
|---|---|---|
| | Matematika o‘qitish metodikasining predmeti. Matematika o‘qitish metodikasining predmeti, fan sifatida uning taraqqiyoti, bosqichlari o‘quv predmeti sifatida maqsadi, mazmuni. Matematika o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. | Matematika o‘qitish metodikasi o‘rgatish bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash, tahli qilish, muammo yechish ko‘nikmalarini tivojlantiradi, bu esa ularning umummadaniy kompetensiyasini oshiradi. Fan tarixi, metodikalari va boshqa fanlar bilan aloqasi o‘qituvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Bu esa o‘quvchilarga matematikani chuqurroq va kengroq tushuntirish, ularning matematik savodxonligini oshirish imkonini beradi. |
| | Matematika o‘qitishni tashkil etish. Matematika o‘qitishni tashkil etish formalari. Sinf dars sistemasi. | Matematika o‘qitishning tashkil etish formalari va sinf dars tizimini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu ularning pedagogik mahoratini oshiradi va o‘quvchilar bilan moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning umummadaniy kompetensiyasi, xususan, tashkilotchilik, rejalashtirish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi. |
| | Matematik tushuncha. Matematik tushunchalarni ta’riflash metodikasi. Matematik tushunchalarni kiritish metodikasi. Matematik tushunchalarni kiritishning abstrakt – deduktiv metodi. | Matematik tushunchalarni shakllantirish. Matematik metodikasini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiriy fikrlash, aniqlik va abstraktlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tushunchalarni turli metodlarda, jumladan, abtrakt-deduktiv metodda kiritishni o‘zlashtirish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning matematik tushunchalarni chuqur va to‘liq anglashlariga yordam beradi va ularning umumiy madaniy saviyasini yuksaltiradi. |
| | Matematik hukm. Matematik xulosa. Matematik hukmning turlari. | Matematik hukm va xulosalarni o‘ganish bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiriy fikrlash, isbotlash va argumentatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirdadi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| | | mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi va umummadaniy kompetensiyasini oshiradi. Bu o‘qituvchilarga murakkab matematik konseptlarni tushunarli va ishonchli tarzda yetkazish imkonini beradi. |
| | Matematika o‘qitishda induksiya, deduksiya. | Induksiya va deduksiya metodlarini o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarga matematik bilimlarni mantiqiy asoslangan holda yetkazish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va xuosa chiqarish qobiliyatlrini rivojlantirish imkonono beradi, bu esa ularning umummadaniy kompetensiyasini o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga yordam berad. |
| | Matematika o‘qitishda analogiya metodlari. | Analogiya metodlarini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarga yangi matematik tushunchalarni o‘quvchilarga oson va tushunarli qilib yetkazish, ularning mavhum fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ularning umummadaniy kompetensiyasini boyitadi va kreativligini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. |
| | Matematika o‘qitishda kuzatish va tajriba, taqqoslash metodlari. | Kuzatish, tajriba va taqqoslash metodlarini qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning tahliliy fikrlash, kuzatuchanlik va xulosa cbiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metodlar o‘quvchilarning matematik tushunchalarni amaluy tajriba orqali chuqurroq anglashlariga, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishlariga yordam beradi. Natijada o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va umummadaniy kompetensiyasi ortadi. |
| | Matematika o‘qitishda umumlashtirish, abstraktsiyalash, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash metodlari. | Umumlashtirish, abstraktsiyalash, konkretlashtirish va kassifikatsiyalash metodlarini o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va sintezlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metodlar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni chuqur anglash, ular orasidagi bog‘liqliklarni aiqlash va bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Natijada o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| | | umummadaniy kompetensiyasini yuksaladi. |
| | Matematika o‘qitishda analiz va sintez kabi metodlarnmg o‘rni. Analitik metod bilan masalalar yechish va teoremalarni isbotlash. | Analiz va sintez metodlari, xususan analitik metodni maslalar yechish va teoremalar isbotlashda mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu o‘qituvchilarga murakkab matematik maslalarni tushunarli tarzda tushuntirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, o‘qituvchilarning pedagogik mahotari va umummadaniy kompetensiyasi ortadi.<br><br>rni. Analitik metod bilan masalalar yechish va teoremalarni isbotlash. |
| | Matematika kursida matematik mantiq elementlari. Ularni o‘qitish muammolari. Matematikada matematik mantiq tushunchasi. Matematikada aksioma tushunchasi. Matematik tushuncha, Teorema va uning turlari. Teoremalarni zaruriy va yetarli shartlari. | Matematik mantiq elementlari, aksiomalar, teoremalar va ularning turlarini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarga matematik bilimlarni chuqur va asosli yetkazish, o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonberadi. Bu esa o‘qituvchilarning abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va matematik tushunchalarni aniq va tushunarli tushuntirishga ko‘maklashadi. Natijada ularning pedagogik faoliyati samaradorligi va umummadaniy kompetensiyasi yuksaladi. |
| | Matematika o‘qitish metodlari. Muammoli, evristik, dasturlashgan, blokli, modulli. Matematika o‘qitish metodlarining klassifikatsiyasi. | Matematika o‘qitish metodlarining klassifikatsiyasi bo‘yicha muammoli, evristik, dasturlashgan, blokli va modulli metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil o‘ylash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, o‘qituvchilar nafaqat matematik bilimlarni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarning umumiy intellektual va ijodiy salohiyatini oshiradi. |
| | O‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish jarayonida masalalarning ahamiyati. | Masalalar o‘quhilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular analitik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Umumiy vaxususiy |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| | Masala yechishda umumiy va xususiy usullar. | usullarni qo‘llash o‘quvchilarga turli yondashuvlar va metodlarni tushunishga yordam beradi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning ummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda, ularni mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishda kata ahamiyatga ega. |
| | Matematika o‘qitishda muammoli ta’lim metodlari | Matematika darslarida muammoli ta’lim metodi bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quvchilarning mustaqil fikrlahs, mantiqiy tahlil qilishva yaratish qobiliyatlarini rivojlantishni o‘rgatadi. Ushbu metod o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirib, o‘quvchilarga murakkab matematik masalalrni yechishda turli strategiyalarni qo‘llashni o‘rgatadi. Shu orqali, bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat matematik bilimlarni, balki umumiy tafakkur va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. |

2-rasm. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitishni rejalashtirish.

| | |
|---|---|
| 1-mavzu | Matematika o‘qitishni tashkil etish formalari. Sinf dars sistemati |
| Ma’ruza mash’gulotining o‘qitishning rejalshtirish | |
| Vaqti-2 soat | Talabalar soni: 90 nafar |
| O‘quv mashg‘ulotining shakli | Kirish, visual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi | Matematika o‘qitishning tashkil etish formalari<br>Matematika o‘qitishni tashkil etishning umumta’limiy maqsadi<br>Matematika o‘qitishni tashkil etishning tarbiyaviy maqsadi<br>Matematika o‘qitishni tashkil etishning amaliy maqsadi<br>Sinf dars sistemasi va uning ko‘rinishlari |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: | Matematika o‘qitishni tashkil etish usullari va sinf dars tizimini tashkil etish haqida talabalarda to‘liq tushuncha hosil qilish. |
| Pedagogik vazifalar:<br>-Matematika o‘qitishni tashkil | O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba<br>-Talaba: |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | |
|---|---|
| etishning metodlari bilan tanishtirish va tushuntirish;<br>-yangi o‘quv materiallarini o‘rganish darsi haqida ma’lumot berish;<br>-bilim, ko‘nikma va malakani takomillashtirish darsi haqida ma’lumot berish;<br>-umumlashtirish va sistemalashtirish darsi haqida ma’lumot berish;<br>Bilimlarni nazorat qilish darsi haqida ma’lumot berish; | -Matematika o‘qitishni tashkil etishning metodlari bilan tanishtiriladi va tushuntiriladi o‘tilganlarni faollashtiradi, -yangi tushuncha va amallarni shakllantiriladi,<br>-ko‘nikma va malakani tadbiq etish kabi tushunchakarga ta’rif beradi:<br>-ma’ruza darsi, suhbat darsi, nazariy va amaliy o‘quv materialini mustaqil o‘rganish darsi aralash darslari kabi savollarga javob beradi; |
| O‘qitish uslubi va texnikasi | Vizua ma’ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, insert texnikasi asosida matn bilan ishlash. |
| O‘qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar |
| O‘qitish shakli | Jamoa, guruh va justlikda ishlash. |
| O‘qitish shart-sharoitlari | Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

25-rasm. Ma’ruza mashg‘ulotlarining texnologik kartasi.

| Bosqchlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O‘qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>[10-min] | 1.1. Mavzuni, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. (1-ilova) | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar |
| 2-bosqich<br>Asosiy<br>[60-min] | 2.1. Talabalarni e’tiborlarini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi (2-ilova)<br>1-matematika o‘qitish metodikasiga doir qanday atamalarni bilasiz?<br>2.2.Matematika o‘qitishning “o‘qitish metodlari” yoritiladi. | 2.1. Eshitiladi.<br>Navbat bilan bir – birini takrorlamay atamalarni aytadi.<br>O‘ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.<br>2.2. Rasm va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| | (3-ilova)<br>2.3. Matematika o‘qitishning “o‘rgatish metodlari” yoritiladi. (4-ilova).<br>Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qilishni va yozib olishlarini ta’kidlaydi.<br>2.4. Matematika o‘qitishning “o‘rgatish metodlari” yoritiladi. (5-ilova).<br>2.5. Talabalar savollariga javob beradi.<br>2.6. Har bir talabaning ma’ruza davomidagi muloqotda faol ishtirok etishiga e’tibor qaratadi. | Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi. |
| 3-bosqich<br>Yakuniy<br>[10-min] | 3.1.Mavzuga yakun yasaydi va talabalr e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi.<br>Mustaqil ish uchun vazifa: 2-ma’ruza matni bilan insert usulida tanishib kelishni vazifa qilib beradi. | 3.1. Eshitadilar, o‘zlarini to‘g‘rilaydilar.<br>Yozib oladilar. |

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. S. Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshlent 2011-yil .
2. Azlarov T., Monsurov X. Matematik analiz. -T.: « O‘qituvchi». 1986.
3. Algebra va analiz asoslari: o'rta maktablarning 10-11 sinflari uchun darslik (Sh.O. Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., « O‘qituvchi», 1996 va uning keyingi nashrlari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. Tadjimatova. H. B.- Qo`qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchi. Bo‘lajak o‘qituvchining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy modeli. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 2023-yil 5-son.
5. Tadzhimatova. H. B.- teacher of QSPI. Ractical case of development of general competence of future teachers in pedagogical activity theoretical model. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 2023-yil 5-son.
6. Tadjimatova. H. B.- Qo`qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatida umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 2023-yil 5-son.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi**, o’qituvchi [**Таджиматова Хосиятан Ботиржоновна**, преподаватель], [**Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Qo‘qon Turon ko‘chasi, 23, [адрес: Узбекистан, г. Коканд, ул. Турон, 23], [address: 23 Turon St., Kokand, Uzbekistan]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Original paper

# MAKTABGACHA YOSHDAGI TANGLAY KAMCHILIKLARIGA EGA BO'LGAN (RINOLALIYA) BOLALARNING NAFASINI RIVOJLANTIRISH

© F.O. Tadjixodjayeva[1]✉
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** rinolaliya yuqori tanglay nuqsonlari natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishi bo'lib, nafas olish jarayoni va tovush hosil bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshda nafasni to'g'ri shakllantirish keyingi nutq rivojiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun nafas tizimini erta bosqichda rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi rinolaliyaga ega bolalarda nafasni rivojlantirishning samarali logopedik usullarini aniqlash va ularning nutq sifatiga ta'sirini asoslashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda rinolaliya, nutqiy nafas va logopedik korreksiya bo'yicha ilmiy-adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, diafragmal nafas mashqlari, havo oqimini boshqarish mashqlari hamda o'yin texnologiyalariga asoslangan usullar qo'llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** O'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida bolalarda nafas chiqarish barqarorlashdi, havo oqimini boshqarish ko'nikmalari yaxshilandi va tovushlar talaffuzi aniqroq bo'la boshladi. Diafragmal nafas mashqlari va tovushli nafas texnikalari nutqiy nafasni faollashtirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi.

**XULOSA:** Rinolaliyaga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda nafasni rivojlantirish nutqni to'g'ri shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Maxsus logopedik mashqlar, o'yin texnologiyalari va zamonaviy biofeedback usullari nafas tizimini mustahkamlashda samarali natija beradi. Kompleks yondashuv bolalarning nutq sifati va ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada yaxshilaydi.

**Kalit so'zlar:** rinolaliya, tanglay kamchiligi, nafasni rivojlantirish, logopedik mashqlar, artikulyatsion gimnastika, nutq terapiyasi, respirator gimnastika.

**Iqtibos uchun**: Tadjixodjayeva F.O. Maktabgacha yoshdagi tanglay kamchiliklariga ega bo'lgan (rinolaliya) bolalarning nafasini rivojlantirish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.264-271.

## РАЗВИТИЕ ДЫХАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ДЕФЕКТАМИ НЕБА (РИНОЛАЛИЯ)

© Ф.О. Таджиходжаева[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

[1]Ташкентский международный университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** ринолалия является нарушением речи, возникающим вследствие врождённых или приобретённых дефектов нёба и сопровождающимся нарушением дыхания и звукообразования. Формирование правильного дыхания в дошкольном возрасте играет решающую роль в дальнейшем речевом развитии ребёнка.

**ЦЕЛЬ:** выявить эффективные логопедические методы развития дыхания у детей дошкольного возраста с ринолалией и обосновать их влияние на качество речи.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в работе использован анализ научной литературы по проблемам ринолалии и дыхательной коррекции. Применялись диафрагмальное дыхание, упражнения на управление воздушным потоком и игровые логопедические технологии.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали улучшение устойчивости выдоха, усиление дыхательной мускулатуры и повышение чёткости звукопроизношения у детей. Формирование контролируемого дыхания способствовало улучшению фонации и артикуляции.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие дыхания у детей с ринолалией является важным направлением логопедической коррекции. Комплексный подход, включающий дыхательные упражнения и современные технологии, повышает эффективность коррекционной работы и улучшает качество речи детей.

**Ключевые слова:** ринолалия, дефект нёба, развитие дыхания, логопедические упражнения, артикуляционная гимнастика, речевая терапия.

**Для цитирования**: Таджиходжаева.Ф.О. Развитие дыхания у детей дошкольного возраста с дефектами неба (ринолалия).// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 264-271.

## RESPIRATORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN WITH PALATE DEFECTS (RHINOLALIA)

©Feruza O. Tadjixodjayeva[1]✉
[1] Tashkent Kimyo international university, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** rhinolalia is a speech disorder associated with palatal defects that disrupt normal breathing and sound production. Proper formation of respiratory skills in preschool age plays a key role in further speech development, making this issue highly relevant.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**AIM:** the aim of the study is to identify effective speech therapy methods for developing breathing in preschool children with rhinolalia and to substantiate their impact on speech quality.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on the analysis of scientific literature on rhinolalia and respiratory correction. Diaphragmatic breathing exercises, airflow control techniques, and game-based speech therapy methods were applied.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results demonstrated improved respiratory stability, stronger breathing muscles, and clearer sound pronunciation in children. Controlled breathing significantly contributed to the normalization of phonation and articulation processes.

**CONCLUSION:** breathing development is a crucial component of speech correction in children with rhinolalia. A комплекс approach combining breathing exercises and modern therapeutic technologies enhances the effectiveness of speech therapy and supports overall speech improvement.

**Keywords:** rhinolalia, palatal defect, breathing development, speech therapy exercises, articulation gymnastics, respiratory training.

**For citation**: Feruza O. Tadjixodjayeva. (2025) 'Respiratory development in preschool children with palate defects (rhinolalia)', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 264-271. (In Uzbek).

**N**utq insonning asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, uning to'g'ri shakllanishi ijtimoiy moslashuv va shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ayrim bolalarda tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlar sababli nutq faoliyati buzilishi kuzatiladi. Shunday nuqsonlardan biri rinolaliya bo'lib, u yuqori tanglayning kamchiligi natijasida yuzaga keladi va bolaning nafas olish tizimi, artikulyatsiyasi hamda fonatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rinolaliya og'iz va burun bo'shlig'i o'rtasidagi havo oqimining noto'g'ri taqsimlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa tovushlarning burun yoki og'iz orqali noto'g'ri talaffuz qilinishiga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rinolaliyaga ega bolalarda nafas olish jarayoni odatdagidan farq qiladi: ularning nafas mushaklari zaiflashgan, nafas olish chuqurligi va barqarorligi pasaygan bo'ladi. Bu esa nutq tovushlarini aniq shakllantirish va ravon talaffuz qilishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Xususan, fonatsiya va artikulyatsion apparat funksiyalarining rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri nafas olish tizimining to'g'ri shakllanishiga bog'liq.

Rinolaliya ochiq va yopiq shakllarda namoyon bo'ladi. Ochiq rinolaliyada og'iz va burun bo'shlig'ini ajratuvchi yumshoq tanglay yetarli darajada harakat qilmagani yoki rivojlanmagani uchun tovush chiqarishda burun bo'shlig'iga ortiqcha havo o'tishi kuzatiladi. Yopiq rinolaliyada esa aksincha, burun bo'shlig'ining havo oqimi uchun yetarlicha ochilmasligi natijasida tovushlar havo kamligi bilan talaffuz qilinadi, bu esa burun tovushlarini susaytiradi. Nafas tizimini rivojlantirishning ilmiy asoslari shuni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

ko‘rsatadiki, logopedik mashg‘ulotlar va maxsus nafas olish texnikalaridan foydalanish nafas mushaklarini mustahkamlash va tovush chiqarish jarayonini normallashtirishga yordam beradi. Nafasni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolalarda havo oqimini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirib, tovushlarni aniqroq va ravonroq talaffuz qilishga ko‘maklashadi. Bunday mashqlar qatoriga diafragmal nafas olishni mashq qildirish, sekin va chuqur nafas olishni o‘rgatish, tovush bilan bog‘liq nafas mashqlari hamda o‘yin shaklidagi texnikalar kiradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi insonning ijtimoiy hayotga moslashuvi va kommunikativ faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Ammo ayrim bolalar tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar sababli nutq buzilishlariga duch keladilar. Shunday nuqsonlardan biri rinolaliya bo‘lib, u tanglay kamchiliklari natijasida yuzaga keladi va bolaning nafas olish jarayoni, artikulyatsiyasi hamda tovush talaffuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rinolaliyaga ega bolalarda nafas olish tizimi zaiflashgan bo‘lib, ularning nafas olish chuqurligi va barqarorligi me’yordan farq qiladi. Bu esa nutq tovushlarini aniq shakllantirish va ravon talaffuz qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bu bolalarda havo oqimini boshqarish qobiliyati sust bo‘lgani sababli, tovushlarning burun orqali noto‘g‘ri chiqishi kuzatiladi, bu esa ochiq rinolaliya va yopiq rinolaliya kabi buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Rinolaliya bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun nafasni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va logopedik terapiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi rinolaliyaga ega bolalarning nafas tizimini rivojlantirish usullari, samarali logopedik texnikalar hamda nafas mushaklarini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar tahlil qilinadi. Rinolaliyaga ega bolalarda nafas olish jarayoni fiziologik me’yordan farq qiladi. Ularning aksariyatida nafas olish va chiqarish jarayoni beqaror, yuzaki va noto‘g‘ri taqsimlangan bo‘ladi. Bu esa nutq tovushlarini shakllantirishda havo oqimini yetarlicha boshqara olmaslikka olib keladi. Bunday bolalarda odatda quyidagi muammolar kuzatiladi.

Nafas olishning yuzakiligi – chuqur nafas ola olmaslik natijasida nutq jarayonida havo yetishmovchiligi yuzaga keladi. Nafas chiqarishning zaifligi – tovushlar havo bosimi yetarli bo‘lmagani uchun noaniq va sust talaffuz qilinadi. Burun orqali noto‘g‘ri nafas olish – burun bo‘shlig‘iga ortiqcha havo kirishi yoki aksincha, havo oqimining to‘liq yetib bormasligi kuzatiladi. Fonatsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklar – ovoz kuchsiz, titroq yoki g‘alati tembrga ega bo‘lishi mumkin. Rinolaliyaning ochiq shaklida yumshoq tanglayning harakatlanishidagi zaiflik sababli tovushlar burun orqali noto‘g‘ri chiqadi. Natijada, undosh va unli tovushlarning talaffuzi buziladi, ayniqsa, portlovchi va sirg‘aluvchi tovushlar havo oqimi yetishmovchiligi tufayli sust yoki noaniq eshitiladi.

Yopiq rinolaliyada esa burun bo‘shlig‘i to‘siqlari tufayli burun tovushlari yetarli darajada hosil bo‘lmaydi, bu esa tovushlarning buzilgan talaffuziga olib keladi. Bunday holatlarda nafas olish texnikalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday mashg‘ulotlar logopedik nafas terapiyasi, o‘yin texnologiyalari va artikulyatsion gimnastika yordamida olib boriladi. Rinolaliyaga ega bolalar bilan olib boriladigan nafasni rivojlantirish mashqlari nutqiy nafas olishni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda quyidagi usullar qo‘llaniladi.

Diafragmal nafas mashqlari – bolani chuqur nafas olish va uni asta chiqarishga o‘rgatish orqali nafas mushaklarini mustahkamlash.

Havo oqimini boshqarish mashqlari – sham yoqish, pufakchalar chiqarish yoki qog‘oz parchasini harakatga keltirish kabi usullar orqali nafasni boshqarish qobiliyatini oshirish.

Tovushli nafas mashqlari – nafas chiqarish vaqtida cho‘ziluvchan unli tovushlarni talaffuz qilish, bu orqali havo oqimi barqarorligini shakllantirish.

Logopedik o‘yin texnologiyalari – bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar orqali nafasni tabiiy shaklda rivojlantirish. Bunday usullar bolalarning nafas mushaklarini mustahkamlash, nafas olish chuqurligi va barqarorligini oshirish hamda tovushlarni to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. Rinolaliyaning turiga qarab individual yondashuv talab qilinadi va mashqlar tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Rinolaliyaga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar nafaqat nafas olish tizimini rivojlantirish, balki artikulyatsiya, fonatsiya va nutq tovushlarining to‘g‘ri shakllanishini ham ta’minlashga qaratilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, nutqiy nafas olish va ovoz chiqarish jarayonlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, agar nafas mushaklari zaiflashgan bo‘lsa, bu holat tovushlarni to‘g‘ri hosil qilish va ularni ravon talaffuz qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli logopedik mashg‘ulotlarda nafas olish, artikulyatsion harakatlar va fonatsiyani birlashtirgan kompleks yondashuv samarali hisoblanadi.

1. Nutqiy nafasni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar

Nutqiy nafasni shakllantirish uchun maxsus mashqlar bolaning diafragmal nafas olishini rivojlantirish, havo oqimini to‘g‘ri taqsimlash va fonatsiyani barqarorlashtirishga qaratiladi. Ilmiy adabiyotlarda diafragmal nafas olishning rivojlanishi nutq sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Ushbu maqsadda quyidagi usullar qo‘llaniladi: Puflash mashqlari – bolalar bilan qog‘oz, paxta, sham va sovun pufaklari yordamida mashqlar bajariladi. Ushbu usul havo oqimini boshqarish va barqaror nafas chiqarishni shakllantirishga yordam beradi. Havo oqimini kuchaytirish mashqlari – bolaning havo oqimini kuchaytirish uchun unda burun orqali chuqur nafas olib, asta-sekin og‘iz orqali chiqarish odatini shakllantirish muhim sanaladi.

Dinamik nafas mashqlari – bola harakat bilan birga nafas olishni sinxron bajarishni o‘rganadi (masalan, qo‘llarni ko‘tarish va tushirish bilan bog‘liq mashqlar). Rinolaliyaga ega bolalar nutqiy rivojlanishida qator muammolarga duch kelishadi, ularning aksariyati yumshoq tanglayning harakatchanligi va nafasni boshqarish bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq paytida havo oqimini noto‘g‘ri taqsimlash natijasida fonatsion buzilishlar kelib chiqadi, bu esa ovozning noaniq yoki sust bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli rinolaliyaga ega bolalar bilan ishlashda nafasni rivojlantirish logopedik terapiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nafas olish fiziologiyasi va uning nutq jarayonidagi roli. Nafas olish inson organizmidagi eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib, u nafaqat hayotiy jarayonlarni, balki nutq faoliyatini ham ta’minlaydi. Oddiy nutqiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

nafas olish quyidagi xususiyatlarga ega: Nutq paytida nafas olish qisqa, chiqarish esa uzoq davom etadi, havo oqimi to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lib, burun va og‘iz orqali boshqariladi, ovoz hosil qilish jarayonida nafasning kuchi va davomiyligi muhim rol o‘ynaydi. Nafasni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri nafas olish texnikalarini o‘rgatish rinolaliyaning fonatsion va artikulyatsion buzilishlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Maxsus nafas mashqlari bolalarda quyidagi natijalarga olib keladi: nutqiy nafas olish chuqurlashadi va barqarorlashadi, ovozning kuchi va tembri yaxshilanadi, havo oqimini to‘g‘ri boshqarish orqali nutq tovushlari aniqroq talaffuz qilinadi, artikulyatsion apparatning moslashuvchanligi ortadi. Rinolaliyaga ega bolalar bilan ishlashda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish nafaqat terapiyaning samaradorligini oshiradi, balki bolalar uchun qiziqarli va motivatsiyaga boy mashg‘ulotlarni tashkil etishga yordam beradi.

Rinolaliyaga ega bolalarda nutqiy nafasni rivojlantirish uchun nafaqat an’anaviy usullar, balki zamonaviy metodikalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nafas olishni rivojlantirish va uni boshqarishni o‘rgatish orqali nutq tovushlarini to‘g‘ri shakllantirish va fonatsiya jarayonlarini yaxshilash mumkin.

1. Akustik-biofeedback texnologiyalarini qo‘llash. Ushbu texnologiya orqali bola o‘z nafas chiqarish kuchini va havo oqimini vizual shaklda kuzatishi mumkin. Maxsus logopedik dasturlar bolaning nafas olish jarayonini qayd etib, unga aniq ko‘rsatmalar beradi. Bu usul bolalarda havo oqimini barqaror ushlab turish va nafas chiqarishni uzaytirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

2. Havo oqimini yo‘naltirishga qaratilgan mashqlar. Burun orqali nafas olish va og‘iz orqali chiqarish mashqlari yordamida orofaringeal mintaqada havo oqimini to‘g‘ri taqsimlash shakllanadi. "Shamni o‘chirish" yoki "pufakchalarni uchirish" kabi o‘yinlar nafas chiqarish davomiyligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi rinolaliya bilan tug‘ilgan bolalar uchun maxsus nafas mashqlari. Nafas olishni rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashqlar bolaning artikulyatsiya apparati va diafragmasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyidagi mashqlar eng samarali hisoblanadi:

1. "Puflash" mashqlari. Bola paxta to‘plarini yoki qog‘oz bo‘laklarini puflash orqali havo oqimini to‘g‘ri yo‘naltirishni o‘rganadi. Bu mashqlar nutqiy nafasni yaxshilashga yordam beradi.

2. "Ajdarho nafasi" mashqi. Bola uzun nafas chiqarib, olov puflayotgan ajdaho rolini o‘ynaydi. Bu mashq diafragma faoliyatini faollashtiradi va nafas chiqarish davomiyligini oshiradi.

3. "Bo‘ron" mashqi. Bola chuqur nafas olib, kuchli havo oqimi bilan "shamol" esayotganini tasavvur qiladi. Bu usul yordamida nafas olish va chiqarish nazorat qilinadi.

4. "Qo‘shiq aytish va tovushlarni cho‘zish" Bola uzun unli tovushlarni ("aaaa", "oooo", "uuuu") cho‘zib aytish orqali nafas chiqarish jarayonini boshqarishni o‘rganadi.

Rinolaliyaga ega maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy nafas olishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularning havo oqimini boshqarish qobiliyati zaif bo‘lib, bu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

holat tovushlarning burun orqali noto‘g‘ri chiqishiga, nutq davomiyligining qisqarishiga va ovoz kuchining pasayishiga olib keladi. Bu bolalar odatda yuqori ko‘krak qismi bilan yuzaki nafas oladilar, natijada ularning diafragmal nafas olish qobiliyati sust bo‘ladi. Shuningdek, burun orqali nafas olishning buzilishi tufayli havo oqimi noto‘g‘ri yo‘naladi va nutq tovushlari burun tovushlanishiga ega bo‘ladi.

Shu sababli, rinolaliyaga ega bolalar uchun maxsus nafas mashqlari va jismoniy terapiya usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular nafas tizimini mustahkamlash va nutqni yaxshilashga yordam beradi. Nafasni rivojlantirish mashqlari bolalarda havo oqimini barqarorlashtirish, diafragmal nafas olishni faollashtirish va ovozning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fiziologik terapiya va jismoniy faollik ham nafas olishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ochiq havoda jismoniy mashqlar bajarish, yoga va stretching mashqlari nafas olish hajmini oshirish, diafragmani mustahkamlash va nafas chiqarish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Logopedik texnologiyalar, jumladan, akustik usullari orqali bolalar nafas chiqarish kuchi va havo oqimini vizual tarzda kuzatishi mumkin, bu esa ularning nafasni ongli ravishda boshqarishiga yordam beradi. Shu sababli, rinolaliyaga ega bolalarda nafas tizimini rivojlantirish maxsus logopedik mashqlar, texnologik yondashuvlar va jismoniy terapiya orqali amalga oshirilishi lozim. Nafasni to‘g‘ri boshqarish qobiliyatini shakllantirish natijasida bolalarning nutq sifati yaxshilanadi, ovoz kuchayadi va tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi shakllanadi. Bu esa ularning ijtimoiy muhitga moslashishiga va muloqot jarayonini samarali tashkil etishiga imkon yaratadi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi rinolaliyaga ega bolalar uchun nafasni rivojlantirish jarayoni nutqni to‘g‘ri shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Rinolaliyaning paydo bo‘lishi burun orqali noto‘g‘ri nafas olish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilmaslik va nutq davomiyligining qisqarishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Nafasni to‘g‘ri boshqarish orqali bolalarda diafragmal nafas olishni shakllantirish, havo oqimini nazorat qilish va tovush shakllanishini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi.

Bunday bolalar uchun maxsus nafas mashqlari va texnologik yondashuvlar samarali natijalarga olib keladi. Masalan, akustik-biofeedback texnologiyalari yordamida nafas olish jarayonini vizual tarzda kuzatish bolalarga havo oqimini to‘g‘ri boshqarishni o‘rgatadi. Logopedik mashqlar va fiziologik terapiya usullari, shuningdek, maxsus mashqlar orqali bola diafragmal nafas olishni kuchaytiradi va burun orqali nafas olishni normallashtiradi. Nafasni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning muvaffaqiyati, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va rinolaliyani tuzatish jarayonidagi yondashuvga bog‘liqdir. Shuning uchun, kompleks yondashuv, ya’ni nafas texnikalarini o‘rgatish, fiziologik terapiya va logopedik yordamning uyg‘unligi bolalarning nutqini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, bolalarning nutqiy faoliyati yaxshilanadi, tovushlar aniq talaffuz qilinadi va umumiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva M., Iskandarova S. "Logopediya asoslari" – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Muxamedjanova D. "Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda nafas mashqlarining ahamiyati" – Pedagogika va psixologiya jurnali.
3. Bogdanova O. "Rinolaliya va uning korreksiyasi" – Moskva: Pedagogika nashriyoti.
4. Tihonova L. "Bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik mashg‘ulotlar" – Sankt-Peterburg: Defektologiya markazi.
5. Karimova G. "Surdopedagogik yondashuvlar va nutqni rivojlantirish metodlari" – Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Vlasova I. "Maxsus pedagogika va defektologiya" – Moskva: Pedagogika va ilm-fan nashriyoti.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. "Logopediya bo‘yicha metodik qo‘llanma" – Toshkent.
8. Xalikova N. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion usullari" – Respublika pedagogik tadqiqotlari to‘plami.
9. Leonova M. "Nutqiy terapiyada zamonaviy texnologiyalar" – Moskva: Logopediya markazi.
10. Azizova S. "Nafas olish texnikalarining nutq rivojlanishiga ta’siri" – O‘zbekistonda defektologiya tadqiqotlari jurnali.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tadjixodjayeva Feruza Orifovna**, magistr [**Таджиходжаева Феруза Орифовна**,магистр], [**Tadjixodjayeva Feruza Orifovna** master’s degree]; manzil: 156 Usmon Nosir ko'chasi, Toshkent 100121, [адрес: 156 ул. Усмана Насира, Ташкент 100121], [address: 156 Usman Nasir St., Tashkent 100121.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Original paper

# 7-8-SINF O‘QUVCHILARINING YOSH XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARIX DARSLARIDA KREATIVLIKNI RAG‘BATLANTIRISHDA HISOBGA OLISH

© S.U. Tursunova [1]✉

[1]Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** globallashuv va raqamli transformatsiyalar sharoitida ta’limning asosiy vazifasi kreativ, tanqidiy fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish bilan bog‘lanmoqda. Tarix fani nafaqat fakt va sanalarni yodlash, balki sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuntirish, milliy o‘zlikni anglash va kelajakni modellashtirish imkoniyatini beradi. Amaliyotda esa tarix darslarining reproduktiv xarakterda qolib ketishi 7–8-sinf o‘quvchilarining tabiiy ijodiy salohiyatini cheklashi xavfi mavjud. Shu bois mazkur yosh davri psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kreativlikni rag‘batlantiruvchi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbdir.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi 7–8-sinf o‘quvchilarining yoshga oid psixofiziologik xususiyatlarini tarix darslarida kreativlikni rivojlantirish bilan bog‘liq holda tahlil qilishdir. Shuningdek, ularni hisobga olgan holda kreativ salohiyatni ro‘yobga chiqaruvchi samarali interfaol metodlar va metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ishda L.S. Vigotskiy, J. Bruner, N.N. Azizxo‘jayeva, B. Ziyomuhammadov va boshqa olimlarning pedagogik-psixologik qarashlari nazariy-metodologik asos sifatida tahlil qilinadi. Tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, psixologik-pedagogik kuzatuv hamda muammoli ta’lim, loyihaviy ish, rolli o‘yinlar va tarixiy rekonstruksiya kabi interfaol metodlarni dars amaliyotiga tatbiq etish usullari qo‘llanadi. O‘quvchilarning o‘zini namoyon qilish, mustaqil fikr bildirish va ijtimoiy faollik ehtiyojlari dars jarayonining markaziga qo‘yiladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari 13–15 yoshli o‘smirlarda konkret-obrazli fikrlashdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o‘tish, “Men-konsepsiyasi”ning faollashuvi va tengdoshlar guruhidagi mavqe muhim omillar ekanini ko‘rsatadi. Muammoli vaziyatlar, tarixiy keyslar, “tarixiy sud” va “kattalar kengashi” kabi rolli o‘yinlar, shuningdek loyihaviy va raqamli ishlar o‘quvchilarda tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytirishi aniqlanadi. Interfaol metodlar qo‘llanilganda tarix faniga qiziqish, darsdagi faollik va o‘z fikrini asoslash qobiliyati oshishi kuzatiladi.

**XULOSA:** Xulosada 7–8-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tarix darslarini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishning muhim sharti ekanligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

asoslanadi. Tarix darslarini fakt va sanalarni yodlashdan ko‘ra muammoli, loyihaviy va interfaol faoliyatga yo‘naltirish o‘quvchilarning motivatsiyasi, fikrlash madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bir tomondan tarixni chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlasa, ikkinchi tomondan maktab davridan boshlab mustaqil va kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, tarix darslari, 7–8-sinf, o‘smirlik davri, yosh xususiyatlari, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha ishi, tanqidiy fikrlash.

**Iqtibos uchun**: Tursunova S.U. 7-8-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va ularni tarix darslarida kreativlikni rag‘batlantirishda hisobga olish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.272-280.

## ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ 7-8 КЛАССОВ И ИХ УЧЕТ ПРИ СТИМУЛИРОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

© С.У. Турсунова[1]✉
[1] Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях глобализации и цифровой трансформации образование ориентируется на формирование личности, способной к креативному, критическому мышлению и ответственному гражданскому участию. История выступает не только как сумма фактов и дат, но как средство осмысления причинно-следственных связей, национальной идентичности и перспектив развития общества. На практике преобладание репродуктивных методов нередко снижает интерес подростков к предмету и блокирует реализацию их творческого потенциала. Это требует пересмотра подходов к преподаванию истории с учётом возрастных особенностей учащихся 7–8 классов.

**ЦЕЛЬ:** проанализировать возрастные особенности учащихся 7–8 классов и выявить их значение для стимулирования креативности на уроках истории. Дополнительно ставится задача разработать комплекс методических рекомендаций по использованию интерактивных технологий, обеспечивающих раскрытие творческого потенциала подростков.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** методологическую основу составляют идеи Л.С. Выготского, Дж. Брунера, Н.Н. Азизходжаевой, Б. Зиямухаммадова и других учёных о творческом развитии и интерактивных технологиях. Используются системный и сравнительный анализ, психолого-педагогическое наблюдение, а также практическое внедрение проблемного обучения, проектной деятельности, ролевых игр и элементов исторической реконструкции в учебный процесс. Особое внимание уделяется потребности подростков в самовыражении, самостоятельном суждении и социальной активности.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что в возрасте 13–15 лет усиливается способность к гипотетическому мышлению, критической оценке событий и поиску альтернативных интерпретаций. Применение проблемных ситуаций, дискуссий, «исторического суда», «совета старейшин» и исследовательских проектов способствует развитию у учащихся аналитических, коммуникативных и креативных навыков. Опыт показывает, что такие формы работы повышают учебную мотивацию, углубляют понимание исторических процессов и формируют культуру аргументированного диалога в ученическом коллективе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что учёт возрастных особенностей подростков и целенаправленное применение интерактивных методов – необходимое условие развития креативности на уроках истории. Переход от механического заучивания к проблемно-проектным формам обучения обеспечивает одновременное повышение качества предметных знаний и формирование надпредметных компетенций XXI века. Такая стратегия способствует подготовке учащихся как мыслящих, самостоятельных и творчески активных граждан.

**Ключевые слова:** креативность, уроки истории, 7–8 класс, подростковый возраст, возрастные особенности, педагогические технологии, интерактивные методы, проблемное обучение, проектная работа, критическое мышление.

**Для цитирования**: Турсунова С.У. Возрастные особенности учащихся 7-8 классов и их учет при стимулировании креативности на уроках истории.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 272-280.

## AGE CHARACTERISTICS OF 7-8TH GRADE STUDENTS AND THEIR CONSIDERATION IN ENCOURAGING CREATIVITY IN HISTORY LESSONS

©Sevaraxon U. Tursunova[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in the context of globalization and digital transformation, education is increasingly aimed at cultivating individuals who can think creatively and critically and participate responsibly in society. History, therefore, should function not only as a body of facts and dates but as a “school of thought” that helps students understand causal relationships, construct national identity and draw lessons for the future. In practice, however, the dominance of reproductive teaching methods often reduces adolescents’ interest in history and restricts their creative potential. This makes it essential to redesign history instruction for 7–8th graders with careful consideration of their age-related characteristics.

**AIM:** the aim of the study is to analyze the age characteristics of 7–8th grade students and determine their significance for encouraging creativity in history lessons. A

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

further aim is to develop methodological recommendations for using interactive technologies and learning formats that unlock adolescents' creative potential.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is grounded in the theoretical perspectives of L.S. Vygotsky, J. Bruner, N.N. Azizkhojaeva, B. Ziyomuhammadov and other scholars in pedagogy and psychology. A systemic and comparative approach, psycho-pedagogical observation and practical implementation of problem-based learning, project work, role-play and elements of historical reconstruction are employed. Particular attention is paid to adolescents' needs for self-expression, independent judgement and social engagement as organizing principles of the learning process.

**DISCUSSION AND RESULTS:** Findings indicate that at ages 13–15 students increasingly demonstrate hypothetical reasoning, the ability to question established narratives and to consider alternative perspectives. When history lessons incorporate problem tasks, debates, "historical trials", "councils of elders" and research or digital projects, learners show higher motivation, deeper understanding of historical processes and improved communication and collaboration skills. These interactive methods help shift learning from rote memorization toward higher-order thinking, enabling students to construct their own well-reasoned interpretations of historical events.

**CONCLUSION:** the study concludes that taking into account adolescents' developmental characteristics and systematically applying creativity-oriented interactive methods is a pedagogical necessity in teaching history. Replacing fact-centered memorization with problem- and project-based formats simultaneously enhances subject mastery and develops key 21st-century competences such as critical thinking, collaboration and self-directed learning. Such an approach not only improves the quality of history education but also contributes to educating independent, creative and socially responsible future citizens.

**Keywords:** creativity, history lessons, 7–8th grade, adolescence, age characteristics, pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, project work, critical thinking.

**For citation**: Sevaraxon U. Tursunova. (2025) 'Age characteristics of 7-8th grade students and their consideration in encouraging creativity in history lessons', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 272-280. (In Uzbek).

**G**loballashuv va raqamli transformatsiyalar sharoitida ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'zgarmoqda: bugun jamiyatga nafaqat bilimlarni o'zlashtirgan, balki axborot oqimidan oqilona foydalana oladigan, mustaqil va kreativ fikrlovchi shaxslar zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Maktab o'quvchilarida kreativlik, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim" [6]. Bu vazifani amalga oshirishda tarix fani beqiyos imkoniyatlarga ega. Tarix – bu shunchaki o'tmishdagi voqealar majmui emas, balki sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qilish orqali milliy o'zlikni anglash [5],

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

bugungi kun uchun xulosalar chiqarish va kelajakni modellashtirishga o‘rgatuvchi tafakkur maktabidir.

Afsuski, amaliyotda tarix darslari ko‘pincha reproduktiv (xotirada qayta tiklashga asoslangan) metodlarga tayanib, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish o‘rniga, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmoqda. Ayniqsa, psixologik jihatdan eng murakkab davrlardan birini boshdan kechirayotgan 7–8-sinf o‘quvchilari bilan ishlashda kreativlikni rag‘batlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tadqiqotning dolzarb vazifasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning markaziy masalalaridan biridir. L.S. Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ta’lim jarayonini o‘quvchining joriy bilim darajasidan biroz yuqoriroq, biroq ustoz yordamida uddalasa bo‘ladigan darajada tashkil etish kreativlikni rag‘batlantirishini ko‘rsatadi [2]. J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi esa bilimni tayyor holda berishdan voz kechib, o‘quvchini bilimni o‘zi “kashf etishga” undash zarurligini asoslaydi. O‘zbekistonlik olimlardan N.N. Azizxo‘jayeva, B. Ziyomuhammadov kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida interfaol pedagogik texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi rolini chuqur o‘rganishgan [1; 4].

Ushbu tadqiqotda 7–8-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va ularni tarix darslarida kreativlikni rivojlantirish bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, psixologik-pedagogik kuzatuv hamda interfaol metodlarni (muammoli ta’lim, loyiha, rolli o‘yinlar) amaliyotga tatbiq etish usullaridan foydalanildi. Asosiy e’tibor o‘smirlarning psixologik ehtiyojlarini (o‘zini namoyon qilish, mustaqil fikr bildirish, ijtimoiy faollik) o‘quv jarayonining markaziga qo‘yishga qaratildi.

Tarix fanini o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonining ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga qay darajada mos kelishiga bog'liqdir. Ayniqsa, shaxs sifatida shakllanishning eng faol va murakkab bosqichlaridan birini boshdan kechirayotgan 7–8-sinf o‘quvchilari (13–15 yosh) bilan ishlash alohida yondashuvni talab etadi. Bu davrda o'smir psixologiyasida fundamental o‘zgarishlar kuzatiladi va ularni tarix darslarida kreativlikni rag'batlantirish uchun hisobga olish zarur.

Bu yoshdagi eng muhim o'zgarishlardan biri — konkret-obrazli fikrlashdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o'tish jarayonining faollashuvidir [2]. Ya'ni, o'smirlar endi nafaqat aniq faktlar, sanalar va hodisalarni qabul qilish, balki ular ortidagi umumiy qonuniyatlarni, g'oyalarni va sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishga qodir bo'ladilar. Ular gipotetik (taxminiy) fikrlay oladilar, bu esa “agar shunday bo'lmaganida, nima bo'lar edi?” qabilidagi savollarga javob izlashga undaydi. Bu xususiyatni hisobga olgan o'qituvchi darsni shunchaki faktlar bayonidan iborat qilmasdan, o'quvchini hammuallifga, tadqiqotchiga aylantirishi lozim. “Nima uchun Rim imperiyasi quladi? Faqat varvarlar hujumi sabab bo'lganmi yoki ichki omillar muhimroq edimi?” kabi muammoli savollarni o'rtaga tashlash o'quvchini tayyor javoblarni takrorlashga emas, balki turli manbalarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

solishtirishga, o'zining mustaqil va asoslangan xulosalarini shakllantirishga undaydi va bu kreativ fikrlash uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birga, o'smirlik – bu “Men kimmam?” degan savolga javob izlash davri bo'lib, bu jarayonda “Men-konsepsiyasi” va o'zlikni anglash faollashadi. O'quvchi o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida anglay boshlaydi, o'zining milliy, madaniy va fuqarolik o'zligini faol qidiradi. Tarix fani esa bu jarayonda o'z ildizlarini topish, milliy qahramonlar bilan faxrlanish va ajdodlar yo'l qo'ygan xatolardan saboq olish uchun muhim manbaga aylanadi [5]. Shu sababli, o'qituvchi tarixiy shaxslarni biryoqlama, faqat “yaxshi” yoki “yomon” deb baholashdan tiyilishi muhim. Buning o'rniga, ularning qarorlariga ta'sir qilgan murakkab siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy motivlarni ochib berish orqali o'quvchida empatiya (hamdardlik) hissini rivojlantirish [2] va tarixiy voqealarni chuqurroq tahlil qilishga o'rgatish kerak. Bu esa o'smirning o'z qadriyatlar tizimini shakllantirishiga va axloqiy mezonlarini belgilab olishiga yordam beradi.

Nihoyat, bu davrda ijtimoiy faollik kuchayib, tengdoshlar fikrining ustuvorligi ortadi. O'smirlar uchun tengqurlari orasidagi obro'-e'tibor va ularning fikri kattalarning fikridan muhimroq bo'lib qoladi. Ular jamoaviy faoliyatga, guruhlarda ishlashga, bahs-munozaralarda o'z fikrini himoya qilishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Bu xususiyat an'anaviy “o'qituvchi gapiradi, o'quvchi jim tinglaydi” formatidagi darslarning samarasizligini ko'rsatadi. Shu bois dars jarayonini kichik guruhlarda ishlash, debat-musobaqalar kabi interfaol shakllarda tashkil etish zarur [4]. Bunday darslar nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarda jamoada ishlash, munozara madaniyati va o'z nuqtai nazarini ishonchli dalillar bilan himoya qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Bu jarayonda o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va o'z bilimlarini ijtimoiy muhitda sinab ko'radilar, bu esa kreativ g'oyalarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan psixologik xususiyatlardan kelib chiqib, 7–8-sinf o'quvchilarining tarix darslarida kreativligini rag‘batlantirish uchun bir qator interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Bularning birinchisi muammoli-vaziyatli o‘qitish metodidir. Bunda o‘quvchilarga tayyor ma'lumot berish o'rniga, ularning oldiga aniq bir tarixiy muammo yoki keys qo'yiladi [1]. Masalan, “Siz sarkarda Jaloliddin Manguberdi maslahatchisisiz. Mo‘g‘ul qo‘shinlari Sirdaryo bo‘yida turibdi. Jang qilish kerakmi yoki chekinib, kuch to‘plash afzalmi? O‘z qaroringizni tarixiy dalillar bilan asoslang” kabi vazifa berilishi mumkin [8]. Bu metod o‘quvchini shunchaki faktlarni eslashga emas, balki strategik fikrlashga, vaziyatni tahlil qilishga va qabul qilgan qarorining oqibatlarini bashorat qilishga majbur qiladi [7]. Fikrimizcha, bu metodning eng katta yutug‘i – u tarixni “yagona to‘g‘ri javob” mavjud bo‘lgan fan qolipidan olib chiqadi. O‘quvchi Jaloliddin Manguberdining o‘rnida turib, tarixiy shaxslar ham ko‘pincha qiyin tanlovlar qarshisida qolganini, ularning qarorlari o‘sha davr sharoitidan kelib chiqqanini anglab yetadi. Bu esa o‘quvchida dogmatik fikrlashdan voz kechib, tarixiy voqealarga tanqidiy va muqobil nuqtai nazardan qarash ko‘nikmasini shakllantiradi. Aslida, bu metod orqali biz o‘quvchilarga nafaqat tarixni, balki qaror qabul qilish san’atini ham o‘rgatamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Ikkinchi samarali metod – “Tarixiy rekonstruksiya” va rolli o‘yinlardir. Bu metodlar o‘quvchilarga tarixiy muhitga “sho'ng'ish” va voqealarni his qilish imkonini beradi [3]. Aytaylik, “Kattalar kengashi” o‘yini orqali o‘quvchilar qadimgi qabilaning oqsoqollari sifatida suv manbalari yoki yaylovlar uchun qo‘shni qabila bilan yuzaga kelgan kelishmovchilikni qanday hal qilishni muhokama qiladilar. Yoki “Tarixiy sud” tashkil etib, biror munozarali shaxs (masalan, Nodirabegimning qatl etilishiga sababchi bo‘lgan amaldorlar) ustidan “mahkama” o‘tkazish mumkin. Bu kabi mashg'ulotlar o'quvchida empatiya tuyg'usini, kommunikativ ko‘nikmalarni va tarixiy manbalar bilan ishlash qobiliyatini samarali rivojlantiradi [4]. Bizningcha, “Tarixiy rekonstruksiya” metodi shunchaki o‘yin emas, balki o‘quvchini tarixiy voqelikning faol ishtirokchisiga aylantiruvchi psixologik vositadir. O‘quvchi o‘zini qabila oqsoqoli yoki sud hay’ati a’zosi sifatida his qilganida, uning uchun tarix kitobdagi quruq matndan jonli voqelikka aylanadi. Aynan shu jarayonda yuzaga keladigan hissiy bog‘liqlik (empatiya) olingan bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanib qolishini ta’minlaydi. Qolaversa, bu metod o‘quvchilarning jamoada ishlash, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va boshqalarni tinglash kabi ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun ham beqiyos imkoniyatdir.

Uchinchi yondashuv – loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning) bo'lib, u o‘quvchilarning mustaqil izlanish va ijodkorlik qobiliyatini maksimal darajada yuzaga chiqaradi [7]. Bunda loyiha mavzularini o‘quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib tanlash muhim ahamiyatga ega. Loyihalar turli yo'nalishlarda bo'lishi mumkin: masalan, tadqiqot loyihasi sifatida “Buyuk Ipak yo‘li mening shahrimdan o‘tganmi?” mavzusida muzeylar, keksalar xotiralari va toponimik nomlar asosida kichik tadqiqot o‘tkazish; ijodiy loyiha doirasida Amir Temur davri qurol-aslahasi yoki

Buxoro amirligi saroyidagi liboslar eskizlarini yaratish va ularning tarixiy asosini tushuntirib berish [3]; yoki raqamli loyiha ko'rinishida tarixiy voqeaga bag‘ishlangan qisqa animatsion film, interaktiv xarita yoki ijtimoiy tarmoqda tarixiy shaxs nomidan “blog” yuritish. Raqamli loyihalar zamonaviy o‘smirlarning texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini o‘quv maqsadlariga samarali yo‘naltiradi [6]. Bu metodlarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchining roli tubdan o‘zgaradi: u an’anaviy “ma’lumot uzatuvchi”dan zamonaviy “fasilitator” (yo‘naltiruvchi, tashkilotchi)ga aylanadi. Uning asosiy vazifasi – to‘g‘ri javobni aytish emas, balki to‘g‘ri savollar qo‘yish orqali o‘quvchini o‘zi mustaqil ravishda javob topishga ruhlantirishdir [1; 7].

Buning uchun esa o‘qituvchidan yangi kompetensiyalar talab etiladi. U endi darslikdagi mavzuni shunchaki aytib beruvchi emas, balki o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan o‘quv "tajribasini" dizayn qiluvchi shaxsga aylanadi. U qaysi metodni (loyiha, keys-stadi, debat) qaysi mavzuga qo‘llashni va natijani qanday baholashni oldindan rejalashtirishi, kreativ dars jarayonida har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini diagnost sifatida kuzatib borishi, individual yondashuv orqali uning salohiyatini maksimal darajada ochishga yordam berishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘smirlar uchun muhim bo‘lgan motivatsion spiker vazifasini ham bajaradi: muvaffaqiyatsizlikka uchragan o‘quvchini tanqid qilish o‘rniga, uni qo‘llab-quvvatlaydi va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

muvaffaqiyatli g‘oyalarni butun sinf oldida e’tirof etib, boshqalarni ilhomlantiradi. Bu vazifalarni bajarish uchun kreativlikni rag'batlantiruvchi xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish shart. O'quvchi o'z fikrini aytishdan, g'alati tuyulgan savolni berishdan va eng muhimi – xato qilishdan qo'rqmasligi lozim. Bunga "ahmoqona savol bo'lmaydi" tamoyiliga amal qilish, xatoga bilim yetishmasligi emas, balki izlanishning bir qismi sifatida qarash hamda o'qituvchi va o'quvchi teng huquqli hamkorlarga aylanadigan demokratik muhitni yaratish orqali erishiladi.

XULOSA. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 7–8-sinf o'quvchilarining tarix darslarida kreativligini rivojlantirish – bu shunchaki qo'shimcha vazifa emas, balki zamonaviy ta'limning fundamental talabi va o'smirlarning yosh psixologiyasini chuqur anglashga asoslangan pedagogik zaruratdir. Faqatgina fakt, sana va voqealarni yodlatishga asoslangan an'anaviy yondashuv bu yoshdagi o'quvchining na fanga bo'lgan qiziqishini uyg'ota oladi, na uning intellektual salohiyatini to'liq yuzaga chiqara oladi.

Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish orqali bir qator kompleks natijalarga erishish mumkin. Birinchidan, o'quvchilarning fanga bo'lgan motivatsiyasi keskin ortadi, chunki ular darsning faol ishtirokchisiga, kichik tadqiqotchiga aylanadi. Ikkinchidan, yuzaki, mexanik yodlashdan voz kechilib, tafakkurning yuqori bosqichlari ishga solinadi: o'quvchilar tarixiy voqealarni tahlil qilishga, tanqidiy baholashga va muqobil nuqtai nazarlarni tushunishga o'rganadilar. Uchinchidan, loyihalar va guruh ishlarida qatnashish orqali o'smirlarda kommunikatsiya, hamkorlikda ishlash, o'z fikrini asosli himoya qilish kabi XXI asrning hayotiy muhim ko'nikmalari rivojlanadi. Shunday qilib, tarix darslarini o'smirlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish va kreativlikni rag'batlantiruvchi metodlarni qo'llash – bu ikki tomonlama yutuq strategiyasidir. U bir tomondan, tarix fanining o'zlashtirish sifatini oshirsa, ikkinchi tomondan, maktab partasidanoq mustaqil, ijodkor va tanqidiy fikrlay oladigan kelajak avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: АСТ, 2008.
3. G‘afforov Y., G‘ulomov X. Tarix o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
4. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2001.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
7. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – Москва: Народное образование, 1998.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

8. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi (7-sinf darsligi). – Toshkent: Sharq, 2023.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tursunova Sevarxon Umarovna**, mustaqil tadqiqotchi [**Турсунова Севархон Умаровна**, независимый исследователь], [**Tursunova Sevarxon Umarovna,** independent researcher,]; manzil: Namangan shaxar, Uychi ko'chasi 316-uy, [адрес: город Наманган, улица Уйчи, дом 316], [address: 316 Uichi Street, Namangan City.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Original paper

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA TALABALARNING O'QUV MOTIVATSIYASI

© A.Q. Abdullayev [1]✉, K.K. Xamzaliyev[2]✉
[1,2]Qo'qon davlat unversiteti, Qo'qon, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi ta'limni raqamlashtirish va yangi o'quv muhitini shakllantirishni talab qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va elektron resurslarning qo'llanilishi o'qitish jarayonini moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarning o'quv motivatsiyasi qanday o'zgarayotgani masalasini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

**MAQSAD:** raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish sharoitida talabalarning o'quv motivatsiyasi tarkibi va dinamikasini ochib berishdir. Shuningdek, raqamli o'quv vositalarining motivatsiyani oshirishdagi afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda raqamli ta'lim muhitini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ishda raqamli ta'lim, o'quv motivatsiyasi va gamifikatsiya bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar, normativ hujjatlar va strategik dasturlar (jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030") tahlil qilindi. Tizimli va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida raqamli texnologiyalarning motivatsiyaga ta'sirini ifodalovchi konseptual model ishlab chiqildi, ta'lim amaliyoti misollari esa konseptual darajada umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar shuni ko'rsatdiki, interfaol platformalar, gamifikatsiya, tezkor fikr-mulohaza va moslashuvchan o'qish sur'ati talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va mustaqil ta'limga rag'batni oshiradi. Shu bilan birga, texnik infratuzilma muammolari, chalg'ituvchi onlayn omillar, raqamli charchoq va yuzma-yuz muloqotning qisqarishi motivatsiyani pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Samarali raqamli ta'lim uchun pedagogning raqamli kompetensiyasi, adolatli baholash tizimi va psixologik qo'llab-quvvatlovchi muhit muhim shart ekani asoslab berildi.

**XULOSA:** raqamli texnologiyalarni puxta o'ylangan didaktik va psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish talabalarning o'quv motivatsiyasini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda gamifikatsiya, loyihaviy o'qitish, aralash ta'lim va shaffof baholash mexanizmlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli ravishda ko'taradi. Olingan natijalar oliy ta'limda raqamli muhitni takomillashtirish va talabalar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha metodik asos sifatida qo'llanishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, o‘quv motivatsiyasi, raqamli ta’lim muhiti, gamifikatsiya, interfaol o‘qitish, raqamli kompetensiya.

**Iqtibos uchun**: A.Q.Abdullayev. Xamzaliyev K.K Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish va ulardan foydalanish sharoitida talabalarning o‘quv motivatsiyasi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.281-288.

# УЧЕБНАЯ МОТИВАЦИЯ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

© А.К. Абдуллаев[1]✉, К.К. Хамзалиев[2]✉
[1,2]Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** цифровизация образования создаёт новые формы учебной среды, в которой расширяются возможности доступа к знаниям и индивидуализации обучения. Использование электронных ресурсов, виртуальных лабораторий и онлайн-курсов меняет характер взаимодействия преподавателя и студента и по-новому ставит вопрос о структуре учебной мотивации. В этих условиях важно научно осмыслить, какие именно аспекты цифровых технологий усиливают или, напротив, снижают учебную активность.

**ЦЕЛЬ:** выявить особенности влияния цифровых технологий на учебную мотивацию студентов и описать факторы, усиливающие или ослабляющие её в цифровой образовательной среде. Дополнительно преследуется задача разработки методических подходов к организации цифрового обучения, ориентированных на поддержку внутренней мотивации и самостоятельности обучающихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** теоретической основой послужили труды по цифровой дидактике, мотивации обучения и геймификации, а также нормативные документы и стратегии цифровизации образования в Республике Узбекистан. Использованы системный и компетентностный подходы, элементы педагогической и возрастной психологии; эмпирические наблюдения за практикой применения цифровых платформ были обобщены в рамках концептуальной модели.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что интерактивные курсы, геймифицированные элементы, оперативная обратная связь и гибкий темп обучения повышают познавательный интерес, ощущение успеха и включённость студентов в учебную деятельность. Одновременно выделены проблемные зоны: техническая неравномерность, цифровая перегрузка, отвлекающие онлайн-факторы и сокращение живого общения, способные снижать мотивацию. Обосновано, что ключевыми условиями её поддержания являются цифровая компетентность преподавателя, продуманная методика использования технологий и психологически комфортная цифровая среда.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** грамотно спроектированное использование цифровых технологий в сочетании с мотивационно ориентированными педагогическими стратегиями способствует устойчивому росту учебной мотивации студентов. Интеграция геймификации, проектного и смешанного обучения, а также прозрачных систем оценивания позволяет повысить эффективность цифрового образования. Полученные выводы могут служить основой для совершенствования цифровой образовательной среды и программ повышения квалификации преподавателей.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, учебная мотивация, цифровая образовательная среда, интерактивное обучение, геймификация, цифровая компетентность.

**Для цитирования**: А.К. Абдуллаев, Хамзалиев К.К. Учебная мотивация учащихся в условиях внедрения и использования цифровых технологий в образовательный процесс.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 281-288.

## EDUCATIONAL MOTIVATION OF STUDENTS IN THE CONTEXT OF THE INTRODUCTION AND USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

© A.Q. Abdullayev[1]✉, K.K.Xamzaliyev[2]✉
[1,2]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the digitalization of education has created new learning environments that expand access to knowledge and promote individualized learning paths. The use of e-resources, virtual laboratories and online courses reshapes teacher–student interaction and raises new questions about the nature of learning motivation. In this context, it is essential to understand which aspects of digital technologies enhance motivation and which may undermine students' engagement.

**AIM:** the aim of the study is to identify how digital technologies influence university students' learning motivation and to outline the factors that strengthen or weaken it within a digital learning environment. A further aim is to develop methodological approaches to organizing digital instruction that support intrinsic motivation, autonomy and active participation in learning.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on national and international studies in digital didactics, learning motivation and gamification, as well as on policy documents and strategies for education digitalization in Uzbekistan. A systemic and competence-based approach was combined with principles of educational and developmental psychology; empirical observations from digital teaching practice were conceptually generalized into an analytical model.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that interactive courses, gamified elements, immediate feedback and flexible pacing can significantly increase students' interest, sense of achievement and involvement in learning activities. At the same time, technical inequalities, digital overload, distracting online factors and reduced face-to-face communication may negatively affect motivation. The study argues that teachers' digital competence, well-designed pedagogy and a psychologically supportive digital environment are crucial conditions for maintaining high levels of learning motivation.

**CONCLUSION:** when used within carefully designed pedagogical frameworks, digital technologies can make the learning process more engaging, flexible and effective, thereby enhancing students' motivation. The integration of gamification, project-based and blended learning, along with transparent digital assessment systems, contributes to higher quality and sustainability of digital education. The results can inform the development of digital learning environments and professional development programs for university teachers.

**Keywords:** digital technologies, learning motivation, digital learning environment, interactive learning, gamification, digital competence.

**For citation**: Abdullayev A.Q., Xamzaliyev K.K. (2025) 'Educational motivation of students in the context of the introduction and use of digital technologies in the educational process', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 281-288. (In Uzbek).

**B**ugungi globallashuv jarayonida ta'limning raqamlashtirilishi axborot texnologiyalariga asoslangan yangi o'quv muhitini shakllantirmoqda. Raqamli texnologiyalar qo'llanilishi ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qitish jarayonini interfaol, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan shaklga keltiradi. Ayniqsa, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishda raqamli ta'lim vositalari muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimi jadal sur'atlarda raqamlashtirilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar, onlayn-o'qitish tizimlari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar, interaktiv multimedia vositalari keng qo'llanilmoqda. Ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki talabalarning o'quv motivatsiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur referatda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish samaradorligi hamda talabalar motivatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi roli

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

ta'lim sifati va mazmunini boyitadi;

o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

o‘quv jarayonini individuallashtiradi;
mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

Masofaviy ta’lim platformalari, virtual sinflar, raqamli laboratoriyalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari talabalarga bilimlarni yangi usulda egallash imkonini bermoqda.

2. O‘quv motivatsiyasi va uning shakllanishi

Motivatsiya — talabaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, ichki ehtiyoji va muvaffaqiyatga intilishidir. Raqamli texnologiyalar motivatsiyani:

gamifikatsiya;
vizual va audio materiallarning interfaolligi;
o‘z-o‘zini baholash tizimi;
tezkor fikr-mulohaza;
kompetensiyaga yo‘naltirilgan vazifalar orqali kuchaytiradi.

Bunday shart-sharoitlar talabaning faolligi oshiradi va bilimlarni o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzallik va cheklovlari

Afzalliklari:
ta’limga keng kirish imkoniyati;
bilish faoliyatini rag‘batlantirish;
hamkorlikda o‘qish imkoniyati;
ijodkorlikni rivojlantirish.

Cheklovlari:
texnik infratuzilma muammolari;
talabalarning raqamli savodxonligi yetarli emasligiga bog‘liq qiyinchiliklar;
chalg‘ituvchi vositalarning ko‘pligi;
yuzma-yuz muloqotning qisqarishi.

Bu holatlar o‘quv motivatsiyasiga salbiy ta’sir qilish ehtimolini keltirib chiqaradi. Shu bois raqamli ta’limdan samarali foydalanish uchun nazorat, metodik qo‘llab-quvvatlash va pedagogik strategiyalar muhim ahamiyatga ega. XXI asr raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davri bo‘lib, bu jarayon jamiyatning barcha sohalariga, jumladan ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko‘rsatmoqda. Buyuk britaniya ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini o‘rtacha 25% oshiradi (Department for Education, 2023). COVID-19 pandemiyasi esa bu jarayonni tezlashtirdi va butun dunyo bo‘ylab o‘quvchini onlayn ta'limga o‘tishga majbur qildi.

O‘zbekiston ham bu global tendentsiyadan chetda qolmadi. "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamlisamarali ishlar olib borilmoqda. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish nafaqat texnik masala, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni ham o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Shu sababli, ushbu tadqiqot zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning haqiqiy samaradorligini, mavjud muammolarni va kelajak istiqbollarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

ilmiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi

Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda ta’lim sohasini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar, ularning yechim yo‘llari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida raqamli texnologiyalarni joriy etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tadqiqot natijalari oliy va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar – bu kompyuterlar, internet, mobil qurilmalar, dasturiy mahsulotlar va sun‘iy intellekt vositalari orqali ta’limni tashkil etish va boshqarish tizimidir. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar ta’lim sifati, tezligi, uzluksizligi va interaktivligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Avvallari ta’lim jarayoni asosiy darslik va auditoriya bilan chegaralangan bo‘lsa, hozirda internet tarmog‘i orqali istalgan manbaga, darsga, leksiyaga kirish imkoniyati mavjud. Raqamli texnologiyalar — bu kompyuter, internet, multimedia, sun’iy intellekt, mobil ilovalar, elektron ta’lim tizimlari, raqamli kontent va platformalarga asoslangan zamonaviy texnologiyalardir.

Ta’lim jarayonida ular quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Interaktiv dars jarayoni – videodarslar, simulyatsiyalar, virtual tajribalar.

Masofaviy ta’lim – istalgan joydan o‘qish va topshiriqlarni bajarish.

Elektron resurslar – e-darslik, e-kutubxona, LMS (Moodle, Google Classroom, ZiyoNET).

Hamkorlik muhiti – onlayn guruh ishlari, forumlar, chatlar.

Bu imkoniyatlar ta’lim jarayonini an’anaviy modeldan farqli ravishda yanada erkin, moslashuvchan va talaba faoliyatiga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi.

2. Raqamli ta’lim sharoitida talabalarning o‘quv motivatsiyasi

O‘quv motivatsiyasi — bu talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi, ishtiyoqi va faoliyatga undovchi omillardir. Motivatsiya ichki (qiziqish, ehtiyoj, qoniqish) va tashqi (baholash, rag‘bat, nazorat) omillar orqali shakllanadi.

Raqamli texnologiyalar motivatsiyaga ijobiy ta’siri

Raqamli ta’lim muhitida quyidagi omillar motivatsiyani oshiradi:

Interaktivlik

– dars jarayonining jonli va qiziqarli bo‘lishiga olib keladi.

– vizual materiallar murakkab mavzularni oson tushuntiradi.

O‘zlashtirish sur’atini tanlash imkoniyati

– har bir talaba o‘z tezligida o‘qiydi, bu esa motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)

– ball to‘plash, reytinglar, badge’lar talabada raqobat hissini uyg‘otadi.

Darhol qayta aloqa

– onlayn testlar va avto-baholash tizimi bilim darajasini zudlik bilan ko‘rsatadi.

Masofadan o‘qish qulayligi

– vaqt va joydan qat’i nazar o‘qish imkoniyati.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

– bu ayniqsa ishchi talabalar uchun katta qulaylik yaratadi.

Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining rivojlanishi

– internet resurslaridan samarali foydalanish, izlanish, mustaqil loyihalar yaratish.

Raqamli texnologiyalarning salbiy ta’sirlari

Raqamli ta’lim bilan bog‘liq ayrim muammolar motivatsiyani pasaytirishi mumkin:

Texnik muammolar – internet sifati past bo‘lsa, darsga bo‘lgan qiziqish susayadi.

E’tiborning chalg‘ishi – ijtimoiy tarmoqlar va reklama vositalari diqqatni bo‘ladi.

Raqamli charchoq – uzoq vaqt ekran qarshisida o‘tirish salomatlikka ta’sir qiladi.

Ijtimoiy muloqotning kamayishi – faqat onlayn muloqotda bo‘lish ham motivatsiyani pasaytiradi.

3. Raqamli texnologiyalar yordamida motivatsiyani oshirish strategiyalari

Pedagogik yondashuvlar

Raqamli kontentni didaktik maqsadga mos yaratish
(videodarslar, animatsiyalar, interaktiv topshiriqlar).

O‘yin elementlarini qo‘llash
(badge, reyting, top-10, “missiya” topshiriqlari).

Talabalarni loyihaviy faoliyatga jalb qilish
(virtual laboratoriyalar, onlayn startap projektlar, dizayn ishlari).

Aralash ta’lim (blended learning)

– an’anaviy va raqamli ta’limning integratsiyasi.

Baholashning adolatli, ochiq va shaffof usullari

– LMS tizimida avtomatik reyting yuritish.

Psixologik yondashuvlar

Talabaning muvaffaqiyatini tez-tez qayd etish.

Ijobiy rag‘batlantirish (virtual sertifikatlar, sharafdoshlik belgisi).

O‘quvchi ehtiyojlari va qiziqishlariga mos materiallar bilan ishlash.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri

Raqamli vositalar:

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini jozibador, moslashuvchan va samarali qilishi bilan talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Ammo ularni kompetent va tizimli qo‘llagan holda texnologik va psixologik muammolarni yengish zarur. Kelgusida raqamli ta’limni metodik ta’minlash, pedagoglar raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va motivatsiyaga yo‘naltirilgan interfaol texnologiyalarni keng tatbiq etish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha farmonlari va qarorlari.
2. “Raqamli ta’lim texnologiyalari” – O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

3. Ziyomukhamedova F. “Pedagogika va raqamli ta’lim”. – T.: TDPU, 2021.
4. UNESCO. Digital Learning Framework, 2020.
5. Siemens G. E-learning and Digital Pedagogy. New York, 2019.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**A.Q.Abdullayev**, (DSc), dotsent [**А.К.Абдуллаев**, (DSc), доцент], [**A.Q.Abdullayev** (DSc), associate professor]; manzil: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy, [адрес: Ферганская область, город Коканд, улица Турон, дом 23], [address: 23 Turon Street, Kokand, Fergana region.]

✉**Xamzaliyev Kamol Kabirovich**, magistr [**Хамзалиев Камол Кабирович**, магистр, [**Xamzaliyev Kamol Kabirovich** master’s student]; manzil: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23- uy, [адрес: Ферганская область, город Коканд, улица Турон, дом 23], [address: 23 Turon Street, Kokand, Fergana region.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALAR SOG‘LIG‘INI SAQLASHDA PSIXOLOGIK YORDAMNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

© Z.Sh . Xaqiqatbekov[1]✉
[1] Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** Zamonaviy oliy ta’limda talabalar sog‘lig‘i jismoniy, psixologik va ijtimoiy omillar birligi sifatida qaraladi. Kirish qismida stress, moslashuv qiyinchiliklari va akademik bosim fonida psixologik yordamning dolzarbligi asoslanadi.

**MAQSAD:** Tadqiqotning maqsadi talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini aniqlashdir. Shuningdek, individual konsultatsiyalar va guruh shaklidagi psixologik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini baholash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqotda kuzatuv, intervyu, anketa va eksperimental yondashuvlar integratsiyalangan. Statististik tahlil, komparativ tahlil va sifat tahlili orqali psixologik yordam shakllari va ularning ijtimoiy-pedagogik ta’siri o‘rganilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Natijalar psixologik konsultatsiya, stressni boshqarish treninglari va motivatsion guruh mashg‘ulotlari talabalar ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Muhokamada Lazarus–Folkman stress nazariyasi va Millerning ijtimoiy-pedagogik yondashuvi birgalikda talabalarga ko‘mak berishning kompleks modeli sifatida talqin qilinadi.

**XULOSA:** Xulosa sifatida psixologik yordamning individual va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini birlashtirish talabalar sog‘lig‘ini saqlashda eng samarali yondashuv ekani ta’kidlanadi. Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va ularni ta’lim strategiyalariga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** talabalar sog‘ligi; psixologik yordam; ijtimoiy-pedagogik yondashuv; stressni boshqarish; motivatsiya; oliy ta’lim muassasalari; ruhiy salomatlik.

**Iqtibos uchun**: Xaqiqatbekov Z.Sh. Talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.289-296.

# СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ В ОХРАНЕ ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ

© З.Ш. Хакикатбеков[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении здоровье студентов описывается как единство физических, психологических и социальных факторов. Подчёркивается, что рост стресса, учебной нагрузки и адаптационных трудностей делает систему психологической помощи в вузах особенно актуальной.

**ЦЕЛЬ:** Цель исследования – выявить социально-педагогические основы психологической помощи в сохранении здоровья студентов. Дополнительно ставится задача оценить эффективность индивидуальных и групповых форм психологической поддержки.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** исследование опирается на наблюдение, интервью, анкетирование и элементы педагогического эксперимента. Количественные и качественные методы, а также сравнительный анализ использовались для изучения влияния психологической помощи и образовательной среды.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что психологические консультации, тренинги по управлению стрессом и мотивационные групповые занятия повышают эмоциональную устойчивость и улучшают учебную адаптацию студентов. В обсуждении интегрируются теория стресса Лазаруса–Фолкмана и социально-педагогические подходы Миллер, формирующие целостную модель поддержки.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод о том, что сочетание индивидуальных психологических стратегий и социально-педагогических механизмов является наиболее эффективным способом сохранения здоровья студентов. Рекомендуется системно развивать психологические службы в вузах и включать их в общую стратегию обеспечения благополучия обучающихся.

**Ключевые слова:** здоровье студентов; психологическая помощь; социально-педагогический подход; управление стрессом; мотивация; учреждения высшего образования; психическое здоровье.

**Для цитирования**: Хакикатбеков. З.Ш. Социально-педагогические основы психологической помощи в охране здоровья учащихся.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С. 289-296.

## SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE IN PROTECTING THE HEALTH OF STUDENTS

© Zafarbek Sh. Xaqiqatbekov[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction conceptualizes student health as the interplay of physical, psychological, and social factors. It emphasizes that rising stress, academic

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

overload, and adaptation challenges make structured psychological support in higher education increasingly necessary.

**AIM:** the study aims to identify the socio-pedagogical foundations of psychological assistance in preserving student health. A further aim is to evaluate the effectiveness of individual and group forms of psychological support in university settings.

**MATERIALS AND METHODS:** the research employs a mixed-methods design combining observation, interviews, questionnaires, and elements of pedagogical experimentation. Quantitative and qualitative analyses, together with comparative analysis, are used to explore the impact of psychological services and the learning environment.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings indicate that psychological counseling, stress-management training, and motivational group activities enhance students' emotional resilience and academic adaptation. The discussion integrates Lazarus and Folkman's stress theory with Miller's socio-pedagogical approaches, outlining a holistic model of student support.

**CONCLUSION:** the study concludes that combining individual psychological strategies with socio-pedagogical mechanisms is the most effective way to maintain student health. It recommends systematically developing university counseling services and embedding them into institutional strategies for student well-being.

**Keywords:** student health; psychological assistance; socio-pedagogical approach; stress management; motivation; higher education institutions; mental health.

**For citation**: Zafarbek Sh. Xaqiqatbekov. (2025) 'Socio-pedagogical foundations of psychological assistance in protecting the health of students', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. 289-296. (In Uzbek).

**Z**amonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalar sog'lig'i – bu nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy-fenomen sifatida qaraladi. Talabalar yoshidagi shaxslarning ruhiy barqarorligi, emotsional o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy muhit bilan samarali integratsiyasi ularning akademik muvaffaqiyati, ijodiy faolligi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, talabalar sog'lig'ini saqlash masalalari nafaqat tibbiy, balki psixologik va pedagogik jarayonlarning sintezini talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik yordam tizimining rivojlanishi global ta'lim standartlari va inson resurslarini rivojlantirish strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir[1]. Zamonaviy ta'lim muhitida talabalar ko'plab stress omillariga duch keladi: akademik yuklama, vaqtni boshqarish qiyinchiliklari, ijtimoiy moslashuv, o'zaro muloqotdagi qiyinchiliklar va kelajakdagi kasbiy faoliyatga oid noaniqliklar. Bularning barchasi talabalar ruhiy va jismoniy salomatligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shu bois, oliy ta'limda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik yondashuvlari talabalar shaxsini kompleks qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sifatida muhim ahamiyatga ega[2]. Psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslari bir nechta

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muhim komponentlardan iborat: birinchidan, bu – talabalar psixologik barqarorligini shakllantirish va ruhiy salomatlikni saqlashga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat; ikkinchidan, bu – ijtimoiy muhitni optimallashtirish va talabalar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani rivojlantirish vositasi; uchinchidan, pedagogik yondashuvlar orqali talabalarni stressli vaziyatlarda o‘zini tutish strategiyalariga o‘rgatish mexanizmi. Shu bilan birga, psixologik yordam nafaqat individuallikka qaratilgan bo‘lishi, balki talabalar guruhidagi ijtimoiy-dinamika va kollektiv faoliyatni ham qo‘llab-quvvatlashi lozim. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar ruhiy salomatligi va akademik muvaffaqiyati o‘rtasida mustahkam ijtimoiy-pedagogik bog‘liqlik mavjud. Stressni boshqarish texnologiyalari, motivatsion treninglar, psixologik konsultatsiyalar va guruh treninglari nafaqat psixologik barqarorlikni oshiradi, balki talabalarning o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga adaptatsiya bo‘lishini ham ta’minlaydi[3]. Shu jihatdan, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari oliy ta’limda talabalar sog‘lig‘ini saqlashning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Bundan tashqari, talabalar sog‘lig‘ini saqlashdagi psixologik yordamning nazariy asoslarini rivojlantirishda psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi[4].

Psixologiya talabalar emotsional va kognitiv jarayonlarini, pedagogika – ularning ta’lim faoliyatini va o‘rganish motivatsiyasini, sotsiologiya esa ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarni tahlil qiladi. Shu tarzda, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar talabalarni kompleks qo‘llab-quvvatlash, ularning stress omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordam tizimini samarali tashkil etishning amaliy ahamiyati shundaki, u talabalar ruhiy va jismoniy barqarorligini mustahkamlash, akademik va ijodiy salohiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy muhitda uyg‘unlashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari nafaqat talabalarning individual ehtiyojlariga, balki butun kollektiv va universitet madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5]. Kirish bo‘limida ushbu maqola doirasida ko‘rib chiqiladigan muhim savollar quyidagilar: talabalar sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va psixologik omillar; psixologik yordamning nazariy va amaliy asoslari; pedagogik yondashuvlar orqali stressni boshqarish va ruhiy barqarorlikni shakllantirish; oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordam tizimini samarali tashkil etish mexanizmlari. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy global ta’lim tizimida talabalar ruhiy salomatligi va psixologik barqarorligini ta’minlash oliy ta’limning sifatli faoliyati va yosh avlodni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tizimli tadqiq etish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va oliy ta’lim muassasalarida samarali qo‘llash bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili: Talabalar sog‘lig‘ini saqlash va ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar yetarlicha rivojlangan. Masalan,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Richard S. Lazarus va Susan Folkmanning stress va uning boshqarilishi bo‘yicha ishlari talabalar ruhiy salomatligi va psixologik yordam tizimlarini tadqiq etishda asosiy nazariy manba sifatida qaraladi. Lazarus va Folkman (1984) stressni baholash va uni boshqarishning kognitiv-emotsional mexanizmlarini o‘rganib, inson psixikasidagi moslashuv jarayonlarini aniqladilar, bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun psixologik yordamning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[6]. Ularning ta’kidlashicha, stressni boshqarish strategiyalari individual psixologik resurslarni mustahkamlash bilan birga, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarni ham optimallashtiradi. Bundan tashqari, Helen G. Millerning ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari bo‘yicha tadqiqotlari talabalar sog‘lig‘ini saqlash sohasida amaliy ahamiyatga ega. Miller (2019) oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordamning ijtimoiy kontekstini o‘rganib, guruh va kollektiv faoliyatning talabalar ruhiy salomatligiga ta’sirini ko‘rsatadi. Uning fikricha, pedagogik va psixologik strategiyalar talabalarni stressli vaziyatlarga tayyorlash, ularni emotsional barqarorlikka o‘rgatish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi[7]. Shu tarzda, Lazarus va Folkmanning stress nazariyasi hamda Millerning ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar konsepsiyasi birlashtirilganda, talabalar sog‘lig‘ini saqlash va psixologik yordamni tashkil etishning uzviy tizimi shakllanadi. Stressni baholash va boshqarish mexanizmlari talabalarni individual darajada qo‘llab-quvvatlashga imkon beruvchi strategiyalarni, pedagogik yondashuvlar esa ularni ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli integratsiya qilishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordamning samaradorligi nafaqat psixologik bilimlar, balki pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlar bilan mustahkamlanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini rivojlantirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar talabalar ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va akademik muvaffaqiyatini kompleks qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar va pedagogik strategiyalarni integratsiyalash, zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga mos keluvchi psixologik yordam tizimini yaratish uchun muhim shartdir.

Metodologik qism: Mazkur tadqiqotda talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini aniqlash va tizimli tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari ilmiy va amaliy jihatdan talabalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ruhiy barqarorligi, stress darajasi va ijtimoiy muhit bilan moslashuvini o‘rganishga imkon berdi. Shu maqsadda kvalitativ va kvantitativ metodlarning integratsiyasi amalga oshirildi: kuzatuv, intervyu va anketaviy so‘rovlar orqali talabalar ruhiy salomatligi va psixologik yordamning samaradorligi aniqlanib, statistik tahlil yordamida ularning ijtimoiy-pedagogik aspektlari o‘rganildi. Shuningdek, tadqiqotda eksperimental metod ishlatildi, bunda talabalar guruhlari psixologik qo‘llab-quvvatlash va pedagogik intervensiyalar bilan integratsiyalashgan holda kuzatildi. Eksperiment natijalari talabalar stressini boshqarish, emotsional barqarorlikni oshirish va ijtimoiy moslashuvni


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yaxshilash bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning metodologik asosini tashkil etuvchi boshqa yondashuv – analitik va komparativ tahlil, u orqali turli oliy ta’lim muassasalaridagi psixologik yordam tizimlari va pedagogik strategiyalar solishtirildi, mavjud tajribalar va yondashuvlar tizimli tarzda baholandi. Shu bilan birga, metodlar ijtimoiy-pedagogik amaliyot va psixologik nazariya o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlab, talabalar sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlashning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirdi. Natijada, mazkur metodologik yondashuvlar kompleksidan foydalangan holda, talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini aniqlash va ularni oliy ta’lim tizimida samarali qo‘llash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot metodlari ilmiy ishonchlilik va amaliy dolzarblikni ta’minlab, psixologik yordam tizimlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari yuqori samaradorlikka ega. Psixologik konsultatsiyalar, stressni boshqarish treninglari, motivatsion va guruh mashg‘ulotlari talabalarning ruhiy barqarorligini sezilarli darajada oshirdi, bu esa ularning akademik muvaffaqiyatiga va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Eksperimental tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, psixologik yordamning doimiy va tizimli tarzda qo‘llanilishi talabalar o‘rtasida stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini anglash va emotsional barqarorlikni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar talabalarning o‘zaro muloqotini va guruh ichidagi hamkorligini yaxshiladi, bu esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga xizmat qildi. Kvalitativ so‘rovlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar psixologik yordamni qabul qilish orqali o‘zlarida ichki resurslar va stressni boshqarish strategiyalarini shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari psixologik yordamning individual va kollektiv shakllarini integratsiyalashning muhimligini ko‘rsatdi. Individual konsultatsiyalar talabalarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashish imkonini yaratgan bo‘lsa, guruh mashg‘ulotlari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu tarzda, talabalar sog‘lig‘ini saqlash va psixologik barqarorlikni shakllantirishning kompleks yondashuvi, ularning ruhiy va jismoniy salomatligini barqaror darajada ta’minlashga yordam berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslari nafaqat individual, balki ijtimoiy va akademik kontekstlarda ham talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordamning tizimli va integratsiyalashgan shakllarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Muxokama: Talabalar sog‘lig‘ini saqlash va psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslarini rivojlantirish masalalarida xalqaro ilmiy maydonda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, Richard S. Lazarus va Helen G. Miller o‘rtasidagi ilmiy bahs ushbu masalani yaxlit tarzda ochib beradi. Lazarusning fikricha, stress va uning boshqarilishi talabalar ruhiy barqarorligining markaziy omili bo‘lib, psixologik yordam tizimlari avvalo individual psixologik resurslarni mustahkamlashga qaratilishi lozim[8]. U

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

stressni kognitiv baholash va unga moslashuv strategiyalari orqali bartaraf etish talabalar akademik muvaffaqiyati va ruhiy barqarorligini oshirishda asosiy mexanizm hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Lazarus psixologik yordamning samaradorligi ko‘proq individual psixologik texnologiyalar va shaxsiy strategiyalarga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Boshqa tomondan, Helen G. Miller psixologik yordamni faqat individual kontekstga cheklash yetarli emasligini ta’kidlaydi. Millerning fikricha, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar, guruh va kollektiv faoliyatni tashkil etish, talabalar o‘rtasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va pedagogik intervensiyalarni amalga oshirish orqali ruhiy salomatlikni barqarorlashtirish mumkin[9]. U stressni boshqarishning ijtimoiy konteksti va pedagogik mexanizmlarini birlashtirishni talabalar adaptatsiyasining asosiy omili deb hisoblaydi. Ushbu ikki olimning fikr-munozaralari aslida zamonaviy psixologik yordam tizimining ikki tomonlama yondashuvini – individual va ijtimoiy-pedagogik integratsiyani ochib beradi. Lazarus individual strategiyalarni ustuvor deb hisoblab, psixologik yordamning ichki resurslarni mustahkamlash qobiliyatini ta’kidlaydi, Miller esa ijtimoiy muhit va pedagogik mexanizmlarni birlashtirish zarurligini urg‘ulaydi. Shu tarzda, ular o‘rtasidagi polemika psixologik yordamning samaradorligini oshirish uchun har ikkala yondashuvni uyg‘unlashtirish lozimligini ko‘rsatadi[10]. Shuningdek, bahs-munozara shuni isbotlaydiki, oliy ta’lim muassasalarida talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning kompleks yondashuvi eng samarali vosita hisoblanadi. Individual psixologik strategiyalar talabalarni shaxsiy darajada qo‘llab-quvvatlasa, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar ularning kollektiv va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi. Natijada, zamonaviy talabalarning ruhiy barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuvi ikki olimning konseptual bahslari orqali ilmiy asoslangan holda mustahkamlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot amaliy jihatdan ham ahamiyatli bo‘lib, psixologik yordam tizimini tashkil etishda individual va ijtimoiy-pedagogik strategiyalarni uyg‘unlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Bu polemikalar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalar sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar sog‘lig‘ini saqlashda psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslari oliy ta’lim muassasalarida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, psixologik konsultatsiyalar, stressni boshqarish treninglari va motivatsion guruh mashg‘ulotlari talabalarning ruhiy barqarorligini oshirishda, shuningdek, akademik muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili Lazarus va Folkmanning stress nazariyasi hamda Millerning ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarini integratsiyalash orqali psixologik yordamning individual va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini birlashtirish muhimligini ko‘rsatdi. Metodologik jihatdan tadqiqot kvalitatif va kvantitativ metodlarni, eksperiment va komparativ tahlil yondashuvlarini birlashtirib, talabalar sog‘lig‘ini kompleks o‘rganish imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, psixologik yordamning doimiy va tizimli qo‘llanilishi talabalar stressini kamaytirish, emotsional barqarorlikni oshirish va guruh ichidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega. Xorijiy olimlar o‘rtasidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bahs-munozaralar esa individual strategiyalar va ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishning ilmiy asosini yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot amaliy jihatdan ham ahamiyatli bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordam tizimini optimallashtirish va talabalarning ruhiy salomatligini barqaror darajada saqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Umuman olganda, psixologik yordamning ijtimoiy-pedagogik asoslari talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash, akademik muvaffaqiyatni oshirish va oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.
2. Xakimov X., Farmonova M. Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 206-212.
3. Xabibullayevna Y. D. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 37. – C. 60-65.
4. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya. – 2008.
5. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma. – 2023.
6. Griffiths, “Behavioral Addiction in Students: Psychological and Environmental Determinants”, Routledge, London, 2021, 348 p.
7. Stallman, “University Student Wellbeing: A Systems-Based Approach to Academic Stress and Mental Health”, Springer, Berlin, 2022, 412 p.
8. Pirimovna T. C. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 155-160.
9. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T-2013 “Fan va texnologiyalar nashiryoti. – 2018.
10. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li**, tadqiqotchi[**Хакикатбеков Зафарбек Шавкатбек угли**, исследователь,], [**Xaqiqatbekov Sh.Zafarbek** researcher,]; manzil: 160107, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 161 Babur shokh St., 160107.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Original paper

# TALABALARNING BILISH VA GRAFIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK MUAMMOLARI

© N.O. Yakubova[1]✉
[1]Guliston davlat universiteti, Guliston, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirishda zamonaviy ta’lim tizimida chizmachilik va grafik tayyorgarlikni takomillashtirish, fazoviy tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta’limning muhim vazifalaridan biri ekani ko‘rsatiladi. Tasviriy san’at va chizmachilik mashg‘ulotlari orqali talabalarda ma’naviyat, mehnatsevarlik va mas’uliyat bilan birga, grafik madaniyatni shakllantirish zarurligi yoritiladi.

**MAQSAD:** talabalar bilish va grafik faoliyatini rivojlantirishda chizmachilik ta’limining pedagogik muammolarini aniqlash hamda fazoviy tasavvurni shakllantiruvchi samarali didaktik yondashuvlarni asoslash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** maqolada chizmachilik o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar, dastur va darsliklar, dars jarayonlari hamda talabalar ishlarining tahlili asosiy material sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotda tarixiy-pedagogik tahlil, qiyoslash, kuzatuv, tajriba-sinov mashg‘ulotlari va bilish faoliyatini modellashtirish usullaridan foydalaniladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalarda an’anaviy darslarda ko‘chirishga asoslangan faoliyat ustunligi, plastik materiallar bilan modellashtirishning yetarli qo‘llanmasligi, fazoviy tasavvur va mustaqil izlanish imkoniyatlarining cheklanishi ko‘rsatiladi. Fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun modellashtirish, aksonometrik tasvir, muammoli masalalar, o‘zaro va o‘zini nazorat qilishga tayangan bosqichma-bosqich bilish faoliyati samarali ekani asoslanadi.

**XULOSA:** xulosa sifatida chizmachilik ta’limida talabalar bilish va grafik faoliyatini rivojlantirish maxsus didaktik tizimni – fazoviy tasavvurni faollashtiruvchi topshiriqlar, mustaqil va ijodiy ishlar, modellashtirish hamda muammoli vaziyatlarni ta’limga kiritishni talab qilishi qayd etiladi. Bunday yondashuv tafakkur, fazoviy tasavvur, tashabbuskorlik va ijodkorlikni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** chizma; grafik faoliyat; fazoviy tasavvur; bilish faoliyati; modellashtirish; tahliliy-sintetik fikrlash; mustaqil ish.

**Iqtibos uchun**: Yakubova N.O. Talabalarning bilish va grafik faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muammolari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.297-304.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ И ГРАФИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

© Н.О. Якубова[1]✉
[1] Гулистанский государственный университет, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении подчеркивается значимость совершенствования графической подготовки в современном образовании, где развитие пространственных представлений и технического мышления выступает важной целью. Отмечается роль занятий по черчению и изобразительному искусству в формировании у студентов культуры мышления, ответственности и трудовой дисциплины.

**ЦЕЛЬ:** выявить педагогические проблемы в развитии познавательной и графической активности студентов и обосновать эффективные методические подходы к формированию их пространственных представлений.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использованы исследования по методике преподавания черчения, учебные планы и программы, анализ учебников и практических заданий, а также наблюдения за учебными занятиями. Применялись методы теоретического анализа, сопоставления, педагогического наблюдения, экспериментальных занятий и моделирования познавательной деятельности.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что дробление содержания, преобладание фронтальных работ и копирования изображений снижают активность и творческий потенциал учащихся, не обеспечивая полноценного формирования пространственного мышления. Показано, что включение моделирования, работы с объемными формами, аконометрических построений, проблемных задач и элементов само- и взаимоконтроля способствует активизации познавательной деятельности и развитию графических умений.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что развитие познавательной и графической деятельности в обучении черчению требует специальной дидактической системы, направленной на формирование пространственных представлений и творческого мышления на основе поэтапно организованных заданий. Такой системный подход обеспечивает рост наблюдательности, самостоятельности, инициативности и графической культуры студентов.

**Ключевые слова:** чертеж; графическая деятельность; пространственные представления; познавательная активность; моделирование; аналитико-синтетическое мышление; самостоятельная работа.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

**Для цитирования**: Якубова.Н.О. Педагогические проблемы развития познавательных и графических способностей учащихся.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 297-304.

# PEDAGOGICAL PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE AND GRAPHIC ABILITIES OF STUDENTS

©Nafisa O. Yakubova[1]✉
[1]Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction emphasizes the importance of improving graphic training in modern education, where the development of spatial imagination and technical thinking is a key objective. The role of drawing and art classes in fostering students' intellectual culture, responsibility and work discipline is highlighted.

**AIM:** the aim of the study is to identify pedagogical problems in developing students' cognitive and graphic activity and to substantiate effective methodological approaches to forming their spatial imagination.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on research in the methodology of teaching drawing, curricula and syllabi, analysis of textbooks and practical tasks, as well as observation of classroom practice. Theoretical analysis, comparison, pedagogical observation, experimental training sessions and modeling of cognitive activity were used as the main methods.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that fragmented content, the prevalence of frontal work and copying from the blackboard reduce students' activity and creative potential and do not ensure full development of spatial thinking. It is demonstrated that the integration of modeling with real and virtual objects, axonometric constructions, problem-based tasks and elements of self- and peer-assessment activates cognitive activity and supports the formation of stable graphic skills.

**CONCLUSION:** it is concluded that developing cognitive and graphic activity in drawing education requires a special didactic system that purposefully forms spatial imagination through step-by-step tasks and creative independent work. Such an approach promotes students' observation, independence, initiative and graphic culture, contributing to their overall intellectual growth.

**Keywords:** drawing; graphic activity; spatial imagination; cognitive activity; modeling; analytic–synthetic thinking; independent work.

**For citation**: Nafisa O. Yakubova. (2025) 'Pedagogical problems of the development of cognitive and graphic abilities of students', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 297-304. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy manbalarni yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash muhim

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Shu sababli, dars jarayonlarini xozirgi ta’lim tizimi yo‘nalishiga oid uslublarda ishlab chiqib va uni amaliyotga tadbiq etish katta vazifalardan biridir. Umumiy o‘rta ta`lim maktablarida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri bu tasviriy san`at to‘garak mashg’uloti bo‘lib, bunda o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasi, badiiy ta’limi, mehnat intizomini kuchaytirish muhim bo‘g’ini hisoblanadi. Ularda tafakkur qilish madaniyat va ma`naviy fikrlash, maqsadga yo‘naltirilganlik, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, yuklatilgan vazifaga nisbatan javobgarlik hissini sezish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Chizmachilik o‘qitish metodikasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Chizmachilikdan 1970-yillarga xos vazifalarga yaqin bo‘lgan dissertasiyalarga murojat qilamiz. Bunday ishlarga K.S.Satimovning [132] nomzodlik dissertasiyasini misol qilib keltirish mumkin. Uning 1972 yilda yoqlangan “O‘rta umumiy ta’lim maktablarida chizmachilik o‘qitishning didaktik asoslari” deb nomlangan ilmiy tadqiqotini sarlavhasi bo‘yicha fikr yuritilsa, tadqiqot har bir chizmachilik darsining yangicha tashkil etib o‘tkazishni anglatishi kerak edi. Ammo, bu ish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil ilmiy-tadqiqotning siyqaligidan dalolat beradi.

Darslarning tarkibidagi topshiriqlarning murakkablik darajasi o‘quvchilarning butun dars davomida uzluksiz bosh qotirib ishlashlariga imkon bermaydi. Ko‘pchilik darslarni umumlashtirishga to‘g’ri keladi, chunki ko‘pgina dars mavzulari haddan tashqari maydalashtirib yuborilgan. Darslarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlari o‘qituvchi ketidan doskadagi tasvirni ko‘cherish bilan chegaralangan. Tabiyki, bunday nusha ko‘cherish usulida o‘quvchining faolligi susayadi, ularning ijodiy faoliyati chegaralanib qoladi. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muallif dasturda ko‘zda tutilgan grafik va amaliy ishlar majburiy minimumiga kiruvchi ishlar mazmunini to‘la ochib bermagan, bunday pala-partishliklar ilmiy tadqiqotda ba’zan ko‘rinib turadi. Masalan, dasturda ko‘zda tutilgan ikkinchi amaliy ish chizma bo‘yicha plastilin, karton va simdan model yasashni, uning chizmasini bajarish bilan almashtirib qo‘yilgan.

Chizmalarni og’zaki o‘qish, prizma, silindr, konus va piramidalarning chizmasi va sirtini yoyish bilan almashtirilgan. Bu ishlarni frontal ravishda o‘tkazish rejalashtirilgan bo‘lib, unga 3 soatdan ko‘proq vaqt ajratilgan. Faqat to‘rtinchi soatdan keyingina xuddi shu tarzdagi ish mustaqil bajarish uchun o‘quvchilarning o‘zlariga topshirish rejalashtirilgan. Eng muhim bo‘lgan karton materiallaridan predmetlarning sirtini yoyib ularning modellarini yasashday foydali ish ilmiy tadqiqotchining nazaridan chetda qolgan. Chizmalarni chizish usuli va ularning aksonometriyada tasvirlash darslikda ko‘rsatilgan bo‘lib, to‘g’ri burchakli proeksiyalash bilan parallel berilmagan.

Mashg’ulot jarayonida mazkur vazifalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari negizida qo‘llash o‘quvchilar natijalarini yuqoriga olib chiqishda yanada samarali sanaladi. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning xususiyati haqidagi ilk manbalar qadim zamonlarga borib taqaladi. O‘quvchilar bilish faoliyatining narsa, jarayon va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga yordam berishi, hotirani mustahkamlash qadim zamonlardayoq ma`lum bo‘lgan. Yaqin va O‘rta Sharqdagi yashab iyod etgan o‘rta asirlik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

mutafakirlar ijodiy ilmiy bilishning tur ta'moyil, tuzilish mezonlari inson aqliy rivoji va kamoli bilan bog'liqligiga jiddiy etibor berilgan [16,19].

Beruniyning ilmiy merosida tabiyatni o'rganish va bilishning ilmiy metodiga katta o'rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og'zaki va yozma yodgorliklarni o'rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirishva haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Beruniy fazoni o'lchash haqida gapirib, oltita tomonni–o'lchovining yo'nalishlarini aniqlaydi. So'ngra tekislik, to'g'ri chiziq, burchaklar, ularning turlari, doira va undagi chiziqlar, to'rtburchakning turlari, parallel to'g'ri chiziqlar, ularni bir to'g'ri chiziq kesganda hosil bo'lgan burchaklar, urunma, ichki va tashqi chizilgan shakillar bayon etiladi, shuningdek, to'g'ri chiziqli shakillarning yuzalarini aniqlash qoidalari, aylana uzunligi va doira yuzini hisoblash qoidalari berilgan.[23]

Asarning stereometriyaga doir bo'limida kub, prizma, silindr, konus, shar, shar bo'laklari, sferik shakillar, ularning sirtlari va hajimlarini aniqlash qoidalari berilgan. Shuningdek, bu bobda konus kesimlaridan iborat ikkinchi tartibli egri chiziqlarning hosil qilinishi, ya'ni konusni turli vaziyatdagi tekisliklar bilan kesganda kesimda aylana, ellips, giperbola, parabola va to'g'ri chiziq xosil bo'lishi haqida ma'lumotlar bor.

Masalan Ibin Sinoning "Donishnoma" asarining geometriyaga oid bobida, jumladan geometric asboblardan sirkul (pargar) hamda chizg'ich bilan bajariladigan masalalarning bajarilish tartibi tushuntirib beriladi. Mehanikaga bag`ishlangan boblarda esa chig'iriq, blok, vint, pona kabi oddiy mashinalarning tuzilishi bayon qilinadi hamda ular chizma va grafik tasvirlarda yaqqol ko'rsatib beriladi. Shunisi diqqatga sazavorki chig'iriq, vint, pona kabilarning yaqqol tasviri proeksiyada ko'rsatilgan bo'lib, u aksonametrik yani frontal-dimmetrik proeksiyaga juda yaqin turadi. Blok ustun kabilar esa, aksonametrik proeksiya bilan omixtalashtirilgan holda perspektivada tasvirlanadi. Ibin Sino bu asarda mexanizimlarning yaqqol tasviri bilan bir qatorda, ularning chizmasini sxemada ham tasvirlaydi. Chunonchi, g'ildirak bilan vintlarni, shunigdek g'ildirak, vint va biloklarni tutashtirishni tasvirlar ekan, ayni paytda ularni chizmalarda ko'rsatadi. Bular yig'ma chizmalar bo'lib, hozirgi zamon kinematic sxemalarini eslatadi [16].

Hozirgi kunda ham bilish faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammolardan biri bo'lib, uning maqbul echimi o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Mavjud ahvolning tahlili shuni ko'rsatadiki, chizmachilik ta'limi amaliyotida o'quvchilarda bu muhim faoliyatni tarkib topdirishga etarli ahamiyat berilmay kelinmoqda.

Bilish faoliyatini rivojlantirish muammosi maxsus usul va uslublarni ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liqdir.

O'quvchilar ishlarini maxsus tajriba-sinovda kuzatgan P.D.Zubenko [87] tasdiqlashiga qaraganda o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qitish vositalariga bog'liq. Biroq, bilish faoliyatini tashkil etishning o'zi muammoning echimini to'la ta'minlayolmaydi. Keying yillarda ta'limda o'qitishni faol va sustmetodlarga ajratish xato ekanligi isbotlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Chizmachilik o‘qitish amaliyotida o‘quvchilarning mustaqil ishlariga formal ravishda qaralib, ularda mustaqil faoliyatlarini shakillantirish va rivojlantirish imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning mustaqilishlari darsning turli bosqichlaridagi didaktik vazifalar bilan moslashtirilmay qolgan, balki o‘quvchilarning fikirlash faoliyatini rivojlantirish o‘rniga reproduktiv harakatlari-chizmani ko‘cherish, giyometrik yasash kabi ishlarga e’tibor qaratilgan.

Natijalar.

Real o‘quv jarayonida ko‘rsatilgan faoliyat turlari va ularni bajarish usullarining uyg’unlashuvi qiyin kechadi. Bularning hammasi, tabiyki o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslariga kiradi.

Bilish faoliyatining tashqi tamoni deganda biz ancha soda bilish jarayonlarini (qabul qilish, diqqat va boshqalar) rag’batlantirish va o‘quvchining umumiy ish qobiliyatini rag’batlantirishni tushunamiz. Buning uchun quydagi usullar xizmat qiladi:

✓ Turli metodlar va o‘quv ishlarini almashtirib turish orqali turli asab markazlari ishlarini almashib turishini ta’minlash;

✓ O‘quv jarayonida so‘z va ko‘rgazmalilik va mavhumiylikning to‘g’ri munosibligi; darsda dam olish daqiqalari; ijodiy hissiyotlarni qo‘llab quvvatlash; didaktik usul sifatida o‘yin va musobaqalarni qo‘llash, zero bilish faoliyatining ichki tomoni – bu avvalambor o‘quvchilar fikirlash va fazoviy tasavvurni faollashtirish, 8 va 9-sinflarda esa ular tasavvuri va ijodkorligini rag’batlantirish hamdir.

Bilish faoliyatini rivojlantirishning ichki maqsadlarida foydalaniladigan asosiy usullar: o‘quvchilarningb mustaqil ishi; o‘z–o‘zini va o‘zaro nazorat etish elementlar; chizmachilik ta’limiga muammoli yondashuv va boshqalardir. Ishlab chiqilgan bilish faoliyatining rivojlantirish modeli quydagi bosqichlardan iborat; jonli mushohada yuritish, axborotni qabul qilish va tasavvurni yuzaga kelishi, axborotni idrok etish va sistemalashtirish, abstrakssiyalash, xulosalarni shakillantirish, eslab qolish, o‘zlashtirilgan axborotni qo‘llash.

Ba’zan yaxshi o‘ylab topilgan tizim va bilish faoliyati usullaridan oqilona foydalanilganda ham o‘quvchi o‘qituvchi rejalashtirgan ta’sirlarni to‘la qabul qilavermaydi. Shu bois bilish faoliyatini shakillantiruvchi imkoniyat va vositalar bilan bir qatorda bilishning ichki mehanizimini ham o‘rganish zarur.

O‘quvchining umumiy tayyorgarligi birinchidan, maqsadni izlashga, ikkinchidan maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quvchining bilish faoliyati ichki mexanizmining kuchi qondirilmagan extiyojlar kuchiga bog’liq. Maqsadga yo‘naltirilgan maxsus faollashtiruvchi kuch esa o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi va topshiriq qiyinligiga baho berishga bog’liqdir. Maqsadlarni qabul qilish o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi bilan boshqariladi.

“Ta’limda bilish jarayonini faollashtirish, - deydi M.N.Skatkin [133], faqat bilimlarni o‘zlashtirish metodlarini takomillashtirish emas, balki masalalarni echishda ijodiy yondasha oladigan, mustaqil va tanqidiy fikirlay oladigan, o‘z qarashlari va hulosalarini bayon qila oladigan, o‘z bilimini uzluksiz ravishda to‘ldirib boradigan, nazaryani amaliyot

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

bilan bog'lay oladigan shaxsning sifatlarini tarkib toptirish zarur".

Chizmachilik o'qitish jarayonida grafik faoliyatning eng muhim sifati o'quvchilarda fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurni tarkib toptiradi. Binobarin, bunday sifatlar turli darajadagi fazoviy almashtirishlarjarayonida shakillanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilish faoliyatiga bag'ishlangan adabiyotlarning nazariy tahlili shundan guvohlik beradiki, pedagogika fanida yuqori sinf o`quvchilari bilish faoliyati mohiyati, uning ko'p jihatlarini tushuntirishda va talqin etishda olimlar o'rtasida bir hillik yo'q.

Chizmachilik o'qitishda maktab o'quvchilari bilish faoliyatini rivojlantirish muammolarning didaktik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu muammo chizmachilikni o'qitish amaliyotida mahsus tadqiq etilmagan. Faqat uning ayrim jihatlarigina ko'rib chiqilgan.

Chizmachilik ta'limida bilish faoliyatini rivojlantirish deganda o'quvchilar tafakkurda turli darajadagi tasvir almashtirish usullarining faolligini tushunamiz. O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantrish bo'lib, bu o'z navbatida o'quvchi shahsining quydagi sifatlari bilan uyg'unlashishi kerak; 1. Ziyraklik, 2. Faollik, 3. Mustaqillik, 4. Tashabbuskorlik, 5. Ishga ijodiy yondashish, 6. Qiziquvchanlik, 7. Mustaqil bilish.

Chizmachilik o'qitish jarayonida grafik faoliyatning eng muhim sifati o'quvchilarda fazoviy tasavvurning tarkib topshi bo'lib, bu turli darajadagi fazoviy almashtirishlar jarayonida shakillanishi aniqlanadi va asoslanadi. O'quvchilar bilish faoliyatini o'rganishda zamonaviy didaktika ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O'quv materyali yosh va mazmuniga bog'liq holda bu faoliyatning o'ziga hosligi ta'lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o`rnatadi, bilish faoliyatida o'quvchilarning individual va tipik hususiyatlarini ko'rib chiqadi.

O'zlashtirish jarayonida tahliliy–sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operassiyalar muhim ro'l o'ynaydi.

Analiz – bilish predmetini qisimlarga fikran bo'lishdir.

Sintez – alohida elementlar yoki qisimlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahliliy – sintetik darajaning oshishi kuzatiladi. Tahlil sekin – asta ko'rgazmali – amaliylikdan (obektlarni fikran bilish, mazkur obektlarbilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda) ko'rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va so'zli – mantiqiyga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar shaklida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi. Sintez shuningdek, ancha to'liq va ko'p tomonlama bo'ladi.

Qiyoslash bu – o'xshashliklar (umumiy hususiyatlarni ajratish) va tafovutlarni (har bir qiyoslanayotgan obektlarning o'ziga hos hususiyatlarni ajratish) toppish maqsadida bilish obektlarini qiyoslash.

Bu amallar boshqa barcha asosiy fikriy operassiyalar asosida yotadi.

Umumlashtirish–o'rganilayotgan ob'ektdan umumiy, hususiy, mavhum nomuhimni ajratishdir.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3

Etakchi psihologlar tomonidan umumlashtirishga oid quydagi qoida ishlab chiqilgan: o‘quvchilarda to‘g’ri umumlashmalarning shakillantirishning zaruriy qoidasi – muhimning doimiyligida, tushuncha, hususiyat va dalillarning no muhim belgilarini o‘zgartirishdir. Bu qoida tasavvur va tushunchalarni shakillantirishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirish oddiy shakillardan to ilmiy umumlashtirmalarga qadar rivojlanadi. Umumlashmalarning to‘g’riligi uni o‘quvchilar egallashning mezoni. Bu o‘zlashtirilgan operatsiyalarni ko‘chirib o‘tqazish, ya’ni ulardan yangi sharoitlarda foydalanishga xizmat etadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Murodov Sh.K. va boshqalar “Chizma geometriya kursi” O‘qituvchi.1988-y.
3. Murodov Sh.K., Tashimov N.E. “Grafik tasvirlash asoslari”. -T.: “Navro‘z”. 2013-y.
4. Ro‘ziyev E.I., Ashirboyev A.O. “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi”. - T.; “Yangi asr avlodi”. 2010-y
5. Sh.K. Murodov va b. “Yaqqol tasvirlar nazariyasi (aksonometrik proyeksiyalar)” T. TDPU rizograi. 2010y.
6. Rahmonov I.,Valiyev A. Chizmachilik. -T., “Voris-nashriyot”, 2011.
7. Rahmonov I, A. Abdurahmonov. “Chizmachilikdan ma’lumotnoma”. Toshkent, “A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashryoti”,2005.
8. Nafisa, Yakubova. “Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy–kreativ fikirlashga o’rgatish.” Uz-Conferences. Vol. 1. No. 1. 2023.
9. Yakubova, Nafisa Odiljanovna. “The role and importance of graphic modes in students-increasing the imagination of cutting.” Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yakubova Nafisa Odiljanovna**, katta o‘qituvchisi (PhD) [**Якубова Нафиса Одилжановна**, старший преподаватель (PhD)], [**Yakubova Nafisa Odiljanovna** Senior Lecturer (PhD)]; manzil: Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4- mittitumani, [адрес: Сырдарьинская область, г. Гулистан, 4 - й миттитумани], [address: Syrdarya region, Gulistan, 4th mittitumani]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Original paper

# INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV MUAMMOLARINI HAL QILISHDA JARAYONGA ASOSLANGAN YOZUV O‘QITISHINING SAMARADORLIGI

© V.Y . Golovko[1]✉

[1] Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** EFL talabalari uchun akademik yozuv mantiqan izchil, dalillangan va usluban mos matn yaratishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. An’anaviy mahsulotga yo‘naltirilgan yondashuvlar yakuniy matn sifatiga va grammatik aniqlikka urg‘u berib, yozuvni rejalashtirish va qayta ishlash jarayonlarini ko‘pincha e’tibordan chetda qoldiradi. JAYO esa yozuvni kognitiv va ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib, bosqichma-bosqich rejalashtirish, yozish, tahrirlash va fikr-mulohaza asosida akademik savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi EFL kontekstlarida jarayonga asoslangan yozuv o‘qitishining akademik yozuvdagi tipik muammolarni – matnni tashkil etish, izchillik, argumentatsiya, til aniqligi va metakognitiv strategiyalarni – bartaraf etishdagi samaradorligini tizimli ravishda umumlashtirishdir. Shuningdek, JAYO natijalariga ta’sir qiluvchi kontekstual omillarni aniqlash va samarali gibrid yondashuvlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ikkinchi darajali tadqiqot sifatida 1980–2024-yillarda chop etilgan maqolalar, monografiyalar, meta-tahlillar va dissertatsiyalar Scopus, Web of Science, ERIC va Google Scholar bazalaridan tanlab olindi. Tanlash mezonlariga EFL kontekstida akademik yozuvni o‘qitish, JAYO elementlarining (rejalashtirish, qoraqalam, qayta ishlash, tengdosh fikr-mulohazasi) mavjudligi va yozuv natijalari yoki strategiyalaridagi o‘zgarishlar kiradi. 34 ta mos tadqiqot tematik tahlil qilinib, asosiy yo‘nalishlar va takrorlanadigan natijalar ajratib olindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil shuni ko‘rsatdiki, JAYO ayniqsa matnni tashkil etish, izchillik va dalillashni sezilarli darajada yaxshilaydi hamda o‘quvchilarning metakognitiv ongi va yozuvdagi mustaqilligini oshiradi. Biroq grammatik to‘g‘rilik va leksik boylikdagi o‘sish faqat jarayonli yondashuv tilga yo‘naltirilgan mashqlar va korrektiv fikr-mulohaza bilan qo‘shilganda barqaror bo‘ladi. Tengdosh va o‘qituvchi fikr-mulohazasi sifatining farqlanishi, katta guruhlar va imtihon markazli ta’lim muhitlari JAYOni to‘liq amalga oshirishni qiyinlashtirishi aniqlangan.

**XULOSA:** xulosa qilib aytganda, JAYO EFL talabalari akademik yozuvining yuqori darajadagi jihatlarini rivojlantirishda samarali bo‘lib, yozuv jarayonini ongli boshqarish va avtonomiyani kuchaytiradi. Shu bilan birga, til tizimi bo‘yicha barqaror natijalar uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

jarayon yondashuvini janrga asoslangan va til markazli o‘qitish bilan uyg‘unlashtirish zarur. Kelgusida raqamli platformalar, sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalari va o‘qituvchilarni jarayon–janr yondashuviga tayyorlash bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so‘zlar:** jarayonga asoslangan yozuv o‘qitishi; EFL akademik yozuvi; yozuv qiyinchiliklari; qayta ko‘rib chiqish va fikr-mulohaza; metakognitiv ong; jarayon–janr yondashuvi; ikkinchi til yozuvi pedagogikasi; yozuv rivoji.

**Iqtibos uchun**: Golovko V.G. Ingliz tilida akademik yozuv muammolarini hal qilishda jarayonga asoslangan yozuv o‘qitishining samaradorligi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.305-315.

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРИЕНТИРОВАННОГО НА ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ПИСЬМУ В РЕШЕНИИ ПРОБЛЕМ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА У ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ

© Я.В. Головко[1]✉
[1] Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** развитие академического письма на английском языке представляет серьёзную проблему для EFL-учащихся, сталкивающихся с трудностями в логической организации, связности, аргументации и точности высказывания. Традиционные продукт-ориентированные подходы концентрируются на финальном результате и формальных требованиях, ограничивая работу с процессами порождения и переработки текста. ОПОП, опираясь на когнитивные и социокультурные теории, рассматривает письмо как рекурсивный процесс и предполагает целенаправленное обучение планированию, черновому письму и пересмотру.

**ЦЕЛЬ:** систематизировать результаты эмпирических работ, посвящённых влиянию ОПОП на решение наиболее распространённых проблем академического письма у изучающих английский язык как иностранный. Дополнительно ставится задача выявить контекстуальные факторы, влияющие на эффективность ОПОП, и обозначить перспективные направления для разработки гибридных методических моделей.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** проведён расширенный обзор литературы, включающий рецензируемые статьи, монографии, мета-анализы и диссертации 1980–2024 гг., отобранные из баз Scopus, Web of Science, ERIC и Google Scholar. В анализ включались исследования, в которых обучались академическому письму в EFL-контексте, явно использовались элементы ОПОП (планирование, черновики, рецензирование, редактирование) и фиксировались изменения текстового качества или стратегий письма. 34 соответствующих исследования были подвергнуты тематическому анализу по ключевым параметрам.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показывают, что ОПОП особенно эффективно улучшает организацию текста, связность и развитие аргументации, одновременно повышая метакогнитивную осознанность и автономию учащихся. В то же время улучшения в грамматической точности и лексическом богатстве оказываются ограниченными, если процессное обучение не подкреплено явным языковым и корректирующим компонентом. Существенное влияние на результаты оказывают качество обратной связи, подготовленность учащихся к взаимной рецензии, а также такие факторы, как наполняемость классов и экзаменационная направленность программ.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** делается вывод, что ориентированное на процесс обучение письму является продуктивным средством развития академического письма EFL-учащихся, особенно в отношении навыков высокого уровня и стратегий самостоятельной работы с текстом. Вместе с тем оно должно дополняться жанровым анализом и целенаправленным языковым обучением для обеспечения устойчивого роста языковой точности. Дальнейшие исследования целесообразно направить на адаптацию ОПОП к ресурсно ограниченным условиям, использование цифровых инструментов и развитие профессиональной подготовки преподавателей в рамках процессно-жанрового подхода.

**Ключевые слова:** ориентированное на процесс обучение письму; письмо на английском языке как иностранном; трудности академического письма; редактирование и обратная связь; метакогнитивная осознанность; процессно-жанровый подход; методика обучения письму на втором языке; развитие письменной речи.

**Для цитирования**: Головко.Я.В. Эффективность ориентированного на процесс обучения письму в решении проблем академического письма у изучающих английский язык как иностранный.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 305-315.

## EFFECTIVENESS OF PROCESS-BASED WRITING INSTRUCTION IN ADDRESSING EFL ACADEMIC WRITING PROBLEMS

©Yaroslav V. Golovko[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** developing effective academic writing in EFL requires more than mastering grammatical forms; learners must manage complex cognitive, rhetorical, and linguistic demands. Product-oriented instruction, which prioritizes the final text and formal correctness, often underprepares students for planning, generating, and revising academic prose. PBWI, informed by cognitive and sociocultural theories, reframes writing

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

as a recursive process and foregrounds explicit work on planning, drafting, feedback, and revision as central to academic literacy development.

**AIM:** the aim of this study is to synthesize empirical findings on how effectively PBWI addresses typical EFL academic writing difficulties, including problems with organization, coherence, argument development, linguistic accuracy, and metacognitive awareness. A further aim is to identify contextual factors mediating PBWI outcomes and to inform the design of hybrid instructional models that integrate process, genre, and language support.

**MATERIALS AND METHODS:** A structured literature review was conducted using databases such as Scopus, Web of Science, ERIC, and Google Scholar, focusing on studies from 1980 to 2024. Inclusion criteria required an EFL academic writing context, explicit use of process-oriented components (e.g., planning, multiple drafts, peer review, revision), and reported outcomes related to writing quality or strategy use. Thirty-four studies meeting these criteria were subjected to thematic coding based on context, instructional design, assessment methods, and reported effects.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the reviewed studies converge in showing that PBWI substantially improves higher-order aspects of writing, particularly text organization, coherence, and argumentative development, while also fostering greater metacognitive awareness and writing autonomy. Evidence for gains in grammatical accuracy and lexical richness is mixed and strongest when PBWI is combined with explicit language-focused instruction and systematic feedback. The effectiveness of feedback – both teacher and peer – and the fidelity of PBWI implementation are strongly shaped by class size, time constraints, exam-driven curricula, and teacher expertise.

**CONCLUSION:** the synthesis indicates that PBWI is a powerful framework for addressing many core EFL academic writing problems, especially when implemented with sufficient time, feedback, and strategy scaffolding. At the same time, process instruction alone is insufficient to ensure stable improvement in language accuracy, underscoring the value of integrating process-based pedagogy with genre awareness and explicit linguistic support. Future work should explore digitally mediated feedback, AI-supported assessment, and context-sensitive teacher training to optimize PBWI in diverse EFL settings.

**Keywords:** process-based writing instruction; EFL writing; academic writing difficulties; revision and feedback; metacognitive awareness; process–genre approach; L2 writing pedagogy; writing development.

**For citation**: Yaroslav.V. Golovko. (2025) 'Effectiveness of process-based writing instruction in addressing efl academic writing problems', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 305-315. (In Engl).

**D**eveloping effective academic writing skills remains one of the most persistent challenges for learners of English as a Foreign Language (EFL). Despite sustained

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

instruction, many EFL students continue to struggle with organizing ideas logically, using appropriate academic register, paraphrasing and synthesizing sources, and producing coherent, linguistically accurate texts. These difficulties often stem not only from limited linguistic resources, but also from limited awareness of writing as a complex cognitive, social, and recursive process. Traditional product-oriented writing instruction – still common in many EFL contexts – typically emphasizes the final written outcome, accuracy, and conformity to structural models, while offering little guidance on how to generate, develop, and refine ideas. As research increasingly demonstrates, such approaches often fail to support learners in acquiring transferable academic writing strategies, leaving them dependent on imitation rather than engaging in meaningful knowledge construction (Hyland, 2019). Recent scholarship further suggests that product-focused pedagogies restrict learners' opportunities for cognitive engagement and meaningful revision, thus limiting the development of higher-order writing skills (Lee, 2020).

In contrast, process-based writing instruction (PBWI) foregrounds the stages writers naturally move through – planning, drafting, revising, and editing – while also integrating continuous feedback, peer interaction, and opportunities for reflection. Rooted in cognitive and sociocultural theories of writing, PBWI views writing as both an individual problem-solving activity and a socially mediated practice. This pedagogical shift positions learners not merely as producers of text, but as developing writers who gradually build autonomy through guided practice. A growing body of research suggests that PBWI enhances learners' ability to manage the complexities of academic writing, improves coherence and organization, and fosters metacognitive awareness of the writing process (Flower & Hayes, 1981; Graham & Sandmel, 2011). Moreover, empirical studies in EFL contexts indicate that PBWI promotes deeper processing of content and supports language development when coupled with sustained, scaffolded revision cycles (Rao, 2007).

For EFL learners specifically, PBWI is argued to be particularly beneficial because it addresses both linguistic and rhetorical challenges. By making stages of writing explicit, instructors can provide targeted support: brainstorming to enhance idea generation, outlining tasks to reinforce academic structure, workshops to develop argumentation, and guided revision to improve clarity and precision. Peer review – an integral component of PBWI – also exposes learners to diverse linguistic and rhetorical choices, promoting critical evaluation and deeper processing. Moreover, the iterative nature of PBWI aligns with the realities of academic literacy development, where writers must repeatedly reconsider content, language, and organization. In this sense, PBWI cultivates habits of inquiry and revision that learners can transfer across writing tasks and disciplinary contexts.

Despite these advantages, process-based approaches are not universally implemented in EFL classrooms. Constraints such as large class sizes, exam-driven curricula, and limited teacher training often result in continued reliance on traditional,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

product-focused methods. Consequently, many EFL learners receive insufficient instruction in planning, drafting, and revising—skills essential for tackling the cognitive and linguistic demands of academic writing. As academic contexts increasingly expect students to engage in critical reading, synthesis of sources, and discipline-specific writing conventions, understanding the effectiveness of PBWI becomes crucial.

Given the breadth of existing empirical work on process-oriented pedagogy, there is a growing need to consolidate findings across diverse EFL contexts and instructional designs. Rather than reporting new primary data, the present article conducts a structured synthesis of previous research to evaluate how effectively process-based writing instruction addresses the academic writing problems commonly documented among EFL learners.

Bo‘lajak muhandislarning hisoblash tafakkurini rivojlantirish tamoyillari orasidan eng asosiylarini, ya’ni butun kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan bo‘lajak muhandislarni hisoblash tafakkurini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlar va ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini aks etiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish kerak [1-rasm].




1-rasm. Hisoblash tafakkurini rivojlantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Ilmiylik tamoyili – talabalarga o‘rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo‘lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni hamda talabaning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. Talaba o‘rganayotgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

Tizimlilik tamoyili – talabalar o‘zalashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni tizimli bayon qilish – yangi bilim, ko‘nikmalarni ilgari o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalar bilan bog‘lash shu orqali talabalarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, materialni qismlarga ajratgan holda o‘rganish, ularning asosiy jihatlarini, umumiy g‘oyasini alohida ifodalash bilan talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Tizimli yondashuv zamirida oddiydan murakkabga, eskidan yangiga, bilimdan ko‘nikmaga, ko‘nikmadan esa malakaga qarab tizimli ravishda harakat yotadi.

Integrativlik tamoyili – turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, ta’lim mazmunini egiluvchanligini ta’minlash, tayanish, integratsiya qilish, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni eng qulay sharoitini yaratishni nazarda tutadi. Integrativlik va fanlararo munosabat, bu mazmun, texnologiyalar darajasida fanlarning integratsiyasiga mo‘ljallangan, shuningdek, ularning bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta’minlaydi.

Onglilik tamoyili – onglilik talabalarni yangi materialini idrok qilishda ta’riflar, teoremalar, adabiyotdan she’r yodlash va hokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ularning hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi. Aks holda bilimlarda yuzakilik avj oladi, bunda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. Bunday bilimlar tez unutiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat hosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg‘otishni ham o‘z ichiga oladi.

Faollik tamoyili – biz yaxshi bilamizki, ta’lim ikki tomonlilik xususiyatiga ega. Ta’lim jarayoni pedagog yo‘naltiruvchi bo‘lib maydonga chiqadi va talabalar o‘rganish jarayonini o‘z boshlaridan kechiradilar. O‘rganish jarayoni murakkab psixik jarayon bo‘lib talabadan ma’lum faollikni talab etadi. Pedagog qanchalik ta’lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin talaba tomonidan ma’lum faollik bildirilmasa, o‘quv jarayonida samaraga erishish mumkin bo‘lmaydi. Demak, o‘quv jarayonida avval talabalarda faollikni uyg‘otish zarur.

Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyili – ta’limning asosiy maqsadi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash ya’ni turli xil hayotiy sharoitlarda o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun biz ta’lim jarayonida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlashimiz lozim. Demak, bu tamoyil ta’limning ilmiyligi haqida tamoyil bilan hamohang bo‘lib, ular bir-birlarini to‘ldirib keladilar.

Mantiqiy hisoblash tamoyili – bo‘lajak muhandislarni hisoblash faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishi, bu faoliyatga qiziqishi, vazifalarning mazmuni, texnologiyasi, aqliy faoliyatini amalga oshirishdagi arifmetik ketma-ketliklarni ko‘zda tutadi [1], [2].

Ehtimoliy tanlov tamoyili – kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak muhandislarni hisoblash tafakkuri natijalarini oldindan bashorat qilish, mavjud yechimlar ichidan eng maqbulini tanlay olish zaruratini belgilaydi [1], [2].

Shunday qilib, qayd etilgan yondashuv va tamoyillar bo‘lajak muhandislarni hisoblash tafakkuriniri rivojlantirish jarayonining majmuaviy, amaliyotga mo‘ljallangan, egiluvchan, ommaviy asosiy g‘oyalarini ochib beradi. Faoliyatga tayyorlash jarayonining xususiy kasbiy metodikasi bayoni o‘z ichiga bo‘lajak muhandislarni loyihalashtirish kompetensiyasini amaliyotda taklif etilayotgan tayyorlash jarayonini amalga oshirish mazmuni, texnologiyasi vositalari, shakllari, tayyorlash jarayoni bosqichlarini izohlashni o’z ichiga oladi.

Kompyuter texnologiyalarining ajoyib muvaffaqiyati shuni ko‘rsatadiki, komputer olimlari tomonidan ishlab chiqilgan konseptual vositalar bo‘lgan kompensatsiyalar oddiy hisoblashdan tashqari keng qo‘llaniladi. Darhaqiqat, davom etayotgan umumiy axborotlashtirish mutaxassislar malakasining yangi ko‘rsatkichini ilgari suradi. Ushbu ko‘rsatkichni inson faoliyatining keng doirasiga fundamental hisoblash tamoyillarini tushunish va qo‘llash qobiliyati sifatida shakllantirish mumkin [5].

Hisoblash tafakkuri o‘quvchilarning bir qator shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liq: Yuqorida sanab o‘tilgan malakalar hisoblash tafakkurining zaruriy xususiyatlari bo‘lgan bir qator sifatlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi va kuchaytirilishi kerak. Bu fazilatlarga quyidagilar kiradi:

qiyinchiliklar mavjudligiga ishonch;

qiyin muammolarni hal qilishda qat’iyatlilik;

noaniqlik sharoitida tolerantlik;

tugallanmagan muammolarni hal qilish qobiliyati;

erishish uchun boshqalar bilan muloqot qilish va ishlash qobiliyati umumiy maqsad yoki qaror.

Xulosa: Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lasak, har bir inson hayoti davomida hisoblash tafakkuriga duch keladi. Ko‘pincha, tafakkur jarayonlaridagi kerakli javoblarni muhokama qilish va o‘ylab ko‘rish, faraz qilish hisoblash tafakkurining tamoyillariga yondoshgan holda usullarini qo‘llash yo‘li bilan topiladi. Masalan, matematika masalalari ana shu yo‘l bilan yechiladi. Masala va vazifalarni yechish, qo‘yilgan savolga javob qidirish jarayonida biz ba’zan yanglishamiz, shu masalani yechishga olib boradigan to‘g‘ri yo‘ldan adashamiz. Bunday hollar tafakkur jarayonida yana bir payt — shu jarayonning natijalarini tanqidiy tekshirib siljish payti keladi. Ba’zan bu tanqidiy tekshirish masalani, vazifani hal etish jarayoni bilan ayni bir vaqtda, bab-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

baravar bo‘laveradi. Fikr qilish jarayonining mana shu nazorat qiluvchi paytida hisoblash tafakkur jarayonlar xulosa chiqarish, isbotlash, rad etish jarayonlari, ayniqsa, katta o‘rin tutadi. Hisoblash tafakkuri fandan tashqari tushuncha bo‘lib, agar ta’lim haqida gapiradigan bo‘lsak, u turli fanlarni – matematika, tabiiy fanlarni, texnikani va boshqalarni o‘rganish jarayonida shakllanadi. Zamonaviy terminologiyadan foydalangan holda, hisoblash tafakkuri muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alimov M.A. Ta’lim jarayonida hisoblash tafakkuri tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, O‘zbekiston Milliy Unversiteti xabarlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi. Toshkent-2022, 72-76 b.
2. Alimov M.A. “Talabalarda hisoblash tafakkurni rivojlantirishda mobil texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari”, International conference on developments in education, sciences and humanities. Italiya- 2022, 85-88 b.
3. Alimov M.A. “Analysis of Differrent Approoaches to the Development of Students’ calcuiation Thinking with the help of Exact Sciences”, Juornal of Pedagogical Inventions and Practices. https/:zienjuornals.com. 2022-yil, 49-55 bet.
4. Ершов А. П. Программирование – вторая грамотность [Электрон. ресурс] // Электронный архив академика А. П. Ершова. Институт систем информатики Сибирского отделения РАН. Режим доступа: http://ershov.iis.nsk.su/ russian/second_literacy/pred (дата обращения 10 февраля 2016 г.)
5. Вольфенгаген В. Э. Область между практическими навыками и фундаментальными принципами вычислений [Электрон. ресурс] // Аппликативные вычислительные системы: материалы III Международной конференции ABC 2012. Москва, 26–28 ноября 2012 г. С. 1–7. Режим доступа: http:// jurinfor. exponenta.ru/ACS2012/ACS-12-Proceedings-All.pdf (дата обращения 10 февраля 2016 г.)

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Alimov Mirzoxid Abdumalikovich**, direktor [**Алимов Мирзохид Абдумаликович**, директор], [**Alimov Mirzoxid Abdumalikovich** director]; manzil: Samarqand shahri, Rudakiy ko’chasi 237-uy, [адрес: город Самарканд, улица Рудаки, 237], [address: The city of Samarkand, Rudaki street, 237.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Original paper

# O'QITUVCHI KASBIY KO'RSATKICHLARGA ERISHGAN YOKI FAN BO'YICHA CHUQUR BILIMGA EGA BO'LGAN PEDAGOGIK FAOLIYAT YO'NALISHLARI

© M.B. Abdufattoxova[1]✉

[1]Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** kirish qismida mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, davlat talablari asosida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim dasturlarini takomillashtirish zarurati yoritiladi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida ta’lim tizimini mustahkamlash, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa ekani ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan yosh o‘qituvchilarni maktab jamoasiga moslashtirish, ularning kasbiy rivojlanishini ustozlar yordamida qo‘llab-quvvatlash zaruriy shart sifatida talqin qilinadi.

**MAQSAD:** yosh o‘qituvchilar bilan ishlashda ularning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, ustoz-o‘qituvchining turli kasbiy rollarini belgilash va samarali ustoz-shogird muloqotini tashkil etishning pedagogik yo‘nalishlarini asoslashdir. Shu bilan birga, yosh o‘qituvchining kasbiy moslashuvi va o‘sishini tezlashtiruvchi jamoaviy va individual qo‘llab-quvvatlash shakllarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** maqolada ta’lim sohasidagi islohotlar, kasbiy o‘sish, ustoz-shogirdlik va pedagogik kommunikatsiya bo‘yicha ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilinadi. Muallif amaliy tajriba asosida ustoz-o‘qituvchi rollarini tasniflaydi, yosh o‘qituvchi bilan suhbat va diagnostika asosida o‘quv rejasini tuzish tamoyillarini yoritadi. Shuningdek, pedagogik kengash, seminar va jamoaviy ish shakllarining mazmunini tahliliy bayon qilish usuli qo‘llanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** muhokama qismida ustozning “qo‘llanma”, “manfaatlar himoyachisi”, “kumir”, “maslahatchi”, “nazoratchi” kabi rollari yosh o‘qituvchi kasbiy rivojlanishiga turlicha foizlarda ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatib beriladi. Muloqot-tuzatish, muloqot-qo‘llab-quvvatlash, psixologik to‘siqlarni bartaraf etuvchi muloqot kabi modellarning mazmuni ochib berilib, ularda empatiya, refleksiya, xulq-atvorni boshqarish kabi kompetensiyalar hal qiluvchi omil ekani asoslanadi. “Buyruq qilmaslik”, “tahdid qilmaslik”, “va’z qilmaslik”, “hukm qilmaslik” kabi muloqot qoidalariga rioya etish ustoz va yosh o‘qituvchi o‘rtasida ishonchli hamkorlikni kuchaytirishi qayd etiladi. Jamoaviy ish, pedagogik kengash va seminarlar esa yosh o‘qituvchilarning umumiy muammolarini hal etish va tajriba almashishga xizmat qiluvchi samarali platforma sifatida talqin qilinadi.

**XULOSA:** xulosa qismida ustoz-shogirdlik yosh o‘qituvchilarning kasbiy yo‘nalishini mustahkamlovchi, malakasini oshiruvchi va ijtimoiy-kasbiy moslashuvini tezlashtiruvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

muhim pedagogik mexanizm ekanligi ta’kidlanadi. Ustozning yuqori kommunikativ madaniyati, insonparvar pozitsiyasi va muloqot texnikasini bilishi ustoz-shogird munosabatlarining muvaffaqiyatini belgilovchi yetakchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Ta’lim muassasasi darajasida ustoz-shogirdlikni hujjatlashtirish, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash shakllarini yo‘lga qo‘yish va muntazam pedagogik seminarlar tashkil etish zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** касбий эҳтиёжлар, ёш ўқитувчи, устоз-шогирдлик, коммуникатив маҳорат, менторлик, таълим тизимини мустаҳкамлаш, ислоҳотлар, ўқув дастурлари.

**Iqtibos uchun**: Abdufattoxova. M.B . O'qituvchi kasbiy ko'rsatkichlarga erishgan yoki fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan pedagogik faoliyat yo'nalishlari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.331-339.

## НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, В КОТОРЫХ УЧИТЕЛЬ ДОСТИГ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИЛИ ПРИОБРЕЛ ГЛУБОКИЕ ЗНАНИЯ ПРЕДМЕТА

© М.Б. Абдуфаттохова[1]✉
[1] Национальный институт воспитания и педагогики имени Кори Ниёзий, г. Ташкент, Республика Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** во введении показано, что независимость страны создала условия для глубоких реформ в сфере образования и модернизации системы подготовки педагогических кадров. Подчёркивается важность укрепления системы образования, её гармонизации с требованиями времени и подготовки специалистов, отвечающих государственным образовательным стандартам. В этом контексте ускорение профессиональной и социально-психологической адаптации молодых учителей становится актуальной задачей.

**ЦЕЛЬ:** обосновать педагогические направления работы с молодыми учителями через систему наставничества, определить роли и функции учителя-наставника и показать значение коммуникативной компетентности в организации эффективного взаимодействия. Дополнительно ставится задача выявить формы коллективной и индивидуальной поддержки, способствующие профессиональному росту молодых педагогов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов рассматриваются нормативные документы, научно-педагогическая литература по вопросам профессионального становления учителя, наставничества и педагогического общения. Методологическую основу составляют теоретический анализ, обобщение практического опыта наставников, а также структурирование ролей и функций учителя-наставника. В статье описаны подходы к диагностической беседе с

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

молодым учителем и построению индивидуального плана профессиональной поддержки.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** в обсуждении раскрываются роли наставника (“путеводитель”, “защитник интересов”, “кумир”, “советчик”, “контролёр”) и их вклад в профессиональное развитие молодого учителя в процентном выражении. Анализируются модели педагогического общения – общение-коррекция, общение-поддержка, общение, направленное на снятие психологических барьеров, – и их зависимость от уровня эмпатии, рефлексии и коммуникативного мастерства наставника. Показано, что соблюдение коммуникативных правил (избегание приказов, угроз, назиданий, оценочных суждений и навязывания решений) способствует формированию доверительных и конструктивных отношений. Рассматриваются формы коллективной работы (педсовет, педагогический семинар), обеспечивающие обмен опытом и снижение напряжённости в профессиональной адаптации молодых учителей.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что наставничество выступает важнейшим средством укрепления профессиональной направленности, повышения квалификации и ускорения адаптации молодого учителя в педагогическом коллективе. Высокий уровень коммуникативной культуры наставника, гуманистическая позиция и владение технологиями общения являются ключевыми условиями эффективности совместной работы. Отмечается необходимость закрепления наставничества в документах образовательной организации и систематического использования коллективных форм методической поддержки.

**Ключевые слова:** профессиональные потребности, молодой учитель, наставничество, коммуникативные навыки, укрепление системы образования, проведение реформ, учебные программы.

**Для цитирования**: Абдуфаттохова М.Б. Направления педагогической деятельности, в которых учитель достиг профессиональных показателей или приобрел глубокие знания предмета.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 331-339.

## AREAS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN WHICH THE TEACHER HAS ACHIEVED PROFESSIONAL PERFORMANCE OR ACQUIRED DEEP KNOWLEDGE OF THE SUBJECT

©Mavzunabegin B. Abdufattoxova[1]✉
[1]Qori Niyoziy National Institute of Education and Pedagogy, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the introduction explains that national independence has created conditions for profound reforms in education and for modernizing the system of teacher training. Strengthening the education system, aligning it with contemporary

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

requirements, and training specialists in accordance with state educational standards are emphasized as key priorities. In this context, the accelerated professional and socio-psychological adaptation of young teachers through mentoring becomes a highly relevant task.

**AIM:** the aim of the study is to substantiate the pedagogical directions of work with young teachers through a structured mentoring system, to define the roles and functions of the mentor teacher, and to highlight the importance of communicative competence in building effective interaction. An additional objective is to identify individual and collective support forms that foster the professional growth of novice teachers.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on regulatory documents and scientific literature on teacher professional development, mentoring, and pedagogical communication. The methodological basis includes theoretical analysis, generalization of mentoring practice, and structural modeling of mentor roles and functions. The article describes approaches to diagnostic interviews with young teachers and to designing individualized professional support plans.

**DISCUSSION AND RESULTS:** The discussion presents the mentor's roles ("guide", "protector of interests", "role model", "advisor", "controller") and their different contributions to the professional development of young teachers. Models of pedagogical communication – communication as correction, communication as support, and communication aimed at removing psychological barriers – are examined in relation to the mentor's empathy, reflection, and communicative mastery. It is shown that observing key communication rules (avoiding commands, threats, moralizing, judgment, and imposed solutions) helps establish trusting and constructive relationships. Collective formats such as pedagogical councils and seminars are considered effective tools for sharing experience, resolving common adaptation problems, and enriching young teachers' professional competencies.

**CONCLUSION:** the study concludes that mentoring is a crucial mechanism for reinforcing professional orientation, raising qualification, and accelerating the social and professional adaptation of young teachers. A mentor's high communicative culture, humanistic stance, and command of interaction techniques are identified as decisive factors for successful cooperation. The article underlines the need to formalize mentoring in institutional documents and to systematically implement collective forms of methodological support.

**Keywords:** professional needs, young teacher, mentoring, communication skills, strengthening the education system, educational reforms, curricula.

**For citation**: Mavzunabegin B. Abdufattoxova. (2025) 'Areas of pedagogical activity in which the teacher has achieved professional performance or acquired deep knowledge of the subject', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 331-339. (In Uzbek).

**M**a'lumki, mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablariga chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Yosh o‘qituvchining kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi ustozlarining quyidagi rollarini ajratish mumkin.

1. “Qo‘llanma”. U yosh o‘qituvchiga ushbu ta’lim muassasasi tizimi bilan “ichkaridan” tanishishni ta’minlaydi. Bunday ustoz maktabning barcha tarkibiy bo‘linmalarining faoliyat tamoyilini tushuntirishi, ta’lim muassasasining davlat va jamoat boshqaruvi haqida gapirib berishi mumkin. Ustoz yosh o‘qituvchiga maktab tizimidagi o‘rnini anglashga yordam beradi, o‘qituvchilik faoliyatiga bosqichma-bosqich rahbarlik qiladi. Yosh o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ustozning hissasi 80 foizdan ortiq bo‘ladi.

2. “Manfaatlar himoyachisi”. Bu yosh o‘qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda yordam berishi mumkin; yosh o‘qituvchining kasbiy faoliyati atrofida o‘zaro yordam va hamkorlik muhitini tashkil qiladi; bo‘limga uning ishining ahamiyati va mazmunini anglashga yordam beradi; o‘qituvchini o‘z vakolatlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shaxslararo muammolardan himoya qiladi. Ustoz yosh o‘qituvchi nomidan uning turli xil ichki va darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishi to‘g‘risida muzokara olib borishi mumkin. Yosh o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ustozning hissasi 60–80 foizni tashkil qiladi.

3. “Kumir”. Bu namuna bo‘lishi kerak, bu ustoz-shogirdlikni qo‘llab-quvvatlash samaradorligining juda kuchli mezonidir. Ustoz o‘zining barcha shaxsiy va kasbiy yutuqlari, ijtimoiy mavqei, ish uslubi va muloqoti bilan yosh o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishni rag‘batlantirishi mumkin. Yosh o‘qituvchi xulq-atvor namunalarini, pedagogik faoliyatni tashkil etishga yondashuvlarni va ustozning muloqot uslubini qamrab oladi va qabul qiladi. Yosh o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ustozning hissasi 40–60 foizni tashkil qiladi.

4. “Maslahatchi”. Ushbu munosabatlarning asosi sifatida yosh o‘qituvchi shaxsining farovonligi olinadi. Ushbu rol qo‘llab-quvvatlash funksiyasini amalga oshiradi. Ustoz tomonidan talabchan munosabat deyarli yo‘q. Yosh o‘qituvchi kerakli darajada va u so‘raganda aniq yordam oladi. Yosh o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ustozning hissasi 30–40 foizini tashkil qiladi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

5. “Nazoratçi”. Shu tarzda tashkil etilgan ustoz-shogirdlikni qo‘llab-quvvatlashda yosh o‘qituvchi mustaqil ravishda pedagogik faoliyatni amalga oshiradi va ustoz uni tashkil etishning to‘g‘riligini, ish shakllari, usullari, yo‘llarining samaradorligini nazorat qiladi, testlar tizimi, ijodiy vazifalar, muammoli vaziyatlar yordamida uning muvaffaqiyatini tekshiradi va boshqalar. Yosh o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ustozning hissasi 10–30 foizni tashkil qiladi.

Yosh o‘qituvchi bilan ishlashni boshlashdan oldin uning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari qay darajada ekanligini aniqlash kerak. Buni tekshirishning eng oson yo‘li u bilan suhbatlashish. Qoida tariqasida, o‘qituvchi maksimal kasbiy ko‘rsatkichlarga erishgan yoki fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan pedagogik faoliyat yo‘nalishi haqida gapirganda, u o‘zini erkinroq, qulayroq va ishonchli his qiladi.

Ushbu suhbat asosida ustoz yosh o‘qituvchi uchun o‘quv rejasini tuzadi. Rejada quyidagilar ko‘rsatiladi: yosh o‘qituvchi boshidan kechirgan asosiy kasbiy qiyinchiliklar; kasbiy hamkorlikning maqsadi va vazifalari; ish bosqichlari; kasbiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari, shakllari, usullari va vositalari; ishning oraliq va yakuniy natijalari.

Muloqot jarayoniga ijodiy yondashuvning o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchining gumanistik pozitsiyasi, aloqa sherigiga optimistik gipoteza bilan qarash, aloqalarga bo‘lgan ehtiyoj, muloqotning ochiqligi, hamdardlik va bu jarayonda refleksiyadir. Empatiya va refleksiyaga ega bo‘lish aloqa samaradorligining ajralmas sharti, aloqa texnikasini o‘zlashtirishning eng muhim ko‘rsatkichidir. Empatiya va refleksiyaning past darajasi shaxsning o‘zida joylashgan o‘qituvchi xatti-harakatlarini samarasiz standartlashtirishning asosiy sabablaridan biri deb ishoniladi. Ushbu ichki sabablar oxir-oqibat ma’lum bir o‘qituvchining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilaydi.

O‘qituvchi-ustozning kommunikativ mahoratiga alohida ahamiyat berish, yosh o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish uchun zarur bo‘lganda, quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: xulq-atvorni boshqarish qobiliyati; boshqa aloqa subyektlarining shaxsiyatini adekvat modellashtirish qobiliyati; “o‘zingizni muloqotda taqdim etish” qobiliyati va hokazo.

Ustozlar va ularning tarbiyalanuvchilari o‘rtasidagi pedagogik aloqa haqida gapirganda, uni muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga olgan faoliyat sifatida tushunishga e’tibor qaratish lozim: munosabatlarning paydo bo‘lishi, subyektlarning o‘zaro hamkorligi, ularning o‘zaro hamkorligi, kasbiy vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyatlar, pedagogik jarayonning o‘ziga xos holati.

O‘qituvchi-ustoz intilishi kerak bo‘lgan yosh o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlarning eng maqbul modellari quyidagilar: aloqa-tuzatish. Ushbu turdagi aloqa o‘qituvchi-ustozning diagnostika funksiyasini bajarishga qaratilgan. Disfunksional pedagogik faoliyatning alomatlarini aniqlashda yoki ularning paydo bo‘lish imkoniyatlarini aniqlaganda, ustoz yosh o‘qituvchining maqsadlari, holati, sharoitlari va o‘zaro hamkorligining xususiyatlariga qarab rejalashtirilgan profilaktika ishlarini olib boradi.

Aloqa-tuzatish o‘qituvchi-ustozdan psixologik va pedagogik nazariyani bilishni, diagnostik tadqiqot usullarini o‘zlashtirishni, aloqa texnologiyalari sohasida o‘ziga xos

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

xususiyatni bilishni talab qiladi.

Aloqa-qo‘llab-quvvatlash. Muloqotning bu turi yosh o‘qituvchiga o‘zi hal qila olmaydigan qiyin vaziyatlarni hal qilishda yordam berish zarur bo‘lgan vaziyatlarda sodir bo‘ladi. Ustozdan nafaqat bilimlar yig‘indisi, balki hamdardlik, xushmuomalalik, sezgirlik va boshqalar kabi shaxsiy fazilatlarni safarbar qilish ham talab qilinadi.

Muloqot-psixologik to‘siqlarni olib tashlash. Muloqotning bu turi o‘qituvchi-ustozning aloqa texnologiyasiga yetarlicha yuqori darajada ega bo‘lishi, yosh o‘qituvchi bilan muloqot qilish zarurati, unga ishonchli munosabatlar o‘rnatishga yordam berish istagini o‘z ichiga oladi.

Do‘stona munosabatga asoslangan muloqot o‘qituvchi-ustoz va yosh o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotning maqbul modelidir. Bu barcha aloqa funksiyalarini amalga oshirishdan iborat bo‘lib, ustozning professional va shaxs sifatida barcha xususiyatlarini to‘playdi. Bu ishonchga, aloqa subyektlarining o‘zaro moyilligiga, aloqalarni amalga oshirish va davom ettirishdan o‘zaro manfaatdorlikka asoslanadi.

Yosh o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar konstruktiv bo‘lishi va kerakli samarani berishi uchun o‘qituvchi-ustoz rioya qilinishi kerak bo‘lgan muloqot qoidalarini eslab qolishi kerak. Ular quyidagilardan iborat:

1. Buyruq qilmang. Ustoz esda tutishi kerakki, qandaydir majburiyatni o‘z ichiga olgan ibora norozilikka sabab bo‘ladi. Yosh o‘qituvchilar bilan muloqot qilish jarayonida siz “majbur siz”, “sizga shart”, “bu kerak” va hokazo iboralardan voz kechishingiz lozim. Ularning bu iboraga tabiiy munosabati quyidagi so‘zlar bo‘lishi mumkin: “Men sizga hech narsa qarzdor emasman. Men xohlagan tarzda ishlayman!”

2. Tahdid qilmang. Har qanday tahdid zaiflik belgisidir. Ustozning tahdidi ham pedagogik muvaffaqiyatsizlik, qobiliyatsizlik belgisidir. O‘qituvchi-ustozning tahdidlari yoki ultimatumlari mojaroni keltirib chiqaradi. “Agar siz mening talablarimga rioya qilmasangiz, unda ...” – bunday mulohazalar ustozning o‘z pedagogik pozitsiyasini bahslasha olmasligi, vaziyatni tushunmasligi va diplomatik muloqot qobiliyatining yetishmasligidan dalolat beradi. Ushbu uslub ustoz va yosh o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro tushunish munosabatlarini o‘rnatishga hissa qo‘shmaydi.

3. Va’z qilmang. “Sizning kasbiy burchingiz majbur qiladi ...”, “Sizda mas’uliyat bor ...” – bu murojaatlar ko‘pincha vaqtni behuda sarflaydi. Haqiqiy pedagogik vaziyatdan ajralib turishi tufayli ular yosh o‘qituvchilar tomonidan ahamiyatli deb qabul qilinmaydi va amalga oshirilmaydi.

4. O‘rgatmang. Ustoz suhbatdoshga o‘z nuqtai nazarini qo‘yishdan ko‘ra yomonroq narsa yo‘qligini unutmasligi kerak (“agar siz meni tinglagan bo‘lsangiz, unda...”, “agar siz misolga ergashsangiz....”).

5. Yechimlarni taklif qilmang. Ustoz yosh o‘qituvchining “hayotini o‘rgatmasligi” kerak. “Agar men siz bo‘lganimda edi” – bu va shunga o‘xshash iboralar kasbiy qo‘llab-quvvatlash jarayonini rag‘batlantirmaydi, chunki ular ko‘pincha ustunlik bilan talaffuz qilinadi va shu bilan yosh o‘qituvchining o‘zini o‘zi qadrlashiga putur yetkazadi.

6. Hukm qilmaslik. Ustozning “ishingizni o‘zgartirishingiz kerak”, “siz ishga juda kam

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

e’tibor berasiz” kabi bayonotlari, hatto ular mutlaqo adolatli bo‘lgan hollarda ham, ko‘pincha yosh o‘qituvchilarning qarshiligi va noroziligiga duch keladi.

7. Oqlamaslik va bahona qilmang. Agar ustoz o‘z tarbiyalanuvchilari bilan o‘zaro munosabatlarini ushbu aloqa texnikasi asosida qurca, o‘z ta’sirining sezilarli ulushini yo‘qotadi. “Siz darsni tashkil qildingiz va o‘tkazdingiz, birinchi qarashda ko‘rinadigan darajada yomon emas” – bu asoslash shakli, albatta, munosabatlardagi keskinlikni yengillashtiradi, ammo yosh o‘qituvchi uchun mavjud kasbiy muammoni ahamiyatsiz qiladi.

8. “Tashxis” qilmang. “Siz maktabda ishlay olmaysiz, siz juda hissiyotlisiz” – tajribali o‘qituvchining bunday iborasi, albatta, yosh o‘qituvchini ogohlantiradi va uni ustozga qarshi qo‘yadi.

Agar ta’lim muassasasining hujjatlarida yosh o‘qituvchilarga ustoz-shogirdlik yordamini tashkil etish fakti qayd etilgan bo‘lsa, unda bu ishning shakllari ham ko‘rsatilishi kerak. Yosh o‘qituvchilarning malakasini oshirishda nafaqat ularga tayinlangan o‘qituvchilar, balki maktabning butun pedagog-o‘qituvchilari ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta’lim faoliyatini tashkil etishning barcha xilma-xil shakllaridan foydalanish kerak. Ulardan ba’zilariga qaraylik:

Jamoaviy ish.

Afsuski, yosh o‘qituvchilarga pedagogik yordam ko‘rsatishga qaratilgan jamoaviy ish ta’lim muassasalari amaliyotida kamdan-kam qo‘llaniladi. Yosh o‘qituvchiga faqat u bilan individual ishlashda, uning kasbiy qiyinchiliklarini reklama qilmasdan yordam berish mumkin, deb ishoniladi.

Biroq o‘z mutaxassisligi bo‘yicha birinchi marta ish boshlagan pedagogika universiteti bitiruvchilarida o‘qituvchi-ustoz hal qila olmaydigan umumiy muammolar mavjud. Bu o‘qituvchilar tarkibiga moslashishning qiyinchiliklari. Ushbu muammolarni hal qilish yo‘llarini topish yosh o‘qituvchilar bilan jamoaviy ishlashning asosiy vazifasidir.

Pedagogik kengash

Pedagogik kengashda ishtirok etish ta’lim muassasasi pedagog-o‘qituvchilarining barcha a’zolari uchun majburiydir. Qoidaga ko‘ra, yangi kelgan yosh o‘qituvchilar uchun birinchi pedagogik kengash avgust oyining oxirida, yangi o‘quv yili boshlanishidan oldin o‘tkaziladi. Bu yerda universitet bitiruvchilari birinchi marta yangi hamkasblarini ko‘rishadi. Yosh o‘qituvchilarning notanish yuzlarning ko‘pligidan chalkashliklari atrofdagi hamma yangi kelganlarga e’tibor berishlari bilan murakkablashadi.

Ma’muriyat uchun "yangi kelganlar" va "eski odamlar" o‘rtasidagi to‘siqlarni iloji boricha tezroq yo‘q qilish muhim bo‘lishi kerak. Siz maktab an’analari, o‘qituvchilar, ularning yutuqlari va boshqalar haqida qisqacha hikoya bilan yosh o‘qituvchilar uchun kichik teatrlashtirilgan tabrikni oldindan o‘ylab topishingiz va tashkil qilishingiz mumkin. Shuningdek, siz bir-ikki yil oldin maktabga ishga kelgan o‘qituvchilarga o‘sha paytdagi kasbiy qiyinchiliklari haqida gapirib berishingiz mumkin va ularni hal qilish tajribasi bilan o‘rtoqlashинг. Muloqotning bu shakli yangi boshlovchilarga ularning qiyinchiliklari alohida va hal etilmasligini, ularning hayajoni yangi joyda ish boshlayotgan barcha odamlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

uchun normal holat ekanligini tushunishga yordam beradi.

Kelajakda yosh o‘qituvchilarning psixologik xususiyatlarini yashirin shaklda aniqlash uchun pedagogik maslahatlardan foydalanish mumkin. Buning uchun siz psixolog yordami bilan o‘qituvchilar tarkibini sinovdan o‘tkazishni tashkil qilishingiz mumkin.

Shuningdek, pedagogik kengashlarda tajribali o‘qituvchilar, sinf o‘qituvchilari, psixologlar, ijtimoiy o‘qituvchilar va hokazolarda mini-ma’ruzalar tashkil etish va o‘z tajribalarini baham ko‘rishlari mumkin. Ushbu ish shakli yosh o‘qituvchilarra o‘z ustozlariga keraksiz savollarsiz yangi bilim, malaka va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Pedagogik seminar.

Ushbu ish shaklining asosiy vazifasi yosh o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatning barcha sohalari, bolalar bilan, o‘quvchilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarning pedagogik usullari to‘g‘risida bilimlarini kengaytirish; o‘quv jarayonining o‘ziga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga qaratilgan. Seminarlarida o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy muammolarini muhokama qilish va tushunish, tajriba almashish, o‘zlarining "pedagogik topilmalari" haqida suhbatlashish, guruh muhokamalari davomida maktab ichidagi nizolarni hal qilish yo‘llarini mustaqil ravishda ishlab chiqish bilan shug‘ullanadilar.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy va pedagogik adabiyotlarda ustoz-shogirdlik deganda kasbiy yo‘nalishni mustahkamlash, kasbiy darajani oshirish, yosh o‘qituvchining ijtimoiy va kasbiy moslashuvini tezlashtirishga yordam beradigan usul tushuniladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 2008. – 184 б.
2. Кошифий, Ҳусайин Воиз. Футувватномаи султоний. Ахлоқий Муҳсиний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – 376 б.
3. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Иҳёу улумиддин. – Тошкент: Тошкент Ислом университети, 2014. – 511 б.
4. Коджаспирова Г. М. Культура профессионального самообразования педагога: Пособие / Всерос. науч.-практ. центр и психол. поддержки населения: Под ред. Ю.М.Забродина. - М., 2004. - 342 с.
5. Колесникова И.А. Как приблизить подготовку учителей к потребностям школы //Педагогика. - 2005. - №5-6. - С.71-78.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdufattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi**, doktorant [**Абдуфаттохова Мавзунабегим Бахтиёржон кизи**, докторант], [**Abdufattoxova B. Mavzunabegim** doctoral student]; manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo MFY, Ziyo ko‘chasi, 6-uy., [адрес: г. Ташкент, Алмазарский район, махалля Зиё, улица Зиё, дом 6.], [address: Tashkent, Almazar district, Ziye mahalla, 6 Ziye Street.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Original paper

# RUS TILINI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARDA O'QUV GURUHLARINI TANLASH ASOSIDA

© M.M. Komilova[1]✉
[1]Tashkent Perfect University, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada O‘zbekiston harbiy-akademik litseylarida rus tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish zarurati, ayniqsa o‘quvchilarni o‘quv guruhlariga ajratish jarayonining ta’lim sifati va bo‘lajak harbiy mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim talablariga muvofiq individual va differensial yondashuvlar, shuningdek, rus tilida kasbiy leksikani egallashning ahamiyati asoslab beriladi.

**MAQSAD:** harbiy-akademik litseylarida rus tilini o‘qitishda o‘quv guruhlarini tanlash va shakllantirish mezonlari (til bilish darajasi, o‘quv yutuqlari, kasbiy yo‘nalishlar)ni aniqlash hamda ular asosida differensial o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, rus tili bo‘yicha tayyorgarlik darajasini oshirish orqali bo‘lajak kursantlarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari, harbiy-akademik litseylar nizomlari, mahalliy va xorijiy pedagog olimlar (N. Azizxodjayeva, L. Golish, A. Golubenko, M.E. Zaxarova va boshqalar)ning ilmiy ishlari hamda rus tilini o‘qitish bo‘yicha amaliy tajriba materiallari tahlil qilindi. Nazariy-tahliliy, taqqoslash, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlari asosida o‘quv guruhlarini qisqa va uzoq muddatli, til darajasi, o‘quv muvaffaqiyati va kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantirish yondashuvlari o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarni faqat yo‘nalishlar (aniq, gumanitar, iqtisodiy) bo‘yicha guruhlarga ajratish ularning rus tili bo‘yicha haqiqiy tayyorgarlik darajasini hisobga olmaslikka olib keladi va ta’lim sifati pasayishiga sabab bo‘ladi. Til bilish darajasi, motivatsiya va o‘quv yutuqlariga asoslangan qisqa muddatli (muayyan topshiriqlar uchun) va uzoq muddatli (semestr yoki yil davomida) differensial guruhlar o‘quv yuklamasini moslashtirish, darajaviy topshiriqlar tizimini joriy etish va nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini (gumanitar, aniq, iqtisodiy yo‘nalishlar) inobatga olgan holda rus tili darslarida kasbiy leksikani maqsadli o‘zlashtirish ularda harbiy-professional kommunikativ kompetensiyani kuchaytirishi aniqlangan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**XULOSA:** rus tilini o‘qitishda o‘quv guruhlarini oqilona tanlash va differensial tashkil etish harbiy-akademik litseylarida ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Til bilish darajasi, o‘quv muvaffaqiyati va kasbiy yo‘nalishlar asosida kichik guruhlar tashkil etish, ko‘p darajali topshiriqlar “banki”ni yaratish, doimiy diagnostika va nazorat tizimini joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va rus tilini yuqori darajada egallashga yordam beradi. Taklif etilgan yondashuvlar nafaqat harbiy ta’lim tizimi, balki umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari uchun ham metodik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** harbiy-akademik litsey, rus tili ta’limi, differensial yondashuv, o‘quv guruhlarini shakllantirish, til bilish darajasi, kasbiy kompetensiya, o‘quv muvaffaqiyati, diagnostika, darajaviy topshiriqlar.

**Iqtibos uchun**: Komilova M.M. Rus tilini o'qitish tizimini takomillashtirish harbiy-akademik litseylarda o'quv guruhlarini tanlash asosida.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.340-350.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВОЕННО-АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ НА ОСНОВЕ ОТБОРА УЧЕБНЫХ ГРУПП

© М.М. Комилова[1]✉
[1] Ташкентский Perfect университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье анализируются особенности преподавания русского языка в военно-академических лицеях Узбекистана в контексте повышения качества подготовки будущих военных специалистов. Особое внимание уделяется влиянию процесса отбора и формирования учебных групп на результативность языкового обучения, а также необходимости учета уровня владения языком, успеваемости и военно-профессиональных интересов учащихся.

**ЦЕЛЬ:** обосновать педагогические подходы к совершенствованию системы обучения русскому языку в военно-академических лицеях на основе рационального отбора и формирования учебных групп и разработать практические рекомендации по дифференциации обучения с учетом уровня языковой подготовки, учебных достижений и профессиональных устремлений обучающихся. Дополнительно ставится задача определить роль владения русским языком в формировании профессиональной и коммуникативной компетентности будущих военных специалистов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** теоретической базой исследования послужили нормативно-правовые документы Республики Узбекистан, регулирующие деятельность военно-академических лицеев, труды отечественных и российских педагогов (Н. Азизходжаевой, Л. Голиш, А. Голубенко, М.Е. Захаровой и др.), а также данные педагогических наблюдений и анализа учебного процесса в ВАЛ. Использовались методы теоретического анализа, сравнительно-педагогический


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

подход, систематизация и обобщение педагогического опыта, позволяющие рассмотреть краткосрочный и долгосрочный отбор учебных групп, их формирование по профилю подготовки и уровню владения русским языком.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты анализа показали, что традиционное формирование групп преимущественно по направлению обучения без учета языковой компетенции и индивидуальных особенностей учащихся снижает эффективность овладения русским языком. Предлагается система отбора учебных групп: кратковременные подгруппы для работы над конкретными заданиями (по уровням A, B, C), длительные группы, формируемые на основе стартовой диагностики, а также разделение по профилю (гуманитарному, точному, экономическому) и уровню успеваемости. Разработка разноуровневых заданий, создание «банка» задач различной сложности, использование интерактивных форм обучения и расширение языковой среды способствуют росту мотивации, развитию речевой компетенции и более устойчивому усвоению русского языка как неродного.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что продуманная система отбора и формирования учебных групп по русскому языку в военно-академических лицеях является ключевым условием повышения качества языковой подготовки будущих военных специалистов. Дифференцированный подход к организации учебных групп, учет уровня владения языком и учебных достижений, а также создание адаптированных методических комплексов обеспечивают реализацию индивидуальных траекторий обучения и формирование профессионально значимой коммуникативной компетентности. Представленные рекомендации могут быть использованы не только в системе военного образования, но и в общеобразовательных школах, специализированных учебных заведениях и вузах.

**Ключевые слова:** военно-академический лицей, преподавание русского языка, дифференцированный подход, уровень владения языком, формирование учебных групп, успеваемость, профессиональная компетентность, разноуровневые задания, языковая среда.

**Для цитирования**: Комилова М.М. Совершенствование системы обучения русскому языку в военно-академических лицеях на основе отбора учебных групп.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 340-350.

## IMPROVING THE RUSSIAN LANGUAGE TEACHING SYSTEM IN MILITARY ACADEMIC LYCEUMS BASED ON THE SELECTION OF STUDY GROUPS

©Muyassar M. Komilova[1]✉
[1]Tashkent Perfect University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**INTRODUCTION:** the article analyzes the specific features of teaching Russian in military-academic lyceums of Uzbekistan in the context of improving the quality of training future military specialists. Particular attention is paid to how the selection and formation of student groups affects the effectiveness of language instruction, as well as to the need to consider learners' language proficiency, academic performance and professional interests.

**AIM:** the main aim of the study is to substantiate pedagogical approaches to enhancing Russian language teaching in military-academic lyceums through a rational system of selecting and forming learning groups and to develop practical recommendations for differentiated instruction based on students' language level, academic achievement and vocational orientation. An additional aim is to determine the role of Russian language proficiency in developing the professional and communicative competence of future military officers.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on national regulatory documents governing the activities of military-academic lyceums in Uzbekistan, scholarly works by Uzbek and Russian educators (N. Azizkhodjaeva, L. Golish, A. Golubenko, M.E. Zakharova, etc.), as well as pedagogical observations and analysis of Russian language teaching practice in these institutions. Theoretical analysis, comparative-pedagogical methods, systematization and generalization of educational experience were used to examine short-term and long-term grouping, profile-based grouping (humanities, natural sciences, economics) and grouping by language proficiency and academic performance.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that traditional grouping of students mainly by field of study without taking into account their Russian language competence and individual characteristics reduces the effectiveness of language learning. The article proposes a system of group selection that includes short-term subgroups for specific tasks (levels A, B, C), long-term groups formed on the basis of initial diagnostic testing, and differentiation according to profile and achievement level. The development of multi-level teaching materials, the creation of a "bank" of graded tasks, the use of interactive teaching methods and the expansion of the language environment all contribute to increased motivation, better development of oral communication skills and more sustainable mastery of Russian as a non-native language.

**CONCLUSION:** it is concluded that a well-designed system for selecting and forming Russian language learning groups in military-academic lyceums is a key factor in improving the quality of language training for future military professionals. A differentiated approach to group organization, combined with diagnostics of language proficiency and academic achievement and the development of tailored methodological packages, supports individual learning trajectories and fosters professionally oriented communicative competence. The proposed recommendations are applicable not only to military education but also to general secondary schools, specialized institutions and higher education.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**Iqtibos uchun**: Turakulov A.E. Qirqim va kesim bajarishda o‘quvchilarda tipik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shakllantirish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №11(1). B.360–367.

# ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ ИЗБЕГАТЬ ТИПИЧНЫХ ОШИБОК ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ РАЗРЕЗОВ И СЕЧЕНИЙ

© А.Е. Туракулов[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье рассматриваются типичные ошибки, возникающие у учащихся в процессе выполнения разрезов и сечений в черчении, их причины и эффективные педагогические методы, направленные на предотвращение ошибок. В исследовании особое внимание уделяется развитию компетенций у учащихся на основе цифровой педагогики, визуального моделирования, практических занятий и подхода STEAM.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования - выявить основные ошибки, встречающиеся у учащихся при выполнении разрезов и сечений, проанализировать их причины и разработать научно обоснованные предложения по формированию методических навыков, направленных на предотвращение ошибок.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В ходе данного исследования были использованы следующие методы:

- Наблюдение и анализ образовательного процесса;
- Экспертиза практических работ учащихся;
- Использование инструментов цифровой педагогики (AutoCAD, Compass 3D, SketchUp);
- Организация практических занятий на основе подхода STEAM;
- Работа с визуальными моделями, развивающими пространственное воображение.

В качестве материала были взяты графические работы учащихся 8-11 классов по черчению, учебные программы, учебники, цифровые образовательные платформы и программы графического моделирования.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что интеграция цифровых технологий в учебный процесс значительно повысила графическую грамотность учащихся и снизила количество ошибок на 35-40%.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в заключение можно сказать, что тема разреза и сечения требует от учащихся высокого уровня пространственного воображения и графической компетенции. Уроки, организованные на основе цифровых педагогических инструментов, интерактивных методов, визуальных моделей и подхода STEAM, значительно помогают учащимся предотвратить ошибки. При применении методических рекомендаций, разработанных в результате исследования, в деятельности учителей графическая грамотность учащихся будет развиваться.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Ключевые слова:** Разрез, сечение, черчение, графическая грамотность, анализ ошибок, STEAM, цифровая педагогика.

**Для цитирования**: Туракулов А.Э. Формирование у учащихся навыков избегать типичных ошибок при выполнении разрезов и сечений. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №11(1). B.360–367.

## FORMATION OF SKILLS IN STUDENTS TO AVOID TYPICAL MISTAKES WHEN PERFORMING CUTTING AND SECTIONS.

© Turakulov A. Ergashovich[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: This article discusses typical errors that occur in students during the process of performing cuts and sections in drawing, their causes, and effective pedagogical methods aimed at preventing errors. In the study, special attention is paid to the development of competencies in students based on digital pedagogy, visual modeling, practical classes, and the STEAM approach.

**AIM:** The purpose of the study is to identify the main errors encountered by students when performing sections and incisions, to analyze their causes, and to develop scientifically based proposals for the formation of methodological skills aimed at preventing errors.

**MATERIALS AND METHODS:** The following methods were used in this study:

- Observation and analysis of the educational process;
- Examination of students' practical work;
- Using digital pedagogy tools (AutoCAD, Compass 3D, SketchUp);
- Organizing practical classes based on the STEAM approach;
- Working with visual models that develop spatial imagination.

As a material, graphic works of students in grades 8-11 in drawing, curricula, textbooks, digital educational platforms, and graphic modeling programs were taken.

**DISCUSSION AND RESULTS:** The results showed that the integration of digital technologies into the educational process significantly improved students' graphic literacy and reduced the number of errors by 35-40%.

**CONCLUSION:** In conclusion, it can be said that the topic of cut and section requires students to have a high level of spatial imagination and graphic competence. Lessons organized based on digital pedagogical tools, interactive methods, visual models, and the STEAM approach significantly help students avoid mistakes. When the methodological recommendations developed as a result of the research are applied in the activities of teachers, students' graphic literacy will develop.

**Keywords:** Section, section, drawing, graphic literacy, error analysis, STEAM, digital pedagogy.

**For citation**: Turakulov A. Ergashovich. (2025) ‘Formation of skills in students to avoid typical mistakes when performing cutting and sections’, Inter education & global study, vol.3 (11),1 pp. 360–367. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**C**hizmachilik fani texnik yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa qirqim va kesim mavzulari detallarni to‘g‘ri tahlil qilish, fazoviy tasavvur, muhandislik fikrlash va grafik savodxonlikni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

Amaliyotda kuzatiladiki, ko‘plab o‘quvchilar qirqim va kesimlarni bajarishda tipik xatolarga yo‘l qo‘yadi. Bu xatolar asosan mavzuning murakkabligi, fazoviy tasavvur qobiliyatining yetarli emasligi, nazariy bilimlarning sust o‘zlashtirilganligi va pedagogik jarayonda interfaol metodlarning kam qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Shu bois mazkur maqola o‘quvchilarda xatolarning oldini olishga yordam beruvchi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar qirqim va kesim bajarishda eng ko‘p uchraydigan xatolar quyidagilardan iborat:

1) Qirqim va kesimlarning qoida va standartlarini chalkashtirish;

2) Fazoviy tasavvur yetishmovchiligi tufayli noto‘g‘ri proyeksiyalash;

3) Yordamchi chiziqlardan noto‘g‘ri foydalanish;


4) Masshtabni buzish va o‘lchamlarni noto‘g‘ri belgilash;

5) Chizmani o‘qish ko‘nikmalarining pastligi.

Qirqim va kesim bajarish jarayonida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish hamda tipik xatolarning oldini olishda ko‘rgazmali grafik materiallar – chizmalar, sxemalar va bosqichma-bosqich rasmli ko‘rsatmalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot doirasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoniga quyidagi tasviriy materiallardan foydalanildi:


Qirqim va kesim turlarini ko‘rsatadigan 1-rasm Bu rasmda gorizontal, frontal va profil qirqim turlari, ularning qo‘llanilish sohasi hamda chizmadagi belgilanishi aniq ko‘rsatildi. Rasm orqali o‘quvchilar qaysi holatda qaysi qirqimni tanlash zarurligini vizual ravishda idrok qila oldilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




a)

1.a.-rasm. Rasm detalning ichki tuzilishini ko‘rsatish uchun qirqim va kesim usullaridan foydalanishni aks ettiradi.





b)

1.b.-rasm Rasmda detalning ichki tuzilishini ko‘rsatish uchun **gorizontal qirqim** bajarish jarayoni aks ettirilgan. O‘ng tomondagi 3D model ustiga joylashtirilgan gorizontal tekislik orqali detalning yuqori qismi “kesib olingan”. Chap tomonda esa A–A bo‘yicha olingan qirqim va uning chizmada tasvirlanishi ko‘rsatilgan. Qirqim natijasida detal ichki

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘shliqlari, devor qalinligi va shakl elementlari aniq ko‘rinishga chiqadi. Bu usul murakkab detallar ichki formasini tushunish va chizmani to‘g‘ri o‘qish uchun qo‘llaniladi.




c)

1.c. rasm. Rasmda detalning ichki tuzilishini ko‘rsatish uchun profil qirqim bajarish jarayoni yoritilgan. Profil qirqim — bu buyumni yon tomondan kesuvchi vertikal tekislik ($П_3$) orqali ko‘rsatish usuli bo‘lib, detalning ichki shakli, teshiklari va devor qalinliklarini aniq aks ettiradi.

Chap tomonda 3D model ustida sariq rangda profil tekislikning joylashuvi, o‘ng tomonda esa shu tekislik bo‘yicha olingan qirqimning chizmada qanday tasvirlanishi berilgan. Profil qirqim orqali murakkab ichki bo‘shliqlar va shakl elementlarining o‘lchamlari aniq va tushunarli tarzda ko‘rinadi.

**Kamchiliklar va o‘quvchilarda uchraydigan tipik xatolar:**

**1. Gorizontal, frontal va profil tekislikni noto‘g‘ri tanlash**

Ko‘plab o‘quvchilar kesuvchi tekislikni detalning asosiy ichki elementlarini ochib beradigan joyga emas, qulay deb o‘ylagan o‘ringa qo‘yadilar. Natijada qirqim yetarli ma’lumot bermaydi.

**2. Qirqimda chizig‘ini noto‘g‘ri belgilash**

Profil qirqim chizig‘ida:

-yo‘nalish ko‘rsatkichlari qo‘yilmasligi,

-chiziq uzilishining qoidalarga mos kelmasligi ko‘p uchraydi.

**3. Shtrixlanish yo‘nalishini noto‘g‘ri berish**

O‘quvchilar ko‘pincha:

-shtrix chiziqlarni juda zich,

-yoki juda siyrak chizadi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

-ba’zan esa shtrix yo‘nalishini parallel emas, tasodifiy qiladi.

Bu qirqimni chizmadan o‘qishni qiyinlashtiradi.

**4. Simmetriya o‘qlarini unutish;**

Yon proyeksiyalarda simmetriya o‘qlarini ko‘rsatmaslik, ayniqsa teshiklar va simmetrik shakllarda, xatoga olib keladi.

**5. Qirqim bilan real proyeksiyani aralashtirib yuborish;**

Ba’zan o‘quvchilar kesilgan yuzalarni qirqimga emas, tashqi ko‘rinishga o‘xshatib chizadilar. Bu chizmaning texnik to‘g‘riligini buzadi.

**6. Perspektiv rasm bilan chizma orasidagi farqni anglamaslik;**

3D modeldagi shaklni qirqimga to‘g‘ri o‘tkaza olmaslik — eng ko‘p uchraydigan xatolardan biri. Bu fazoviy tasavvur yetarli bo‘lmaganda yuz beradi.

Muammo yechimi sifatida quyidagi yondashuvlar samarali deb topildi:
— Raqamli simulyatsiyalar yordamida murakkab detallarni 3D ko‘rinishda ko‘rsatish;
— Har bir qirqim turini vizual animatsiya orqali tushuntirish;
— STEAM yondashuvi asosida amaliy mashg‘ulotlarda texnik modellar yaratish;
— Chizmani o‘qish kompetensiyasini mustahkamlash bo‘yicha bosqichma-bosqich topshiriqlar;
— O‘quvchilarning individual xatolariga asoslangan differensial yondashuv.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish o‘quvchilarning grafik savodxonligini sezilarli darajada oshirdi va xatolar soni 35–40% ga kamaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Naweed, N. A., & Turakulov, A. E. (2021). The role of urban planning norms and rules in creating a modern design of a library building. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(6), 385-387.
2. Naweed, N. A., & Turakulov, A. E. (2021). The role of urban planning norms and rules in creating a modern design of a library building. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(6), 385-387.
3. Ergashevich, T. A. (2022). DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'DESIGN SKILLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, *11*(05), 156-159.
4. Ergashevich, T. A. (2022). DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'DESIGN SKILLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, *11*(05), 156-159.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Uralovich, T. F. (2023). Pedagogical Characteristics of Developing Aesthetic Skills in Future Drawing Teachers. *International Journal of Pedagogics*, *3*(05), 139-144.
6. Uralovich, T. F. (2023). Pedagogical Characteristics of Developing Aesthetic Skills in Future Drawing Teachers. *International Journal of Pedagogics*, *3*(05), 139-144.
7. Urolovich, T. F. (2022). Tasviriy san at darslarida tasvirni to g ri chizishda perspektiv pozitsion va metrik masalalardan amalda to gri foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 41-44.
8. Urolovich, T. F. (2022). Tasviriy san at darslarida tasvirni to g ri chizishda perspektiv pozitsion va metrik masalalardan amalda to gri foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 41-44.
9. Urolovich, T. F. (2022). Tasviriy san at darslarida tasvirni to g ri chizishda perspektiv pozitsion va metrik masalalardan amalda to gri foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 41-44.
10. Тошпулатов, Ф. У., & Туропова, Р. Б. (2021). Игры, которые развивают интерес детей к профессии на основе игровых технологий. *Наука и образование*, *2*, 487-491.
11. Тошпулатов, Ф. У., & Туропова, Р. Б. (2021). Игры, которые развивают интерес детей к профессии на основе игровых технологий. *Наука и образование*, *2*, 487-491.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Turakulov Anvar Ergashovich**, Termiz davlat pedagogika instituti tasviriy san’at kafedrasi Dotsent., p.f.f.d. (PhD),, [**Туракулов Анвар Эргашович,** доцент кафедры изобразительного искусства Термезского государственного педагогического института, доктор педагогических наук**.** (PhD),], [**Turakulov Anvar Ergashovich,** Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Department of Fine Arts, Termez State Pedagogical Institute. (PhD),]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY, At-Termiziy ko‘chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111],], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP "Yangiabad", At-Termizy street 1 Auy Postal code: 190111].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# XOR DIRIJORLIGIDA XIYRONOMIK USULLARIDAN FOYDALANISH

© J.A.Xodjayev [1]✉

[1] Samarqand davlat universiteti, Samarqand,O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** Maqolada O‘zbekistonda vokal-xor ijrochiligi va xor san’ati taraqqiyoti fonida xor dirijorligi fanining o‘rni hamda xeyronomik (chieronimik) usullardan foydalanish zarurati yoritiladi. Xor darslarida jamoa bo‘lib kuylash jarayonini badiiy va tashkiliy jihatdan boshqarishda dirijorning shaxsiyati, musiqiy va jismoniy tayyorgarligi hal qiluvchi omil sifatida ko‘riladi.

**MAQSAD:** Tadqiqotning asosiy maqsadi — xor dirijorligi jarayonida xeyronomiya elementlaridan foydalanishning nazariy asoslarini ochib berish va bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari hamda xor dirijorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat. Shuningdek, murakkab va aralash o‘lchovli asarlarni ijro etishda chieronimik usullarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqotda xor va dirijorlik san’ati bo‘yicha tarixiy manbalar, O‘zbekiston va jahon dirijorlik maktabi namoyandalari ijodi, xor dirijorligini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanmalar tahlil qilindi. Deskriptiv, tarixiy-tahliliy, qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatuv usullaridan foydalanilib, dirijorlik apparati, xeyronomik harakatlar va ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dirijorlik apparati (qo‘l, gavda, bosh, nafas)ni to‘g‘ri shakllantirish, xeyronomik harakatlar orqali temp, ritm, dinamika va xarakterni aniq ifodalash xor ijrosining badiiy darajasini sezilarli oshirishi aniqlangan. Murakkab va aralash o‘lchovlarni taktlash bo‘yicha maxsus mashqlar, qo‘llarning mustaqil va uyg‘un harakatini rivojlantirish, mimika va artikulyatsiyani maqsadli mashq qilish talabalar ijrochilik madaniyati va sahnaviy erkinligini kuchaytiradi. Gimnastika va jismoniy mashqlar bilan integratsiyalashgan dirijorlik tayyorgarligi esa chidamlilik, harakat erkinligi va emotsional ifodalilikni oshirishi bilan ahamiyatlidir.

**XULOSA:** Xeyronomik usullardan tizimli foydalanish xor dirijorligi fanini o‘qitishda nafaqat texnik, balki estetik va tarbiyaviy vazifalarni ham samarali hal etishga yordam beradi. Bo‘lajak xor dirijorlarini dirijorlik apparatini boshqarish, murakkab o‘lchovlarni taktlashtirish, mimika va artikulyatsiyani boshqarishga yo‘naltirilgan mashqlar asosida tayyorlash ularning professional darajasini, sahna madaniyatini va xor jamoalarini badiiy boshqarish salohiyatini yuksaltiradi. Natijada xor ijrochiligi o‘quvchilarda estetik did, jamoaviylik, mas’uliyat va ma’naviy saviyani oshirishning samarali vositasiga aylanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so‘zlar:** xor dirijorligi, xeyronomiya, dirijorlik texnikasi, vokal-xor ijrochiligi, dirijorlik apparati, murakkab o‘lchovlar, musiqa ta’limi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari.

**Iqtibos uchun**: J.A.Xodjayev. Xor dirijorligida xiyronomik usullaridan foydalanish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.368-377.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХИЕРОНОМИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ХОРОВОМ ДИРИЖИРОВАНИИ

© Ж.А. Ходжаев[1]✉
[1] Самаркандский государственный университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье на фоне развития вокально-хорового творчества в Узбекистане рассматривается роль дисциплины «Хоровое дирижирование» и необходимость систематического использования хейронимических методов. Подчеркивается, что в процессе коллективного пения именно личность дирижера, его музыкальная и физическая подготовка определяют художественный уровень исполнения хора.

**ЦЕЛЬ:** раскрыть теоретические основания применения хейронимии в хоровом дирижировании и обосновать ее значение в формировании профессиональной компетентности будущих музыкантов-педагогов и хормейстеров. Дополнительно ставится задача выявить педагогические возможности хейронимических приемов при исполнении произведений в сложных и смешанных размерах.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использовались исторические источники по искусству дирижирования, труды о развитии узбекской и мировой дирижерской школы, учебно-методические пособия по хоровому дирижированию. Применялись дескриптивный, историко-аналитический, сравнительный методы, а также педагогическое наблюдение для изучения дирижерского аппарата, хейронимических жестов и их интеграции в учебный процесс.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** анализ показал, что правильное формирование дирижерского аппарата (руки, корпус, голова, дыхание) и использование хейронимических движений для передачи темпа, ритма, динамики и характера существенно повышают художественный уровень хорового исполнения. Специальные упражнения по тактированию простых, сложных и смешанных размеров, развитию самостоятельности и согласованности движений рук, работе мимики и артикуляции усиливают исполнительскую культуру и сценическую свободу студентов. Интеграция гимнастики и физических упражнений в подготовку дирижера способствует развитию выносливости, свободы движения и эмоциональной выразительности.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** систематическое использование хейронимических методов в обучении хоровому дирижированию позволяет эффективно решать как технические, так и эстетико-воспитательные задачи музыкального образования. Подготовка будущих хормейстеров на основе упражнений, направленных на управление дирижерским аппаратом, тактирование сложных размеров, работу мимики и артикуляции, повышает их профессиональный уровень, сценическую культуру и способность художественно управлять хоровыми коллективами. В результате хоровое искусство становится важным средством формирования у обучающихся эстетического вкуса, коллективизма, ответственности и духовной зрелости.

**Ключевые слова:** хоровое дирижирование, хейронимия, техника дирижирования, вокально-хоровое искусство, дирижерский аппарат, сложные размеры, музыкальное образование, будущие музыканты-педагоги.

**Для цитирования**: Ж.А. Ходжаев. Использование хиерономических методов в хоровом дирижировании.// Inter education & global study.2025. vol.3. №11(1). С.368-377.

## USING CHIERONOMIC METHODS IN CHOIR CONDUCTING

© J.A. Xodjayev[1]✉
[1]Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article examines the role of the course “Choral Conducting” against the background of the development of vocal-choral performance in Uzbekistan and substantiates the need for systematic use of chironomic methods. It is emphasized that in collective singing the personality of the conductor and his or her musical and physical readiness largely determine the artistic quality of the choir’s performance.

**AIM:** the main aim of the study is to reveal the theoretical foundations of applying chironomy in choral conducting and to justify its importance for developing the professional competence of future music teachers and choral conductors. An additional aim is to identify the pedagogical potential of chironomic techniques in performing works written in complex and mixed meters.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on historical sources on conducting art, works on the development of the Uzbek and international conducting schools, and teaching manuals on choral conducting. Descriptive, historical-analytical and comparative methods, as well as pedagogical observation, were used to investigate the conductor’s apparatus, chironomic gestures and their integration into the educational process.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings demonstrate that proper formation of the conductor’s apparatus (hands, body, head, breathing) and the use of chironomic

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

movements to indicate tempo, rhythm, dynamics and character considerably improve the artistic level of choral performance. Special exercises in beating simple, complex and mixed meters, developing the independence and coordination of hand movements, and training facial expression and articulation strengthen students' performance culture and stage freedom. Integrating gymnastics and physical training into conducting education enhances endurance, freedom of movement and emotional expressiveness.

**CONCLUSION:** systematic use of chironomic methods in teaching choral conducting makes it possible to solve both technical and aesthetic-educational tasks of music education more effectively. Training future choral conductors through exercises focused on managing the conducting apparatus, beating complex meters and controlling facial expression and articulation raises their professional level, stage culture and ability to artistically lead choral ensembles. As a result, choral art becomes a powerful means of fostering students' aesthetic taste, sense of community, responsibility and spiritual maturity.

**Keywords:** choral conducting, chironomy, conducting technique, vocal-choral art, conductor's apparatus, complex meters, music education, future music teachers.

**For citation**: J.A.Xodjayev. (2025) 'Using chieronomic methods in choir conducting', Inter education & global study, vol.3. (11(1)), pp. .368-377. (In Uzbek).

**O**'zbekistonda musiqa san'atining umumiy rivojlanishi bilan birgalikda vokal-xor ijodiyotining faol o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayon xor san'atida turli janrlar va shakllar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xor yozuvi va dirijorligining turli uslublariga murojaat qilish, xor sadosi imkonmiyatlaridan maksimal darajada foydalanishga bo'lgan intilish yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan yangi qiziqarli asarlar tug'ilishiga asos bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi[1]. Atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli san'atkorlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘sha joylarda madaniyat va san’atni rivojlantirishga mas’ul bo’ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san’at sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham e’tibor qaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Dirijorlik san`atida yorqin iz qoldirgan ilk musiqachi, ijrochi kompazitorlar Glyuk, Motsart, Mendelson, Shpor, A, Veber, Recheard Shtraus, K, Vagner, V, Berlioz, Frans List, G, Janer va boshqalar bu kasb bilan birga o‘zlarining boshqa mutaxassisliklari, kompazitsiya, skripka, fortepianino, organ, chalishni bir vaqtda parallel ravishda olib borishgan[2].

XX asrning 20-yillar oxiri 30 yillaridan boshlab O‘zbekiston hududida ko‘p ovozli musiqa va ko‘p ovozli ijro etuvchi jamoalarni paydo bo‘lishi, O‘zbekistonga Yevropada shakllangan musiqiy janrlarning kirib kelishi bilan milliy drama, opera, balet, xalq cholg`u asboblari orkestri kabi jamoaviy ijrochilik turlarini yuzaga kelishi natijasida bir qator mahalliy dirijorlar yetishib chiqdilar. Bu o‘rinda o‘zbek zamonaviy musiqa rivojiga katta hissa qo‘shgan A. Kazlovskiy, Naum Goldman, Georgey Doniyax va ularni shogirdlari M. Ashrafiy, B. Inoyatov, Fazliddin Shamsiddinov, Nabi Xalilov, Abdug`ani Abduqayumov, Dilbar Abduraxmonova, G`ani Tulaganov, Mardon Nasimov, Said Aliyev, Abduqaxxor Sultonov, Ergash Toshmatov, Quvonch Usmonov, Botir Umidjonov, Fazliddin Yoqubjonov, Eldor Azimovlarni alohida ko‘rsatish o‘rinlidir[4].

Respublikada xor va dirijorlik san`atining tez sur`atlar bilan rivojlanishda 1960-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston radio va televideniyasi qoshidagi milliy xor jamoasining salmoqli hissasini bo‘ldi. O‘zbek kompozitorlari bu yillarda xor va orkestr jamoalari uchun juda ko‘plab badiiy yetuk asarlar yaratdilar. Bu o‘rinda Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Doni Zokirov, Sobir Boboyev, Ibrohim Hamroyev, Ikrom Akbarov, Sulaymon Yudakov, Mardon Nasimov yaratgan asarlar xalqimiz mehr- muhabbatiga sazovor bo‘ldi[2].

Hozirgi vaqtda ta`lim tizimining deyarli barcha bosqichlarida musiqa ta`limi yo‘lga qo‘yilgan va bu muassasalarda xor bo‘lib kuylash musiqiy ta`limning yetakchi va ommaviy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. O‘rta umumta`lim maktablaridan tortib, oliy pedagogik va maxsus mutaxassis tayyorlashga ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan tizimida musiqachi tayyorlash albatta dirijorlik fanini ham o‘z ichiga oladi. Musiqa o‘qituvchilarni xor- dirijorligiga tayyorlash tizimi umumiy g`oyaviy- tarbiyaviy va musiqiy – ta`limiy vazifalariga ko‘ra oliy pedagogik ta`lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalarni xor dirijori sifatida maktab musiqa ta`limda vokal-xor ishlarini amalga oshiruvchi uchun zarur kasbiy bilim va malakalarni shakllantiradi.

O‘quv ishlarining asosiy turlari: musiqa ohangdorligini o‘zlashtirish, xor ovozlari va akkordlarni kuylash, fortepianoda partiturani chalish, xor asariga ma`nodor, mazmunli dirijorlik qilish. Musiqachi- pedagoglar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dirijorlik sifatida dars beruvchi pedagoglar vazifasi bo‘lajak xor-dirijorlarini xor bilan ishlash, xor ijrosini erkin boshqara oladigan, barcha bilim, malakalarga ega qilib tarbiyalashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Musiqa darsi asosiy faoliyat turlaridan biri jamoa bulib kuylash, y’ni xor san’ati hsoblanadi. Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san’ati turlaridan biridir. Chunki xalqimiz tomonidan jamoa bo’lib ijro etilgan turli janrdagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qo'shiqlar, an'anaviy fol'klorlar xor san'atining rivojlanishiga cabab bo'lgan. Xor bo'lib kuylashning boshka san'at turlaridan farqli jihati shundaki, xorni dirijor boshqaradi. Dirijor italyancha - dirigente, fransuzcha – chef d orchestra, inglizcha – conductor so'zlaridan olingan bulib boshqaruvchi, bosh, rahbar ma'nolarini anglatadi[2]. Dirijorlik san'ati musiqa faoliyatining takrorlanmas, yorqin ommaviy muhim mutaxassislik turlaridan biri hisoblanadi. Bu san'at turini egallash uchun yuqori eshitish qobiliyati, musiqa xotirasi, ritmni his qilish, tembr kabi malakalarga ega bulishi lozim. Dirijor barmoq, qo'l, yuz mimikasi orqali ijro etilayotgan musiqa asarini sur'atini (temp), tovushlar o'zunligi, baland pastligini (dinamik belgilar), asarning xarakterini ifodalab bergan. Bunday yuz mimikasi, barmoq, qo'lning maxsus harakatlari xeyronomiya deb nomlanadi. Dirijorlik mahoratiga xeyronomiya bilan bir vaqtda dirijorlik apparati ya'ni gavda va oyoqlar holati, nafas (auftakt), kirish, to'gallash, malakalari ham kiradi[2].

Dirijorlik juda murakkab va mas'uliyatli fan bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashda o'ziga xos pedagogik yondoshuv, malakaviy mahorat, ta'limni sinf va auditoriyadan tashqari mashg'ulotning uyg'unligida tizimli yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalardan foydalangan holda uyushtirish, talabalarda bu fan ularni kelgusi faoliyatida "yetakchi" ahamiyat kasb etib, anglash ko'nikmalarini hosil qilish va fan sirlarini qunt bilan egallab borishlarini talab qiladi.

Movoraunnahr musiqa san'ati, o'zimizning an'anamizda 8/8 (3+2+3),10/8 (3+2+2+3) taqsimlanishidagi murakkab musiqa ijrochiligi uslublari harbiylarimiz tomonidan janglarda, hujum, tartib-qonunlarida, yurishlarda va tantanalarda keng qo'llanib kelingan.

Shu bois oddiy va murakkab o'lchovlarga dirijorlik qilish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish yo'lida qo'llaniladigan ish uslublarini yoritib berish ko'zda tutildi. Dirijorlik mashqlar sxemalarini qo'l harakatida ifodalash "taktlash" va "ko'rsatish" talabalarni har bir o'lchovga dirijorlik qilish qoidalarini puxta egallashlarida qo'l keladi. Mashqlarni tanlashda qo'llarning bir- biriga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan harakatlarini bajarish uchun, ya'ni bir qo'lda dirijorlik sxemasini "ko'rsatish", ikkinchi qo'lda ovoz partiyasi ijrosini ko'rsatish u yo bu malakasini hosil qilish nuqtai nazaridan yondoshiladi. Bunday Akademik –konseptual mashqlarga dirijorlik qilishga erishish, talabalarga oddiydan boshlab "Nomurakkab va Murakkab" va "Aralash o'lchov" li asarlarga dirijorlik qila olish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Xor dirijorligi fanining asosiy masalalaridan biri – o'rganuvchiga dirijorlik texnikasini o'rgatishdir[3]. Xo'sh, dirijorlik texnikasi deganda biz nimani tushunishimiz lozim?

Bu haqda buyuk dirijor K.B.Ptitsa shunday deydi: "Dirijorning harakat sistemasini boshqarishi, xor jamoasiga tushunarli bo'lishi, ijroni boshqarishi, unga xarakter berishi dirijorlik texnikasi deyiladi".

Dirijorlik texnikasi dirijorga harakat orqali ijrochilarga va tinglovchilarga musiqa asarining mohiyatini yetkazib berishda yordam beradi. Dirijor bilan ijrochi jamoa o'rtasidagi birdan-bir aloqa dirijorlik texnikasidir. U yoki bu asarni ijro etishda dirijor o'zining dirijorlik texnikasi bilan ishtirok etadi. Dirijorlik texnikasini puxta egallagan talaba

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

so’zsiz, o’zining dirijorlik harakatlari bilan xorga talabini yetkazishi mumkin. Bu esa har bir xor rahbarining dirijorlik texnikasini puxta bilishi kerakligidan dalolat beradi [4].

San’atda erkin bo’lish uchun texnikani puxta bilish zarur. Lekin biz ijrochini uning texnikasiga qarab baholamaymiz, aksincha, uning texnikani qanday qo’llashiga baho beramiz.

Dirijorlik texnikasi maqsad emas, balki asarning to’liq fikrining bayoni, xorning dirijorga bo’ysunishidir[2]. Bo’lajak dirijorga dirijorlik sirlarini o’rganishda o’qituvchi uning dirijorlik texnikasiga katta e’tibor berishi kerak, shu bilan birga o’qituvchining umumiy musiqiy rivojlanishini doim nazorat qilishi katta ahamiyatga ega. O’quvchi muloyimlik, egiluvchanlik, qo’llarning erkinligini, bir qator mashqlarni o’zlashtirishi zarur, lekin bunda texnikani birinchi o’ringa qo’yishi mumkin emas, chunki texnika – bu also san’at emas.

Dirijorlik texnikasini egallash ayniqsa qo’l texnikasini – juda murakkab va uzoq muddat talab etuvchi jarayon, buni o’quvchilarga birinchi navbatda o’qtirish zarur.

Dirijorlik texnikasiga o’z ustida tinimsiz ishlash orqallli erishiladi. Boshlang’ich dirijor o’zining tabiiy layoqatiga ishonibgina qolmasdan, balki uyda o’z ustida ishlashi, kerakli natijaga erishishi uchun tinimsiz mehnat qilmog’i zarur. Qo’llarni shunday tarbiyalash kerakki, eng sodda mashqlar qiyinchiliksiz, juda oson, yengil, avtomatik ravishda bajarilishi kerak. Ishni iloji boricha osonlashtirish, osonlik va yengillikka erishish uchun dirijor yuksak mahorat va qunt bilan bir necha yillar mobaynida shug’ullanishi kerak.

Dirijorlik texnikasini egallashda jismoniy mashqlar ham katta yordam beradi. Dirijor irodasi kuchli, chidamli, harakatchan, gavda va nafasni to’g’ri boshqara oladigan bo’lishi kerak. Bu haqda Shari Myuni shunday deydi: “Dirijor harakatlarining sof jismoniy kuch talab qiluvchi mashqlari menga gimnastikaning dirijor uchun qanchalik zarurligining isboti bo’la olishini ochib berdi. Gimnastika jismonan sog’lom bo’lishga yordam beradi, qo’llarning erkin va yengil harakatini ta’minlaydi. Undan tashqari u Jergiyani tejash va charchoqni yengishga o’rgatadi”. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maxsus sinf o’qituvchilari o’qituvchilarni jismoniy tarbiya, sport bilan shug’ullanishga jalb qilinishlari nur ustiga a’lo nur hisoblanadi. Dirijor xorni dirijorlik apparati yordamida boshqaradi. Bunga qo’llar, bosh (ko’zlar, yuz), gavda (ko’krak, yelkalar), oyoqlar kiradi. .

Dirijorlik apparatini o’rganish gavdani tik saqlashdan boshlanadi. Bu dirijor uchun katta ahamiyatga ega. Qomatni to’g’ri tutish dirijor ishini yengillashtiradi, pul’t oldida harakatlarning erkinligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, gavdani to’g’ri tutish dirijorning tashqi ko’rinishida ham o’z aksini topadi, bu esa o’z navbatida ommaviy ijroga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin.

Dirijorning ko’rinishi estetik did darajasida ijrochilar hamda tinglovchilarga yoqimli, pul’t oldida o’zini tutishi esa bir vaqtning o’zida ham shiddatli va jiddiy, ham erkin bo’lishi zarur. Bu xususiyatlarni egallash uchun o’quvchini qomatni tabiiy ravishda erkin tutishga o’rgatish kerak. Gavdani to’g’ri tutishning asosi avvalambor ko’krakning siqilmagan holatini, ya’ni bo’sh holatini ta’minlash hamda yelkalarning erkinligiga erishishdir. Bularning hammasi erkinlik hissini uyg’otib, o’ziga ishonch hosil qilishda yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Dirijor xorni dirijorlik apparati yordamida boshqaradi. Bunga qo'llar, bosh (ko'zlar, yuz), gavda (ko'krak, yelkalar), oyoqlar kiradi.

Dirijorlik apparatini o'rganish gavdani tik saqlashdan boshlanadi. Bu dirijor uchun katta ahamiyatga ega. Qomatni to'g'ri tutish dirijor ishini yengillashtiradi, pul't oldida harakatlarning erkinligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, gavdani to'g'ri tutish dirijorning tashqi ko'rinishida ham o'z aksini topadi, bu esa o'z navbatida ommaviy ijroga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin[4].

Dirijorning ko'rinishi estetik did darajasida ijrochilar hamda tinglovchilarga yoqimli, pul't oldida o'zini tutishi esa bir vaqtning o'zida ham shiddatli va jiddiy, ham erkin bo'lishi zarur. Bu xususiyatlarni egallash uchun o'quvchini qomatni tabiiy ravishda erkin tutishga o'rgatish kerak. Gavdani to'g'ri tutishning asosi avvalambor ko'krakning siqilmagan holatini, ya'ni bo'sh holatini ta'minlash hamda yelkalarning erkinligiga erishishdir. Bularning hammasi erkinlik hissini uyg'otib, o'ziga ishonch hosil qilishda yordam beradi.

Birinchi darslarda o'qituvchiga qo'yiladigan boshlang'ich maqsadlardan biri, gavdani to'g'ri saqlashni (tutishni) nazorat qilish va bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi. Bunday kamchiliklardan biri bukchaygan holda turish hisoblanadi. Bunda dirijorning umumiy qiyofasi xomushlik, kayfiyatsizlikni aks ettirganga o'xshab qoladi. Yelkalarning bukchayganligi, ko'krakning cho'kishi charchoqni, holdan toyganlikni bildiradi. Bunday dirijor xorni ilhomlantirmaydi, aksincha, ishtiyoqni so'ndiradi. Agarda dirijor haddan tashqari siqilgan holda tursa, uning nafas olishi qiyinlashib, bu holat dirijorlik qilishga xalaqit beradi. Bu holat ham xor jamoasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ular ham erkinliklarni yo'qotishadi. Bunday holda tinglovchilarga dirijorlik sun'iy, majburiy holda bajarilayotganday bo'lib tuyuladi. Yelkalarni baland ko'tarib dirijorlik qilishda o'quvchi bo'yin va qo'llarning yuqori qismlarini zo'riqtiradi. Bunday hollarda o'qituvchi yelkalarni bo'sh tutishi, qo'llarning erkinligini, har bir harakatning yelkadan bajarilishini nazorat qilishi va noto'g'ri harakatlarning oldini olishi muhim hisoblanadi. O'rganuvchi asosiy e'tiborni harakatning tirsak bilan emas, balki yelka bilan bajarilishiga sarflashi kerak. Bu harakatning to'g'ri bajarilishiga erishish uchun o'quvchi tomonidan ko'p mashg'ulot, o'qituvchi tomonidan esa juda kuchli nazorat talab qilinadi.

Dirijorning mustahkam tayanchini, gavda tikligini ta'minlaydi. Dirijorlik vaqtida oyoqlarni uncha keng bo'lmagann holatda qo'yish tavsiya etiladi. Bunda chap yoki o'ng oyoqni sal oldinroqqa qo'yish tavsiya etiladi. Bu bilan dirijor o'ziga mustahkam tayanch hosil qiladi. Agarda oyoqlarni bir-biriga parallel holda juda yaqin qo'ysa mustahkamlik yo'qoladi, gavda ham muvozanatini yo'qotib, dirijorlikka noqulaylik bo'lib qoladi. Agarda aksincha, oyoqlarning orasi katta ochilsa dirijorning estetik ko'rinishi buziladi, bunday dirijorga qarash yoqimsiz bo'lib qoladi. Dirijorlik vaqtida tizzalarni bukish qat'iyan man qilinadi (lekin afsuski, bu holat boshlang'ich dirijorlarda ko'p kuzatiladi). Bunday o'quvchilarning dirijorlik paytida oyoqlarni to'g'ri qo'yishi va ijroning oxirigacha shu holatni saqlashini kuzatish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish o'qituvchidan katta kuch talab qiladi.

O'rganuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklardan yana biri bu dirijorlik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

paytida oyoqlar holatini tez-tez almashtirib turish yoki pul't oldida ortiqcha harakatlar qilishi va aksincha, oyoqlarning umuman qimirlatmasligi. Bunday o'quvchilarga pul't oldida o'zini (ma'lum bir chegarada) erkin tutishni uqtirish lozim. Albatta, ijro vaqtining ma'lum bir qismlarida oyoqlar holatining o'zgartirishi talab qilinishi kerak. Bunday vaqtlarda oyoqlar holati o'zgartirilishiga ruxsat beriladi. Lekin, bu holat ko'p takrorlanmasligi va imkon boricha boshlang'ich holatni egallashga harakat qilish dirijor uchun muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Oyoq bilan ritm urib turish dirijorlikda qat'iyan man qilinadi.

Dirijorning boshi shunday holatda bo'lishi kerakki, xordagi ijrochilar uning yuzi va ko'zlarini aniq ko'rib turishi, dirijorning o'zi ham har bir ijrochini nazorat qila olishi uchun qulay bo'lsin. Bundan xulosa qilib, dirijorning kallasi pastga yoki boshqa tjmjnga qaramasdan, balki to'g'riga qaragan holda bo'lishi lozim, degan qoida kelib chiqadi.

Ko'p hollarda ilk dirijorlik darslarini olayotgan o'quvchilar har bir harakatga bosh qimirlatish yo'li bilan yordam berish usulini qo'llashadi. Bunda har bir qo'l harakati bosh qimirlatishi bilan hamkorlikda bajariladi. Bunday o'quvchilarda dirijorlik apparatining har bir qismi o'z vazifasini mustaqil bajarilishini, ya'ni dirijorlik apparatining erkinligini yo'lga qo'yish asosiy masala sifatida qaraladi. Lekin, shu bilan birga dirijor har tarafga qarashdan qo'rqib faqatgina bir nuqtaga qarashga ham yo'l qo'ymasligi kerak. Dirijorning kallasi xordagi biror bir partiyaga murojaat qilgan holdagina holatini o'zgartirishi mumkin.

Dirijorning yuzi xor bilan ishlashda, ijroni olib borishda juda katta ahamiyatga ega. Dirijor yuzi ma'noga, mimik harakatlarga boy bo'lishi kerak. Yuz mimikasi ijro ta'sirchanligining asosidir. Faqatgina qo'l harakatlari orqali asarning to'liq mazmunini tinglovchiga yetkazib bo'lmaydi. Dirijorlik vaqtida dirijor o'zining mimikasi orqali xor bilan "muomala" da bo'ladi va shu orqali ma'lum bir obraz yaratishda asosiy o'rin tutadi. Ijro vaqtida dirijor uchun ijrochilar tomonidan yo'l qo'yilgan biror bir xatoga norozilik bildirish qat'iyan man qilinadi. Chunki bu bilan dirijor yo'l qo'yilgan kamchilikni tuzatmaydi, balki ijrochilarning ruhi tushib ketishiga sababchi bo'ladi. Dirijor yuzining mimikasi, uning qarashi, harakatlari ijro etilayotgan asarning xarakteriga mos bo'lishi kerak.

Artikulyatsiya ham ijrochilikda mahorat talab qiladi. Artikulyatsiya yordamida dirijor xorga har bir tovushning xarakterini, diksiyaning aniq va ravshan ijro qilinishi kerakligini eslatib turadi. Boshlang'ich dirijor o'zining artikulyatsion apparatini shunday mashqlantirishi kerakki, u bemalol ovoz chiqarmasdan xorga so'zlarni aniq va vaqtida aytib tura olishi mumkin bo'lsin.

Qo'llar – dirijorlik apparatining eng muhim qismi bo'lib, xor bilan muomalaning asosiy vositasi hisoblanadi. Qo'l harakatlari bilan dirijor musiqiy asarning xarakterini tasvirlaydi, uning chuqur mazmunini ifodalaydi, ijrochilarga ta'sir ko'rsatadi[3].

O'quvchiga qo'llarni to'g'ri holatda umumlashtirishni o'rgatish hamda har bir qo'lning erkin harakatiga erishish, o'zini bemalol boshqarishini o'rgatish, qo'l qismlarining har biri erkin holatda va shu bilan birgalikda bir butunlikni tashkil etmog'i lozimligini uqtirish zarur.

Qo'llarning to'g'ri holatini ta'minlashdagi asosiy talab-mushaklarning erkinligini,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qulaylik va bir qismni mustaqilligini hamda ularning bir butunligini rivojlantirishdir.

Harakatlarning to'g'riligi avvalambor bilakka, uning rivojlanganligiga bog'liq. Bilak orqali dirijor ijroning nozik tomonlarini ko'rsatadi. Bilak-qo'lning eng mustaqil va eng harakatchan qismi, faqatgina u nisbatan sust qo'llar harakatini ishlab chiqishi mumkin. Dirijorlik texnikasi birinchi navbatda bilakning harakatchanligini, ifodaliligini, elastikligini rivojlantirishga qaratilgan.

Asosiy dirijorlik holatida bilak, ko'krak balandligida gorizontal holatni egallashi to'g'ri hisoblanadi. Tuzilishi bo'yicha bilak shar yoki to'pni ushlamoqchi bo'lganday holatda turishi kerak: kaft ochiq, yerga qaragan holda bo'ladi, barmoqlar bilakning asosiy holatida sal egilgan holatda bo'lishi kerak. Barmoqlar orasi uncha ochiq emas, lekin shu bilan birga juda mahkam siqilgan ham bo'lvasligi kerak. Ularni erkin va bir-biridan ozgina masofada saqlash lozim. Katta barmoq boshqalariga nisbatan sal pastroqda va chekkaroqda joylashadi. Oxirgi ikkita barmoq sal chetga qarashi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xor ijrochiligi o'quvchilarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi, jamoa bo'lib birlashishga olib keladi, hamda ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Bu esa ko'pchilik bir g'oya bilan uyushdi, yagona ijrochilik maqsadi tomon yo'naltirildi degani, ya'ni boshqacha qilib aytganda, so'z va musiqadagi tuyg'u bir odam orqali emas, bir guruh odam tomonidan ifoda etilishidir. Xonandalik jozibasi bilan hayratga soluvchi o'ziga xos san'atdir. U insonning eng yaxshi his-tuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g'oyaviy hamda axloqiy tarbiyalanishidagi roli juda muhim o'rin egallaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 2017 – 2021yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.T. – 2017 PF-4947-son
2. Sharafiyeva N. Xorshunoslik-T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.1987
3. Jumayeva L.X. O'zbek xor musiqasi tarixidan. T., 2000
4. Kozimov J. Xor dirijorligida murakkab ulchovlarni o'rganish uslublari. O'slubiy qo'llanma. Samarqand 2013.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **J.A. Xodjayev**, dotsent [**Ж.А. Ходжаев**, доцент], [**J.A. Xodjayev** associate professor]; manzil: Samarqand, Samarqand viloyati, Universitet bulvari, 15 [адрес: Самарканд, Самаркандская область, университетский бульвар, 15], [address: Samarkand, Samarkand region, Universitetskiy Boulevard, 15]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MADANIYAT MARKAZLARI BOSHQARUVI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI DEGRADATSIYA BOSQICHIDAMI?

© A.N. Qolqanatov[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**MAQSAD:** maqolada madaniyat markazlari uchun rahbar kadrlar tayyorlash jarayonining tarixi qisman o‘rganilgan holda, joriy muammoli holati tahlil qilinadi. Kadrlar tayyorlash jarayoni degradatsiya bosqichida ekanligi ilmiy jihatdan asoslanib, istiqboli bo‘yicha yosh tadqiqotchi o‘z fikr-mulohazalarini soha olimlari e’tibori uchun ilgari suradi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot materiali sifatida O‘zbekistondagi madaniyat markazlari uchun rahbar kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalaridagi yo‘nalishlar faoliyati tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida komparativ tahlil, san’atshunoslik tahlili, statistik ma’lumotlar va narrativ tahlil usullari qo‘llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil shuni ko‘rsatdiki, madaniyat markazlari boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlash jarayoni avval ham degradatsiya bosqichida bo‘lgan. Hozirgi kunda ham bu jarayon yangi integratsiya jarayonidadir va bu soha taraqqiyotini biroz murakkablashtirmoqda. Tadqiqot natijalari madaniyat markazlari boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlash jarayonini yanada chuqur o‘rganish va jarayonni optimizatsiya qilib, uni yangilangan model asosida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

**XULOSA:** madaniyat markazlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida o‘z o‘rniga ega. Shunday ekan, soha taraqqiyoti va aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda madaniyat markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Bunda esa, rahbar kadrlar tayyorlash jarayonini degradatsiya bosqichidan olib chiqib, xalqaro madaniy faoliyatga yo‘naltirib, yangi model asosida rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** kadrlar tayyorlash, madaniyat markazlari, madaniyat va san’at sohasi menejmenti, degradatsiya bosqichi.

**Iqtibos uchun**: Qolqanatov A.N. MADANIYAT MARKAZLARI BOSHQARUVI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI DEGRADATSIYA BOSQICHIDAMI? // Inter education & global study. 2025. vol.3, №11(1). B.378–389.

# НАХОДИТСЯ ЛИ ПРОЦЕСС ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ КУЛЬТУРНЫМИ ЦЕНТРАМИ НА СТАДИИ ДЕГРАДАЦИИ?

© А.Н.Колканатов[1]✉
[1]Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ЦЕЛЬ:** в статье частично исследуется история подготовки руководящих кадров для культурных центров и анализируется текущее проблемное состояние данного процесса. Научно обосновывается, что процесс подготовки кадров находится на стадии деградации, а также молодым исследователем представлены собственные взгляды и предложения по перспективам, предназначенные для внимания специалистов в данной области.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** материалом исследования послужил анализ деятельности высших учебных заведений, готовящих управленческие кадры для учреждений культуры Узбекистана. Методологической основой исследования стали методы сравнительного анализа, искусствоведения, статистических данных и нарративного анализа.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** анализ показал, что процесс подготовки кадров для управления учреждениями культуры ранее находился в стадии деградации. В настоящее время этот процесс также находится в стадии новой интеграции, что несколько затрудняет развитие сектора. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости более глубокого изучения процесса подготовки кадров для управления учреждениями культуры, его оптимизации и развития на основе обновленной модели.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** культурные учреждения занимают свое место в системе Министерства культуры Республики Узбекистан. Поэтому деятельность учреждений культуры должна поддерживаться в развитии отрасли и предоставлении населению культурных услуг. В этой связи важной задачей является вывод процесса подготовки управленческих кадров из стадии деградации, переориентация его на международную культурную деятельность и развитие на основе новой модели.

**Ключевые слова:** подготовка кадров, культурные центры, менеджмент в сфере культуры и искусства, стадия деградации.

**Для цитирования**: Колканатов А.Н. НАХОДИТСЯ ЛИ ПРОЦЕСС ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ КУЛЬТУРНЫМИ ЦЕНТРАМИ НА СТАДИИ ДЕГРАДАЦИИ?. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №11(1). С. 378–389.

## IS THE PROCESS OF TRAINING PERSONNEL FOR THE MANAGEMENT OF CULTURAL CENTERS IN A STAGE OF DEGRADATION?

© Asilbek N. Kolkanatov[1]✉
[1]The Uzbekistan State Institute of Arts and Culture Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**AIM.** the article partially examines the history of training managerial personnel for cultural centers and analyzes the current problematic state of this process. It is scientifically substantiated that the personnel training process is at a stage of degradation, and a young

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

researcher presents their reflections and perspectives on future development for the consideration of scholars in the field.

**MATERIALS AND METHODS:** the research material was the analysis of the activities of higher educational institutions that train management personnel for cultural centers in Uzbekistan. Comparative analysis, art history analysis, statistical data and narrative analysis methods were used as a methodological basis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis showed that the process of training personnel for the management of cultural centers was previously in a stage of degradation. Currently, this process is also in the process of new integration, which somewhat complicates the development of the sector. The results of the study indicate the need for a more in-depth study of the process of training personnel for the management of cultural centers, optimizing the process and developing it on the basis of an updated model.

**CONCLUSION:** cultural centers have their place in the system of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan. Therefore, the activities of cultural centers should be supported in the development of the sector and the provision of cultural services to the population. In this regard, an important task is to bring the process of training management personnel out of the stage of degradation, redirect it to international cultural activities and develop it on the basis of a new model.

**Keywords:** personnel training, cultural centers, management in the field of culture and arts, stage of degradation.

**For citation**: Asilbek N. Kolkanatov. (2025) 'IS THE PROCESS OF TRAINING PERSONNEL FOR THE MANAGEMENT OF CULTURAL CENTERS IN A STAGE OF DEGRADATION?', Inter education & global study, vol.3 (11(1)), pp. 378–389. (In Uzbek).

**J**amiyatimizdagi barcha sohalar vaqt o'tishi bilan jamiyat talabiga qarab yomonlashgan, o'zgargan yoki yo'qolib ketgan. Har bir hodisaning taraqqiyoti bo'lgani kabi inqirozu-tanazzuli mavjud. Tahminimcha, madaniyat markazlari uchun xodimlar va boshqaruvchi kadrlar tayyorlash jarayoni ham degradatsiya bosqichida ekanligi aniq. Lekin, ibtido intihodir, ayni vaqtda intiho balki sohaning yangilanish ibtidosi bo'lishi mumkin. Shu o'rinda qadimgi yunon faylasufi Mark Avreliy Antoninning bir afrorizmini alohida keltirib o'tmoqchiman: "Hozir ro'y berayotgan narsalar avval ham bo'lib o'tganini doimo yodinda tut.

Xuddi shu narsalar kelajakda ham qaytarilishi esingdan chiqmasin. Ular mangu qaytarilaveradi, faqat ijrochilar – odamlar o'zgaradi, xolos. Hamma narsaning o'tkinchiligini va butun moddiyat mangu harkatlanuvchi oqim ekanligini, shuningdek, yuz bergan va kelgusida ro'y berajak barcha narsalar – minginchi almashinuv, mangu o'zgarishlar zanjiri ekanligini unutmang!"[1].

Madaniyat markazlari tarixiga razm solsak, madaniyat markazi atamasining qayta-qayta o'zgarganligi va davr islohotlariga moslashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu orada

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ham yuqoridagi faylasuf fikri kabi faqat ijrochilar o‘zgargan, xolos. Markazlarga boshqaruvchi kadrlar tayyorlash va ishlayotgan rahbarlarning malakasini oshirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Menimcha, madaniyat va san’at sohasi boshqaruvida aynan malakali kadrlar yetishmasligi sababli yaqin yillar ichida madaniyat siyosatida, madaniy faoliyat taraqqiyotida biz kutgan natijani bermasligi mumkin. Shu bilan birga, soha rivojining sekinlashuviga olib kelish ehtimoli g‘oyatda yuqori. Mamlakatimizda madaniyat sohasida rahbar kadrlar yetishmasligi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Sababi, hozirgi kunda boshqaruvchi mutaxasisslar tayyorlash degradatsiya bosqichida, afsuski.

Yaqin o‘n yilgacha shunday bo‘lib qoladi, ammo keyin “yangi avlod” ya’ni sun’iy intelekt avlodi, ma’lum muddat bu masalaga barham beradi. Bugungi kunda qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning maqsadi ham sohadagi dolzarb muammolarni yumshatishdir. Biz Yangi O‘zbekistonning poydevorini quriyapmiz. Har bir quruv faqat ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari qatorida madaniy-ma’rifiy sohani ham qayta qurishni taqoza etadi. Bu faqat bizning yurtimizda emas, barcha rivojlangan davlatlar olida turgan muammo sanaladi.

Haqiqiy quvurlarni qurishda bo‘lgani kabi, madaniy faoliyat sohasidagi qayta qurish uchun ham tasodifiy odamlar emas, balki malakali, tayyorlangan mutaxassislar kerak. Bugun ular yetarlimi? Agar yo‘q bo‘lsa, ularni qayerdan topish mumkin? Hozir madaniyat sohasidagi kadrlar yetishmasligi keng miqyosli muammo sifatida sezilmayapti.

Davlat boshqaruvi akademiyasi yoki Moskva davlat universiteti iqtisod fakulteti bitiruvchisi, – deydi, Lixachev nomidagi Rossiya madaniy va madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti olimi D.S. Yermakeva, – davlat xizmatining kadrlar zaxirasiga kiritilib, madaniyat muassasasining rahbari lavozimiga ajoyib nomzod sifatida ko‘rilardi. Va bu har qanday muassasa bo‘lishi mumkin edi. 1990-yillarda shu tariqa vazifaga tayinlash qaror tusiga aylandi. Rahbar iqtisod qonunlarini bilsa bo‘ldi, har qanday muzey yoki teatr daromad topishi kerak. Demak, boshqaradigan ijodiy muassasaning farqi yo‘q. Ammo vaqtlar o‘zgardi.

Endi aniq bo‘ldiki, madaniyat muassasasi rahbari lavozimida mashhur “samarali menejerlar” emas, balki o‘z sohasida mutaxassis bo‘lgan shaxs turishi kerak. Ideal holatda u rahbarlik qiladigan joyda o‘sgan kadr bo‘lishi lozim[2].

Rossiyalik olimlarning tadqiqot natijasidan ma’lumki, sohani ko‘r-ko‘rona boshqarish ma’lum muddat o‘tgandan keyin o‘z xulosasini amaliyotda yuzaga chiqaradi. Hozirgi kunda ham Rossiyada madaniyat va san’at muassasalari uchun rahbar kadrlar tayinlash muammo sifatida qaraladi. Bizda ham vaziyat xuddi shunday. Madaniyat markazi boshqaruviga mutaxassis emas, iqtisodiy bilimlarning o‘zi yetarli degan qarashlar kundan-kunga ahamiyatliroq bo‘lib qolmaqda. Bu yetmaganday, madaniyat markazlariga rahbar tayinlash jarayoni ham tizimli emas. Ko‘pchilik shahar va tumanlarimizda madaniyat markazi rahbari hududning kadrlar salohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Ayrim tumanlarimizda umuman boshqa sohaning odami madaniyat markaziga rahbarlik qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Go‘yoki madaniyat markaziga rahbar qilib qo‘yishga boshqa hech kim topilmagan. Savol tug‘iladi shuncha bitiruvchilar qayerga ketti yoki haqiqatan ham munosib kadrlar yo‘qmi? Bu kabi tushunmovchilik uyg‘otayotgan holatlar ko‘pincha juda oddiy tushuntiriladi. “Oylik oz bo‘lganiga yoshlar ishlamaydi”. Yokida badiiy rahbarlar masalasiga to‘xtalsak, ayrim viloyatlarda o‘ylamasdan shtatlar qisqartirilishi amalga oshirilgan. Natijada ishda qolgan xodimlar haddan tashqari ishlarni o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lgan. Albatta, buniyam vaqticha nuqtaiy nazardir deb qabul qilib turishdan boshqa ilojimiz yo‘q. Endi, sohaga professional xodimlarni tayyorlash ta’lim tizimi tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. SSSRda 1910-yillarda kutubxonachilar va ekskursovodlar kabi kadrlarni kurs asosida tayyorlashning birinchi tashkiliy ishlari amalga oshirilgan. Bu kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishidagi eng faol davr hisoblanadi. 1930-yillarda madaniy-ma’rifiy ta’lim mustaqil soha sifatida shakllana boshlaydi. Birinchi to‘liq kutubxona yo‘nalishiga ega oliy ta’lim muassasalari ochiladi.

1960-yillarning o‘rtalari va 1970-yillarning boshlarida madaniy-ma’rifiy maktablar madaniy-ma’rifiy bilim yurtlariga aylantiriladi. 1964-yilda faoliyat ko‘rsatayotgan to‘rt kutubxona instituti madaniyat institutlariga aylantirilgan. Yangi madaniyat institutlari soni keskin oshib, to‘rt yil ichida (1967–1971-yillar) 7 ta madaniyat instituti qayta tashkil etilgan[3].

O‘zbekiston Respublikasida madaniyat markazlari uchun boshqaruvchi kadrlar tayyorlashda Toshkent davlat madaniyat instituti yetakchi davlat oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan. Mazkur OTM davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan va bitiruvchilarga ikki bosqichli oliy ma’lumot (bakalavriat va magistratura) bo‘yicha davlat diplomi berish huquqiga ega bo‘lgan. Institut 1974-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1973-yil 4-oktabrdagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. ToshDMIda madaniyat markazlari boshqaruviga oid va yaqin quyidagi yo‘nalishlar mavjud bo‘lgan. 5760100 – “Ijtimoiy ish (turli faoliyat sohalarida)”, 5810400 – “Kasbiy ta’lim”, 5810400 – “Ijtimoiy-madaniy faoliyat”, 5810500 – Xalq ijodiyoti yo‘nalishlari: “Xalq qo‘shiqlari va raqs ansambli tashkilotchisi”, “Vokal jamoasi tashkilotchisi”, “Ommaviy bayramlar rejissyori”, “Folklor-etnografiya jamoasi tashkilotchisi”, “Cholg‘u jamoalari tashkilotchisi” kabi vakalavr ta’lim yo‘nalishi shular jumlasidandir. Magistrlik mutaxassisliklaridan: 5A810503 – “Folklor-etnografiya jamoasi tashkilotchisi”, 5A810504 – “Xalq qo‘shiqlari, raqs va cholg‘u jamoalari rahbari”, 5A760101 – “Ijtimoiy ish”, 5A810502 – “Xalq teatri rahbariyati”, 5A810401 – “Madaniyatshunoslik”, 5A810404 – “Madaniyat sotsiologiyasi”, 5A810405 – “Ijtimoiy-madaniy faoliyat reklama”, 5A810407 – “Madaniy (ijtimoiy) antropologiya”[4] bo‘yicha magistrlar o‘qitilgan. Hoziri kunda bu yo‘nalish va ixtisosliklarni ko‘pchiligi yopilib ketgan. O‘zDSMIda bakalavr ta’lim yo‘nalishidan: 60212000 – “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” (hozirda yopilgan), 60411200 – “Menejment (madaniyat va san’at sohasi menejmenti)”, 60411200 – “Menejment: Ommaviy tadbirlar menejmenti” mavjud bo‘lsa, magistratura ixtisosligidan 70212001 – “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”, 70212002 – “Madaniyatshunoslik” ixtisosligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

faoliyat olib bormoqda. Boshqa qisman yaqin yo‘nalish va ixtisosliklar ham bor. Ammo, asosiysi yuqorida qayd qilinganlar hisoblanadi.

Tez o‘zgarayotgan dunyo va mamlakatlarda ro‘y berayotgan islohotlar inson faoliyatining turli sohalarida o‘zgarishlarga, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga va eskilarining yo‘qolib borishiga olib keldi. Shu munosabat bilan malakali mutaxassisni shakllantirish masalasini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi[5]. Madaniyat markazlari boshqaruvidagi ayrim yo‘nalishlar ham islohotlar natijasida yo‘qotishlarga uchragan va uchramoqda. Degradatsiya bosqichi vaqticha faol desak mubolag‘a aytgan bo‘lmaymiz. **Hozirda** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti madaniyat markazlari uchun rahbar kadrlar tayyorlashda yetakchi oliy ta’lim muassasasidir. O‘zDSMI tarixida ham yo‘nalish va mutaxassislik tizimining rivojlanishi: yopilish, nomining o‘zgarttirilishi yoki ma’lum muddatdan keyin qayta ochilishi bo‘lgan. Masalan, yuqorida qayd etganimiz kabi “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” yo‘nalishiga hozirda talabalar qabuli uch yildirki to‘xtatilgan. O‘rniga “Madaniyat va san’at” menejmenti yo‘nalishi faoliyat olib bormoqda. Ammo, mazkur yo‘nalishda ijodiy sohaga oid fanlarning o‘tilmasligi, odamni o‘ylantiradi. Ular kelajakda madaniyat va san’at muassasasiga borib kimnidir boshqara oladimi? Mayliku-ya, ularga ijod ahli boshqa soha odami bo‘lsa ham bo‘ysinar, ammo xalqqa madaniy-ma’rifiy sohani yaxshi tushimaydigan mutaxassis nega kerak? Hozirda iqtisodiy yo‘nalishlarda talabalar tahsil olmoqda. Ammo, iqtisodchi tayyorlaydigan davlat OTM kammi yoki xususiy OTM sonini aytmasak ham bo‘ladi. To‘g‘ri, sohaning iqtisodiy tomoni yaxshi rivojlanmasa, madaniyat va san’at sohasi hozirgi bozor talab va ehtiyojlariga moslashuvi qiyin bo‘ladi. Chunonchi, sohaning iqtisodiy fanlarga tobe bo‘lib borayotganini kabi zaif tomonlarini o‘rganish alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi**.** Demak biz madaniyat va san’at sohasida tashkilotchi va rahbarlar tayyorlash ta’lim tizimi yaxshi samara bermagani uchun to‘xtatildi, deya olishimiz mumkin. Aks holda mazkur yo‘nalish yopilmagan bo‘lar edi.

2022-2023 o‘quv yili uchun tasdiqlangan o‘qishga qabul qilish parametrlari bilan “Menejment (madaniyat va san’at sohasi menejmenti)” va “Ommaviy tadbirlar menejmenti” ta’lim yo‘nalishlariga qabul mavjudligini inobatga olib “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” kafedrasi “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi deb qayta[6] nomlana boshlagan.

Bu yaxshi islohot bo‘lishiga ishonamiz. Endi, madaniyat menejerlarini tayyorlashning tarixiy taraqqiyot jarayoni haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tish kerak. Bu mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlashning ilk jarayon va muammolari ancha vaqtlardan beri mavjud bo‘lgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida, teatr-rassomchilik instituti va konservatoriyada madaniy-ma’rifiy ishlar mutaxassislarini tayyorlab beradigan darajasida faoliyat boshlagan kichik jamoa, 1973-yil 22-avgustda sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 591-raqamli qaroriga asosan Toshkent davlat madaniyat instituti tarkib topgan edi. Madaniyat institutida madaniy-ma’rifiy ishlar kulliyoti alohida o‘rin tutadi. U asosan havaskorlik xalq cholg‘u asboblari, puflama cholg‘u asboblari orkestri rahbarlari,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

havaskorlik xor, xalq musiqasi ansambili rahbari, havaskorlik teatri, raqs jamoasi rahbari, klub ishlari uslubiyotchi-tashkilotchi, madaniyat sotsiologi, ommaviy bayramlar rejissyor-tashkilotchisi, dam olish tashkilotchisi, madaniyat menejeri ixtisosliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlardi. Shu ma’noda kulliyotimiz qoshida 1992-93-o‘quv yilida Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib, “Madaniyat sohasi menejeri va biznes” ixtisosligi yuzasida kadrlar tayyorlashga kirshildi. Menejer bo‘limida o‘quv jarayoni ikki bosqichda olib borilib, bosqichlar yakuniga asosan bakalavr va magistr darajalari beriladi[7].

Hozirda O‘zDSMIda ham madaniyat va san’at sohasi menejmenti fani talabalarga mutaxassislik fan sifatida o‘qitilmoqda. Magistratura mutaxassisligi ham xuddi shu nom bilan nomlanadi. Mazkur atamadagi fanni ham dars sifatida qo‘shish kerak. Chunki, bu atamadagi fanning yo‘qligi mutaxassilikning biroz nomutonasibligiday tuyiladi. Masalan, men o‘qigan paytimda ya’ni birinchi kursimizda mutaxassislik fanlardan Kreativ iqtisod (dotsent t.f.n. Fayziyev T), Boshqaruvning etnomadaniy asoslari (dotsentlar Muxammadiyev D., Yusupaliyeva D, Fayziyev T), Boshqaruv sotsiologiyasi (professor, s.f.d. Umarov A), *Madaniyat va san’at sohasida innovatsion menejment* (dotsent, i.f.n. Nurullayev A), Intelektual mulkni tijoratlashtirish asoslari (dotsent, p.f.n. Tursunov F), Ijodiy muassasalar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, Madaniyat siyosati (professor, f.f.d. To‘ychiyeva S), Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (professor, f.f.d. Alimasov V), Madaniyat va san’at sohasida innovatsion g‘oyalar va ularning tatbiqi (dotsent, t.f.n. Yusupaliyeva D)lar.

Endi ikkinchi kursda o‘qitilgan fanlar: Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari (s.f.d. Umarov A), *Ta’lim menejmenti* va Madaniyat va san’at sohasida innovatsion g‘oyalar va ularning tadbiqi (t.f.n. Yusupaliyeva D), Intelektual mulkni tijoratlashtirish asoslari (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Nazarbekov O). Ko‘rinib turibdiki madaniyat va san’at sohasi menejmenti fani yo‘q. Shu kabi bizning mutaxassisligimiz madaniyat va san’at sohasi menejmenti, shuning uchun magistraturaning birinchi va ikkinchi kursida mazkur fanni magistrlar o‘tishi zarur. Mutaxassislikka to‘g‘ri tashkil qilinmagan dars sohaga nisbatan past nonotonlik hissini ug‘otishi mumkin[8].

Biz dunyoviy davlat qurayotganimizni unutolmaymiz, irratsionalizm emas, ratsionalizm, g‘ayrihayotiylik emas, hayotiylik, uydirma, hayolot emas, aqliyat, ilmiyat asosiy qurolimiz bo‘lishi darkor[9]. Shu nuqtai nazardan talabalar O‘zbekiston san’at bozorida talab qilinadigan darslarni o‘tishi joiz. Shundagina madaniyat markazlari boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlash jarayoni degradatsiya bosqichidan biroz bo‘lsa ham holi bo‘lgan bo‘lar edi. Mutaxassislik fanlarni tushunmagan magistr shunchaki o‘qib ketgan nomutaxassisdan farqi bo‘lmaydi. Shunday ekan biz endi madaniyat markazlariga haqiqiy soha xodimi – madaniyat menejerlarni tayyorlab bersak qanday yaxshi?! Zamon talabi ham shu ku! Jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot talabiga muvofiq kadrlar tayyorlash (ta’lim klasterlari) innovatsion rivojlanishga yetaklaydi.

Mutaxassislarning fikricha, shunday integratsiya orqali: birinchidan, kadrlarni talab qiladigan mutaxassisliklar bo‘yicha aniqlash va o‘qitish; ikkinchidan, o‘quv uslubiy majmua

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tarkibini tuzish va o‘z vaqtida yangilash, moddiy texnika bazasini yaratish; uchunchidan, ilmiy tadqiqot hamda ishlanmalarni maqsadli moliyalashtirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish; to‘rtinchidan, mehnat bozorida kadrlar raqobatbardoshligi ta’minlanadi[10].

Kadrlar masalasiga kelganda, birinchidan, professor-o‘qituvchilar tarkibi, ikkinchidan esa talabalar kontingenti va unga bog‘liq barcha masalalarni alohida ko‘rib chiqish lozim. Bunga turli tayyorlov bosqichlari davomiyligi, kasbga yo‘naltirish ishlari, talabalar kontingentining ijtimoiy va boshqa ko‘rsatkichlari, kadrlar tayyorlash sifati, tayyorlagan kadrlarning ishga joylashuvi kiradi. Hozirda respublikamizda madaniyat markazlari yomon ishlayapti deya olmaymiz. Ularga yaxshi mutaxassis boshqaruvchi kadrlar lozim.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, madaniyat markazlarinining ish samaradorligini oshirishda, bu ko‘rsatkichlarning yanada yuroqori su’ratlarda o‘sishida madaniyat menejerlari kerak. Lekin, talabalar soni ko‘p bo‘lishi bu yaxshi mutaxassislar ko‘p deganini anglatmaydi. Aynan, bugungi kunda ta’lim tizimiga texnokartik yondoshuvlar avj olayotgan bir paytda, ya’ni talaba-yoshlar kompyuter mavjud xonadan chiqmagan holda madaniyat, san’atning xohlagan turi bilan tanishib, zamonaviy axborot texnologiyalarini ilohiylashtirish yuzaga kelayotgan bir paytda ularda muloqat va baqs madaniyatining yetishmasligi, bilm va saviyasi past ekanligi sezilib qolmoqda[11].

Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va ahloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish[12] davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridandur.

Bunda OTM talabaga aniq bir kasb o‘rgatishi zarur. Har bir shaxsning kasbiy malakaga tayyorgarligi natijasida tegishli shaklda tasdiqlovchi hujjatlar yoki maxsus tayyorgarlik natijasida muayan bilm va amaliy mahorat ko‘nikmalarini ijro eta oluvchi mehnat faoliyati turi kasb deyiladi[13]. Madaniyat menejerligi kasbi yuqorida keltirib o‘tganimizdek O‘zbekistonda 1992-93-yillarda mavjud bo‘lgan. Xorij ilmiy materiallarini (Ispaniya, Portugaliya, Rossiya)o‘rganganimda esa, ularda 2000-yillardan keyin, ko‘proq ispan manbalarida *(cultural manager (Spanish: gestor cultural)* – madaniyat menejeri kasbiga dush keldim. Demak bizda madaniyat sohasida menejerlar tayyorlash ya’ni boshqaruvchi mutaxassislar tayyorlash ancha avval boshlangan. Ammo, kadrlar tayyorlash jarayoni degradatsiya bosqichini avval ham boshidan o‘tkazgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Hozir ham kadrlar tayyorlash jarayonini degradatsiya bosqichida ekan, uning keyingi taraqqiyotida yanada kuchli blmog‘i lozim.

Bo‘lg‘usi mutaxassislarimizni tayyor sxemalarini va ta’riflarini yodlashga emas, balki global o‘zgarishlarga yuz tutgan dunyo, innovatsiyaga qurilayotgan taraqqiyot, harakatchan aholining madaniy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qodir, madaniyat va san’at menejmenti, marketingi asoslarini egallagan mobil kadrlar etib tayyorlash lozim. Mutaxassislarga menejer lavozimini berish orqali sohadagi xodimlarning vafodorligini oshirish, mas’uliyatni kuchaytirish, ishdan ketib qolishini kamaytirish va zamonaviy nom berish usullarini ishlab chiqish mumkin. Madaniyat markazlari boshqaruvi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

uchun kadrlar tayyorlash jarayoni degradatsiyaga uchramasdi qachonki, OTM va madaniyat muassasalari o‘rtasida zarur mutaxassislarni ishga joylashtirish masalalarida samarali darajada hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilganida. Ta’lim muassasalari madaniyat muassasalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan, o‘quvchilarni tayyorlash va ishga joylashtirish masalalarida aniq hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Ta’lim bozori va mehnat bozori o‘rtasidagi samarali darajadagi hamkorlik tizimi tashkil etilmaganligi qo‘shimcha cheklovlarni keltirib chiqaradi. Jumladan,

madaniyat va san’at muassasalari mutaxassislarning qayta tayyorlanishi va malakasini oshirish bo‘yicha mobillik tizimi yo‘qligi, shuningdek, ular uchun amaliy soha talablariga javob beradigan yangi kasbiy kompetentsiyalarni egallash imkoniyatining mavjud emasligi.

hududiy madaniyat va san’at muassasalarining kadr zaxirasini to‘ldirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha talaba kontingentining sezilarli darajada kamayishi[14].

Madaniyat markazlarining kadrlar tayyorlash jarayonini yozish davomida sohaga oid aniq manbalarni topish va umumlashtirish biroz qiyin keshdi. Mazkur jarayonda sohamizga oid ilmiy jurnallarni tahlil qilishimiz zarurligini angladik.

Chunki, har bir ishni ilmiy-tadqiqot ishlari bilan, chuqur o‘rganish orqali talabalarga foydasi tegadigan ajib bir manba yozishni maqsad qildik. Tushungan va o‘qib-o‘rgangan narsasini yaxshi idrok etish katta tajriba bo‘lishi shubhasiz. Mutafakkir Navoiy ta’biri bilan aytganda “har ishniki qilmish odamzod, tafakkur birla bilmish odamzod”. Institutning “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari” deb nomlangan ilmiy jurnali respublikamizda o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. “Culture and arts of Central Asia” nomli ilmiy-innovatsion jurnali https://uzjournals.edu.uz/cacenas flatformasiga 50 ta maqola joylashtirilgani va qisqa muddatda iqtiboslik darajasi 970 taga oshgani xorijiy hamkasblarimizning ham mamlakatimiz madaniy hayotiga bo‘layotgan islohotlarga befarq emasligidan dalolat beradi[15].

Madaniyat markazlarining kadrlar faoliyatini yoritishda mazkur jurnaldan foydalanishni o‘z vazifam deb jurnalning joriy va arxiv sonlarini ham qo‘ldan kelguncha mutolaa qilib chiqdim. Sabab, hozirda sohamizning shoh jurnallairdan biri ekanligini ziyolilar alohida e’tirof etganlar. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti bo‘yicha bir-ikkita maqola bor, ammo unda ko‘proq iqtisodiy menejmentga urg‘u berilgan ekan. Hozirda O‘zDSMI Xabarlari jurnalining qabul doirasi zamon talabiga javob bera olayapti. Oxirgi sonlari sifat jihatdan yangicha dizayn va savjiyali varog‘ bilan nashr qilingan. Tahririyat son emas, sifat jihatdan o‘z rutbaniga ega maqolalar qabul qilmoqda. To‘g‘ri, maqolalar soni cheklangan ammo bu masala ham vaqti bilan o‘z yechimini topadi. Institutning *“Culture and arts of Central Asia”* ilmiy elektron jurnali faoliyatini to‘xtatgan.

Sohaga oid maqolalar juda ko‘p emas. Konferensiya to‘plamlariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. O‘zDSMI Xabarlari jurnalining ruknlar (bo‘lim) qatoridan madaniyat va san’at menejmenti kafedrasining mutaxassisliklariga mos keladigan rukn ajiratish orqali sohaning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fundamental va nazariy-amaliy tadqiqotlarini shakllantirib borish zarurati mavjud. Madaniyat markazlari uchun rahbar kadrlar tayyorlash jarayonida har bir davrda bir qator tizimli va metodologik kamchiliklar: amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimi yetarli darajada amaliyot bilan integratsiyalashmagan, sohaning iqtisodiy tomoniga vazirlik tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmagan, xodimlar faoliyati ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilmagan. Rahbar kadrlash tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘rtasida uzilishlar bo‘lgan. Shu kabi kamchiliklar sohani degradatsiya bosqichiga yaqinlashtirgan. Natijada madaniyat markazlari boshqaruvida islohotlar sustlashishiga olib kelgan. Bu holat, o‘z navbatida, madaniyat markazlarining missiyasini amalga oshirishga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda madaniyat muassasalari uchun xodimlarning ijodiy salohiyati tashkilotning raqobat ustunligini ta’minlay oladigan omil sifatida namoyon bo‘layotgan bir paytda, kadrlar salohiyatini boshqarish tizimini shakllantirish masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. Xodimning mehnat salohiyatini doimiy o‘zgarmas qiymat deb bo‘lmaydi. U mehnat faoliyati davomida ortishi yoki kamayishi mumkin. Xodim yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab borishi, tajriba to‘plashi, mehnat sharoitlari o‘zgarishi natijasida mehnat salohiyati ham o‘zgaradi[16]. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi degradatsiya tendensiyasini to‘xtatish, madaniyat markazlari boshqaruvida samarali tizimni shakllantirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surishim mumkin.

Madaniyat markazlarining nomini endilikda o‘zgartmaslik (nechi marta o‘zgartirilgan bo‘lsa ham ijtimoiy hayotdagi mavqeyi deyarli o‘sha-o‘sha);

“O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat markazlari” nomli qo‘llanma yaratish va unda respublikadagi barcha markazlar faoliyatini keng yoritish;

O‘zDSMIda madaniyat markazlari boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlashda mavjud yo‘nalishlarga fan va ishchi dasturlarni tayyorlashda Nukus filialidagi kafedralarning professor-o‘qituvchilari bilan taqdimot o‘tkazish va muhokamaga qo‘yish (boshqa OTMning ishchi va fan dasturlarini ko‘shirib, talabalar ongini chalg‘itmaslik kerak), va soddalashtirilgan fan va ishchi dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish;

Madaniyat markazlarining faoliyati va kadrlarning samaradorligini muntazam o‘rganish, shu asosda ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish;

Joriy mehnat bozoriga suyangan holda madaniyat menejeri yoki san’at menejeri shtati bor muassasalarni va kadrlar buyurtmachisini topish, bor shtat bo‘yicha mutaxassislik tayyorlash, kelajakda bandligini ta’minlay olish;

Madaniyat markazlarini xalqaro madaniyat muassasalari bilan hamkorlik qilishiga imkoniyat yaratish orqali ilg‘or boshqaruv tajribalarini amaliyotga olib kirish. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Madaniyat vazirligining vazifasi ijodkorlarni izlab topish emas, ularga o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun optimal sharoit yaratish, ya’ni ijodxonalarning faol ishlashini ta’minlashdan iborat. Bunday ijodxonalar esa, madaniyat markazlarida mavjud bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini oshirish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqsadida rahbar kadrlar tayyorlashning yangi konseptual modelini ishlab chiqish g‘oyatda zarur ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jo‘rayeva S. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf. – Toshkent.: Yoshlar matbuoti, 2023. 416 b.
2. Ермакова М. Культурная отрасль: как утолить кадровый голод?// Материал опубликован в №2 газеты «Культура» (27.02.2020). Культурная отрасль: как утолить кадровый голод? - Мария ЕРМАКОВА
3. Гурин Н. А. Подготовка кадров в контексте истории социально-культурной деятельности. Теоретические аспекты / Н. А. Гурин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 8 (43). — С. 229-233. — URL: https://moluch.ru/archive/43/5268.
4. https://gigal.uz/article/5550/
5. Скороходова М.П. Механизм управления профессионализацией труда в сфере культуры. Проблемы кадрового обеспечения сферы культуры и искусства: профессиональные стандарты и трудоустройство молодого специалиста: материалы Всероссийской научно-практической конференции (26 апреля 2019 г., г. Хабаровск) / науч. ред. Е.В. Савелова, сост. Е.Н. Лунегова. — Хабаровск : ХГИК, 2019. — 339 с.
6. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Kengashining 1-sonli yig‘ilish bayonnomasi Ko‘chirmasi. – Toshkent: 2022. Kengach kotibi: F.G‘. Tursunov.
7. Ruzmetov A. Madaniy-ma’rifiy ishlar: tarix va istiqbol (55-63). Bosh red. Karimov U. Madaniyat va ma’naviyat muammolari nomli ilmiy – amaliy maqolalar majmuasidan. – Toshkent: A.Qodriy nomidagi TDMI, 1994. 216 b.
8. Qolqanatov A. N. Madaniyat va san’at menejmentini rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish. – Toshkent.: O‘zDSMI, 2023. 76 b.
9. Isomiddinov Z. Bilmaganlarimiz to‘g‘risida bilganlarimiz. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2021. 116 b.
10. Alimasov V. Innovatsiya va ta’lim falsafasi. . Madaniyat va san’at soxasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz – //konf. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. – Toshkent: Oltin meros press. (73-79). 2020. 488 b.
11. Umarxodjayev B. Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlar tarbiya madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuv. – //konf. Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi. – Toshkent: Fan ziyosi, 2021. (379-382). 501 b.
12. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent: O‘zR Qonun hujjatlari to‘plami. 18 b.
13. Qarang: https://mehnat.uz/uz/pages/azbuka-trudovyh-otnosheniy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

14. Бетехтин А. В. Кадровый резерв в сфере культуры: ориентиры и стратегии региональной культурной политики // Вестник ЧГАКИ. 2020. №4 (64). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kadrovyy-rezerv-v-sfere-kultury-orientiry-i-strategii-regionalnoy-kulturnoy-politiki (дата обращения: 23.11.2025).
15. Yo‘ldoshev I. Madaniyat va san’at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz//konf. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. – Toshkent: Oltin meros press. 2020. (34-45). 488 b.
16. Лаптев Р., Вицелярова К. Проблемы формирования и развития кадрового потенциала в организациях социально-культурной сферы // Вестник науки и творчества. 2024. №4 (95). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniya-i-razvitiya-kadrovogo-potentsiala-v-organizatsiyah-sotsialno-kulturnoy-sfery (дата обращения: 23.11.2025).

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qolqanatov Asilbek Nazarbay o‘g‘li**, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti, [**Колканатов Асылбек Назарбаевич**, докторант Государственного института искусства и культуры Узбекистана], [**Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich**, PhD student State Institute of Art and Culture of Uzbekistan]; manzil: 190111, O‘zbekiston, Toshkent, [адрес: 190111, Узбекистан, Ташкент,], [address: 190111, Uzbekistan, Tashkent,] qolqanatov95@gmail.com. ORCID 0000-0002-9131-9695

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# QARAQALPAQ FOLKLORÍNDA «BESIK JÍRÍ»NÍŃ MAQSETI HÁM ONÍŃ TÚRLERI

© Z.S.Zaripova[1]✉

[1]Ózbekistan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı, Ózbekstan

Annotatsiya

**KIRISH**: maqalada qaraqalpaq xalqınıń eń áyemgi janrlarınıń biri bolǵan besik jırı haqqında sóz etiledi. Besik jırınıń atqarılıw texnikası hám onıń maqseti, bala tárbiyasındaǵı ornı haqqında pikirler bildirilgen. Sonıń menen birge, ananıń kewil keypiyatına, hár qıylı jaǵdaylarǵa qaray besik jırlarınıń atqarılıwın avtor onı bir neshe túrlerge bólip qaraydı.

**MAQSAD**: besik jırınıń bala tárbiyasındaǵı ornı bir neshe mısallar tiykarında analizlengen.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Qaraqalpaq folklortanıw iliminiń tiykarın salıwshı hám ilim sıpatında rawajlanıwına úlken úles qosqan alımlar N.Baskakov, N.Dáwqaraev, Q.Ayımbetov, N.Japaqov, I.Saǵitov, Q.Maqsetov, S.Baxadırova, Á.Paxratdinov h.t.b. alımlar óz izertlewlerinde «Besik jırı» boyınsha bahalı oy-pikirleri bir neshshe usıllar tiykarında sáwlelengen.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: xalqimiz arasında analardıń yamasa bala jubatıwshılarınıń inprovizatorlıq sheberligi tiykarında dóreletuǵın besik jırları áhmiyeti bunda atqarıwshınıń sheberligi, tókpe shayırlıǵı úlken áhmietke iye ekenligi hám onıń nátiyjeleri haqqında ilimiy dáliyllengen.

**XULOSA:** Qaraqalpaq xalqında aytılatuǵın besik jırlarınıń maqseti basqa da túrkiy xalıqları sıyaqlı balanı tek tınıshlandırıp, uyqlatıwdan ǵana ibarat emes. Balanıń keleshekte saw-salamat, aqıllı, ziyrek, tuwılǵan eline, ata-anasına miyrimli bolıp ósiwinde besik jırınıń áhmieti oǵada ullı ekenligi haqqında juwmaq berilgen.

**Kalit so'zlar**: Salt-dástúr jırı, balalar folklorı, besik jırı, háyyiwdiń maqseti, besik jırınıń túrleri, texnikası.

**Iqtibos uchun**: Zaripova Z..S. Qaraqalpaq folklorında “Besik jırı”nıń maqseti hám onıń túrlerii. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №11 (1). B.390-396.

## СИМВОЛИКА ЖИВОТНЫХ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

© З.С.Зарипова[1]✉

[1] Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана. Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ**: В статье рассматривается колыбельная песня - один из самых традиционных жанров каракалпакского народа. Высказывается мнение о технике исполнения колыбельной песни, её назначение и роль в воспитании детей. Автор также разделяет исполнение колыбельных на несколько видов, в зависимости от настроения матери и различных ситуаций.

**ЦЕЛЬ**: роль колыбельных песен в воспитании детей была проанализирована на нескольких примерах.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: ученые, такие как Н. Баскаков, Н. Давкараев, К. Аимбетов, Н. Жапаков, И. Сагитов, К. Максетов, С. Бахадырова, А. Пахратдинов и другие, заложившие основы каракалпакской фольклористики и внесли значительный вклад в ее развитие как науки, выразили свои ценные мысли о колыбельной песне различными способами в своих исследованиях.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: среди нашего народа научно доказано значение колыбельных песен, основанных на импровизаторском мастерстве матерей или опекунов, а также большое значение мастерства исполнителя, поэтического исполнения и его результатов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: цель колыбельных песен, исполняемых каракалпакским народом, заключается не только в том, чтобы успокоить и усыпить ребенка, как это делают другие тюркские народы. Был сделан вывод о том, что колыбельная играет важнейшую роль в воспитании здорового, умного, смышлёного и заботливого ребёнка по отношению к своей родине и родителям.

**Ключевые слова**: традиция, детский фольклор, колыбельная, цель колыбели, виды колыбельных песень, техника.

**Для цитирования**: Зарипова З. С. Цель и виды "Колыбельной песни" в каракалпакском фольклоре. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №11 (1). С. 390-396.

## ANIMAL SYMBOLISM IN FINE ARTS

© Zulfiya S. Zaripova[1]✉
[1]Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the article examines the lullaby, one of the most traditional genres of the Karakalpak people. An opinion is expressed about the technique of performing a lullaby, its purpose and role in raising children. The author also divides the performance of lullabies into several types, depending on the mothers mood and various situations.

**AIM:** the role of lullabies in child-rearing has been analyzed based on several examples.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MATERIALS AND METHODS**: scholars such as N. Baskakov, N. Davqarayev, Q. Ayimbetov, N. Japaqov, I. Sag'itov, Q. Maqsetov, S. Bahodirova, A. Paxratdinov, and others, who laid the foundation for Karakalpak folklore studies and made significant contributions to its development as a science, have expressed valuable insights into the "Cradle Song" in their research using various methods.

**DISCUSSION AND RESULTS**: among our people, it has been scientifically proven that the significance of cradle songs, created based on the improvisational skills of mothers or caregivers of children, is greatly influenced by the skill of the performer, the art of pouring poetry, and its results.

**CONCLUSION:**the purpose of cradle songs performed by the Karakalpak people, unlike other Turkic peoples, is not merely to calm and make the child sleep. It concludes that the significance of lullabies is immense in raising a child to be healthy, intelligent, intelligent, and kind to their homeland and parents.

**Key words**: Tradition, childrens folklore, lullaby, the purpose of the cradle, types of lullabies, technique.

**For citation**: Zulfiya S. Zaripova. (2025) The purpose of the "Cradle Song" in Karakalpak folklore and its types. Inter education & global study, vol.3 (11(1)), pp. 390-396.

**Q**araqalpaq balalar folklorınıń eń áyemgi janrlarınıń biri bul besik jırı bolıp tabıladı. Besik jırı jer júzindegi barlıq xalıqlardıń atadan-balaǵa ótip kiyatırǵan mádeniy miyrası sanaladı. Besik jırı balanı tınıshlandırıw hám uyqlatıw ushın aytılatuǵın lirikalıq qosıqtıń bir túri. Kópshilik jaǵdayda analar tárepinen atqarıladı. Ayırım jaǵdaylarda ájeleri, apaları yamasa bala tárbiyashıları tárepinen de atqarıladı. Besik jırı jińishke dawıs penen sozılıńqı tárizde belgili bir ritm menen «háyyiw» sózi qosıp aytıladı. Besik jırınıń atalıwı túrkiy xalıqlar arasında hár qıylı. Degen menen onıń atqaratuǵın xızmeti, mazmunı, kórkemlik qurılısı, muzıkası bir-birine oǵada jaqın. Qaraqalpaq folklortanıw iliminiń tiykarın salıwshı hám ilim sıpatında rawajlanıwına úlken úles qosqan alımlar N.Baskakov, N.Dáwqaraev, Q.Ayımbetov, N.Japaqov, I.Saǵitov, Q.Maqsetov, S.Baxadırova, Á.Paxratdinov h.t.b. alımlar óz izertlewlerinde «Besik jırı» boyınsha bahalı oy-pikirlerin bildirgen. Biraq búgingi kúnge shekem bul óz aldına izertlew obektine aylanǵan joq. Búgingi kúnimizde «Besik jırı»nıń izertleniw tariyxın, tipologiyasın, genezisin, poetikalıq qurılısın, tárbiyalıq áhmietin izertlew aldımızda turǵan aktual máselelerdiń biri.

Dúnya júzine belgili medicina ilimleriniń tiykarın salıwshı alım Ábu Ali Ibn Sino óziniń «Emlew iliminiń nızamları» atlı 5 tomnan ibarat miynetinde bala tárbiyasında háyyiwdiń áhmieti haqqında bılay jazadı: «Bóbektiń tilegin qanaatlandırıp, rawajlandırıw ushın oǵan eki nárseni qollanıw kerek. Birinshisi, besikke bólengen balanı áste shayqaw, ekinshisi onı uyqılatıw aldınan ádetke aylanǵan nama hám háyyiw aytıw. Usı eki nárseni qabıl qılıwına qaray balanıń denesi menen dene tárbiyaǵa hám ruwxı menen namaǵa bolǵan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qızıǵıwshılıǵı rawajlanadı» [1.180]. Joqarıda atap ótken Avicena yamasa Ábu Ali Ibn Sinonıń ómir súrgen dáwirleri X-XI ásirlerge tuwra keletuǵınlıǵın esapqa alsaq, demek «Besik jırı» bul alım jasaǵan dáwirlerden bir qansha ilgerirek payda bolǵan. Biziń pikirimizshe, adamzattıń sana-sezimi rawajlanıp baslaǵan dáwir, yaǵnıy átirapındaǵı janlı jansız zatlarǵa sıyınıw hám jaqsı-jamannıń parqına barıp baslaǵan dáwirlerinde payda bolǵan bolıwı kerek. Áyemgi adamlar toda bolıp jasawdan bas tartıp jup bolıp jasap baslawı, tuyǵınıń payda bolıwı, «meniki» degen túsiniktiń payda bolıwı menen dúnyaǵa kelgen perzentine de jıllı sezim payda bolǵan. Múmkin, ol ele besik jırı sıpatında qáliplespegen shıǵar. Múmkin, ol tek ıńıldap aytılǵan túsiniksiz ses bolǵan shıǵar. Biraq, sol dáwirdegi balanı tınıshlandırıw, uyqlatıw ushın ıńıldap aytılǵan ses sol dáwirdiń ózinde-aq belgili bir ritmge ie bolǵan hám bar mehir menen aytılǵanı anıq. Adamzattıń pikiriniń rawajlanıwı hám sóylew qábiletiniń qáliplesiwi menen olardıń tekstleri payda bola baslaǵan. Dúnyaǵa keltirgen násiline degen jıllı sezim besik jırınıń payda bolıwına alıp kelgen. Besik jırı arqalı bóbek tınıshlanǵan hám tatlı uyqıǵa ketken. Bul qosıqlar ásirler dawamında joǵalıp ketpegen, qayta jańalanıp kelgen. Sol tiykarında «Besik jırı» payda bolǵan bolıwı kerek degen boljaw eriksiz tuwıladı. Solay da, biz bul boljawdı ilimiy fakt sıpatında qabıl ete almaymız, bul tek shamalawlardan ibarat.

Qaraqalpaq xalqında aytılatuǵın besik jırlarınıń maqseti basqa da túrkiy xalıqları sıyaqlı balanı tek tınıshlandırıp, uyqlatıwdan ǵana ibarat emes. Balanıń keleshekte saw-salamat, aqıllı, ziyrek, tuwılǵan eline, ata-anasına miyrimli bolıp ósiwinde besik jırınıń áhmieti oǵada ullı. Besik jırınıń atqarılıw maqsetin biz tómendegishe bólip qaraǵanımız maqul:

1. Besik jırı yamasa háyyiw aytıw arqalı balanıń dıqqatın ózine qaratıw.
2. Jaǵımlı hawaz benen balanı tınıshlandırıw hám onıń esitiw hám tıńlaw qábiletin asırıw.
3. Háyyiw aytıw arqalı balanı ózin qorshaǵan dúnya menen óz xalqınıń milliyligi menen tanıstırıw.
4. Balanıń aqılıy hám fizikalıq jaqtan jaqsı ósip rawajlanıwına tásir jasaw.
5. Balanıń muzıkaǵa bolǵan qábiletin asırıw.
6. Balanı uyqlatıw.

Háyyiwler belgili bir ritmde áste sozılıńqı hawaz benen, besikke bólengen balanı terbetip otırıp atqarıladı. Ayırım jaǵdaylarda qolda yamasa ayaqta terbelgen halında bala uyqıǵa ketkenshe aytıladı. Háyyiwlerdiń dawamıylıǵı balanıń tereń uyqıǵa ketiwine hám ananıń yamasa atqarıwshınıń kewil kúyine, tókpe shayırlıǵına baylanıslı. Háyyiwlerdiń mazmunında analardıń perzentine bolǵan mehiri, keleshekte Ana Watanına, ata anasına, el xalqına ǵamxorshı, aqıllı, batır bolıp jetilisiwine degen tilegi jatadı.

*Háyyiw, háyyiw asıńnan,*
*Anań sıypar basıńnan,*
*Jaqsıdan úlgi al balam.*


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

*Er jigit bol jasıńnan,*
*Háyyiw, háyyiw háyyiw-ay[2. 457.].*

Qaraqalpaq xalqında qız balalar ushın arnalǵan háyyiw úlgileri de ushırasadı. Analar qızların kúnge, ayǵa, hasıl buyımlarǵa salıstırıw menen birge ádepli, iybeli qız bolıp ósiwin, keleshekte ómirden óz orının tawıp baxıtlı bolıwın tilep háyyiw aytadı.

*Aynalayın húr qızım,*
*Hinju-marjan, dúr qızım,*
*Tez arada úlkeyip,*
*Táy-táy, táy-táy júr qızım. [3.67.]*

Bul tilekler ápiwayı qosıq etip aytılǵan qatarlar emes, al perzentti ómir dawamında jaman illetlerden, jaman kózden, jaman joldan saqlaytuǵın káramatqa ie qatarlar bolıp tabıladı. Sebebi háyyiwlerde ananıń bar ıqlası menen aytqan tilegi bar.

Házirgi dáwir qaraqalpaq balalar folklorı boyınsha ilimiy izertlew jumısların alıp barǵan A.Qalenderovanıń izertlewinshe xalqımız arasında egizeklerge arnalǵan háyyiwler de ushırasadı eken. Avtor tárepinen 2014-jılı Xojeli rayonı 1-may kóshesinde jasawshı 1951-jılı tuwılǵan Joldasbay Áminovtan jazıp alınǵan egizeklerge arnalǵan háyyiw túrin kóriwimizge boladı.

*Háyyiw, háyyiw egizim,*
*Sizler menen jup kózim.*
*Háyyiw aytıp sizlerge,*
*Uyqlatayın men ózim.*

*Biriń –Quyash, biriń- Ay,*
*Inam etken bir quday,*
*Aldımızda erkelep,*
*Saw-salamat júriń-áy.*

*Qos besiktiń jırların,*
*Lázzetlenip tıńladım,*
*Uyqlaǵan soń egizim,*
*Bildim háyyiw sırların[4.67.].*

*Xalqımız arasında «Besik jırları»nıń turaqlı formaları kóplep ushırasadı.*

*Háyyiw, háyyiw appaǵım,*
*Qozı júnli qalpaǵım,*
*Jurt súymese súymesin,*
*Ózimniń súygen appaǵım[5.485.].* Bul háyyiwdiń turaqlı forması xalqımız arasında keń taralǵan. Kópshilik jaǵdayda jas analar dáslepki ana bolǵan dáwirlerinde bul formadan kóbirek paydalanadı. Waqıttıń ótiwi menen jaǵdayǵa qarap onıń izine ananıń ózi toqıǵan hár qıylı temadaǵı háyyiwler payda boladı. Sebebi háyyiwlerdiń turaqlı formalarınıń ırǵaq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hám uyqaslıǵı onı aytqan hár bir adamda jańa qatarlar payda etiwine jol ashıp beredi. Sonlıqtan da háyyiwler tematikalıq jaqtan oǵada bay.

Xalqımız arasında analardıń yamasa bala jubatıwshılarınıń inprovizatorlıq sheberligi tiykarında dóreletuǵın besik jırları kóplep ushırasadı. Bunda atqarıwshınıń sheberligi, tókpe shayırlıǵı úlken áhmietke ie. Olar balaǵa bolǵan tilegin, ármanların uyqastırıp, belgili ırǵaqqa salıp háyyiw sózin jalǵastırıp aytadı. Besik jırın tek analar ǵana emes, sol shańaraqtaǵı áje, ata, aǵa, ájapalar da aytadı. Olar da balaǵa jaqsı tilekler menen arzıw ármanların háyyiwlerge qosıp aytqan. Bul háyyiw úlgileriniń belgili bir qatarında bóbektiń anası emes al sol shańaraqtaǵı adamnıń balanı tınıshlandırıw háreketin kóriwimizge boladı.

Qaraqalpaq besik jırlarınıń mazmunı oǵada bay. Olardıń mazmunlıq ózgesheliklerine qaray bir neshe túrlerge bólip qarawǵa imkanımız bar.

1. Analardıń balanı uyqlatıw ushın aytatuǵın turaqlı háyyiwlerdiń formalarınan paydalanıwı.

2. Ana háyyiwdiń turaqlı formasınan baslaǵanı menen izinen óziniń ishki keshirmelerin háyyiw sıpatında ırǵaqqa salıp aytıwı. Bul háyyiw túrin óz ishinde ekige bólip qarasaq boladı. a) Ananıń emociyalıq jaǵdayında aytılǵan háyyiwler kútá muńlı, qayǵıǵa, kóz jaslarǵa tolı boladı. Háyyiwdiń bul túri alımlardıń izertlewi boyınsha analardıń psixikalıq sharshawın belgili dárejede jeńillestiredi.б) Ананың қуўанышы, сүйинишине толы ҳалатында айтылған ҳәййиўлер. Бул ҳәййиўлерде аналардың өмирге деген қуштарлығы, қуўанышы, бәри-бәри ҳәййиўге өз алдына интонация береди. Бул ҳәййиў түри анаға да, балаға да психикалық жақтан жүдә пайдалы ҳәййиў түри саналады.

3. Tilek háyyiwler. Bunda bala tezirek er jetip anasına, el xalqına paydası tiyiwi, elge belgili batırlarday, el aǵalarınday aqıllı, dáwletli bala bolıp jetilisiw tilegi bildiriledi. Bul háyyiw túrleri balaǵa berilip atırǵan dáslepki sabaq yamasa tapsırma sıpatında boladı. Bala sózlerdiń mánisin túsinbewi múmkin. Degen menen bala háyyiw arqalı óz ana tilin bilip baslaydı. Háyyiwler bala eki úsh jasqa shıqqansha yaǵnıy bala sóylep, júrip baslaǵanınsha aytıladı. Bul arada ana tárepinen aytılǵan tilek háyyiwler balanıń sanasına jayǵasıp úlgeredi.

4. Ananıń ornına úydegi úlken adamlardıń atqarǵan háyyiwleri. Háyyiwlerdiń bul túri de balaǵa degen jaqsı tileklerge, súyispenshilikke tolı boladı. Bul háyyiwlerdiń arasında anasınıń qayda ekenligin, hám onıń belgili bir jerde yamasa toyda ekenligi háyyiwlerge qosıp aytıw jaǵdayları ushırasadı. Bul háyyiw túri de oǵa da úlken áhmietke ie. Sebebi shańaraqta tuwılǵan hár bir perzent tek ǵana ananıń ǵana tárbiyasın alıp qoymastan úy ishindegi atadan baslap áje, áke, aǵa-apalardıń da tárbiyasın alıp ósndi.

Kópshilik túrkiy tilles hám evropa ellerindegi besik jırlarında hár qıylı haywanlardıń ushırasıwın kóriwimizge boladı. balanı uyqlatıw ushın erteklerdegi qasqır yamasa mástán kempir, ayıw sıyaqlı tulǵalardıń alıp ketetuǵınlıǵın aytıp qorqıtıp uyqlatıw túrleri ushırasadı.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Qaraqalpaq xalqı arasında bul bala besikten shıqqannan soń aqıl esin tanıp, anasınıń, ájesiniń, yaki apalarınıń qasında jatıp uyqlawdan bas tartıp, qıńırlıq etken jaǵdayda qollanıladı. Qaraqalpaqlarda kóbinese mástan kempir, tıshqan, babay, wawaw kiyatır degendey balalar tilinen alınǵan sózler menen balanı uyqlawǵa májbúrlew jolları kóplep ushırasadı.

Solay etip besik jırı hár bir xalıqtıń dúnyaǵa kózqarasın sáwlelendiredi. Sonıń menen birge, ananıń yamasa atqarıwshınıń jan dúnyasın sáwlelendiredi. Besik jırı jer júzindegi barlıq xalıqlardıń folklorında ushırasadı.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мақсетов Қ., Тәжимуратов А. Қарақалпақ фольклоры. –Нөкис: «Қарақалпақстан». 1979. – 180 б.
2. «Қарақалпақ фольклоры» 100- томлық , 100- том. – Нөкис: «Илим». 2015-ж. 457 б.
3. А.Қалендерова. Ҳәзирги дәўир қарақалпақ балалар фольклоры: жанр эволюциясы. Нөкис: «NUR TURAN PRINT» 2024-ж. 67-б.
4. Сонда : 67-б.
5. Қ.Айымбетов. Халық даналығы.-Нөкис:»Қарақалпақстан»,1988. -485-б.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zaripova Zulfiya Sarsenbaeva**, Ózbekistan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı “Kórkem ónertanıw” kafedrası oqıtıwshısı, Filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) [**Зарипова Зульфия Сарсенбаевна,** Преподаватель кафедры искусствоведения Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, [**Zulfiya S. Zaripova**, Lecturer of the Department of Art Studies of the Nukus Branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences; manzil: Qaraqalpaqstan, Nókis qalası Darmanlı kóshesi,34-uy [адрес: Каракалпакстан, ул. Дарменли, 34, г. Нукус], [address: Karakalpakstan, 34, Darmenli st., Nukus city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MUSIQIY ESHITUV VA NAZARIY TAFAKKUR SINTEZINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION METODLAR

© E. Ro‘ziyeva[1]✉

[1]Resplublika musiqa va san’at texnikumi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** ushbu maqolada musiqiy eshituv va nazariy tafakkurni uyg‘unlashtirilgan holda rivojlantirishning innovatsion pedagogik metodlari tahlil qilinadi. Solfedjo va musiqa nazariyasi fanlarining integratsiyalashgan o‘qitish modeli, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, eshituv va nazariy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda musiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda eshituvni rivojlantirishning zamonaviy usullari strukturaviy tinglash, lad-garmonik eshituv, ritmik modellarni farqlash, audio-diktantlar; nazariy tafakkurni rivojlantirishning interaktiv va tahliliy metodlari ilmiy asosda izohlangan. Maqola o‘quvchilar musiqiy kompetensiyasini oshirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

**MAQSAD**: maqolaning asosiy maqsadi — solfedjo va musiqa nazariyasi mashg‘ulotlarida eshituv va nazariy tafakkurni uyg‘unlashtirilgan holda rivojlantirishning samaradorligini aniqlash, raqamli texnologiyalar asosida musiqiy idrokni kuchaytirish va talabalarda mustaqil musiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llandi:

- Interaktiv metodlar: qayta tinglash, intonatsion farqlash, ritmik takrorlash
- Raqamli tinglash platformalari: musiqiy dikant audio-ilovalari, onlayn solfedjo dasturlari
- Integratsion yondashuv: solfedjo + nazariy tahlilning bir vaqtda qo‘llanilishi
- Eksperimental guruh va nazorat guruhlari taqqoslash metodi
- Analitik tahlil: lad-garmonik tuzilma, metroritmik birliklar, tembr farqlash, kadans yechimlari

Tadqiqot davomida 60 nafar musiqa yo‘nalishi talabasi ishtirok etdi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: o‘tkazilgan tajribaviy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, eshituv va nazariy tahlilni integratsiyalashgan holda olib borish o‘quvchilarning musiqiy idroki va nazariy fikrlash tezligini oshiradi. Ayniqsa:

- lad-garmonik modellarni tinglab farqlash ko‘nikmalari **62%** ga
- ritmik dikantlarni aniqlash **57%** ga
- tonallikni belgilash va modulatsion o‘tishlarni tushunish **70%** ga

oshgani kuzatildi.

Raqamli texnologiyalar yordamida takroriy tinglash va audiovizual tahlil mashqlari eshituv xotirasi va musiqiy tafakkur o‘rtasida mustahkam bog‘liqlikni shakllantirdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Talabalar musiqiy fakturani ajratish, akustik farqlarni aniqlash va garmonik yechimlarni izohlashda ancha faollashdi.

**XULOSA:** integrativ yondashuv solfedjo va musiqa nazariyasi mashg‘ulotlarida musiqiy eshituvni rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biridir. Eshituv va nazariy tahlilning o‘zaro uyg‘unligi musiqiy idrok, xotira, ritmik farqlash, lad-garmonik tuzilmani anglashi va ijodiy musiqiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi esa ta’lim jarayonini nafaqat interaktivlashtiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil tinglash va musiqiy tahlil kompetensiyasini shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** musiqiy eshituv, nazariy tafakkur, innovatsion metod, solfedjo, integrativ ta’lim, lad-garmoniya, ritm, musiqiy tahlil, raqamli texnologiya.

**Iqtibos uchun**: Ro‘ziyeva E. Musiqiy eshituv va nazariy tafakkur sintezini shakllantirishda innovatsion metodlar. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №11(1). B.397-402.

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИНТЕЗА МУЗЫКАЛЬНОГО СЛУХА И ТЕОРЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

© Э. Рузиева[1]✉
[1]Республиканский музыкально-искусствоведческий техникум, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье анализируются инновационные педагогические методы развития музыкального слуха и теоретического мышления в интегрированном формате. Освещены интеграционная модель обучения сольфеджио и музыкальной теории, применение цифровых технологий, взаимосвязь слуховой и теоретической подготовки, а также методические подходы, направленные на формирование музыкального мышления. В исследовании научно обоснованы современные методы развития слуха: структурное слушание, ладо-гармоническое восприятие, различение ритмических моделей, аудио-диктанты; а также интерактивные и аналитические методы развития теоретического мышления. Статья демонстрирует значимость инновационных подходов в процессе повышения музыкальной компетентности обучающихся.

**ЦЕЛЬ**: основная цель статьи — выявить эффективность развития музыкального слуха и теоретического мышления в интегрированном формате на занятиях по сольфеджио и музыкальной теории, усилить музыкальное восприятие на основе цифровых технологий и сформировать самостоятельные навыки музыкального анализа у студентов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования применялись следующие методы:

- **Интерактивные методы**: повторное слушание, интонационное различение, ритмическое воспроизведение

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- **Цифровые аудио-платформы**: приложения для музыкального диктанта, онлайн-программы по сольфеджио
- **Интеграционный подход**: одновременное применение сольфеджио и теоретического анализа
- **Метод сравнительного анализа** (экспериментальная и контрольная группы)
- **Аналитический метод**: ладо-гармоническая структура, метроритмические единицы, тембровое различение, кадансовые разрешения

В исследовании приняли участие 60 студентов музыкального направления.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: проведённые экспериментальные наблюдения показали, что интеграция слухового и теоретического анализа существенно повышает скорость музыкального восприятия и глубину аналитического мышления обучающихся. В частности:

- умение различать ладо-гармонические модели возросло на **62%**
- точность ритмического диктанта — на **57%**
- определение тональности и понимание модуляционных переходов — на **70%**

Повторное прослушивание и аудиовизуальные анализ-упражнения с использованием цифровых технологий способствовали укреплению связи между слуховой памятью и музыкальным мышлением. Студенты стали более активны в выделении музыкальной фактуры, определении акустических различий и объяснении гармонических решений.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: интеграционный подход является одним из наиболее эффективных методов развития музыкального слуха на занятиях по сольфеджио и музыкальной теории. Синтез слухового и аналитического восприятия способствует развитию музыкального восприятия, памяти, ритмического различения, понимания ладо-гармонической структуры и формированию творческого музыкального мышления. Применение цифровых технологий не только делает учебный процесс более интерактивным, но и формирует у обучающихся навыки самостоятельного слушания и музыкального анализа.

**Ключевые слова**: музыкальный слух, теоретическое мышление, инновационный метод, сольфеджио, интегративное обучение, ладо-гармония, ритм, музыкальный анализ, цифровая технология.

**Для цитирования**: Рузиева Э. Инновационные методы формирования синтеза музыкального слуха и теоретического мышления. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №11(1). С. 397-402.

## INNOVATIVE METHODS OF FORMING THE SYNTHESIS OF MUSICAL HEARING AND THEORETICAL THINKING

© E'zoza Ro'ziyeva [1]✉
[1]Republican College of Music and Arts, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION**: this article analyzes innovative pedagogical methods aimed at developing musical hearing and theoretical thinking within an integrated educational format. The integrated instruction model of solfeggio and music theory, the use of digital technologies, the correlation between auditory and theoretical competencies, as well as methodological approaches contributing to the formation of musical thinking are examined. The study scientifically explains modern methods of ear-training development, including structural listening, mode–harmonic perception, rhythmic pattern differentiation, and audio dictations, along with interactive and analytical strategies for developing theoretical cognition. The article highlights the importance of innovative approaches in enhancing students' overall musical competence.

**AIM:** the main aim of the article is to determine the effectiveness of developing musical hearing and theoretical thinking through an integrated solfeggio and music theory approach, to strengthen musical perception through digital technologies, and to form independent skills of musical analysis in students.

**MATERIALS AND METHODS**: the following methods were applied in the research:

- **Interactive methods:** repeated listening, intonational differentiation, rhythmic reproduction
- **Digital listening platforms:** solfeggio online software, musical dictation applications
- **Integrative approach:** simultaneous application of solfeggio and theoretical analysis
- **Comparative assessment method** (experimental and control groups)
- **Analytical evaluation:** mode–harmonic structure, metrorhythmic units, timbral differentiation, cadential resolutions

A total of 60 music major students participated in the study.

**DISCUSSION AND RESULTS**: experimental observations showed that integrating auditory and theoretical analysis significantly improves the speed and depth of musical perception and theoretical cognition. In particular:

- recognition of mode–harmonic models improved by **62%**
- accuracy in rhythmic dictation increased by **57%**
- identifying tonality and understanding modulation transitions improved by **70%**

Through digital technologies, repeated listening and audiovisual analytical exercises strengthened the interconnection between auditory memory and musical thinking. Students demonstrated increased activity in distinguishing musical texture, detecting acoustic differences, and interpreting harmonic progressions.

**CONCLUSION:** the integrative approach is one of the most effective methods of developing musical hearing in solfeggio and music theory training. The synthesis of auditory and analytical perception contributes significantly to musical cognition, memory, rhythmic differentiation, understanding of mode–harmonic structures, and the formation of creative musical thinking. The implementation of digital technologies not only enhances

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

interactivity in the learning process but also cultivates independent listening and analytical competencies in students.

**Keywords**: musical hearing, theoretical thinking, innovative method, solfeggio, integrative education, mode–harmony, rhythm, musical analysis, digital technology.

**For citation**: E'zoza Ro'ziyeva. (2025) 'Innovative methods of forming the synthesis of musical hearing and theoretical thinking', Inter education & global study, vol.3 (11(1)), pp. 397-402. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda musiqa ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda musiqiy eshituv va nazariy tafakkur kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishdir. Musiqa san'ati tobora murakkablashib borayotgan sharoitda nafaqat eshituv idroki, balki musiqani ongli ravishda tushunish, tahlil qilish, musiqiy strukturani anglash, lad-garmonik fikrlash kabi malakalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun musiqiy eshituv va nazariy tafakkurni bir butun tizimda shakllantirish innovatsion pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda musiqa san'ati ta'limida dolzarbigi bilan ajralib turadigan masalalar talaygindir. Shulardan: musiqiy eshituv va nazariy tafakkurning musiqiy ta'limdagi o'rni, integrativ o'qitish modeli: solfedjo va nazariya fanlarining uyg'unligi hamda raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalarning roli kabi mavzularni alohida aytib o'tishimiz mumkin.

***Musiqiy eshituv*** - bu musiqiy tovushlar balandligi, davomiyligi, tembri va dinamikasini ajrata olish hamda ularni musiqiy tizim sifatida qabul qilish qobiliyatidir. Nazariy tafakkur esa musiqiy hodisalarni ongli ravishda idrok qilish, lad-garmonik tizimni tahlil qilish, shakl, ritm va faktura kabi tushunchalarni anglay olish jarayonidir. Mazkur ikki kompetensiya bir-birini to'ldirib, o'quvchida integral musiqiy fikrlashni shakllantiradi. Qolaversa bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq etaoladigan ko'nikma hosil bo'ladi.

Bugungi ta'lim jarayonida eshituvni rivojlantirish faqat diktant yozish yoki intervalni eshitib aniqlash bilan cheklanmaydi. Amaliyotda quyidagi metodlar keng qo'llanilmoqda:

- ✓ **Asarni shakl va qismlarini (strukturaviy) ajarata oladigan eshituv:** musiqiy shaklni quloq orqali ajratish (fraza, period, bo'limlar).
- ✓ **Lad-garmonik eshituv:** tonika, dominanta, subdominanta markazlarining eshituvdagi funksional ajralishi.
- ✓ **Ritm modellarini eshituv asosida farqlash:** murakkab o'lchovlar, milliy usullarni eshitish.
- ✓ **Kuy (melodik) tuzulma (kontur)larning eshituv tahlili:** ohangning umumiy yo'nalishini quloq bilan kuzatish.
- ✓ **Audio-diktantlar:** elektron platformalar orqali turli murakkablikdagi diktantlar.

Nazariy bilimlar o'quvchi ongida musiqaning mantiqiy tuzilishini shakllantiradi. Bugungi kunda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

**Muammoli ta'lim:** o'quvchiga musiqiy hodisa mohiyatini o'zi topishga imkon yaratish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Tahliliy fikrlashni rivojlantirish:** musiqani shakl, lad, ritm, faktura bo‘yicha tahlil qilish.
**Interaktiv mashqlar:** nazariy materialni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar.
**Maqom va milliy kuylar asosida tahlil:** o‘zbek musiqa merosini nazariy o‘rganish.
Eshituv va nazariy tafakkur sintezining pedagogik asoslari ***integratsiya, uzviylik, bosqichma-bosqich*** hamda ***faollashtirish tamoyillari*** sintezi ustiga quriladi. Solfedjo va musiqa nazariya fanlari uyg‘unligi asosida integrativ o‘qitish modeli.

- interval va akkordlarni eshituv + nazariya asosida o‘rgatish;
- lad va modulatsiyalarni amaliy kuylash orqali mustahkamlash;
- ritmik formulalarni nazariy tahlil + ritmik diktant bilan uyg‘unlashtirish;
- shaklni eshitib aniqlash, bunday sintez “integrativ ta’lim modeli” deb yuritiladi.

Musiqiy eshituv va nazariy tafakkur sintezi bugungi musiqa ta’limining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar o‘quvchilarning musiqiy kompetensiyasini oshiradi, ularda musiqani tinglash, tushunish, tahlil qilish va ijro etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Solfedjo va musiqa nazariyasi fanlarining uzviy integratsiyasi esa kollej bosqichida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva O. Solfedjio. – T.: “Yangi nashr”, 2012.
2. Agajanov A. Kurs solfedjio. 1, 2. M., 1971, 1973.
3. Azimova A., Bahtiyorova N. Solfedjio 1-sinf. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2016.
4. Azimova A., Badelova Z. Solfedjio 4-sinf. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2016.
5. Azimova A., Turg‘unboeva M. Solfedjio 5-sinf. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2016.
6. Akbarov I. Musiqa savodi darsligini o‘qitish metodikasi. T., 1963.
7. Matyoqubova S.Q. Maqom solfedjiosi” I-II qismlari. T.:“Musiqa”, 2013, 2015.
8. Radjabova N.F. Solfedjio. 2-nashri. T., 2004.
9. Solfedjio. Bolalar musiqa va san’at maktablari I, II, III, IV, V sinflari uchun. T., 2016.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**E’zoza Ro‘ziyeva,** Respublika musiqa va san’at texnikumi “Musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi, **[Рўзиева Эъзоза**, преподаватель кафедры «Теория музыки» Республиканского музыкального и художественного техникума], **[E’zoza Ro‘ziyeva**, Lecturer, “Music Theory” Department, Republican Music and Art Technical School];
manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Shahrisabz ko‘chasi, 18-uy [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, ул. Шахрисабз, 18], [address: Uzbekistan, 18 Shakhrisabz St., Tashkent city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Original paper

# MAKTAB PSIXOLOGI IMIJI VA KASBIY FAOLIYATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

© I.A . Teshaboyev[1]✉

[1] Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maktab psixologi o‘quvchilarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, ziddiyatli vaziyatlarda yordam berish va ta’lim muhitida qulay psixologik iqlimni ta’minlashda muhim figura hisoblanadi. Ularning ijtimoiy-psixologik imiji psixologik xizmatning samaradorligi va maktab jamoatchiligi ishonchi bilan bevosita bog‘liqdir.

**MAQSAD:** maktab psixologining imiji va kasbiy faoliyati haqida turli respondent guruhlarining ijtimoiy tasavvurlarini aniqlash hamda psixologik xizmatning ahamiyati va samaradorligini baholashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi psixologlar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar (N>400) ishtirokida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma va yarim strukturalashtirilgan suhbatlar qo‘llanildi. Maxsus tuzilgan so‘rovnoma psixolog imiji komponentlari, kasbiy funksiyalar, kompetensiyalar va ijtimoiy umidlarni qamrab oldi; ma’lumotlar tavsifiy va qiyosiy tahlil asosida qayta ishlanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalarga ko‘ra, barcha respondent guruhlari psixologik xizmatni asosan maslahat berish funksiyasi bilan bog‘laydi va uni maktab hayotida muhim deb baholaydi, biroq psixoprofilaktika va korreksiya faoliyati kamroq tan olinadi. Psixologlarning muloqotchanlik, empatiya, bilimdonlik va emotsional barqarorligi yuqori baholangan, shunga qaramay, ayrim o‘quvchi va ota-onalar orasida psixolog rolini past baholash va axborot yetishmasligi qayd etiladi.

**XULOSA:** Tadqiqot maktab psixologlarining umumiy imiji ijobiy ekanini, ammo ularni tanitish, faoliyat mazmuni haqida ma’lumotni kengaytirish va maktab jamoasi bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Psixologlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ va kollaborativ strategiyalarni takomillashtirish ularning imiji va psixologik xizmat samaradorligini yanada oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** maktab psixologi; imij; kasbiy faoliyat; ijtimoiy-psixologik tadqiqot; psixologik xizmat; ta’lim tizimi.

**Iqtibos uchun**: Teshaboyev I.A. Maktab psixologi imiji va kasbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №11(1). B.403-414.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИМИДЖА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНОГО ПСИХОЛОГА

© И.А. Тешабоев[1]✉
[1] Центр педагогического мастерства Ферганской области, Фергана, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** школьный психолог играет ключевую роль в обеспечении психологического благополучия учащихся, профилактике конфликтов и поддержании благоприятного образовательного климата. Его социально-психологический имидж тесно связан с уровнем доверия к психологической службе и готовностью участников образовательного процесса обращаться за помощью.

**ЦЕЛЬ:** Цель исследования – выявить социальные представления различных групп респондентов об имидже и профессиональной деятельности школьного психолога, а также оценить значимость и эффективность психологической службы в школе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** исследование проводилось в общеобразовательных школах с участием психологов, педагогов, учащихся и родителей (N>400) с применением социо-психологического анкетирования и полуструктурированного интервью. Специально разработанная анкета охватывала компоненты имиджа психолога, представления о его ролях и функциях, профессиональных компетенциях и социальных ожиданиях; данные подвергались описательному и сравнительному анализу.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что большинство респондентов связывают деятельность школьного психолога прежде всего с консультативной функцией и считают психологическую службу важным элементом школьной жизни, тогда как профилактика и коррекция менее осознаются. Высоко оцениваются коммуникативность, эмпатия, компетентность и эмоциональная стабильность психологов, однако часть учащихся и родителей занижает роль специалиста, что связано с недостаточной информированностью о его работе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Исследование показало в целом позитивный имидж школьных психологов, но выявило необходимость усиления информационно-просветительской работы и развития взаимодействия с педагогами, учащимися и родителями. Поддержка профессионального развития психологов и совершенствование коммуникативных и коллаборативных стратегий способствуют укреплению их имиджа и эффективности психологической службы.

**Ключевые слова:** школьный психолог; имидж; профессиональная деятельность; социально-психологическое исследование; психологическая служба; система образования.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**Для цитирования**: Тешабоев. И.А. Социально-психологические аспекты имиджа и профессиональной деятельности школьного психолога.// Inter education & global study.2025. Vol.3. №11(1). С. 403-414.

# SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMAGE AND PROFESSIONAL ACTIVITY OF A SCHOOL PSYCHOLOGIST

©Inomjon.A. Teshaboyev[1]✉
[1]The Center of Pedagogical Excellence of the Fergana region, Fergana, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** school psychologists play a crucial role in supporting students' mental well-being, resolving educational difficulties and maintaining a healthy psychological climate in schools. Their socio-psychological image is closely linked to the level of trust in psychological services and the willingness of educational stakeholders to seek help.

**AIM:** the aim of the study is to explore how different respondent groups perceive the image and professional activity of school psychologists and to assess the perceived importance and effectiveness of psychological services in schools.

**MATERIALS AND METHODS:** the research was conducted in general education schools with the participation of psychologists, teachers, students and parents (N>400), using socio-psychological questionnaires and semi-structured interviews. A specially designed questionnaire covered components of the psychologist's image, perceived roles and functions, professional competencies and social expectations; the data were processed using descriptive and comparative analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results show that most respondents primarily associate school psychologists with counseling and regard psychological services as important, while prevention and correction work are less clearly recognized. Communicativeness, empathy, expertise and emotional stability of psychologists are rated highly, yet some students and parents underestimate the psychologist's role, which appears to be related to limited awareness of the scope of their work.

**CONCLUSION:** Overall, the image of school psychologists is positive, but the findings indicate a need to strengthen communication, outreach and collaboration with teachers, students and parents. Supporting psychologists' professional development and improving communicative and collaborative strategies can further enhance their public image and the effectiveness of school psychological services.

**Keywords:** school psychologist; image; professional activity; socio-psychological research; psychological service; education system.

**For citation**: Inomjon.A. Teshaboyev. (2025) 'Socio-psychological aspects of the image and professional activity of a school psychologist', Inter education & global study, Vol.3. (11(1)), pp. 403-414. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

**M**aktab psixologlari jamiyatda o‘quvchilarning psixologik holati, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va ularning ijtimoiy hamda ma’naviy rivojlanishiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi[1]. Ular turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘zini tuta bilish qobiliyatlari va kasbiy faoliyatlari orqali o‘quvchilarning muammolarini yechishga yordam beradi[2]. Shuningdek, maktab psixologlarining ijtimoiy psixologik imiji ham ularning samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot maktab psixologlarining imiji va kasbiy faoliyatini ijtimoiy psixologik jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida maktab psixologlarining faoliyati, kasbiy bilim va mahoratlari, individual psixologik xususiyatlari va maktab jamoatchiligi orasidagi imijlari tahlil qilindi. Bu tadqiqot orqali maktab psixologlarining o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi, ularning kasbiy rivojlanishga bo‘lgan intilishlari va ularning ish samaradorligi baholandi.

Ushbu tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan maktab psixologlarining imiji va kasbiy faoliyati haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot davomida ma’lumotlar asosan sotsial-psixologik so‘rovnoma, yarim strukturalashtirilgan suhbat va kontent tahlili metodlari yordamida to‘plandi. Respondentlar sifatida maktab psixologlari, pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar jalb etildi. Tanlov tasodifiy-klaster tamoyili asosida shakllantirilib, umumiy respondentlar soni statistik ishonchlilikni ta’minlash uchun yetarli bo‘lgan miqdorda 400 nafardan yuqori ishtirokchini qamrab oldi.

Tadqiqotda asosiy material sifatida maxsus ishlab chiqilgan “Maktab psixologi imiji va kasbiy faoliyati haqidagi ijtimoiy tasavvurlar” nomli diagnostik so‘rovnoma qo‘llanildi. Ushbu so‘rovnoma to‘rt blokdan iborat: psixologning imij komponentlari (tashqi ko‘rinish, nutq madaniyati, muloqot uslubi va ishonchlilik), kasbiy rol va funksiyalar haqidagi tasavvurlar (diagnostika, maslahat, profilaktika, reabilitatsiya), kasbiy kompetensiyalar (psixologik bilim, metodik savodxonlik, etik me’yorlarga rioya qilish) hamda pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalarning psixologdan kutgan ijtimoiy umidlari. Shuningdek, ochiq savollar respondentlarning subyektiv fikrlarini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi[3].

So‘rovnomaga qo‘shimcha ravishda yarim strukturalashtirilgan suhbat usuli qo‘llanilib, maktab psixologlarining professional imijini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha chuqurlashtirilgan ma’lumotlar yig‘ildi.

Tadqiqotning barcha bosqichlarida etik me’yorlarga qat’iy rioya qilindi, respondentlarga ma’lumotlarning maxfiyligi kafolatlandi va ularning ixtiyoriy ishtirok etishlari haqida rozilik shakllari taqdim etildi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy psixologik so‘rovnoma orqali yig‘ilgan ma’lumotlar asosida maktab psixologlarining imiji va kasbiy faoliyati haqidagi tasavvurlar o‘rganiladi[4]. Bu tadqiqot natijalari maktab psixologlarining kasbiy faoliyatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

1-jadval

Respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnomaning demografik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

ma’lumotlari (N=400)

| № | Respondentlarning toifalari | Jinsi | | Yoshi (o‘rtacha) |
|---|---|---|---|---|
| | | Erkak (%) | Ayol (%) | |
| 1 | Maktab psixologlari (n=100) | 28 | 72 | 36 |
| 2 | O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati (n=100) | 39 | 61 | 34 |
| 3 | O‘quvchilar (n=100) | 46 | 54 | 16 |
| 4 | Ota-onalar (n=100) | 34 | 66 | 39 |

So‘rovnomada qatnashganlar orasida ayollar soni ko‘proq bo‘lgan. Bu natijalar maktablarda o‘tkaziladigan so‘rovlarda qiz bolalar va onalar faolroq ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

Yosh bo‘yicha natijalar turli guruhlarda teng taqsimlangan bo‘lib, barcha yosh toifalarining fikrlari hisobga olingan.

2-jadval

Maktab psixologining asosiy vazifalari nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

| № | Respondentlarning toifalari | Psixologik maslahat berish (%) | Psixologik tashxis qo‘yish (%) | Psixoprofilak-tika ishlari (%) | Psixologik korreksiya (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maktab psixologlari | 34,1 | 25,5 | 21,3 | 19,1 |
| 2 | O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati | 52,3 | 27,2 | 10,3 | 10,2 |
| 3 | O‘quvchilar | 58,5 | 24,2 | 8,2 | 9,1 |
| 4 | Ota-onalar | 51,3 | 11,3 | 15,6 | 21,8 |

Maktab psixologlari o‘z vazifalarining katta qismini psixologik maslahat berishga qaratadilar (34,1%). Bu ularning rolining asosiy qismi o‘quvchilarga va boshqa manfaatdor tomonlarga maslahatlar berishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Ular uchun psixologik tashxis qo‘yish ham muhim (25,5%). Bu ularning professional vazifalarining yana bir muhim qismi bo‘lib, o‘quvchilarning ruhiy holatini aniqlashda yordam beradi. Psixoprofilaktika ishlari ularning faoliyatining 21,3% ni tashkil etadi, bu esa o‘quvchilarning ruhiy salomatligini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Psixologik korreksiya ishlar ham ularning faoliyatining muhim qismini tashkil etadi (19.1%), bu esa o‘quvchilarga ko‘maklashish va ularning ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan.

O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati psixologik maslahat berishni muhim deb hisoblaydilar (52,3%). Bu ularning psixologlar bilan maslahatlashishga bo‘lgan ehtiyojini


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

ko‘rsatadi. Ular uchun tashxis qo‘yish ham muhim (27,2%). Bu ularning o‘quvchilarning muammolarini aniqlashda psixologlarning yordamidan foydalanish istagini ko‘rsatadi.

O‘quvchilar psixologik maslahatga yuqori ehtiyoj sezadilar, bu esa ularning o‘z muammolarini hal qilish uchun maslahatlarga muhtojligini ko‘rsatadi (58,5%). Tashxis qo‘yish ham ular uchun muhim (24,2%), chunki bu ularning ruhiy holatini tushunishga yordam beradi.

Ota-onalar uchun ham maslahat berish eng muhimidir (51,3%), bu esa ularning farzandlari bilan bog‘liq muammolarda psixologlarning maslahatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ular uchun psixologik tashxis va psixoprofilaktika qo‘yish nisbatan kamroq ahamiyatga ega (11,3%).

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turli toifadagi respondentlar turli xil psixologik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini turlicha baholaydilar. O‘quvchilar va ota-onalar psixologik maslahat berishni eng muhim deb hisoblasalar, maktab psixologlari va o‘qituvchilar psixologik tashxis qo‘yishga ko‘proq ahamiyat beradilar. Psixoprofilaktika ishlari barcha guruhlar uchun unchalik muhim emas, ammo psixologik korreksiya ishlari ota-onalar va maktab psixologlari uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur ma’lumotlar respondentlarning xabardorlik darajasiga bog‘liq ekanligini ham taxmin qilish mumkin.

Maktab psixologining asosiy vazifasi psixologik maslahat berish deb hisoblanmoqda, bu psixologik maslahat berishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

3-jadval

Maktab psixologining faoliyati siz uchun qanchalik muhim?

| № | Respondentlarning toifalari | Juda muhim (%) | Muhim (%) | Unchalik muhim emas (%) | Muhim emas (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maktab psixologlari | 56,1 | 32,3 | 8,4 | 3,2 |
| 2 | O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati | 34,6 | 45,5 | 16,3 | 3,6 |
| 3 | O‘quvchilar | 27,4 | 36,1 | 26,7 | 9,8 |
| 4 | Ota-onalar | 33,3 | 41,8 | 17,6 | 7,3 |

Maktab psixologlarining 88,4% (56,1% juda muhim va 32,3% muhim) psixologik xizmatlarni muhim deb hisoblaydi. Bu maktab psixologlarining o‘z vazifalarini jiddiy deb hisoblashlarini va kasblarining oilaviy, ijtimoiy va kasbiy hayotdagi ahamiyatini yuqori baholashini ko‘rsatadi.

O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati vakillari ham psixologik xizmat muhimligiga ishonishadi (79,1%: 34,6% juda muhim va 45,5% muhim) va psixologik yordamni ta’lim jarayonida muhim deb hisoblashadi.

O‘quvchilarning 63,5% (27,4% juda muhim va 36,1% muhim) psixologik xizmatni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

muhim deb hisoblashadi. Bu ularning ruhiy salomatlikka e'tibor qaratishini va psixologik yordamga muhtojligini ko'rsatadi.

Ota-onalarning 75,1% (33,3% juda muhim va 41,8% muhim) psixologik xizmatlarni muhim deb hisoblaydi. Bu ota-onalarning farzandlarining ruhiy salomatligiga e'tibor qaratishini va psixologik xizmatlarning ahamiyatini tan olishlarini ko'rsatadi.

Barcha respondent toifalarda ham psixologik xizmatga katta ahamiyat beriladi. Maktab psixologlari, o'qituvchilar va ma'muriyat bu xizmatlarning muhimligini tan olishadi, shuningdek, o'quvchilar va ota-onalar ham ularning farzandlariga yordam berishda muhim deb hisoblashadi. Bu psixologik xizmatning maktab va oila hayotidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Maktab psixologi faoliyatining ahamiyati haqidagi baholar umumiy holda yuqori, lekin o'quvchilar orasida unchalik muhim emas deb hisoblovchilar nisbatan ko'proq. Bu psixologning faoliyati haqidagi ma'lumotlar yetarli emasligi yoki o'quvchilarning bu faoliyatdan xabardor emasliklarini ko'rsatishi mumkin.

4-jadval

Maktab psixologi quyidagi xususiyatlarga qanchalik ega deb hisoblaysiz?

| | Respondentlarning toifalari | Muloqotchanlik | Emotsional barqarorlik | Empatiya va hamdardlik | Bilimdonlik |
|---|---|---|---|---|---|
| | Maktab psixologlari | 4,2 | 3,8 | 4,1 | 4,4 |
| | O'qituvchilar va maktab ma'muriyati | 4,2 | 4,0 | 4,3 | 4,1 |
| | O'quvchilar | 3,8 | 3,6 | 4,2 | 3,2 |
| | Ota-onalar | 4,4 | 3,9 | 4,1 | 4,0 |

Maktab psixologlari muloqotchanlik ularning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi deb hisoblashadi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, maktab psixologlari 4.2 ball bilan yuqori darajada muloqot qilish qobiliyatiga ustuvorlik berishgan. Ular, shuningdek, emotsional barqarorlik (3.8 ball), empatiya va hamdardlik (4.1 ball) hamda bilimdonlik (4.4 ball) xususiyatlariga ham urg'u qaratishib, bu xususiyatlar ularning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi deb hisoblashadi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchilar maktab psixologlarini 3.8 ball bilan o'rtacha darajada muloqot qilish qobiliyatiga ega deb hisoblashgan. Bu ularning psixologlar bilan muloqotdagi tajribalariga asoslangan. O'quvchilar psixologlarning emotsional barqarorligini o'rtacha darajada va empatiya va hamdardlik qobiliyatini yuqori baholashgan. Bu maktab psixologlarning ularning his-tuyg'ularini yaxshi tushuna olish qobiliyatiga nisbatan yuqori fikrda ekanligini ko'rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Ota-onalar maktab psixologlarining muloqotchanlik qobiliyatini yuqori baholashgan.

Umuman olganda, jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, turli guruhlar maktab psixologlarining kasbiy xususiyatlarini yuqori baholagan. Bu ularning kasbiy faoliyati samaradorligini va ularning o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan muloqot qilish qobiliyatini tasdiqlaydi.

5-jadval

Maktab amaliyotchi psixologi maktabda qanday rol o‘ynaydi deb o‘ylaysiz?

| № | Respondentlarning toifalari | Muhim (%) | Qo‘shimcha (%) | Unchalik muhim emas (%) | Ahamiyatsiz (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maktab psixologlari | 74,4 | 22,6 | 3 | - |
| 2 | O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati | 52,2 | 27,9 | 14,4 | 5,5 |
| 3 | O‘quvchilar | 43,6 | 36,1 | 15,5 | 4,8 |
| 4 | Ota-onalar | 48,2 | 26,9 | 14,3 | 10,6 |

Jadvaldagi ma’lumotlarga asoslanib, maktab psixologlarining maktabdagi roli turli manfaatdor tomonlar tomonidan turlicha baholanganini ko‘rish mumkin. Bu turlicha baholar psixologlarning ish faoliyatiga bo‘lgan turli xil qarashlar va tajribalarga asoslangan. Buni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak:

Maktab psixologlari o‘z faoliyatini juda muhim deb baholashadi, chunki ularning ishi o‘quvchilarning psixik salomatligi va maktabdagi umumiy muhitga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati psixologlarning rolini muhim va qo‘shimcha muhim deb baholaydilar. Bu psixologlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini e’tirof etadi. Ammo, ularning bir qismi psixologlarning roli unchalik muhim emas yoki ahamiyatsiz deb hisoblaydi, bu esa psixologlar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni yaxshilash zaruriyatini ko‘rsatadi. Bunday qarashlar o‘qituvchilarning psixologlarning faoliyati va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri haqida yetarli ma’lumotga ega emasliklarini ko‘rsatishi mumkin.

O‘quvchilar psixologlarning rolini muhim deb baholaydilar, chunki ular psixologlardan qo‘llab-quvvatlash va maslahat olishadi. Biroq, ba’zi o‘quvchilar psixologlarning roli unchalik muhim emas yoki ahamiyatsiz deb hisoblashadi. Bu psixologlar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash va psixologlarning ishi haqida ko‘proq ma’lumot berish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Ota-onalar ham psixologlarning rolini muhim deb baholaydilar, chunki ular


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

psixologlarning bolalarining ta’limi va rivojlanishiga yordam berishini e’tirof etadilar. Biroq, ba’zi ota-onalar psixologlarning roli unchalik muhim emas yoki ahamiyatsiz deb hisoblashlari mumkin. Bu esa psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Ota-onalarning psixologlarga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun ularga psixologlarning vazifalari va faoliyati haqida ko‘proq ma’lumot berish kerak.

Jadvaldagi ma’lumotlar maktab psixologlarining maktabdagi roliga bo‘lgan turli xil qarashlar va baholarni ko‘rsatadi. Psixologlar o‘z rolini juda muhim deb baholasalar, boshqa manfaatdor tomonlar ham ularning ishini yuqori baholashadi. Biroq, hamkorlik va muloqotni yaxshilash zaruriyati mavjud.

6-jadval

Maktab psixologining jamoatchilikdagi imiji qanday asoslarga tayanadi deb o‘ylaysiz?

| № | Respondentlarning toifalari | Shaxsiy tajriba (%) | Do‘stlar va tanishlarning fikrlari (%) | Ommaviy axborot vositalari (%) | Maktabning ichki axborotlari (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maktab psixologlari | 49,8 | 19,7 | 17,3 | 13,2 |
| 2 | O‘qituvchilar va maktab ma’muriyati | 45,5 | 14,9 | 28,7 | 10,9 |
| 3 | O‘quvchilar | 51,2 | 14,4 | 21,2 | 13,2 |
| 4 | Ota-onalar | 35,3 | 15,6 | 35,4 | 13,7 |

Maktab psixologlari o‘zlarining imijlari haqidagi tasavvurlarining asosiy manbasi shaxsiy tajribaga tayanadi. Bu ularning o‘z ishlari va amalga oshirgan faoliyatlari haqida o‘zlari hosil qilgan fikrlarni ko‘rsatadi. Bir qismi do‘stlar va tanishlarning fikrlariga ham asoslanadi. Bu ularning o‘z atrofidagi insonlarning psixologlar haqidagi fikrlariga qanchalik e’tibor qaratishini ko‘rsatadi. Imij haqidagi tasavvurlarda ommaviy axborot vositalari ham muhim manba hisoblanadi. Bu psixologlar haqidagi axborotlarning OAV orqali tarqalishini ko‘rsatadi. Maktabning ichki axborotlari kamroq ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar va ma’muriyatning maktab psixologlari imiji haqidagi tasavvurlari asosan shaxsiy tajribalarga tayanadi. Bu ularning psixologlar bilan o‘zlari muloqotda bo‘lganini va bu tajribalarning muhimligini ko‘rsatadi. OAV ham muhim manba bo‘lib, psixologlar haqidagi axborotlarning tarqalishida katta rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarning psixologlar imiji haqidagi tasavvurlari ham asosan shaxsiy tajribalarga tayanadi. Bu ularning psixologlar bilan bo‘lgan muloqotlari va tajribalariga asoslangan. Respondentlarning bir qismi do‘stlar va tanishlarning fikrlariga asoslanadi. Shuningdek OAV orqali tarqalgan axborotlar ham o‘quvchilarning tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, Vol.3.

Ota-onalarning psixolog imiji haqidagi tasavvurlari ham ayni, ya’ni shaxsiy tajribalarga tayanadi. Bu ularning farzandlari orqali psixologlar bilan bo‘lgan muloqotlariga asoslangan. Ular OAV ham muhim manba hisoblanadi.

Jadvaldagi ma’lumotlar maktab psixologi imiji haqidagi tasavvurlarning turli manbaalarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Maktab psixologlari imiji haqidagi fikrlar asosan shaxsiy tajribalarga tayansa-da, do‘stlar va tanishlar, ommaviy axborot vositalari va maktabning ichki axborotlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday turli xil manbaalar psixologlarning jamoatchilikdagi imiji va ular haqidagi umumiy tasavvurlarning shakllanishida katta ahamiyatga ega.

7-jadval

